

NAFAS SHODMONOV

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi

Birinchi qism

(Eng qadimgi davrlardan XIV asr boshigacha)

O‘quv qo‘llanma

Ushbu o'quv qo'llanmada o'zbek mumtoz adabiyoti tarixining eng qadimgi adabiy yodgorliklardan XIV asr boshlarigacha bo'lgan davri ilmiy asosda yoritilgan. Unda o'zbek adabiyotini davrlashtirish va adabiy merosni milliy mafkura asosida o'rganish tamoyillari ishlab chiqilgan. Shuningdek, qadimgi adabiy osori atiqalar badiiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qilgani nuqtai nazaridan tavsiflangan. Turkiy adabiyotning dastlabki durdonalari o'zbek xalqining noyob ma'naviy boyligi sifatida talqin qilingan.

Qo'llanmadan filologiya fakultetlarining talabalari, adabiyot fani o'qituvchilari va ma'naviyat xodimlari foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir

Nurboy Jabborov, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar

N.Jabborov, filologiya fanlari doktori, professor

B.Yo'ldoshev, filologiya fanlari doktori, professor

SO‘ZBOSHI

O‘zbek adabiyotining uzoq tarixini o‘rganish uning shakllanishi va taraqqiyoti omillarini chuqur hamda atroflicha tasavvur qilish imkonini berishi bilan birga hozirgi avlodlar tafakkurida milliy o‘zlikni anglash, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini yuksaltirish, ma’naviy olamlarini boyitishda ham mislsiz darajada katta ahamiyat kasb etadi. Bu maqsadda mamlakatimizda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz asarlarida ularning g‘oyaviy, mafkuraviy va metodologik asoslari o‘z ifodasini topmoqda. Jumladan, Sh.M.Mirziyoyevning “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor-bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning also haqqimiz yo‘q”¹, degan so‘zlari bu boradagi harakatlarning tub mohiyatini ifodalaydi.

O‘zbek adabiyoti tarixi fanidan darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish borasida katta tajriba to‘plangan. N.Mallayev, V.Abdullayev va G‘.Karimovlar tomonidan tayyorlanib nashr qilingan bu fan darsliklari mutaxassis tayyorlovchi fakultetlar talabalari va tadqiqotchilar uchun uzoq yillar munosib xizmat qildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha tayyorlangan besh jilddan iborat akademik nashr ham ta’limiy va ilmiy taraqqiyotda alohida ahamiyat kasb etib keldi. Ularning hammasi ham faktik materiallarga shu darajada boy ediki, bu mualliflarning o‘zlarigacha o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning hech biridagi faktik ma’lumotni nazardan chetda qoldirmaganliklarini ko‘rsatar edi. Mazkur darslik va akademik nashrlar ana shu xususiyatlari bilan adabiyot fani va ta’limi rivojiga xizmat qildi.

Lekin talaba va tadqiqotchilarga taqdim qilinadigan asarlar va ularning tahlili, qolaversa, ma’lumotlarning berilish tartibi haqida bunday fikrlarni aytish qiyin. Albatta, ulardagi bunday taqdim, tahlil va tartiblar, shuningdek, g‘oyaviy

¹ Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 3-avgustdagi mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi “adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi nutqi. uza.uz/.../adabyet-va-sanat-madaniyatni-rivojlantirish-khal-.

tahlillarga zo‘r berilib, badiiy tahlillarga kamroq e‘tibor qaratish, tahlillar xulosasining hukm darajasiga olib chiqilishi, boshqacha fikrlar bo‘lishi va bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi uslublar tanlanishi mualliflar xohishi bilan emas, balki mafkuraviy prinsiplarga ko‘ra amalga oshirilgan edi. Xuddi mana shu jihatlar istiqlol yillarida mumtoz adabiyotimiz tarixini o‘rganuvchilar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarini qayta yozish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Bu zaruratni anglagan bir guruh olimlarimiz o‘zlarining dastlabki urinishlarini e‘lon qilishga ham ulgurdilar. Darslik va qo‘llanmalarning keyingi namunalari hozircha keng doirada e‘tibor qozonmadi. Bu holni, bizningcha, hozirgi darsliklarda mavzularning nisbatan qisqa va ma‘lumotlarning torligidan tashqari, ularning yaratilish uslubida ham o‘ziga xos yangilik ko‘zga tashlanmayotgani bilan izohlash mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar rivojlangan sharoitda badiiy ijod namunalari tadqiqi va talqinlarini yuksak darajaga olib chiqmasdan ko‘zlangan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Ushbu qo‘llanmada uslubni ham, ma‘lumotlar tartibini ham yangilashga, shuningdek, tahlillar qatorida nazariy tushunchalardan saboq berishga harakat qilingani sababi shunda.

Fanni turli bosqichlarda o‘qish va o‘qitishning o‘ziga xos talablari borligi yaxshi ma‘lum. Binobarin, adabiyot tarixini maktab, o‘rta maxsus va oliy ta‘limda o‘rganishning farqini talabaga uqtirish birinchi galdagi vazifalardan. Maktab va o‘rta maxsus ta‘limda o‘quvchi taqdim qilingan ma‘lumotni o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi yetarli. Oliy ta‘limda esa taqdim qilinayotgan ma‘lumot va materiallarga mutaxassis sifatida yondashuv, nuqtai nazar shakllanishi lozim. Bu talabadan badiiy matn tahliliga zamon talablaridan kelib chiqib yondashuvni taqozo etadi. Milliy ta‘limimiz tarixida bunday talab shakli bo‘lgan, uni “ma‘nododligi” deb ataganlar. Ya‘ni talaba berilgan matnni sharoit taqozosidan kelib chiqib sharhlash, izohlash va talqin qilish layoqatiga ega ekaniga ko‘ra baholangan. Adabiyotimiz tarixida bu uslub keng amalda bo‘lib, katta ijobiy hodisalarning yuzaga chiqishida muhim rol o‘ynadi. Xususan, “Xamsa”dagi,

shuningdek “Lisonu-t-tayr” dostonlarining yaratilishida bu hol ko‘zga yaqqol tashlanadi. Zamonaviy pedagogikada u “mustaqil yondashuv” degan, ma’nosi unchalik ochiq bo‘lmagan istiloh bilan yuritilmoqda. Demak, oliy ta’limda tahsil oluvchi bo‘lajak mutaxassis sohaning dastlabki muhim ko‘nikmasi – ma’nododlikni o‘zida shakllantirishi uchun unga foydalanish uchun taqdim qilingan darslik yoki o‘quv qo‘llanmasi yordam berishi zarur. Ushbu qo‘llanmada bu borada ham tajriba tariqasida tavsiyalar kiritildi.

Qo‘llanmani yaratishda o‘z maslahatlarini ayamagan O‘zbekiston Milliy universiteti va Qarshi davlat universitetlarining adabiyotshunos olimlariga samimiy minnatdorlik bildiramiz. Shuningdek, qo‘llanmaga uni takomillashtirish uchun bildiriladigan xolis fikrlarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

KIRISH

Reja

1. Adabiyot va adabiyotshunoslik ta'rifi.
2. Adabiyotshunoslikning obyekti, maqsadi va vazifalari.
3. Adabiyot tarixi tushunchasi.
4. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalasi.
5. Adabiy merosni milliy mafkura asosida o'rganish
6. Xulosa.

ADABIYOTLAR

1. И.А.Каримов. Истиқлол ва маънавият. Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
2. I.A.Karimov. yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 1994.
3. Н.М.Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
4. Ўзбек адабиёти тарихи. 5томли. 1том. – Тошкент: Фан, 1977.
5. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. – Т.: «Маънавият», 1999.
6. В.То'хлиев. O'zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.

Tayanch tushunchalar: *adabiyot, badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik, san'at, so'z san'ati, obyekt, predmet, maqsad, vazifa, adabiyot tarixi, adabiy muhit, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, tasnif, davrlashtirish, Vatanparvarlik, milliy iftixor va xalqchillik, insonparvarlik, taraqqiyparvarlik, badiiy-estetik qimmatga egalik, badiiy mukammallik.*

Ma'ruzada qo'yiladigan muammolar: adabiyot va adabiyotshunoslikni mutaxassislik nuqtai nazaridan tushunish; mumtoz adabiyot tarixini o'rganishning

asosiy tamoyil va mezonlarini aniqlash; o'zbek mumtoz adabiyoti tarixini davrlashtirish masalasi.

Adabiyot va adabiyotshunoslik. Adabiyot “go‘zal xulq” ma’nosidagi arabcha “adab” so‘zidan olingan bo‘lib, u atama sifatida XX asr boshlaridan keng istifodaga kirdi. Uning qabul qilinishida turk va rus adabiyotshunosligining ta’siri bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotshunosligida xuddi shunday bir atamaga ehtiyoj bor edi. Ungacha adabiyot ikki atama (“she’r” va “nasr”) bilan yuritilar edi (Ko‘hna G‘arbda “adabiyot” ma’nosida “poeziya” atamasidan foydalanilgan, proza uning doirasiga kiritilmagan). Oradan ko‘p o‘tmay u ilmiy va boshqa sohalarga doir mavzuni yoritishda foydalaniladigan manbalarni atashda ham ishlatila boshladi. Bu hol barcha ixtisoslik xodimlariga barobar bo‘lgani uchun adabiyot atamasining keng ma’noda qo‘llanishi sifatida e’tirof qilindi.

Tor ma’noda u badiiy adabiyot ma’nosida qo‘llana boshladi. Ta’kidlash lozimki, adabiyot atamasi hozirda inson badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lgan, garchi san’at hodisasi zohir bo‘lmasa ham (memuarlar, safarnomalar va h. – adabiy asarlar), so‘z vositasida yaratilgan barcha asarlarni qamrab oladi. Binobarin, biz bo‘lajak mutaxassislar sifatida adabiy va badiiy asarlar, umuman, badiiy adabiyot mohiyati va sir-asrorlariga doir barcha xususiyatlarni o‘rganishimiz shart.

Maktab va o‘rta maxsus ta’limda badiiy adabiyot “so‘z san’ati” degan qisqa ta’rif bilan tushuntiriladi. Lekin bu ta’rif san’atning yaratilish qurollari jihatidan tasnifidagina (klassifikatsiya nuqtai nazaridan) to‘g‘ri, adabiyot mohiyati nuqtai nazaridan notug‘aldir. Chunki adabiyot mohiyati nuqtai nazaridan so‘z san’ati ekani bilan cheklanmaydi.

Ma’lumki, *san’at* arabcha so‘z bo‘lib, mahorat bilan ishlamoq, go‘zal yasamoq; umuman, ustalik bilan yaratmoq ma’nosini anglatadi. Fanda u ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi sohalarini anglatishi ta’kidlanadi: tasviriy san’at, musiqa san’ati, zargarlik san’ati, raqs san’ati, kino san’ati, me’morlik san’ati va h. Shuningdek,

turli amaliy-tatbiqiy sohalarning o'ziga xos ish uslubi (boshqaruv san'ati) ham, muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik; iste'dod ham san'at mazmuni tarkibiga kiradi. Adabiyotshunoslik ilmida badiiy asar poetikasini ta'minlovchi ayrim vositalar ham san'at sifatida talqin qilinadi: she'riy san'atlar, lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar va h.

Ularning umumiy vazifasi, mohiyati nimadan iborat? Inson vujudi bilangina moddiy olamda umrguzaronlik qiladi, ruhi bilan esa ma'naviy hayotda yashaydi. Moddiy olam aql bovar qilmas darajada mukammal va go'zal ekani bilan insonni nechog'li hayratlantirmasin, uning ishtirokisiz yaralgan, binobarin, undagi hodisalar insonga bo'ysunmaydi, xohish-irodasi yo'rig'ida harakatlanmaydi, unga hamisha mos ham kelavermaydi. Shuning uchun inson ruhida o'ziga mos, o'z izmidagi olam yaratish ishtiyoqi mavj uradi. Bu mavj ijod (badiiy ijod) qilishga boshlaydi. Faylasuflar "Ijod – muammoning nostandart yechimidir", deydilar. Eng mukammal hayotiy standartlar obyektiv real borliqda, tabiatning o'zidadir. Demak, real olamdagidan farqli, ruh uchun afzal hayotiy yechim ijod ahli tomonidan yaratiladi va u hayotga yangicha qarash, uni tasavvur qilish omili sifatida maydonga keladi.

U real olam ta'sirida yaratilishining bir necha sabablari bor. Ularning asosiylari, birinchidan, ijod moddiy olamning kuchli taassurotlari mahsuli ekani; ikkinchidan, ijodning real olamga muroqabasi (lekin bu dushmanlik raqobati emas, balki moddiy olam hayotiga muhabbatni yanada oshrishga xizmat qilishdir); uchinchidan, ijodga real olamdan boshqa tasavvur obyektining yo'qligi kabilardir. Ijodkorlarning ta'sirchan qalb egalari ekani, ular qancha ko'p ta'sirlansalar, shuncha ko'proq ijod etishi, shuningdek, moddiy olamdagi ijobiy taassurotlardan qanoatlanmaslik, uning yanada ko'proq bo'lishi istagi va salbiylari keltirgan aziyat tufayli uni o'zgartirish xohishi, ya'ni dard ijodni harakatlantiruvchi omillardir. Inson moddiy olamdan boshqa olamni bilmaydi, ya'ni obyektiv borliqdan boshqa tasavvuri yo'q. Shuning uchun tasavvuridagi o'zi yaratmoqchi bo'lgan olamni obyektiv borliqdagidan boshqa vositalar orqali aks ettira olmaydi. Ijod, san'at yoki

adabiyot mohiyatini yaxshi anglamaslik “voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettirish” tezisini keltirib chiqargan. Aslida, ijod voqelikka muqobil voqelikni yaratishdir. Chunki haqiqiy ijodkor uchun voqelikni bo‘yab ko‘rsatishdan hech qanday muddao yo‘q. Haqiqiy ijodkor o‘zi yaratgan voqelik orqali odamlar tasavvuriga ta’sir qiladi, moddiy olamni o‘zgartirish, uni yanada mukammallashtirish, bu borada faollashishga da’vat qiladi. Bu maqsad pirovard natijasini berishi uchun ijod san’at darajasida amalga oshirilishi shart.

Adabiyot ana shu sanalgan xususiyatlariga ko‘ra san’at. Lekin unda san’atning boshqa turlaridan farqli o‘laroq mavzu va ma’no ifodasi, makon va zamon ko‘lami cheklanmagan. Unda Odam Atoning yaratilishidan burungi va oxiratdan keyingi insoniyat tasavvurining shakli aks etishi yoki ma’lum bir asarda, yozuvchining imkoni yetsa, minglab taqdir, obraz yaratilishi, voqealar faqat Yer kurrasining turli nuqtasida emas, sarhadsiz koinot bo‘ylab sodir bo‘lishi mumkin. Qolaversa, ma’lum bir badiiy asarning mavzusi turlicha nuqtai nazarlarga ko‘ra bir necha bo‘lishi ham faqat adabiyotga xos xususiyat. Hech bir san’at turi adabiyot kabi boshqa san’atga xos durdonalarni badiiy ifoda va talqin qilib bera olmaydi. Bunga misol tariqasida birgina mumtoz kuylar badiiy talqin qilingan asarlarni eslashning o‘zi kifoya qiladi: Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ida “Navo”, Abdulla Oripovda “Munojot”, Rauf Parfida “Cho‘li Iroq” va h.

San’atdan tashqari, adabiyotni to‘la shakllantiradigan omillardan yana biri mavzudir. Mavzu yangi fikr asosida tug‘iladi. Fikr qancha teran, chuqur, xalq uchun manfaatli, uning orzu-istaklarini, armonlarini tarannum etishga, inson ma’naviy-axloqiy komilligini targ‘ib qilishga qaratilgan bo‘lsa, adabiyot takomili shuncha ta’minlanadi.

Har bir ijodkor o‘z san’atkorlik mahoratini yangi va chuqur mazmunni ifoda etishda namoyish qilishni xohlaydi. U tabiiy va ijtimoiy muhitdagi kuzatuvlari hamda taassurotlari asosida yangi fikrga ega bo‘la boradi. Turli g‘oya va mafkuralarning adabiy asarlarda keng ko‘lamda aks etishining sababi ham shunda.

Adabiyotning fikrga tayanishi va kishilar tafakkurida olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilishi falsafa faniga o'xshaydi. Falsafa ham, adabiyot ham mohiyatan olam haqida tasavvur yaratadi. Ularning ifoda usullari farqli, albatta. Shundan kelib chiqib, ularning biri fan, ikkinchisi san'at sifatida talqin qilinadi. San'at tasavvurni boyitadi, shakllantirmaydi. Adabiyot esa yo'q tasavvurni bor qilish, borini o'zi istagan yo'singa solish qudratiga ega. Shunday ekan, u yana bir bor o'zining san'at chegarasiga sig'masligini isbot qiladi.

To'g'ri, har qanday yangi, o'tkir fikr ham ifodadagi san'at va mahoratsiz adabiy hodisaga aylanmaydi. Fikr adabiyotda obrazlar orqali badiiy voqelikni keltirib chiqaradi. Binobarin, adabiyotga zikr etilgan xususiyatlardan kelib chiqib, boshqacha ta'rif berish mumkin: adabiyot – ezgu fikr va g'oyani muayyan ma'naviy-estetik tamoyillarga mos *badiiy voqelikdagi obrazlar talqinida* ifoda qilish orqali kishilar ongi va tasavvurini shakllantiruvchi hamda boyituvchi hodisadir.

Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning paydo bo'lishi, yaratilishi, taraqqiyoti qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalari va mohiyatini o'rganadi. Demak, adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti – predmeti badiiy adabiyot va unga doir muammolardan iborat. Uning maqsadi badiiy adabiyotning taraqqiyot darajasini aniqlash, istiqbolini belgilash, nazariy va metodologik tamoyillarini ishlab chiqish, davr ma'naviy hayotida o'ynayotgan roli, madaniy-estetik va ijtimoiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi, xalq xohish-irodasi, inson hayoti, o'y-kechinmalari va tafakkuriga ta'siri masalalarini tadqiq qilishni ko'zda tutadi. Vazifalari ana shu maqsadga muvofiq muntazam tekshiruv va tahlillar olib borishni taqozo qiladi.

Olimlar adabiyotshunoslikning uchta sohasi faol harakatda ekanini e'tirof qiladilar. Ular adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid sohalaridir. Lekin keyingi paytlarda jahon adabiyotshunosligida ham, o'zbek adabiyotshunosligida ham matnshunoslik sohasi yuksalish bosqichini kechirayotgani tan olinmoqda. Ularning har biri adabiyotning ma'lum qirralarini o'rganadi va o'z oldiga qo'ygan alohida maqsad va vazifalarga ega.

Adabiyotshunoslik fani falsafa, madaniyatshunoslik, san'atshunoslik, germenevtika, tilshunoslik, folklorshunoslik, estetika, tarix, sotsiologiya, psixologiya kabi fanlar bilan mustahkam aloqada, ularning yutuqlaridan oziqlanadi.

Adabiyot tarixi. Adabiyot tarixi adabiyotshunoslikning asosiy sohalaridan biri. O'zbek adabiyotshunosligida u, asosan, ikki bosqichga ajratib o'rganiladi: XX asrgacha bo'lgan adabiyot tarixi va undan keyingi davr adabiyoti tarixi. Chunki aynan XX asrga kelib o'zbek adabiyotida shakl jihatidan ham, mazmun jihatidan ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Nazariy-metodologik asoslar yangilandi, adabiy til isloh qilindi, nasr yangi bosqichga ko'tarildi, she'riy vazn va janrlar boshqa ko'rinishga o'tdi. Mazkur ikki bosqich alohida-alohida ixtisoslik ko'rinishida o'z tamoyillari, o'rganish obyekti, maqsad va vazifalarini belgilab oldi. Avvalgi bosqichda XX asrgacha bo'lgan adabiy manbalar tadqiq qilinadi. Ularga **tarixiylik tamoyili bilan yondashiladi**. Ya'ni o'tmishga oid adabiy jarayon yoki uning bir bo'lagi konkret tarixiy sharoit bilan bog'liq holda o'rganiladi. O'tmish adabiy hodisalari, badiiy tafakkur tadriji, ijodkorlar faoliyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni, poetik usul va vositalarning ma'rifiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillari bu bosqichda keng ko'lamda tadqiq qilinadi.

Adabiyot tarixi badiiy va adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti haqida ma'lumot berishdan tashqari, o'tmish adabiyoti tajribalarini bugungi kun adabiyotiga tatbiq qilish va nazariy mezonlar ishlab chiqish uchun materiallar taqdim etishi bilan ham katta ahamiyatga ega.

Adabiyotshunoslar adabiyot taraqqiyot bosqichlarini o'tgan asrda bir necha variantlarda davrlashtirdilar. Ular orasida hozirgacha professor Natan Mallayev tomonidan amalga oshirilgan davrlashtiruv eng maqbul sanalib kelmoqda. Unga ko'ra adabiyotning tarixiy bosqichlari:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.
2. X – XII asrlar adabiyoti.
3. XIII asr va XIV asr boshlaridagi adabiyot.

4. XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.
5. XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Olimning ta'kidlashicha, "bu davrlashtirish "O'zbekiston SSR tarixi" kitobida berilgan davrlashtirishga, madaniy-adabiy protsessning o'ziga xosligini ko'zda tutib, ayrim bosqichlarning qo'shib berilganini mustasno qilsak, mos tushadi va unga tayanadi". Ko'rinib turganidek, unda sho'roviy mafkuraga tayanilib, jamiyatning moddiy ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy strukturasi rivojlanish tarixi, uning ijtimoiy ongga ta'siri masalasi asosiy rol o'ynagan. Ya'ni adabiyot tarixini uning o'z taraqqiyotida sodir bo'lgan evrilishlar, erishilgan natijalar yoki tanazzul oqibatlari bilan emas, balki ularni jamiyatning iqtisodiy strukturasi, ishlab chiqarish munosabatlari rivoji bilan belgilash nazarda tutilgan.

To'g'ri, madaniy darajani, jumladan adabiyot taraqqiyotini ham jamiyatning iqtisodiy strukturasi, ishlab chiqarish munosabatlari rivojidan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Lekin, birinchidan, jamiyat ishlab chiqarish munosabatlari va iqtisodiy rivojlanishini biror bir mafkura nuqtai nazaridan baholab, taraqqiyot bosqichlariga ajratib bo'lmaydi; ikkinchidan, san'at va adabiyotning muayyan davrlarda gullab yashnashini jamiyatning moddiy negizi taraqqiyoti bilan mutlaqo bog'liq deb hisoblash ularning rivojlanish xususiyatlari to'g'ri anglanmaganidan dalolat beradi. Gomer va Sofokl yashagan davrda moddiy taraqqiyot sho'ro davridagidan qiyoslab bo'lmas darajada past bo'lgani ma'lum. Lekin ularning asarlari sho'ro davrida ham badiiy-estetik ahamiyatini yo'qotmadi. Bu davrdagi bir necha asarlar uchun ular andaza vazifasini ham bajardi. Qolaversa, adabiyot ma'lum ijtimoiy-tarixiy bosqichda bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi yoki aksincha, bir necha ijtimoiy-tarixiy bosqichda bir xil ko'rinishda qolib ketishi mumkin.

N.Mallayev taqdim qilgan bosqichlarda mazkur davrlarning adabiy-badiiy xarakteri va xususiyatlari aks etmaydi. Ular ko'proq ijtimoiy taraqqiyotning tarixiy o'ziga xosliklarinigina esga soladi, xolos. Bundan tashqari, mazkur davrlashtirish

muayyan asrlar bilan nomlanishi ham hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Holbuki, adabiyotning taraqqiyot bosqichlarini belgilashda uning o'zigagina xos yangilanish va rivojlanish tamoyillarini, xususan, muayyan g'oyaviy barqarorlashuv, adabiy tur va janrlarning shakllanish hamda takomillashuv tadrijini, shuningdek, ma'lum davrning mazkur jihatlarga ko'ra yetakchi xususiyatlarini e'tibrga olish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, milliy adabiyotimizning taraqqiyot bosqichlarini quyidagicha belgilash tarafdorimiz:

1. Adabiy tasavvur va badiiy tafakkurning shakllanishi davri – milodiy X asrgacha.
2. Mumtoz didaktik badiiy ijod, dostonchilik va qissachilikning vujudga kelishi davri – XI – XIV asr boshi.
3. Tasavvufiy talqinlar va badiiy tafakkurning yuksalishi davri – XIV – XVI asrlar.
4. Adabiy muhitlar rivojlanishi davri – XVII asrdan XIX asrning so'nggi choragigacha.

Bundan keyingi davrlar oliy ta'limda nomidayoq davrning mazmunini ifoda etgan fanlar obyekti hisoblanadi. Jumladan, XIX asrning so'nggi va XX asrning ilk choraklari – milliy uyg'onish davri adabiyoti, undan keyingi adabiyot – yangi o'zbek adabiyoti fanlarida o'rganiladi.

Bu davrlashtirishdagi tafovutlar izohi shundan iboratki, adabiyotimiz tarixining X asrgacha bo'lgan davri (X asr ham) “Adabiy tasavvur va badiiy tafakkurning shakllanishi davri” sifatida talqin qilindi. Ko'pgina adabiyotshunoslarimiz uning islomgacha va undan keyingi davrlarini ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, X va XII asrlarni alohida davr sifatida belgilashni ma'qul ko'radilar. Bu yerda X asrgacha bo'lgan davr umumlashtirilishining asosiy sababi sifatida turkiy adabiyotga xos (islomdan oldin ham, keyin ham) mukammal adabiy tur va janrlarda yaratilgan manbalarning saqlanib qolmagani yoki umuman bo'lmagani, mavjudlarining dastlabki shakllanish jarayonini aks ettirishi, islomiyat davrida yozma badiiy ijod

arab va fors (dariy) tillarida yaratilib, ular islomiy turkiy yozma badiiy ijod qilish tafakkurini shakllantirgani kabilarni ko'rsatish mumkin. Turkiy tilda bunday ma'nodagi dastlabki badiiy asarlar XI asrda yaratila boshladi. Shuning uchun ikkinchi bosqich XI asrdan boshlanishi ma'quldir. XIV asrga kelib bu adabiyotda janrlar ko'lami kengaydi, poetik mahorat klassik darajada namoyon bo'la boshladi, umuman badiiy tafakkur yuksalish yo'liga kirdi. XVII asrdan boshlab esa o'zbek adabiyotining taraqqiyot tendensiyalari xonliklardagi shart-sharoitlar va mafkuraviy qoliplarga asoslanadi. Har bir xonlikda o'z tamoyillariga ega alohida adabiy muhit shakllandi.

Fanimiz doirasiga kiruvchi taraqqiyot bosqichlarini mutlaqlashtirish, ya'ni ularning ma'lum biriga xos xususiyatni boshqasiga mutlaqo aloqasiz deb tushunish to'g'ri bo'lmas. Zero, muayyan xususiyat ma'lum bir davrda yetakchi xususiyatga aylanib, boshqa davrda nafaol ko'rinishda amalda bo'lishi mumkin. Shuningdek, ma'lum adabiy harakatlar, jarayonlar va yo'nalishlar (oqimlar) bir bosqichda boshlanib, boshqasida davom etishi ham kuzatiladi. Lekin adabiyotning umumiy taraqqiyot bosqichini belgilashda ularning hammasi ham birday ahamiyat kasb etavermaydi.

ADABIY MEROSNI MILLIY MAFKURA ASOSIDA O'RGANISH

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida milliy ma'naviyatni yuksaltirish omillari va mezonlari haqida shunday deyiladi: «Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, **ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar** eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»². Darhaqiqat, ko'rsatib o'tilgan omillarsiz milliy ma'naviyatning yuksalishi emas, shakllanishi haqida ham gap bo'lishi mumkin emas. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar va ko'hna tarixiy yodgorliklar haqida so'zlaganda ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy va adabiy mavzudagi nodir qo'lyozma asarlar ustuvor ahamiyat kasb etishini ham unutmaslik lozim.

Haqiqatan, mamlakatimizning mustaqil davlat sifatida maydonga kelishi bu yerda yashayotgan xalqlar moddiy va ma'naviy boyliklarini o'z taraqqiyotlari uchun xizmat qildirish, ularning manfaatlarini himoya qilishdek mas'uliyatni o'z zimmasiga olib faoliyat yuritish siyosatini boshlab berdi. Bu siyosat zamon va makon, mavzu va ko'lam, shakl va mazmun, aqida va dunyoqarashlar nuqtai nazaridan nihoyatda xilma-xil, keng qamrovli madaniy merosning tarkibiy qismi bo'lgan adabiy-badiiy merosga bo'lgan munosabatlarning ham tamomila yangi, mustaqillik va taraqqiyot talablariga mos tamoyillarini belgilab bermoqda. Muallif qaysi davrda yashamasin yoki kim bo'lmasin, asar qaysi davrda yaratilmasin yoxud qay holatda bo'lmasin, meros bugunning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qila olsa, uni tiklash, o'rganish va amaliyotga tatbiq etish adabiyot tarixi va manbashunoslik fanlarining dolzarb vazifasiga aylanadi.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. – B. 29 – 30.

Adabiy merosning bugungi ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qila olishini aniqlovchi mezonlar haqida bizda eng zarur metodologik dasturilamallar yaratilgan. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida belgilab berilgan mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy sohalarni takomillashtirish, mafkuraviy bo'shliqqa barham berish, barkamol avlodni tarbiyalash to'g'risidagi konsepsiyalar, tarix, ilm-fan, madaniyat va san'at namoyandalari bilan uchrashuvlardagi aniq ko'rsatmalar, shuningdek, hukumat qarorlari hamda huquqiy yo'riqnomalar bunday asoslarni ishlab chiqishning zamini vazifasini o'taydi.

Manbani tahlil etishda mazkur metodologik dasturilamallar va boshqa ilmiy-falsafiy, nazariy hamda uslubiy bilimlar asosida quyidagi tamoyillarga amal qilinishini maqsadga muvofiq:

Birinchidan, asarning madaniy siyosatga muvofiqligi va dunyoviy xarakterga egaligi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazuvchi kuch, tabaqa yoki guruh paydo bo'lgan ekan, bu tarixiy ehtiyoj, zarurat samarasidir. Tarix kishilik jamiyatining har bir bosqichida hokimiyat idoralari xalq ruhiga ta'sir o'tkazuvchi vositalarni, xususan adabiyot va san'atni qattiq nazorat ostida saqlab kelganligidan istalgancha guvohlik beradi. Insonning go'zallikka, orzu-havaslarga, axloqiy barkamollikka intilishi ijodkor yashab turgan muhit ta'sirida turlicha shakl va mazmun kasb etishi bunday nazoratning asosiy sababidir. Jamiyatning eng taraqqiy topgan davrida ham, tanazzulga yuz tutgan tahlikali kezlarda ham nodir adabiy asarlar yaratilishi va xalq mulkiga aylanib, asrlar bo'yi unga xizmat qilishi ijodkorning salohiyati hamda davr so'zini aytish vazifasi, mas'uliyatini his etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Mashhur mutafakkirlar davr so'zini aytish, davr bahosini berish mas'uliyati zimmasiga tushgan ijodkorlar edi.

Faylasuflarning ta'kidlashlaricha, «madaniyatga ta'sir ko'rsatuvchi uchta asosiy subyektiv omil mavjud: 1. Rasmiy davlat siyosati. 2. Xalqning anglashilgan

ehtiyojlari (madaniyatning yaratuvchisi, saqlovchisi va iste'molchisi sifatida). 3. Ijodkorning ijtimoiy pozitsiyasi va dunyoqarashi. Bu omillar o'zaro bog'liq, ularning birortasi umummadaniy rivojlanishda boshqalaridan ajralgan holda hal qiluvchi o'rin tuta olmaydi»³. Adabiyot madaniyatning mafkuraga eng yaqin sohasi bo'lganligi uchun ayrim davrlarda unda mafkuraning ta'siri kuchayganligi kuzatiladi. Shunga qaramay, ijodkor xalq vakili sifatida uning «anglashilgan ehtiyojlari» ta'sirini rasmiy davlat siyosatidan past darajaga qo'ya olmaydi. Shunday holatlar ham bo'ladiki, «ijodkor rasmiy davlat siyosatini korreksiya qiladi, ya'ni unga ma'lum darajada tuzatish kiritadi»⁴.

SHo'ro davrida o'tmishdagi hukmdorlarga va dinga aloqador har qanday ijodkor asarlari «feodal-klerikal» yoki «saroy adabiyoti» tamg'asi bilan o'rganish doirasidan chiqarib tashlangan edi. Bunday sharoitda saroyga aloqador har qanday yuksak badiiy saviyadagi asarlar ham e'tibordan chetda qolib ketishi mumkin edi. O'zbekistonning hozirgi madaniy siyosati sho'rolarning zo'ravonlikka asoslangan, ateizm andozalariga solingan mafkurasiga qarama-qarshi o'laroq umuminsoniy qadriyatlarga, fikrlar xilma-xilligiga tayanadi. Bu siyosat o'zbek xalqining (bu yerda yashayotgan boshqa xalqlarning ham) o'tmishda yaratilgan barcha asarlarini o'rganish imkoniyatlarini yaratdi. Lekin bu har qanday adabiy manbani har kim o'z bilganicha tadqiq etaverishiga, parokandalikka yo'l beriladi, degani emas. Har bir manbani tadqiq etishda O'zbekistonning milliy mafkurasiga xizmat qilishi bilan bog'liq bir qator shartlar e'tiborga olinishi zarur. Bu shartlar, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- xalqning azaldan ardoqlab kelingan qadriyatlari ulug'lanishi, ularga asoslanilishi;
- aholining milliy-tarixiy tafakkuri va turmush tarzidan kelib chiqilishi;
- hurfikrlilik, diniy bag'rikenglikka munosabatning to'g'riligi;
- ma'naviy va axloqiy tamoyillarga amal qilinishi;

³ Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – T.: «Ma'naviyat», 1999. – B. 174.

⁴ Erkayev A. O'sha asar. – B. 175

- taraqqiyotga, jumladan ma'rifiy taraqqiyotga, yangi fikrlar tug'ilishiga, yangi jamiyat qurilishiga xizmat qilishi;
- badiiy saviyaning yuksaklik darajasi;
- keltirilgan ma'lumotlarning asosli va haqqoniy ekanligi;
- muallif ijtimoiy pozitsiyasida biryoqlamalikka yo'l qo'yilmaganligi;
- urush, zo'ravonlik, bosqinchilik; diniy, irqiy, sinfiy va tabaqaviy kamsitish kabi illatlarga yon berilmasligi.

Ikkinchidan, asarning adabiy merosga munosabatni belgilovchi mezonlarga muvofiqligi.

Ma'lumki, real gumanizmning talabi jamiyatda amalga oshiriladigan har qanday tadbirning oqibat-natijasi inson shaxsini yuksaltirishga, uning hurfiylik darajasini oshirishga, ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitishga, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishidan iborat. Aks holda ular jamiyatning ma'naviy inqiroziga sabab bo'lishi mumkin. Ijodkorning hukmron tabaqa buyurtmasiga asosan yaratayotgan asari ana shu real gumanizm g'oyalariga ters bo'lishi mumkin emas. Adabiy merosni tadqiq etishda ham uning o'z davri ma'naviy hayotida o'ynagan rolini ustuvor masala sifatida diqqat markazida tutish maqsadga muvofiqdir. Chunki u rivojlanuvchan hodisa bo'lib, biz tushunib yetgan narsalar pirovard natija emas, buyuk mumtoz merosning bir qirradi, xolos. Muayyan bir obidaga turli davrlardagi nuqtai nazarlar turlicha bo'lishi tabiiydir.

Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlash joiz. Bu adabiy merosga bo'lgan munosabatning eng nozik masalasi – har qanday «madaniy merosga bo'ysunmasdan uni egallab olish» tamoyili bilan yondashish masalasidir. Adabiy asar o'z badiiy ta'sirchanligi bilan o'quvchiga ma'lum g'oyaviy mazmunni muayyan talqinda yetkazish maqsadini amalga oshiradi. O'tmish merosimizning ma'naviy ideallarimizni boyitishga xizmat qiluvchi g'oyaviy-axloqiy, badiiy-estetik jihatlarini o'zlashtirish jarayonida o'sha davrning ayrim ijtimoiy-siyosiy aqidalariga to'g'ri baho berish ham zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqilib, adabiy manbaga baho berish va o'rganishda quyidagi besh mezonga tayanilishi maqsadga muvofiq:

1. *Vatanparvarlik.*
2. *Milliy iftixor va xalqchillik.*
3. *Insonparvarlik.*
4. *Taraqqiyparvarlik.*
5. *Badiiy-estetik qimmatga egalik, badiiy mukammallik.*

Bu mezonlar, bizningcha, adabiy merosimizning har bir namunasiga taalluqliligi bilan umumiylik kasb etadi. Biroq ularga tor g'oyaviy chegaralanishlarsiz yondashish maqsadga muvofiqdir.

Vatan millat tomonidan yaratilgan eng buyuk obidadir. Uning tarixi ham, buguni ham, kelajagi ham unga egalik qiluvchi millatning sha'ni, g'ururi va nomusidir. Qadimiy adabiy manbalar ana shu sha'n, g'urur va nomusni himoya qilishda ahamiyatli ekaniga ko'ra **vatanparvarlik** mezoniga muvofiqdir. Ularda O'zbekiston nomi qayd etilmasa-da, hozirda bu yurtida yashayotgan xalqlar ajdodlari tomonidan yaratilib, ularning bugungi avlodlari manfaatlariga xizmat qiladigan har qanday ijod namunalarida vatanparvarlik namunalarini topish va talqinda unga e'tibor qaratish alohida ahamiyatga ega.

Milliy iftixor va xalqchillik mezonini milliy qadriyatlardan faxrlanish va g'urur tuyg'ularini rivojlantirishga, shuningdek, milliy qadriyatlarning qiyofasini saqlab qolishga, ularni yanada sayqal toptirishga, bu orqali xalqni jipslashtiruvchi, milliy hamjihatlikni ta'minlovchi, ma'naviy umumiylikni, turmush tarzidagi mushtaraklikni, intilish, xohish-irodani aks ettiruvchi va mustahkamlovchi an'analar, badiiy obrazlar, vositalar hamda axloqiy g'oyalarga amal qilinishini anglatadi.

Insonparvarlik mezonida manbaning inson ruhiy ehtiyojlarini qondirishga qay darajada muvofiqligini aniqlash, jumladan, unda yuksak fazilatlarning tarannum etilishi va komil shaxsiyatni shakllantirishga, tarbiyalashga xizmat qiluvchi g'oyalarning aks etishi tushuniladi.

Adabiy asar **taraqqiyparvarlik** mezonida tahlil qilinib, o'z bahosini olishi lozim. Bunda tadqiqotchi talqinining ahamiyati katta. Agar adabiy manba kelajakka qaratilmagan, o'tmishni ideallashtirgan bo'lsa va uni boshqacha talqin qilishning iloji ham bo'lmasa, adabiyot tarixiga doir tadqiqotlarda uning nomigina sanoqda qolishi mumkin, xolos. Uning ommaviy o'qilishi yoki o'rganilishi imkonsiz bo'lib qoladi.

Lekin shuni unutmaslik lozimki, taraqqiyparvarlik faqat moddiy o'lchamlardagina mavjud emas. Axloqiy komillikka xizmat qilishi ham tarqqiyparvarlikdir.

Manbaning **badiiy-estetik tarbiyada** qimmatga egaligi, ya'ni **badiiy mukammallik** darajasi uni o'rganishda eng muhim xususiyatlaridan biri sanaladi. O'zbek adabiyoti manbalarining qadimiyligi va ko'pligi jihatidan jahondagi har qanday qadimiy adabiyot bilan bellasha oladi. Tabiiyki, bunday qadimiy va boy adabiyot manbalarining hammasini ham yuksak badiiy darajada yaratilgan deb, bo'lmaydi. Bir qator asarlar borki, ularning ayrimlari ma'lum guruh va tabaqalar manfaatini himoya qiluvchi g'oyalarga bag'ishlanib, ibtidoiy badiiyat unsurlarigagina ega bo'lsa, ayrimlari taqlid darajasidan o'ta olmagan. Adabiyot tarixi fanida ular muayyan davr badiiy darajasiga baho berish, adabiy jarayon va harakatlar tadrijini aniqlash maqsadidagina, ya'ni fanning ma'lum masalalasiga oydinlik kiritish uchun o'rganilishi mumkin.

Uchinchidan, asarning adabiy manba sifatidagi darajasi yuqoriligi va muallif ijodini kompleks o'rganishda ahamiyat kasb etishi.

Asarning yuqorida keltirilgan mezonlarga muvofiq talqinlar uchun asoslarga egaligi uning adabiy manba sifatidagi darajasi yuqoriligini ta'minlaydi. Bunday asarlar adabiyotshunoslik qonuniyatlari asosida yangi nazariy xulosalar olish uchun asos bo'la oladi va ularni badiiy adabiyotni yanada rivojlantirishni ko'zda tutuvchi tadqiqotlar doirasiga tortish mumkin.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, bunday asarlar muallif ijodini kompleks o'rganishda va uning ijodiy jarayonga ta'sirini aniqlashda ham alohida ahamiyatga

ega. Pirovardida manbaning ilmiy tadqiqotlar taraqqiyotiga xizmat qilish darajasi ham belgilanadi.

O'zbek adabiyoti tarixi ming-minglab jildlardagi adabiy va badiiy asrlarga ega. Ular turli davrlarda, turli xatlarda, har xil saviya va darajadagi ijodkorlar tomonidan yaratilgan. Ularning hammasini ham bugungi tamoyillarga asosan o'rganish imkonsiz. Lekin bu manbalar orasida badiiy ijodning nodir namunalari, durdona asarlar ham borki, ular xalqimiz tarixining barcha zamonlarida ardoqlanib, o'rganilib keladi. Ular bugungi talab va tamoyillarga ham to'la-to'kis javob beradi. Asrlar sinovidan o'tgan, milliy taraqqiyotimizga xizmat qiluvchi bunday asarlar majmui **“mumtoz adabiyot”** deb yuritiladi. Ularning mualliflari esa, mumtoz ijodkorlar sifatida e'tirof etiladi. Shunga ko'ra, “Adabiyot tarixi” fani “Mumtoz adabiyot tarixi” deb ham yuritiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot fanining ta'lim bo'g'inlarida o'qitilishdagi o'ziga xosliklar haqida ma'ruza tayyorlang.
2. Oliy ta'limda adabiyot tarixi fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Mumtoz adabiyot tarixini davrlashtirish masalasini izohlang.
4. Bugungi kunda adabiy manbani o'rganishda qanday tamoyillarga asoslaniladi?
5. Adabiyot tarixini o'rganishning asosiy tamoyili nimadan iborat?

ADABIY TASAVVUR VA BADIY TAFAKKURNING SHAKLLANISHI DAVRI

Qadim zamonlardan islomga qadar yaratilgan adabiy-madaniy yodgorliklar

Reja

1. Turkiy xalqlarning qadimgi hayot tarzi.
2. Diniy shakldagi ilk adabiy tasavvurlarning paydo bo'lishi.
3. Arxeologik va san'at yodgorliklari.
4. Yozma adabiyot nishonalari.
5. Xalq og'zaki ijodi.
6. Qadimgi adabiy janrlar.
7. Mifologiya. Afsona, qissa va eposlar.
8. "Avesto" va uning adabiy xususiyatlari.
9. Xulosa.

ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов А. Туркий халқлар оғзаки ижоди (Энг қадимдан исломгача бўлган давр). – Самарқанд, СамДУ, 2004.
2. Авеста. Избранные гимны. (пер. с авест. коммент. проф. И.М. Стеблин – Каменского; предисл. Пров. В.А. Левщица). – Душанбе: Адиб, 1990.
3. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – Москва: ИВЛ, 1960.
4. Жўраев М. Говомард образининг ўзбек фольклоридаги талқинлари. – «Ўзбек тили ва адабиёти», - 2001 йил, 5-сон, 48-55-бетлар.

5. Костюхин Е. А. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. – Москва: «Наука», 1972.
6. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I – III ж. Тошкент: 1960-63.
7. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
8. Раҳмонов Н. Рухиятдаги нур муроди. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
9. Толстов С. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1964.
10. Қаюмов А. Беруний ва адабиёт. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974.
11. А.Қаюмов. Қадимият обидалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.
12. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1 том. – Тошкент: Фан, 1978.

Tayanch tushunchalar: *avesto, turk, totemizm, animizm, buddizm, moniylik, zardushtlik, magiya, ko‘k tangri, shomoniyluk, arxeologik san‘at, yozma adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, adabiy janrlar, mifologiya, afsona, qissa, epos, bilig, o‘tluk, tabzug‘, sandrush, yig‘i-yo‘qlov, to‘rtlik, tuyuq, alqish, qarg‘aq, qoshug‘, yir, ko‘g, sav, tangrikla.*

Ma‘ruzada qo‘yiladigan muammolar: adabiyot tarixida eng qadimgi turklar ijodining o‘rganilishi; eng qadimgi turkiy adabiyotning asosiy yo‘nalishlari va ularning adabiy-badiiy xususiyatlarini aniqlash.

Arxeologik qazilmalar O‘rta Osiyoda odamzod ko‘p ming yillar burun ham yashaganidan guvohlik bersa-da, bu yerdagi turkiy va boshqa xalqlar madaniyatiga doir hozircha aniqlangan eng qadimiy topilmalar ularning miloddan avvalgi

to'rtinchi ming yillikka mansub ekanini ko'rsatmoqda. Qadimshunoslar turkiy xalqlarning faqat O'rta Osiyoda emas, umuman Osiyoning ulkan hududlarini, qisman Yevropani ishg'ol qilib yashaganlarini ta'kidlaydilar. Eramizdan avvalgi ming yillikda ularning mavqei oshgani ko'rinadi. Turkiylarning qadimiy davlatchilik tarixi hamda muvaffaqiyatlari ko'p olimlar tomonidan e'tirof qilingan. Miloddan avvalgi VII-II asrlarda Janubiy Sibiriya, Enasoy (Yenisey) va Irtish daryosi bo'ylari, Vengeriya, Chexiya hamda Slovakiyaning ma'lum qismi, Kasbiy (Hazar) dengizi bo'ylari, Eron, Iroq, Suriya va Turkiya davlatlari hududlarini birlashtirgan katta mavqega ega skif – iskit (forsiyalar ularni saklar deb atashgan) imperiyasi vujudga kelgan. Skiflar bilan bir davrda miloddan avvalgi VII asrlarda Kengaras davlati ham mavjud edi. Bu davlat Samarqand, Kesh, Kushon, Toshkent, Buxoro, Xorazmni o'z ichiga olgan bo'lib, eramizning V asrlarigacha yashagan. Skiflardan so'ng Arshakiylar davlati yuzaga keldi. "Arshak – er sakning o'zgargan shakli bo'lib, jasur, mard, bahodir saklar ma'nosini beradi. Yevropa tarixchilari ularni kimmerlar deb atashgan. Arshakiylar davlati Eronning Sharqiy qismi, Turkmaniston, Anatoliya (Turkiya)ni o'z ichiga oladi", deb yozadi A.Abdurahmonov "Turkiy xalqlar og'zaki ijodi" (Eng qadimdan islomgacha bo'lgan davr) o'quv qo'llanmasida.

Bulardan tashqari, turkiylarning tarixda Ottila xunlari deb yuritiluvchi xun imperatorligi (so'nggi hukmdori Ottila (434-453 yillar) hisoblanadi), 367 – 560 yillar oralig'ida yashagan Oq xun imperatorligi (uning tarkibiga Hindistonning yarmi, Afg'oniston va Turkistonning katta qismi kirgan), xuddi shu davrda Tabg'ach davlati (bu davlat hududiga Qoshg'ar, Turfon viloyatlari, Urxun vodiysidagi jo'jan davlatining sharqiy bir qismi kirgan), undan so'ng Eltarish xoqon, Bilga xoqon kabilar hukmdorlik qilgan turkiy xalqlar davlatlari mavjud bo'lgani turli manbalar va tosh bitiglar orqali ma'lum. Turk xoqonligining Oltoy, Janubiy Sibir va O'rta Osiyoning bir qismidagi hukmronligi VIII asrgacha davom etdi. Bunday imperiya va davlatlarning vujudga kelishi ulardan ham avval bunday tajriba mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Yunon tarixchilari qadimgi turkiylar yashaydigan hududlarni Skifiya mamlakati deb ataganlar. Sharqda u Turon nomi bilan yuritilgan. Bu yerda tashkil topgan davlatlar ularning shakllanishi uchun moddiy imkoniyatlardan tashqari ma'naviy-madaniy asoslar ham bo'lganini ko'rsatadi. Davlatlar harbiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy qudratini shakllantirishi hamda mustahkamlashi uchun ham o'z mafkurasini yaratishga va uni targ'ib-tashviq qilishga ehtiyoj sezardi. Bunday ehtiyoj ma'naviy-madaniy sohalarni, xususan, adabiyot va san'at rivojini taqozo qilgani tabiiy. Aytish mumkinki, mazkur davlatlar vujudga kelgunga qadar ijodiy tasavvurlar ancha shakllangan, san'atkorona ishlar yaratilgan va ular insoniyatning turmush tarziga ne chog'li ta'sir o'tkazishi anglashilib qolgan edi. Saqlanib qolgan osori atiqalar ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ijodiy tasavvurlarning uyg'onishi va ilk shakllanishini kishilik ibtidoiy jamoalarining madaniylashuvi boshlanishi davri bilan bog'lash mumkin. Bu juda uzoq, ehtimol, ellik ming yillik tarixdir. Inson tabiiy va ijtimoiy muhitda yashayotganiyu, ular bilan munosabatga kirishmaslik imkonsiz ekanini, bunda ojizlarning halokatga yuz tutishi muqarrarligini anglagan vaqtdayoq unga qarshi vositalarni izlab yoki o'ylab topishga majbur edi. Tabiiy ofatlar: chaqin, yong'in, zilzila, sel, to'fon va toshqin kabilar uchun chora-tadbir topish qattiq o'ylashga majbur qilar edi. Ba'zi tabiiy noqulayliklar, jumladan vahshiy hayvonlarga duch kelib ularga yem bo'lish, hudud yoki oziq-ovqat talashgan raqib guruhlar bilan bo'ladigan to'qnashuvlar, shuningdek yirik jonivorlarni ovlash zarurati tosh yoki metall parchalaridan qurollar yasashni ixtiro qilishga olib keldi. Bu ibtidoiy ijodiy tafakkur samarasi och qolishga qarshi ov, dehqonchilik va chorvachilik qilish, ya'ni unumli mehnat qilish tafakkurini paydo qildi. Mehnat qilish va ijodiy tafakkur bir-birining juda tez rivojlanishiga omil bo'ldi. Mehnat, ov va jang qurollari takomillashishi tezlashdi, hatto kemasozlik, neftdan foydalanish kashf etildi.

Mehnat qilish va mulkka ega bo'la borish kishilar o'rtasida tengsizlikni, tabaqalashuvni ham keltirib chiqardi. Yuqori tabaqa vakillari quyi tabaqadagilarga

og'ir mehnatlarni topshirib, o'zlari mulkni tasarruf qilish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'atni rivojlantirish muammolari bilan shug'ullana boshladilar. Mulk egaligi va tabaqalashuv rasmiylashtirilishi ehtiyoji paydo bo'ldi. Chunki turli tabaqa vakllari o'rtasida kelib chiqishi mumkin nizolarni bartaraf qiluvchi nizom, vositalarni, shuningdek, axloq normalarini ijod qilish ham katta muammo edi.

Tabiatdagi va jamiyatdagi bunday muammolar ijodiy tafakkur o'sishini yanada tezlashtirdi. Natijada g'ayritabiiy va g'ayriijtimoiy kuchlar hamda ularning kishilarga ta'siri haqidagi tasavvurlar ijod qilindi. Buni nisbatan tezroq va teranroq tushungan kishilar insonlar ruhiga taskin hamda quvvat baxsh etuvchi, kelajakka ishonch bilan qarashga ruhlantiruvchi, shuningdek, odamlar orasida oqibat tarqatuvchi ta'limotlarni ijod qila boshladilar. Turli kult va dinlar shakllana boshladi. Ba'zan boshqa xalqlarning bunday ta'limotlari turkiylar ichiga olib kirildi. Bu ta'limotlarga asoslangan qo'shiqlar va afsonalar to'qildi. Ularning bosqichlari quyidagicha⁵:

Totemizm (*Shimoliy Amerika hindularining ojibve qabilasi tilidagi «totem» – «uning urug'i» so'zidan olingan*) dinning insoniyat tarixida vujudga kelgan ilk shaklidir. Totemizm asosida ibodat qiluvchi xalqlar o'zlarini biror bir hayvon, o'simlik yoki jonsiz narsadan paydo bo'lgan deb tushunadilar. Turkiy xalqlar o'zlarining ota-bobolari ho'kiz, ot, ilon, bo'ri, it, bug'u kabi hayvonlardan kelib chiqqan deb tushunishgan va ularga e'tiqod qo'yishgan.

Gerodotning «Tarix» kitobida skiflarning birinchi ajdodlari dunyoga kelishi bilan bog'langan afsonalar totemizmning yorqin namunasidir.

Animizm (*lat. anima – jon, ruh*) odamlarning tabiatga sig'inishi va unga itoat etishi asosida yuzaga kelgan din shakli hisoblanadi. Anima («jon» va «ruh») odam vafot etganidan so'ng uning joni tabiatdagi jonsiz narsalarga ko'chishiga inonishdir. Animistik tushunchaga ko'ra, inson tabiatdagi narsa-hodisalar bilan

⁵ Ushbu diniy bosqichlarni yoritishda Abdurashid Abdurahmonovning "Turkiy xalqlar og'zaki ijodi" (Samarqand, SamDU nashri, 2004) o'quv qo'llanmasida keltirilgan ma'lumotlardan foydalandik.

o'zini mushtarak holda tasavvur etadi, tabiat inson qiynalganida, u ojizlikka tushib qolganida unga jonli odamdek yordam beradi. Turkiy xalqlar o'rtasida saqlangan ko'plab afsonalarda animizm tushunchasi o'z ifodasini topgan. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodidagi «Oq bilaxon» ertagida yigit toshga aylanishi, «Yoriltosh»da qizlarning iltijolari, yolvorishlari natijasida mo'jizalar ro'y berishi buning yorqin misolidir.

Bu ta'limot kishilarni tabiatda pinhoniyl kuch va ruhning borligiga ishonтираган. Ular oy, quyosh, momoqaldiraq va chaqmoqning ham o'z ruhi mavjud, deb qaragan. Go'yo ruhlar erkaklik va ayollik jinsiga mansub edi. Ayol ruh malikasi «O'may» deb atalgan. Mahmud Koshg'ariy ona qornidagi bolalarni O'may muhofaza qiladi deb hisoblashi ham uning ruhlarga bo'lgan ishonchini ko'rsatadi. Ayniqsa, yer va suvni kuchli ruhga ega deb hisoblashgan. Bular turkiy qavmlar o'rtasida turlicha nomda «Yer-Su», «Yer-Sub», «Yer-Suv», «Suv-Yer», «Yir-Sub», «Sub-Yer») aytilgan. Qadimda turkiy qavmlar istiqomat qilgan Sibir (Sib-ir) vodiysining nomi ham ana shu muqaddas tushunchalar hosilasi bo'lgan, degan farazlar mavjud.

Қадимги туркий халқларга мансуб «Одамнинг яратилиши» афсонаси ҳам анимизм маҳсулидир.

Ko'k tangri turkiy qavmlarning eng qadimiy dinidir. Ularning fikricha, ko'k yuzi Tangri bo'lib, u falakning, yerning hukmdoridir. Quyosh, oy va yulduzlar Tangrining atrofidagi ko'kning yuziga joylashgan muqaddas tushunchalardir. Ko'k Tangri zaminga hayot, odamlarga jon beradi, istasa qaytarib oladi. Hatto, turk xoqonlari ham Ko'k Tangrining xohishi bilan taxtga o'tiradilar.

Shomoniylilik (*Evenk tilida shaman – ruhoniyl*) qadimgi turkiylarning diniyl e'tiqod shakllaridan hisoblanadi. Uning asosini yovuz va ezgu ruhlarning inson hayotiga ta'sir etishiga ishonish tashkil etadi. Shomoniyl ruhoniylar – shamanlar odamlar huzurida ruh bilan aloqaga kirishgan va bo'lajak voqealarni oldindan aytib bergan. Gerodotning ko'rsatishicha, shomonlikning tarixi miloddan avvalgi XI asrlarga borib taqaladi.

Magiya yoki soʻzning seyr-jodu kuchiga ishonish shomonlikning shakli hisoblanadi. Ibtidoiy davrlardan boshlab odamlar tabiatdagi narsalardan qoʻrqib yashagan. Qoʻrqish esa ular vujudida turli xil kasalliklar kelib chiqishiga sabab bolgan. Yoki inson vujudidagi ayrim modda almashishlarining notoʻgʻri boʻlishi ham har xil kasalliklarga sabab boʻlgan. Qadimgi xalqlar bu hodisalarni yomon ruhlarning inson taniga oʻrnashib olishi bilan bogʻlaganlar. Shu sababli ularni inson tanidan quvib chiqarish yoʻllarini izlashgan. Goʻyo ezgulik ruhlari yomon ruhlarni yoʻqotish uchun odamlar orasidan iqtidorli shaxslarni tanlagan va homiylik qilgan.

Turkiy qavmlar oʻrtasida qadim zamonlardan kasallangan odamlarni soʻzning seyr-jodu qudrati orqali davolash bilan maxsus shugʻullanuvchi shaxslar boʻlgan. Gerodot «Tarix» asarida skiflar qavmi oʻrtasida seyrgarlik bilan shugʻullanuvchilar koʻp boʻlganligini taʼkidlaydi. Ayrim manbalarda, masalan, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida Turon mamlakati hukmdori Afrosiyobga taʼrif berilar ekan, «u jodugar Nuh podshoning bolalaridan» deb koʻrsatiladi. Seyrgarlik Nuhga va Afrosiyobga bogʻlanishi turkiy qavmlarning bosh boʻgʻiniga mansub hukmdorlar ham seyr-jodu ishlarini bilishiga ishoradir. Tabariyning «Tarixiy Tabariy» asarida esa Afrosiyobning oʻgʻli Shad seyrgar boʻlgani va Eron lashkarlariga xavf tugʻdirganligi zikr etilgan.

Buddizm yoki burhonlik (*budda nomidan olingan. sanskritcha buddha – nurlangan*) miloddan avvalgi VI–V asrlarda paydo boʻlgan va jahon xalqlari oʻrtasida keng tarqalgan dinlardan biridir. Buddizmning asoschisi Siddhartta Gautama (623-544)dir. Bu din taʼlimotiga koʻra, ruh koʻchib yuradi, u qayta tugʻiladi, jonli va jonsiz narsalar shakliga kiradi. Qadimgi turkiylar ham budda dini aqidalariga ishonishgan. Hozirgacha buryat, qalmoq, tuva va Sibirda yashaydigan boshqa turkiy qavmlar oʻrtasida buddaga eʼtiqodlilari mavjud.

Moniylik taʼlimoti xitoylik Moniy ibn Fatak (216-276) nomi bilan bogʻlanadi. Uning taʼlimoti koinotda nur bilan zulmat oʻrtasida kurash boʻlishiga asoslanadi. Shu sababli ham nur – Quyosh, Oy, yaʼni nur taratuvchi osmon jismlari

muqaddas sanaladi va ularga sig'iniladi. Nur va zulmat o'z mantig'ini yaxshilik va yomonlik kurashida topadi. Moniylik VIII asrda uyg'urlar o'rtasida asosiy din sifatida tarqalgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Buguxon 762 yilda Chin (Xitoy)ga safar qiladi. U yerda Moniy rohiblari bilan tanishadi va ularni o'zi bilan birga Qorabolg'asun shahriga olib keladi. Moniylik turkiy adabiyot rivojiga ta'sir ko'rsatgan dinlardan biridir. Bu oqimning ta'sirida turkiy adabiyotda «Xuastuanift» («Moniylik tavbanomasi») asari yuzaga kelgan. Uning qadimgi turkiy tildagi uchta nusxasi ma'lum. Ulardan London va Berlin nusxasi moniy, Sankt-Peterburg nusxasi esa eski uyg'ur yozuvida bitilgan. Asarning yaratilish davri, V.V.Radlov fikricha, taxminan V asr, S.YE.Malov xulosasiga ko'ra, VII asrga to'g'ri keladi. O'zbek olimlaridan professor N.Rahmonov tadqiqotlarida «Xuastuanift»ning g'oyasi, tuzilishi, ahamiyati keng o'rganilgan.

Zardushtiylik dini miloddan avvalgi VI-V asrlarda yuzaga kelgan. Bu din Zaratushtra (ba'zi manbalarda Zardusht yoki Zardo'st) nomi bilan bog'liqdir. Zardushtning shaxsiyati to'g'risida ikki xil qarash mavjud. Ayrim tadqiqotchilar Zardushtni miloddan avvalgi 589-512 yillarda yashagan ilohiyotchi faylasuf, tabiatshunos va shoir deb hisoblaydilar. U Eronda yashagandir. Bunday fikr tarafdorlari zardushtiylik qadimgi Eronda keng tarqalgani va bu dinning muqaddas kitobi «Avesto» eron-pahlaviy tilida yaratilganligini asos qilib oladilar. Boshqa olimlar esa Xorazmni zardushtiylikning vatani deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, birinchi marta muqaddas olov «Atarxurra» yongan joyning jo'g'rofiy o'rni va iqlimining tavsifi Xorazmga to'g'ri keladi.

Nasroniylik ta'limoti Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasiga III asrlardan boshlab kirib kelgan. Tolos, Samarqand, Ma'ruf, Hirot, Xorazmda xristianlarning ibodatxonalari, bu ta'limotni targ'ib etuvchi diniy – hududiy jamoalar bo'lgan. X asrda yashagan arab tarixchisi Xovqal Samarqand, Jizzax, Toshkent atroflarida xristianlarning qishloqlari bo'lganligini yozadi.

IV-VIII asrlarda xristianlik Kavkazdagi xalqlar, xususan, Ozarbayjon va Janubiy Dog'istonda hukmron din hisoblangan. Xristianlik ta'limoti uyg'urlar

o'rtasida ham keng tarqalgan. Bu din mazmuni qadimgi uyg'ur tilidagi matnlarda ham ifodalangan. Ularning ayrim parchalari S.YE.Malovning «Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar» kitobida keltiriladi.

Bu ta'limotlar birgina turkiy xalqlarga tegishli emasligi yaxshi ma'lum. Ular bu yerda yashagan barcha xalqlar uchun birday ahamiyatli. Bundan tashqari, O'rta Osiyo xalqlarining Gretsiya, Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa yurtlar xalqlari bilan aloqasi ham mazkur ta'limotlarning boyib va yangilanib borishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Greklar tomonidan antik davrda yaratilgan ellinizm madaniyati izlari O'rta Osiyo xalqlari tarixida chuqur iz qoldirgan. Bu yerda grek xudolariga atab ibodatxonalar qurilgani buni tasdiqlaydi. Greklarning bosh xudosi Zevs bilan zardushtiylik xudosi Axura Mazda, Apollon bilan Mitra, Afrodita bilan Anaxita to'g'risidagi tasavvurlar bir-biriga uyg'unlashib ketdi. Natijada Grek-Baktriya hukmronligi davrida greklar ta'limoti sharqiy ellinizm tusini oldi.

Shuning barobarida, O'rta Osiyo ham Yevropa antik madaniyati rivojiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi. Bunga "tarix otasi" nomi bilan mashhur, antik madaniyat namoyandalaridan biri Gerodotning (m.a. V a.) «Tarix» asarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Uning to'rtinchi kitobida skiflar va ularga yaqin qavmlarning turmush tarzi, hayoti bilan bog'langan rivoyat hamda afsonalar keltiriladi, skiflarning forslar bilan urushlari ko'rsatiladi. Shuningdek, bu davrning boshqa tarixchilari O'rta Osiyo turkiy qavmlari – skif, kimmer, sak, massaget kabilar haqida o'z asarlarini yozib qoldirganlar. Qadimgi turkiylarning hayoti Kteziy (m.a. V-IV a.), Xares Mitilenskiy (m.a. IV a.), Polien (m.a. II a.), Strabon (m.a. I a.), Diodor (m.a. I a.) va boshqa antik tarixchilarning kitoblarida yoritilgan, rivoyat hamda afsonalari keltirilgan.

Xitoy, Hindiston, Eron, Suriya, Misr, Mesopotamiya, Ural, Sibir, Volgabo'yi va Bobil (Vavilon) bilan munosabatlar haqida ham xuddi shunday ma'lumotlarni keltirish mumkin. Binobarin, manbalar O'rta Osiyoda qadimiy etnik qavmlardan massagetlar, xorazmiylar, sug'dlar, parfyanlar va boshqalar yashaganidan va ular

boshqa hududlardan ko‘chib kelgan turkiy xalqlar bilan aralashib, chatishib hozirgi millatlarning shakllanishini ta’minlaganidan guvohlik beradi.

Biz uchun bu xildagi ta’limotlar va davlatlarning paydo bo‘lishi adabiy-badiiy tafakkurning toblanib, taraqqiy etib borishini anglatishi bilan ahamiyatli. Zero, xalq orasida keng va chuqur ildiz otgan ta’limot badiiy ijod sohalarida mislsiz ko‘p va xilma-xil ko‘rinishdagi g‘oyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgani ko‘p bor kuzatilgan. Turkiy adabiyotda ham bu ta’limotlar ta’sirida benihoya ko‘p og‘zaki ijod namunalari – qo‘shiqlar, miflar, afsona va qissalar yaratildi.

Markaziy Osiyo kengliklarida turkiy xalqlarning istiqomat qilishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Lekin O‘rta Osiyoning janubiy qismida azaldan eron tillari gruppasiga kiruvchi lahja va shevalarda so‘zlashuvchi qavm va xalqlar yashab kelar edi. Bu yerda vujudga kelgan Grek-Baktriya davlatida davlat tili grek tili edi. Xitoy sayyohi Si Ma Syan, shuningdek, grek tarixchisi Strabon kabilar Baktriya, Sug‘diyona, Parfiya, Eron va Midiya xalqlarining tillari bir-biriga o‘xshashi va ular bir-birlarini yaxshi tushunishlari haqida yozib qoldirishgan. Lekin bunday fikrlar bu yerda turkiy xalqlar umuman yashamagan degan tushunchani bermaydi. Balki turkiy xalqlar O‘rta Osiyoning bu qismida nisbatan ozchilikni tashkil etgani bilan izohlanishi mumkin.

Miloddan avvalgi II asrda xunnlarning bu hududlarga kirib kelishi, unda yashayotgan mahalliy xalqlar bilan chatishib ketishi va ular ham turkiy tilda so‘zlay boshlashi O‘rta Osiyoni asosan turkiy xalqlar istiqomat qiluvchi hududga aylantirdi. Shuningdek, bu chatishuv turkiylarga O‘rta Osiyoda azalda eroniy tillar vakillari tomonidan yaratilgan merosga sheriklik asosida egalik huquqini ham berdi. Chunki keyingi turkiylar tomirida xorazmiy, so‘g‘d va massaget kabi eroniy tilli xalqlar qoni ham oqa boshladi. Turkiy va eroniy tillar yanada yaqin aloqaga kirishda va o‘zaro ta’sir natijasida rivojlanib bordi.

O‘rta Osiyo xalqlari yozuvlar tarixi ham juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Fanda oromiy yozuvining miloddan avvalgi birinchi ming yillikda keng yoyilgani, Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyin grek yozuvi ham rasman qo‘llana

boshlagani, bulardan tashqari, ma'muriy hujjatlarda forsiy mixxat yozuvidan ham foydalanilganligi aniqlangan. Keyinchalik oromiy yozuvi asosida xorazm, so'g'd, kushon, dulbarjin (run – Urxun–Enasoy) va uyg'ur yozuvlari yaratilgan. «Avesto» yozuvi ham miloddan avvalgi V asrda yaratilgan edi. Adabiyotimiz uchun bu yozuv asosida «Avesto»ning, run yozuvida Urxun Enasoy bitiklarining, so'g'd yozuvida so'g'd taqvimining va bizgacha saqlanib qolgan 80 hujjat hamda tangalardagi xatlarning, uyg'ur yozuvidagi hujjatlar, jumladan Amir Temur yorliqlarining hamda juda ko'p badiiy asarlar yaratilishi va ko'chirilishining ahamiyati kattadir.

Arxeologik va san'at yodgorliklari. Arxeologlar tomonidan olib borilgan ishlar O'zbekiston yerlarida insoniyat hayotining ibtidosidayoq, ya'ni eng qadimgi zamonlardan boshlab insonlar yashaganiga va ularning ilk davrlardan o'z ruhiy hayotlarini anglash hamda fikrlash qobiliyatlarini ishga solganlariga guvohlik beradi. Jumladan, Boysun tog'larining Teshiktosh darasidan 8-9 yoshli bolaning bosh suyagi topilgan bo'lib, u neandertal odam zotidan ekani aniqlangan. Biz uchun e'tiborli jihati shundaki, bola maxsus qazilgan qabrga ko'milgani va qabr tepasiga tog' echkisining shoxlari o'rnatilganidir. Bu marhumni ko'mish, uni xotirlash marosimlari, shuningdek, o'limdan keyingi hayot to'g'risida tasavvurlar bo'lganidan dalolat beradi. Bunday marosim va tasavvurlar esa ibtidoiy ijodiy tafakkur mahsuli edi.

O'zbekiston yerlarining juda ko'p joylaridaga tog' va g'orlarda qadimiy toshga o'yilgan suratlar bor. Janubiy O'zbekistonning Ko'hitang tog'laridagi Zaravutkamar deb atalgan g'oridan topilgan suratlar qadimiy odamlarning surat chizishdan tashqari ularning ov qilish san'atlarini ham namoyon qiladi. Tasvirda yovvoyi buqaga hujum qilayotgan ovchilarning katta yopinchiq yopinib, qushlar ko'rinishiga kirib olganlari aks ettirilgan. Tabiiyki, ovda bunday chalg'itish ish beradi. Akademik A.Qayumov va professor N.Mallayevlar bunday suratlarning bir qanchasi borligini ta'kidlaydilar. Jumladan, Samarqandga yaqin Ilonsoy, Oqsoy,

Toshkent yaqinidagi Hojikent qishlog'ida, Farg'ona vodiysidagi Takatosh deb atalgan joylarda xuddi shunday mazmundagi suratlar bor.

Mazkur suratlariga ijodiy asar sifatida qaraladigan bo'lsa, ularning metodi ibtidoiy realizm sifatida belgilanishi mumkin. Mezolit davriga xos suratlar ijodiy metodini magik simvolizm deb qarash to'g'ri bo'ladi. Chunki bu davrda yaratilgan suratlarda magik mavzular ustunlik qiladi. Dumli odamlar, hayvon skletlari tasvirlari ma'lum magik tushunchaning ramzi, simvoli bo'lib xizmat qila boshlagan. Tasvirlardagi bu murakkablashuvni tafakkurda ijodiy takomil kechayotgani sifatida baholashga ham imkon beradi. Bunday tasvirlar simvollarning so'zdagi shakllari: aytimlar, duolar bo'lganiga ishora qiladi.

Samarqand yaqinidagi Talibarzu va Afrosiyobda bir xildagi bir necha bo'ydor, boshiga atrofi qalin konussimon kiyim, egniga chakmon, oyog'ida uzun qo'njli etik kiygan, bo'yniga oltin va kumushdan marjonlar taqqan arxaik figuralar topilgan. Uni olimlar quyosh xudosi Mitraning qiyofasi deb taxmin qilganlar. Bunday kult va ilohalar tasviri oldida ham aytiladigan ibodat kalimalari bo'lganini taxmin qilish mumkin.

Bulardan tashqari, shohlar saroyidagi bazmlar, ziynatlangan oq fillar, xanjar, qalqon, sirtmoq tutgan jangchilar, shoh huzuridagi elchilar, qadah ko'targan ayonlar, ovchilar va turli jonivorlarning tasviri tushirilgan oltin, kumush va bronza metallariga hamda devorlarga tushirilgan rasmlar juda ko'p topilgan. Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan musiqa chalayotgan uch ayol va Tuproqqal'adan topilgan arfa chalayotgan ayol tasviri tushirilgan frizlar tasviri san'at yodgorligi bo'lib qolmasdan xalqning badiiy tafakkuri rivoj topayotganiga ham dalildir.

Arxeolog S.P.Tolstov Xorazm zaminida tekshirishlar olib borib, miloddan avvalgi IV ming yillikka oid madaniy yodgorliklarni aniqladi va ularni "Kaltaminor madaniyati" nomi bilan e'lon qildi. Xususan, Jonbosqal'aga tegishli ma'lumotlar katta ahamiyatli. Qal'ada asosiy markaz olov yonib turgan otashkada hisoblangan. Qal'a ahli tosh va suyakdan ishlangan qurollarga, san'atkorona ishlangan idish-tovoqlarga hamda bezak marjonlarga ega bo'lishgan. Gulxandan

xoli joylarda jamoa marosim o'yinlari maydonlari bo'lib, ularda o'yinlar ijro etilganidan dalolat beradi. O'yinlar musiqani talab qilganidek, bunday tadbirlarda musiqa ham she'rsiz mukammal bo'la olmaydi. Uzoqroq davom etadigan o'yin-raqs tadbirlari qo'shiqsiz bo'lmaydi. Demak, Jonbosqal'a yodgorliklari u mansub bo'gan davrlarda ham ijodiy tafakkurning mavjud bo'lganini tasavvur qilishga imkon beradi.

III asrda Xorazm shohlarining poytaxti bo'lgan Tuproqqal'a yodgorligi arxitekturasini o'zining mukammalligi bilan qadimshunoslarning e'tiborini qozongan. Uning loyihasidan boshlab devorlariga berilgan bezaklarigacha san'at darajasida bajarilgan.

Biroq bu o'lkalarning arablar tomonidan bosib olinishi keyinchalik qanchalik ijobiy hodisalar ro'yobga chiqishiga xizmat qilgan bo'lmasin, dastlabki davrda na faqat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotni, balki madaniy va adabiy rivojlanishni ham butkul izdan chiqardi. Turkiy xalqlar madaniyati va adabiyoti IX – X asrlarda arab-islom mezonlari asosida qayta shakllanish jarayonini boshdan kechirdi.

Yozma adabiyot nishonalari. Turkiy xalqlarning islomgacha bo'lgan yozma adabiyoti eramizning III asridan boshlangani to'g'risida ma'lumotlar bor. Turk olimi Raxmet Arat qadimgi turkiy yozma adabiyotga asos solgan va islomgacha ijod etgan shoirlarning hayoti va ijodi to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni aniqlagan.

1. Aprinchur Tegin – ikki she'ri saqlanib qolgan.

2. Kul Tarxon – manbalarda nomi zikr etilsa-da, merosidan namunalar mavjud emas.

3. Singku Seli Tutung – mashhur Chin sayyohi Husn-Tsangning sayohatnomasini o'ninchi asrning birinchi yarmida turkchaga ustalik bilan tarjima qilgan shoirdir. Bu tarjima Parij milliy kutubxonasida saqlanadi.

4. Ki-ki – Burxan-Budda muhitida yetishgan bu shoirning ikki she'ri saqlanib qolgan.

5. Pratyān-Shiri – Sanskritchadan turkiyga tarjimalar qilgan shoir sifatida ma'lum, lekin uning turkcha ismi va o'z ijodidan namunalar saqlanib qolmagan.

6. Asig Tutung – bir to'rtlikda nomi keltirilib o'tilgan, lekin ijodidan namunalar saqlanib qolmagan.

7. Chusuya Tutung – Burxon muhitida yetishgan bu shoirning «Gevezelik Bo'yasi» sarlavhali bir she'ri saqlanib qolgan.

8. Kalim Keysi – Burxon rahbarlari avlodidan sanalgan bu shoirning birgina she'ri saqlanib qolgan.

9. Chuchu – «Devonu lug'ati-t-turkda» nomi keltirilgan bu shoirning hech qanday merosi saqlanib qolmagan.

“Devon”da ko'p o'rinlarda she'riy misollardan oldin “shoir so'zi budur” degan birikma keladi. O'sha misol tariqasida keltirilgan she'rlar va kashqarliklar tilidan yozib olingan ajoyib o'git va o'rnaklarning bir qismi Chuchuga tegishli bo'lishi ham mumkin.

Bu manbalar qanchalik kam kam bo'lmasin, turkiy xalqlar madaniy hayoti tarixida yozma adabiyotning shakllangani va ma'lum ma'noda taraqqiyot darajasiga erishganini ko'rsatuvchi hujjatlar sifatida qadrlidir.

Og'zaki ijod. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi manbalari, shakllanishi, rivojlanishi, jahon xalqlari adabiyoti bilan mushtarakligi va janr xususiyatlari akademik A.Qayumov, professorlar N.Rahmonov va A.Abdurahmonovlar asarlarida atroflicha tavsiflandi. Quyida A.Abdurahmonov aniqlagan turkiylar og'zaki ijodiga xos janrlar haqida to'xtalamiz:

Bilig – hozirgi o'zbek tili lug'at boyligidagi maqol janrining mazmunini ifodalaydi. Maqolda xalqning, ijtimoiy tabaqa yoki guruhning dunyoqarashi, hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari ifodalanadi. Qadimgi turkiylarning bilgari aytgan biliklar ham shunday xususiyatga egadir.

«Devonu lug'otit turk»da biliklardan ko'plab namunalar keltirilgan:

Ag'iz yyesa, ko'z uyazur – Og'iz yesa, ko'z uyalur.

Etli, tirinaqli ezirmas – Et tirnoqdan ayrilmas.

Qarg'a qazg'a o'tko'nsa, buti sinur – Qarg'a uchishda g'ozga taqlid qilsa, buti sinar.

Qo'sh qilich qinqa sig'mas – Qo'sh – ikki qilich bir qing'a sig'mas.

1. O'tluk – «Devonu lug'otit turk»da o'git, nasihat ruhidagi she'rlar **o'tluk** deb nomlanadi. Ba'zan bu atama ma'nosini **o'vo't** so'zi ham ifodalagan. O'vo't asli o'gitdir. O'tluk tarbiya mavzusidagi bir necha bandli o'git hamda nasihatlaridir.

Qo'shni-qo'nuq ag'ishqa, (Qo'ni –qo'shni qarindosh,

Qilg'il ang'ar ag'irlik. Ko'rsin sendan yaxshilik.

Artut alib anung'il, Ne-ne sovg'a qilishga,

Ezgu tavar o'g'ruluq... Yaxshirog'in qil ortiq.)

3. Tabzug' – turkiy adabiyotdagi qadimiy janrlardan biridir. Turkiy xalqlar topishmoqni shunday ataganlar. Lekin ular faqat kichik matndangina iborat bo'lmay, narsa buyumlar haqidagi savol-javoblar orqali ham ifodalangan. Bunga Gerodotning «Tarix» kitobida berilgan «Doroning Skifiyaga yurishi» qissasini misol tariqasida keltirish mumkin. Lekin avval shuni aytish kerakki, bu usul turkiy xalqlar og'zaki ijodida juda qadim zamonlarda ildiz otganligini ko'rsatadi.

Skiflar hukmdori Doroga qush, sichqon, qurbaqa va beshta kamon o'qini sovg'a qilib jo'natadi. Bu narsa-buyumlarda ma'no yashiringan bo'lib, Doro uni topishi kerak edi. Forslar hukmdori topishmoq-buyumning javobini quyidagicha izohlaydi: «Skiflar menga hokimiyatni, yer hamda suvini topshirmoqchi. Sichqon yerda yashaydi, insondek yerning mahsulotidan oziqlanadi. Qurbaqa suvda yashaydi. Qush chaqqonligi bilan otga o'xshaydi, kamon o'qlarini topshirishlari esa skiflarning bizga qarshilik ko'rsatmasliklarining belgisidir».

Doro Skifiyaga bostirib kirganida uning qo'shini safida Gobriy ismli dono kishi bor edi. U skiflar jo'natgan buyum – topishmoqni boshqacha izohladi. «Agar siz, forslar, qushdek osmonga parvoz etmasalaringiz yoki sichqondek yer ostiga yo'qolmasalaringiz yoki qurbaqadek botqoqqa sakrab tushmasalaringiz ushbu kamon o'qlaridan halok bo'lasizlar, vatanlaringizga qayta olmaysizlar».

4. **Sandrush** – Sandrush qadimgi turkiy tilda «tortishuv» ma’nosini beradi. Bu janr o’zining keyingi taraqqiyoti davomida “munozara” deb atala boshladi. Qadimgi turkiylarning “Qish va yoz” sandrushiga bunga misol bo’la oladi.

5. **Yig’i-yo’qlov** – Qadimgi turkiylarda biror shaxsning o’limi munosabati bilan odamlar to’planib, ko’z yosh to’kishi yig’i-yo’qlov, vafot etgan kishining sifatlarini aytib yig’lagan, o’z g’am-anduhini to’kib, ko’z yoshi qilganlar yig’ichidir. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi adabiyotshunosligimizda qadimgi turkiy adabiyotga nisbatan qo’llaniladigan marsiya janri (masalan, «Alp Er To’nga» marsiyasi)ni yig’i-yo’qlov atamasi bilan umumlashtirish xato hisoblanmaydi.

6. **To’rtlik** – «Devonu lug’otit turk» orqali bizgacha yetib kelgan qadimgi she’riy asarlarning bandlanishi to’rt misralikdir. Turkiy adabiyotdagi to’rt misralik she’r va bandi to’rt misralik bo’lgan she’rlar o’rtasida o’ziga xos tafovut bor, albatta. Tugal mazmunni ifodalagan to’rt misrali she’rlar Sharq adabiyotida ruboiy deb ataladi. Devonda pand-nasihat ruhidagi quyidagi to’rtlik keltirilgan:

*Qarduni yenyu saqinmang,
Tuzg’uni manyu sezinmang.
Bulmadiq nenga sevinmang,
Bilgalar ani yirar.*

Mazmuni:

*Muzni javohir deb bilmang,
Hadya oshni yeb qo’ymang.
Behudaga sevinmang,
Donolar shuni aytur. (A.Abdurahmonov tushuntirishi)*

7. **Tuyuq** – ma’lumki, ko’p ma’noli so’zlar Sharq adabiyotida tajnis san’ati yuzaga kelishiga asos bo’lgan. Turkiy adabiyotda esa boshqa xalqlar adabiyotidan farqli o’laroq, tuyuq janri shakllangan bo’lib, uning asosini qofiyalarning tajnisli – shakl bir xil, ammo ma’nolarning har xilligi tashkil etadi. A.Abdurahmonov unga Yusuf Xos Hojibdan misol keltiradi:

*Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g,
Ani er, atag'il, necha o'gsa o'g.
Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
Yavuz ersa kaz te, kichig ersa o'g.*

Bu tuyuqda o'g – aql, maqtamoq, ulug'lamoq ma'nolarida qo'llanilgan.

8. **Alqish** – olqish, maqtash, duo qilmoq, madhiya aytmoq, tabriklamoq ma'nolarida qo'llaniladi. Olqishning Tangri, hukmdorlar va qahramonlar sharafiga yozilishi kuzatiladi.

9. **Qarg'aq** – qarg'ish, la'nat ma'nosini beradi.

10. **Qoshug'** – she'r, qasida, qo'shiq janrlarining ma'nosini umumlashtirgan. Devonda **qo'shildi** so'ziga izoh berilar ekan, ir qo'shildi iborasi keltiriladi. Buning ma'nosi she'r aytiladi, qo'shiq to'qildi iboralariga to'g'ri keladi. Professor S.Mutallibov shu o'rinda qo'shug' haqida fikr yuritir ekan, «Qo'shuq so'zining asl ma'nosi bir so'zning boshqa so'zlarga qo'shilishi, ma'lum bir vazn talab qilgan miqdordagi so'zlar qo'shilmasi – tizmasi» deb yozadi. Demak, she'riy yo'lda yozilgan asarlarga nisbatan qo'shiq atamasining qo'llanishi shu ta'rifga mos tushadi.

*Ko'glar qamug' tuzuldi, Kuylar ajab tuzildi,
Ivriq izish tizildi. May idishi tizildi.
Sensiz uzum uzaldi, Sensiz ko'nglim ezildi,
Kelgil, amul o'ynalim. Kel, shodlanib o'ynaylik.*

*Ivriq bashi qazlayu, May idishi g'oz bo'lsin,
Sag'raq tulu ko'zlayu. Tubi ko'z kabi to'lsin.
Saqinch ko'zi kezlayu, G'amni ko'maylik, o'lsin.
Tun kun bila sevnalim... Tun kun o'ynab kulaylik.*

Manbalarda turkiy xalqlarning turli mavsum, udum va urf-odatlar bilan bog'liq bir necha qo'shiqlari saqlanib qolgan.

11. **Yir** – kuy, maqom. Ko‘pincha bu so‘z she’rga nisbatan qo‘llanadi. Bu so‘z ir tarzida ham talaffuz qilinadi. Bu atama “Devon”da «g‘azal, maqom, kuy» shaklida izohlangan. Demak, yir qadimgi musiqaga ham tegishli atama bo‘lib, lekin ko‘proq she’rga nisbatan ishlatilgan.

Ko‘g – she’r va musiqa mujassamligidagi janr hisoblangan.

Mahmud Koshg‘ariy ko‘gni yana shunday izohlaydi:

«Bir xil kulgiki, har shahar xalqi orasida mashhur bo‘lib, aytib yuriladi. *Bu yil bu ko‘g keldi* – bu yil bu kulgi chiqdi, deyilishi kabi». Demak, ko‘g quvnoq she’riyatni, sho‘x musiqani ifodalagani kabi kulgili voqealar, hangomalar ham shu atama bilan yuritilgan.

12. **Sav** – bu adabiy atama turkiy xalqlar o‘rtasida bir necha janr va tushunchalarning nomini ifodalagan. «Devonu lug‘otit turk»da savga shunday izoh beriladi:

Sav – 1. Otalar so‘zi. 2. Qissa; qadimgi voqealardan xabar berish. 3. Hikoya; biror voqeani aytib berish. 4. Risola, kichik kitobcha; xat. 5. So‘z, nutq. 6. Ilgarigi xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi nabi – payg‘ambarga ham savchi deyiladi.

Savning **qissa** turi syujetli she’riy hamda nasriy asarlarga nisbatan qo‘llangan. Eramizdan oldingi davrlarda yaratilgan «Ko‘ tai», «Olamning yaratilishi», «Doroning Skifiyaga yurishi», «Tomir qissasi», «Eorpata (erlardan kuchli ayol)lar» kabi asarlar, shuningdek, keyingi davr turkiy adabiyotning mahsuli bo‘lgan «O‘g‘uznoma», «Qo‘rqit ota kitobi» kabi yirik hajmli dostonlar sav – qissaning namunalaridir. «Devonu lug‘otit turk» kitobida keltirilgan turk xoqoni Shu haqidagi nasriy asar ham bu janrning namunasi bo‘la oladi.

Yuqorida sav **hikoya** janrining nomi sifatida keltiriladi. Devonning boshqa o‘rnida esa, hikoya **o‘tkunch** atamasi bilan ifodalangan. Qadimda og‘zaki adabiyot va uning janrlari yetakchi mavqe egallaganligi sababli devonda janrlar ta’rifiga ham shu nuqtai nazardan yondashilgani ahamiyatlidir. Shu sababli ham sav biror voqeani aytib berish yoki hikoya qilish hisoblansa, o‘tkunch – hikoya, **o‘tkundi** – hikoya qildi mazmunini beradi. Sav hamda o‘tkunch hikoya qilish, bayon etish,

xabar berish usuli hayotiy voqealarga, turmush haqiqatiga mos keladigan hodisalarga daxldordir. Chunki qadimgi turkiy adabiyotda **etuk** – ertak janri ham mavjuddir. Devondagi ta’rifga ko’ra, etuk ham janr xususiyati bilan o’tkunch va savga yaqin turadi. Mahmud Koshg’ariy yozadi: «*Etuk* – hikoya, ertak. Biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so’z qo’llaniladi. Aslida bir narsani hikoya qilishdan olingan» (Devon).

Demak, sav, o’tkunch, etuk janrlaridagi yaqinlikka ko’ra qadimgi turkiy adabiyotda skiflar hayoti bilan bog’langan ko’plab kichik hajmli, biror voqea aks etgan, jumladan, «Targ’itoy», «SHerak», «Malika Zarina», «Malika Sparetra» kabi kichik syujetli asarlarni shu janrlar tarkibiga kiritish mumkin. Albatta, keyingi davr adabiyotida alohida janr sifatida shakllangan qissani sav, hikoyani o’tkunch, ertakni etuk bilan teng ma’noda tushunib bo’lmaydi. Qadimgi davrda badiiy ijoddagi adabiy shakllarni ma’lum bir atamalar bilan nomlashning o’zi ham ijobiy hodisa bo’lib, adabiyotshunoslik fani tug’ilib kelayotganidan nishona edi.

Qadimgi turkiy xalqlar og’zaki ijodida risola yoki xat (arabcha munshaot)ning asl nusxalari saqlanmagan, lekin xatlarning tarix kitoblari orqali ifodalangan yoki qissalar tarkibida keltirilgan shakllari mavjud. Masalan, «Doroning Skifiyaga yurishi», «Tomir qissasi» tarkibida turkiy hukmdorlarning fors shohlariga yo’llagan xatlari keltiriladi. Demak, xatlarda ma’lum bir voqea-hodisa bayon etilganligi sababli ular ham sav deb nomlanishiga asos bor. «Ta’birnoma» kitobcha holida topilgan asardir. U mustaqil mazmun, g’oya, kompozitsion qurilishga ega. Shu sababli «Ta’birnoma» ham sav namunasi hisoblanadi.

13. **Sav – otalar so’zi.** «Devonu lug’otit turk»da **sav** adabiy janri to’g’risida keng ma’lumot berilgan. Sav voqeiy tasvirga xos bir necha janrning umumlashma nomi, ya’ni hozirgi adabiyotshunoslikdagi epik tur atamasiga yaqin turadi. Devonda «Otalar so’zi» iborasi sav atamasi bilan ham ifodalangan. «**Savda shundag’ kelir**» – otalar so’zi shundoq keladi. «Otalar so’zi» ham bilik ma’nosiga yaqin turadi, ammo bu ikki atamaning farq qiluvchi xususiyatlari ham mavjud. Biligda dono fikrlar va hikmatli so’zlarning qisqalik, lo’ndalik, ayni paytda

ko'chma ma'nolik xususiyatlari mujassamlashadi. Bilgning ijodkori zamondosh bilga bo'lishi ham mumkin. «Otalar so'zi»ning janr xususiyati o'tmishdan meros bo'lib qolgan pand-nasihat, axloq, odob ifodalangan asarlarni qamrab oldi.

14. **Savlashdi** – Mahmud Koshg'ariy qadimgi adabiy janrlar haqida ma'lumot berar ekan, **sav** o'zagiga **-lashdi** qo'shimchasini qo'shish orqali turkiy xalqlar og'zaki ijodida mavjud bo'lgan yana bir janr to'g'risida ma'lumot beradi. «*Savlashdi* – masal aytishdi. *Ul mening birla savlashdi* – ul men bilan masal aytishdi, u menga masal aytdi. Shuningdek, xabarlar, so'zlar, hikoyalar aytishga ham bu so'z qo'llaniladi». Demak, sav – keyingi davr adabiyotida masal (arabcha) nomi bilan ifodalangan janr mazmunini ham qamrab oladi. Devonda berilgan bitik – maqollar orasida ixcham masallar ham uchraydi. Shu sababli bitiklar tarkibidagi sav – masallarni ajratib o'rganish o'ziga xos ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

15. **Irq bitigi** – **irq** – bashorat qilish, aytib berish, topish; bitik – yozuv, kitob. Demak, irq bitigi – bashorat qilish, kelajakni aytib berish haqidagi kitob, ya'ni folnomadir.

16. **Tangrikla** – qadimgi turkiy tilda *Tangri* so'ziga -k+la qo'shimchasini qo'shish bilan yangi so'z yuzaga keldi. Tangri – ot; -la harakatni bildiruvchi so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, Tangriga yolvor, Tangriga tovba qil ma'nosini beradi. Turkiy xalqlar adabiyotida insonning tangriga tavba-tazarrusi ifolangan she'rlar va katta hajmli asarlar ham yaratilgan. Bunday mazmundagi asarlar **tangrikla** – tovbanoima janri namunasi hisoblanadi.

Albatta, bu janrlar nazariy asoslanib rasmiylashmagan. Shunga qaramay, o'z davrining ijodkorlari ularning shakl va mazmuni hamda talablari haqida tasavvurga ega bo'lgani adabiy yodgorliklarda o'z ifodasini topgan.

Mifologiya. Olimlar ko'pincha mif va afsonalarning yaratilishini ibtidoiy odamlarning tabiat sirlarini bilmasliklari, ojizliklari, ijtimoiy nochorliklari va orzu-istaklari ifodasi sifatida izohlaydilar. Lekin miflarga bunday ta'rif berish jahon adabiyotshunosligida mutlaqlik kasb etmaydi. Masalan, XIX asr boshida Yevropada vujudga kelgan mifologik maktab ilmiy yo'nalishi, XX asrda G'arb

adabiyotshunosligida paydo bo'lgan ritual-mifologik tanqid metodi yuqoridagi qarashlarni inkor etgan edilar.

Mifologik maktab ilmiy yo'nalishiga F.SHelling, A.Shlegel, F.Shlegel kabi mutafakkirlarning estetik ta'limoti falsafiy asos bo'lib xizmat qilgan. Bu yo'nalish namoyandalarining fikriga ko'ra, "mif har qanday san'atning vujudga kelishida zaruriy shart, asos" (SHelling), "poeziyaning yadrosi, javharidir" (F.Shlegel). Aka-uka Y.Grimm va V.Grimmlar ham bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatib qanday muvaffaqiyatlarga erishganlari ma'lum. Ular jahon xalqlari ertaklarini to'plash va yangilarini yozish barobarida 1835 yildi nashr qildirgan "Olmon mifologiyasi" asari bilan mifologik maktab yo'nalishining nazariy asoslarini takomiliga yetkazdilar.

Ritual-mifologik tanqid metodi vakillari esa miflarning kelib chiqishini, asosini bilimsizlik, ojizlik va notovonlikka emas, balki rituallarga bog'lab tushuntiradi. Ularning fikricha, barcha adabiy hodisalar ritual-mifologik asosga tayanadi.

Mazkur yo'nalish va metodlar keyingi olimlar tomonidan rad qilindi. Lekin bunday nazariyalar miflarga o'ziga xos yangi nuqtai nazardan yondashish mumkinligini ko'rsatib berdi.

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, mif tom ma'noda so'z san'ati hodisasi emas, ya'ni haqiqiy adabiy hodisa bo'la olmaydi. Biroq bu fikrni ham mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki, birinchidan, mif avvalo adabiy hodisa, u adabiyotshunoslikning tekshirish obyekti. Mif bilan falsafa, arxeologiya, tarix, etnografiya va til tarixi kabi fanlar ham shug'ullansa-da, ular mifologiyadan o'z mavzulari chegarasida foydalanadilar. YA'ni mazkur fanlar uchun ma'lum bir yoki bir necha mifdagi qarash, fakt, ma'lumotgina ahamiyatli. Adabiyotshunoslik miflarni har tomonlama va ma'lum tizimlilikda o'rganadi.

Ikkinchidan, mifda ramziy va majoziy obrazlar orqali fikr yuritiladi. Ramz va majoz esa ijodkorona yondashuvsiz va so'z san'atisiz yaralmaydi.

Ma'lum bir mifning yaralishi muayyan muddat, davrni talab qiladi. Biror avlod yoki guruhagina xizmat qilish bilan chegaralangan adabiy to'qima mif darajasiga ko'tarila olmaydi, u bir necha avlodlar tomonidan e'tirof etilishi va tildan tilga ko'chishi hamda bir necha talqinga yaroqli bo'lishi shart.

Miflar insoniyat badiiy ijodi tarixining ilk bosqichiga oid hodisa bo'lgani uchun unga bugungi badiiy ijod hodisasi talablarini qo'yib bo'lmaydi. Ularda badiiy tafakkur shakllanishining unsurlari bo'lishining o'zi ularga adabiyot tarixi materiali sifatida yondashish uchun yetarlidir. Markaziy Osiyo xalqlari orasida tarqalib, tarixiy manbalardan o'rin olgan miflarga yondashishda ana shu holatlarni inobatga olish lozim.

Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan har xil g'oya va maqsadlar bilan yuzlab afsonalar to'qilgan. Ularning aksariyati yunon tarixchilarining asarlarida zikr etilgan. Jumladan, Gerodotning «Tarix» kitobida skiflarning birinchi ajdodlari dunyoga kelishi bilan bog'liq bir necha afsonalar keltirilgan.

TARG'ITOIY AFSONASI⁶. *Ma'budlar ma'budi Zevs bilan Borisfenesa daryosining yarmi ilon, yarmi ayol qizidan birinchi odam tug'ildi. Kimsasiz cho'lda paydo bo'lgan bu odamning ismi Targ'itoy edi. Undan Lipoqsay, Arpaqsay, Qoloqsay degan uch o'g'il dunyoga keladi. Bir kuni osmondan omoch, arqon, bolta va tovoq yog'iladi. Ular oltindan yasalgan edi. Katta va o'rtanchi o'g'il ularni olishga yaqinlasha olmaydi. Faqat kichik o'g'il kelganida ulardan tarqalgan nur to'xtaydi va u oltinlarni uyiga olib ketadi. Shundan so'ng Qoloqsayga shohlik in'om etiladi. Bu skiflarning birinchi shohidir. Skiflar Targ'itoyning ana shu uch farzandidan tarqalishgan.*

Lipoqsayning avlodlari axvatovlar, Arpaqsayniki katiaram va trasinam, Qoloqsayniki paralatam nomi bilan shuhrat qozongan. Qoloqsaydan shoh-jangchilar, Lipoqsaydan kohin va din vakillari, Arpaqsaydan dehqon va chorvadorlar paydo bo'ldi.

⁶ Miflar matni professor A.Abdurahmonovning mazkur kitobidan olindi.

SKIFNING TUG‘ILISH AFSONASI. Gerakl Gelion buqalarini haydab, o‘sha zamonlarda kimsasiz yurt bo‘lgan, keyinchalik skiflar egallagan joylarga kelib qoladi. Gerakl sovuqdan o‘zini saqlash uchun yo‘lbars terisini yopinib olgan edi. Kunlardan bir kuni u qattiq uyquga ketganida, oti g‘oyibona yo‘qolib qoladi.

Gerakl otini izlay-izlay Galeyyey degan joyga keladi. Bu yerda u Ilonqizga yo‘liqadi. Ilonqizning yuqori qismi ayol zotiga o‘xshasa, quyi qismi ilonga o‘xshaydi. Taajjubga tushgan Gerakl undan: «Begona otga ko‘zing tushmadimi?» deb so‘raydi. Ilonqiz Gerakl agar o‘zi bilan qovushsa, otini berajagini aytadi.

Chorasiz qolgan Gerakl Ilonqizning bu taklifiga rozi bo‘ladi. Biroq Ilonqiz otni tezda qaytarib bermaydi. U Gerakl bilan yana tanmahrlikni davom ettirishni xohlaydi. Gerakl undan otini qaytarib olib, tezroq o‘z yurtiga ketish uchun qizning hamma shartlarini bajarishga rozi bo‘ladi.

Nihoyat, qiz Geraklga otini qaytarib berar ekan, shunday deydi: «Sening oting biz tomonlarga kelganda, men uni ehtiyot qilib yashirib qo‘ygandim. Evaziga sen meni mukofotlading. Endi men sendan uch o‘g‘il tug‘aman. Aytchi, ular ulg‘aygandan so‘ng nima qilishi kerak?» Gerakl shunday javob beradi: «Sen o‘g‘illaringga shunday shart qo‘yasan: ulardan qaysi birisi bu yoyni men kabi kuch bilan torta olsa, unga mening qayishim bilan o‘z yeringni berasan. Qolgan ikkisini bu yerlardan haydab yuborasan». Shunday qilib, Gerakl o‘zining yoyi bilan oltin tovoqsimon tug‘ali qayishini Ilonqizga qoldiradi.

Kunlardan bir kuni Ilon qiz uchta o‘g‘il tug‘adi. Ulardan biriga Agofir deb nom qo‘yadi, ikkinchisini Gelon, uchinchisini Skif deb ataydi. Uch o‘g‘lidan ikkitasi, ya‘ni Agofir va Gelon otasi Gerakl qo‘ygan shartni bajara olmagan uchun Ilonqiz ularni mamlakatdan quvib yuboradi. Kichik o‘g‘il Skif otasi Gerakl shartlarini bajargani uchun Ilonqiz unga tovoqsimon oltin to‘g‘ali qayish bilan bepoyon yerlarini beradi. Shundan buyon skiflar bu ellarda paydo bo‘ladilar. (prof. F. Boynazarov tarjimasi).

Bu ikki afsonada skiflarning dunyoga kelishi haqida so‘z boradi. Uni yaratuvchilar ajdodlarining Ilon va Gerakl bo‘lmaganini yaxshi biladilar. Lekin

to‘qilmaning ahamiyati inobatga olinib uning ommalashuviga ishonadilar. Gap shundaki, afsona qavm va xalqlarning shakllanish davrida yaratilgan bo‘lib, uni yaratuvchilar o‘z qavmlarining shuhrati va sha‘nini tarixi hamda kelajagini ideallashtirish bilan ta‘minlashga harakat qilganlar.

Ma‘lumki, Markaziy Osiyo Sharq va G‘arb o‘rtasida joylashgan. Sharqda eng katta va shuhratli xalq xitoyliklar edi. Ular uchun ilon (ajdar) muqaddas jonzot hisoblanar edi. Qolaversa, juda ko‘p xalqlarda ilon donolik timsoli sanalgan. G‘arbda esa yunon ilohalari shuhrat tutgan, ular orasida Geraklning o‘ziga xos o‘rni bor edi. Yunonlar mifologiyasida bu afsonaviy qahramon tug‘ilishi sharafiga xudolar Olimp tog‘ida bazm qurib o‘tirganlari ta‘kidlanadi. Zevs tug‘ilayotgan bu farzand kelajakda buyuk qahramon bo‘lishi va yer yuzida hukmron bo‘lishini bashorat qiladi. Bu bola Fiva malikasi Alkmene va shohi Anditionlardan dunyoga kelsa-da, Zevsning xotini Gera uni o‘z farzandi sifatida ardoqlaydi. Geraklning yunoncha ma‘nosi “Gera madh etgan” degan ma’noga yaqin. Shundan kelib chiqib, Gerakl nomi mazmunini **Ger o‘g‘li** deb tushunish ommalashgan, qadimgi lotinlardagi **Ger+kules**, nasroniylardagi **Geor+giy**, turkiylardagi **Geor o‘g‘li** – **Go‘r o‘g‘li** kabi qahramonlarning yaratilishi shundandir.

Mazkur miflarning yaratuvchilari zakosi shundaki, o‘z ajdodlarini ana shu shuhratli qahramonga bog‘laydilar. Binobarin, bu afsona orqali uning mualliflari turkiylarning qadimiy ajdodlari – skiflarning Sharq xalqlari tomonidan ham, G‘arb xalqlari tomonidan ham ulug‘ xalq sifatida e‘tirof etilishiga umid qilganlar. Bu bir jihati.

Ikkinchidan, o‘g‘illarning shart bajarishga majbur qilinishi va uni bajara olganda shohlik darajasini topishi ham ramziy ma’noga ega. Bu orqali avlodlar dovyuraklilikka, ruhiy va jismoniy barkamol bo‘lishga, shundagina shohlik – ulug‘lik hamda erklilik topilishi muqarrarligiga ishonch tuyg‘usi shakllantiriladi.

Bo‘ri totemi turkiy xalqlar og‘zaki ijodida alohida ahamiyatli. Folkloshunoslar ko‘pincha uni qabilaning madadkori, g‘amxo‘ri, ularni o‘z

panohida asrovchi kuch sifatida ko‘rinishini ta’kidlaydilar. Lekin bunda ham yuqoridagi kabi mazmun, maqsad bor.

O‘z ajdodlarini hayvonlardan kelib chiqqan deb hisoblash, birinchidan, insonning tabiat bilan birligini; ikkinchidan, mavjud tabiiy muhitda tanlangan hayvonning tutgan o‘rni qanchalik muhimligini; uchinchidan, qabila va urug‘lar orasida o‘z mavqeini belgilashni ifodalaydi. Bundan avlodlarda an’anaviylik ruhini tarbiyalash maqsadi ham ko‘zda tutiladi. Ashin urug‘i vakillari o‘zlarini xun shahzodasi va urg‘ochi bo‘ridan kelib chiqqanmiz, deb aytganlar.

BO‘RI URUG‘LARI AFSONASI. *G‘arbiy dengiz qirg‘og‘ida yashagan turkiylarning ota-bobolari qo‘shni qabilalar tomonidan qirib tashlandi. Faqat o‘n yoshli bola yashirinib tirik qoldi. O‘sha yerlarda yashaydigan urg‘ochi bo‘ri unga xotin bo‘ldi. Ochlikdan qutqarish, dushmanlardan yashirinish uchun bo‘ri o‘sha bolani olib Turfon tog‘lariga qochib ketdi. Tog‘da bir g‘or bor edi. U yerda urg‘ochi bo‘ri o‘nta bola tug‘di. Bolalarning otasi o‘sha qutqarilgan turk edi. Bo‘ri bolalari Turfondagi ayollarga uylandi. Har bir boladan bir urug‘ kelib chiqdi. O‘g‘illaridan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo‘ldi. Ashin boshqa aka-ukalariga qaraganda qobiliyatliroq, ham aqlli roq edi. Shu sababli Ashin yangi qabilaning dohiysi bo‘lib qoldi. Urug‘ soni asta-sekin bir necha yuz kishiga yetdi. Ashinning merosxo‘rlaridan biri, qabila dohiysi Asya shad bo‘ri avlodlarini Turfondan Oltoy yerlariga olib keldi. Bo‘ri avlodlari bu yerda jujanlarning fuqarosiga aylanib, ularga temir qazib berar edilar. Oltoyda ular turk nomini oldilar.*

Turkshunoslar «turk» so‘zi qadimda hozirgi turkiy xalqlarning umumiy nomi sifatida maydonga kelganini ta’kidlaydilar. Xitoy manbalarida ham «turk» so‘zi turonliklar, turklar ma’nolarida qo‘llanilgan. Uning mazmunida «kuch-quvvat», «kuchli, quvvatli», «yetuk», «go‘zal», «bilimdon», «dono» kabi tushunchalar mujassam.

Turkiy xalqlarning islomdan oldin nasroniylik dinini qabul qilgan qavmlari “Bibliya”dagi Nuh alayhissalom davridagi to‘fon haqida afsona to‘qiganlar. Quyida uni o‘qing va “Bibliya” va “Qur’on” variantlari bilan qiyoslang:

To‘fondan avval yer yuzining hukmdori Dengiz xon bor edi. U zamonda Nama ismli mashhur bir odam bor edi. Tangri Ulgen bu odamga dunyo to‘foni bo‘lajagini, inson bolalarini va hayvonlarni qutqarish uchun sinalgan sandal daraxtidan kema yasashni buyurdi. Namaning Suzunul, Sarul va Baliqcha ismli uchta o‘g‘li bor edi. Nama bu o‘g‘illariga, tog‘ tepasida kema yasanglar, deb buyurdi. Kema Ulgen o‘rgattaniday va ko‘rsatganiday yasaldi. Nama Ulgenning buyrug‘i bilan insonlarni va hayvonlarni kemaga oldi. Namaning ko‘zlari yaxshi ko‘rmas edi. Kemadagilardan so‘radi: «Biror narsa ko‘ryapsizlarmi?» Ular «Yer yuzini tuman qopladi, mudhish qorong‘ulik bosdi», - deb javob berdilar. Shu payt yerning ostidan, daryolardan, dengizlardan quruqlikka suvlar pishqirib chiqq boshladi. Osmondan yomg‘ir yog‘a boshladi. Kema suza boshladi. Osmon va suvdan boshqa biror narsa ko‘rinmasdi. Nihoyat, suvlar pasaya boshladi. Tog‘ cho‘qqilari ko‘rina boshladi. Kema Ko‘mguday va Tulutti tog‘laridagi quruqlikka o‘tirdi. Suvning chuqurligini bilish uchun Nama quzg‘unni jo‘natdi. Quzg‘un qaytib kelmadi. Qarg‘ani jo‘natdi, u ham qaytib kelmadi. Zag‘izg‘onni jo‘natdi, u ham qaytib kelmadi. Nihoyat, kaptarni jo‘natdi. Kaptar tumshug‘ida bir shoxni olib orqaga qaytdi. Nama kaptardan «Quzg‘un, qarg‘a bilan zag‘izg‘onni ko‘rdingmi?» - deb so‘radi. Kaptar «Ularni ko‘rdim, uchovi ham o‘limtikka qo‘nib, chuqilab yuribdi», - dedi. Nama «Ular qiyomatgacha o‘limtiklar bilan kun kechirsin, sen mening sadoqatli xizmatkorim bo‘lding, qiyomatgacha mening himoyam ostida yasha», - dedi. To‘fondan keyin Nama Yaratuvchi va Yoyiq (To‘fon)xon ismi bilan tangrilar qatorida yashadi. Keyingi nasllar unga qurbonlik keltirdilar.

Antik davr tarixchilarining kitoblarida skiflarning keyingi qavmlari hayotiga oid bir necha rivoyat va afsonalar yaratilgan bo‘lib, ularning asli saqlanmagan bo‘lsa-da, qisqacha mazmuni saqlanib qolgan. Masalan, «Tomir» («To‘maris»)

Gerodotning «Tarix», «SHerak» («Shiroq», «Sirak») Polienning «Harbiy hiylalar» kitobida, «Zarina va Striangey» esa sitsiliyalik Diodorning «Kutubxona» asarida Kteziy kitobidagi bayon asosida saqlangan. Shuni ta'kidlash lozimki, yevropalik mualliflar miqlar mazmunini o'z millatdoshlariga tushunarli bo'lishi uchun qayta ishlaganlar. Ularda nomlari kelgan qahramonlarning ismlarini istaganlaricha yevropalashtirganlar. Bu esa qissalarning ba'zi jihatlarini idrok qilishga xalaqit beradi.

Miloddan avvalgi VI asrda ahmoniylar shohi Kir O'rta Osiyoga bostirib kirdi. Bu yerdagi xalqlar Kirga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Lekin asosiy voqea Kirning Massagetlar malikasi Tomir⁷ bilan to'qnashuvida sodir bo'ldi, ya'ni u m.a. 529 yilda Malika Tomir tomonidan o'ldirildi. Bu haqda xalq qahramonlik qissasini to'qidi. Uning mazmuni quyidagicha.

Eron shohi Kir ko'pgina sharqiy mamlakatlarni bosib olgach, massagetlar yurtini ham o'ziga bo'ysundirishni o'yladi. Massagetlar jasur qavmlardan hisoblanib, ular ko'p sonli edi. Sharqda, Arak daryosining orqasida, kunchiqar tomonda, issedonlarga yonma-yon yashar edilar. Ular skiflarga mansub qavm edi.

Arak Dunaydan katta daryodir. Ayrimlar uni kichik deb hisoblaydilar. Arakda hajm jihatidan Egiy dengizidagi orol – Lesbos bilan tenglashadigan bir necha orollar mavjud. Bu orollarda yashaydigan odamlar yoz oylarida yerdan turli xil tomirlarni kavlab olishadi va qaynatib ichishadi. Daraxtlardan pishgan mevalarni terishadi va ularni saqlab qo'yishadi. Bu yerda yana boshqa bir mevali daraxt ham bo'ladi. U mevaning alohida navi hisoblanardi. Massagetlar bu joyga to'planishib, gulxan yoqishadi, atrofiga o'tirishadi, bu mevalarni olovga tashlashadi. Gulxanda yonayotgn meva ajoyib hid taratadi va u odamlarni sarxush etadi, xuddi ellinlar vino ichib, mast bo'lganlariga o'xshaydi. Massagetlar mevani gulxanga qanchalik

⁷ Gerodot «Tarix»ida bu nom Tomir(is) shaklida berilgan, «-is» qadimgi yunon tilida ism va narsa nomlaridan keyin qo'shiladigan grammatik xususiyatdir. Shu sababli bu nomni Tomir shaklida ishlatdik va massagetlar haqidagi rivoyatning boshlanishidanoq bu qavm har xil o'simliklar tomiri-ildizi bilan oziqlanishi hikoya qilinadi. Massagetlar malikasi ismi ham ushbu hayotiy ne'mat bilan bog'langan bo'lishi mumkin – A.Abdurahmonov izohi.

ko'p tashlashsa, kayflari shunchalik oshadi. Mast bo'lishsa-da, o'rinlaridan turib ketishmaydi, aksincha, raqsga tushadilar va qo'shiqlar aytadilar. Bu massagetlarning o'ziga xos turmush tarzidir.

Arak egri-bugri oqadigan daryo, qirq irmoqdan hosil bo'ladi. Irmoqlarning bittasidan boshqa hammasi botqoqliklar tomon oqadi va singishib ketadi. Aytishlaricha, bu botqoqliklar atrofida baliqlarni xom yeydigan va tyulenlarning terisini kiyim qilib kiyadigan odamlar yashashadi. Faqat Arakning ochiq irmog'i Kaspiy dengiziga quyiladi.

Kaspiy dengizi g'arbdan Kavkaz cho'qqilari bilan chegaralangan. Kavkazda turli xil qavmlar yashashadi. Ularning ko'pchiligi yovvoyi daraxtlarning mevalarini yeyishadi. Aytishlaricha, bu mamlakatda ajoyib bargli daraxt bor ekan. Bu bargdan rang tayyorlanadi. Rang suvga aralashtiriladi, so'ngra kiyimlarga chizilib, naqshlar solinadi. Naqshlar yuvilmaydi, faqat jundan to'qilgan mato bilan artiladi.

Shunday qilib, Kaspiy dengizini g'arbdan Kavkaz tog'lari, sharqdan, kunchiqar tomondan esa ko'z ilg'amas cheksiz tekisliklar chegaralab turadi. Bu kengliklarning katta qismida Kir bosib olishni orzu etgan massagayetlar yashaydilar. Kirni harbiy yurishga majbur etadigan bir necha sabablar bor edi. Eng avvalo, uning tug'ma xususiyati, o'zini barcha odamlardan ustun chog'lashi bo'lsa, so'ngra – omadi, barcha janglarda g'oliblikni qo'lga kiritgani edi. Kir hujum qilgan hech bir qavm uning yovuz changalidan qochib qutula olmagan edi.

Massagetlar malikasi marhum shohning xotini edi. Uni Tomir deb atashardi. Kir uni xotinlikka olish taklifi bilan elchilar yubordi. Lekin Tomir Kirning uylanishdan maqsadi massagetlar yurtiga ham hukmronlik qilish ekanligini tushundi, shu sababli unga rad javobini berdi. Kir o'z maqsadiga hiyla yo'li bilan erisha olmagach, massagetlar mamlakatiga ochiqchasiga hujum qilish kirishdi. Arak daryosidan suzib o'tish uchun pontom (suzib yuradigan) yog'och-ko'priklar qurishga buyruq berdi. Kirning qo'shinlari ko'priklar qurayotganligini sezgan Tomir Eron shohiga elchi orqali quyidagi mazmundagi xatni jo'natdi.

– Ey, Eron shohi! G‘arazli maqsadingdan voz kech. Bu ko‘priklarni qurish senga yaxshilik keltiradimi, yoki yo‘qmi, sen buni hali oldindan bilmaysan. Shu sababli bu ishingni to‘xtat-da, o‘z mamlakatingga shohlik qilaver, biz ham mamlakatimizni o‘zimiz idora etishimizga hasading kelmasin. Albatta, sen bu maslahatga amal qilishni xohlamaysan. Sen tinchlikni saqlash emas, balki qanday bo‘lmasin, urushni afzal ko‘rasan. Agar sen massagetlarga hujum qilishni zo‘r havas bilan xohlayotgan bo‘lsang, u holda ko‘prik qurish ishlarini to‘xtat. Qo‘shiningni xotirjamlik va bexavotirlik bilan bizning mamlakatimizga olib o‘t, biz daryodan mamlakat ichkarisiga uch kunlik yo‘l yurib, chekinamiz. Agar sen bizni o‘z yeringga kiritishni istasang, bu haqda ham xabar qilki, bunga ham rozimiz.

Shundan so‘ng Kir Eron amaldorlarini huzuriga kengashish uchun chaqirdi. Voqeani tushuntirdi va bu haqda ularning fikrini so‘radi. Kengashga qatnashganlar bir ovozdan Tomir o‘z qo‘shini bilan aytgan yeriga chekinishini ma‘qulladilar. Lekin kengashda qatnashayotgan lidiy qavmiga mansub Krez ularning fikrini inkor etdi.

– Shoh! Men ancha yillar (Zevs sening qo‘lingni menga tutqazgan)dan beri sening xonadoningga yog‘iladigan ko‘plab falokat va yovuzliklardan xabar berib kelmoqdaman. Mening maslahatlarim og‘ir musibatlarni ham daf etishga xizmat qildi. Agar sen o‘zingni boqiy yashayman, qo‘shinga abadiy boshliq bo‘laman deb o‘ylasang, u holda mening fikrim sen uchun foydasizdir. Agar sen o‘zingni faqir inson, faqat o‘limga tik boqadigan odamlar ustidan hukmron shoh ekanligingni tan olsang, u holda, eng avvalo, shuni yodingda tut: inson faoliyati hamisha o‘zgarib turadi, inson doimo baxtli bo‘lishi uchun yo‘l yo‘qdir. Hozirgi masala yuzasidan men amaldorlaringning maslahatiga qarshiman, boshqacha fikrdaman. Agar dushman o‘z yerimizga o‘tishiga yo‘l qo‘ysang, unda dahshatli xavf tug‘iladi: mag‘lubiyatga uchrasang, o‘z mamlakatingni ham nobud qilasan. Chunki massagetlar sening ustingdan g‘alaba qozonishsa, albatta, mamlakatlari tomon chopmaydilar, aksincha, sening taxtingni egallash uchun bostirib boradilar. Agar

g'alaba sen tomonda bo'lganida ham, o'ylanmanki, bu unchalik sharaflilik emas. Agar massagetlarni o'z tuprog'ida yengsang, ularni dadil ta'qib qila boshlaysan. Sening va ularning ustunlik tomonlarini taqqoslashga ruxsat ber. Dushmanni parchalasang, hech to'siqsiz Tomirning taxti tomon bostirib borasan. Agar massagetlar o'z mamlakatingga kirishlari uchun ruxsat bersang-u mag'lub bo'lsang, ayol kishiga bo'ysunish Kir va uning o'g'li Kambis uchun uyat va chidab bo'lmas haqorat hisoblanadi. Menimcha, daryodan o'tish va mamlakat ichkarisiga kirish, dushman qancha joyga chekinsa, uni shu yerda tor-mor etish kerak. Anglashimcha, massagetlar forslarning hashamatli turmush tarzidan mutlaq bexabar, ularning noz-ne'matlari beradigan rohat-farog'atni bilishmaydi. Shu sababli qarorgohingda massagetlar sharafiga dabdabali ziyofat uyushtiraylik. Ko'plab qo'ylarni so'yaylik, katta idishlarda sharoblarni va har xil taomlarni mo'l-ko'l qo'yaylik. Bu ishlarning hammasini tayyorlab bo'lganingdan so'ng qo'shiningning yaroqsiz qismini qarorgohda qoldirib, o'zimiz yana ko'prik tomon qaytaylik. Agar adashmasam, dushmanlar mo'l-ko'l taomlarni ko'rib, unga tashlanadilar va bizga ulug' g'alabani yakunlash uchun imkoniyat tug'iladi.

Maslahatchilar kengashi tarqaldi. Kir birinchi fikridan qaytdi va Krezning maslahatini qabul qildi. U Tomirdan chekinishni so'radi. Malika qo'shini bilan o'zi va'da qilgan joyga chekindi. Kir o'g'li Kambisni o'ziga merosxo'r deb tayinladi va uni Krezga ishonib topshirdi. Agar massagetlar mamlakatida mag'lubiyatga uchrasa, o'g'li Krezning maslahati va homiyligida davlatni boshqarishini uqtirdi. Kir shunday topshiriqlar bilan Kambis va Krezni Eronga jo'natdi, o'zi esa qo'shini bilan massagetlar mamlakati tomon yurdi.

Kir Arak daryosidan massagetlar yurtiga o'tgan kechasi qo'rqinchli tush ko'rdi. Tushida Gistaspning katta o'g'lining yelkasida ikki qanoti bor emish. Qanotlaridan biri Osiyoga, ikkinchisi Yevropaga soya solib turganmish. Gistasp axmoniyalar sulolasidan bo'lgan Arsamning o'g'li edi. Gistaspning katta o'g'li Doro edi. Kir massagetlar yurtiga qo'shin tortgan vaqtida Doro yigirma yoshda edi. Harbiy xizmatga yoshi yetmaganligi uchun Eronda qoldirilgan edi.

Kir uyqudan turar ekan, ko'rgan tushining ma'nosini chaqa boshladi, chunki shoh bu tushni katta ahamiyatga molik deb hisobladi, u tezda yoniga Gistaspni chaqirdi va xilvatda unga shunday dedi:

– Gistasp sening o'g'ling Doro menga va davlatimga qarshi fitna uyushtirmoqda. Bu fitna rostligini aniq bilib turibman. Chunki tangri menga dahshatli ko'rguliklarni oldindan ma'lum qiladi. Kechasi men o'g'ling Doroni tush ko'rdim. Uning yelkasida ikki qanoti bor emish. Ulardan biri Osiyoga, ikkinchisi Yevropaga soya tashlab turibdi. Ko'rgan tushimdan shu narsa mutlaq rostligiga ishonamanki, o'g'ling mening hayotimga su'iqasd uyushtirmoqchi. Shu sababli Eronga tezda jo'na va o'g'lingni mening huzurimga qilgan jinoyatlari uchun javob berishga olib kel. Shundan so'nggina men bu mamlakatni zabt etaman va o'z yurtimga g'alaba bilan qaytaman.

Kir Doro unga nisbatan yovuz niyatini amalga oshirayapti deb o'ylagan edi. Ammo u tangri bu tush bilan boshqacha xohish bildirganligini anglamadi. Tushning ta'biri Kir massagetlar yurtida o'lishi, uning taxti Doro qo'liga o'tishi bilan izohlanardi.

Gistasp Kirga shunday javob berdi:

– Ey, shoh! Sening hayotingga su'iqasd uyushtiradiganlar hali forslar o'rtasida tug'ilmagan. Agar shundaylar bo'lsa, aminmanki, ular tez orada halok bo'ladilar. Axir, sen forslarni qullikdan ozod etding. Hukmronligingdagi barcha xalqlarning soliqlarini bekor qilding. Agar mening o'g'lim senga qarshi tushingda isyon ko'tarayotganligi ayon bo'lgan ekan, men uni sening qo'lingga topshiraman, qanday jazoga tortish sening ixtiyoringda.

Shundan so'ng Gistasp o'g'lini tutish uchun Arakdan o'tib, Eronga qaytdi.

Eron shohi Kir Krezning maslahatini bajarishga kirishdi. Kuchsiz jangchilarini qarorgohida qoldirib, o'zi esa qo'shinning sara qismi bilan orqaga chekindi. Massagetlarning qo'shini Kir qoldirgan askarlari bilan jangga kirishdi va ularni mag'lubiyatga uchratdi. Massagetlar g'alabadan keyin forslarning qarorgohini egallar ekan, bu yerdagi noz-ne'matlarni ko'rib, aysh-ishrat qilishga

kirishdilar. Jangchilar sharoblardan to'yganicha ichishib, mast bo'lishib, uyquga ketishdi. Voqea shunday tugashini kutib turgan fors jangchilarining asosiy qismi yetib keldi, massagetlarning katta qismini o'ldirdi va asirga oldi. Asirga olinganlar orasida malika Tomirning o'g'li, massagetlar lashkarboshisi Spargap ham bor edi.

Malika Tomirga o'z qo'shini va o'g'lining taqdiri haqidagi xabar yetib keldi. Malika Kirga elchi yuborib, o'z munosabatini bildirdi:

– Qonxo'r Kir! Sen bu jasorating bilan faxrlanma. Uzunning suvi sening aqlingni ham yo'qotadi. Sharob ichganingda sen ham yaramas gaplarni aytib, sayray boshlaysan. Demakki, sen mening o'g'limni odil jangda qurol kuchi bilan emas, zahar makri bilan yengding. Endi mening yaxshi maslahatimni eshit: o'g'limni qaytarib ber-da, xushu xushvaqt mening yurtimdan chiqib ket. Ketmasang, massagetlarning jasur askarlari seni sharmandalarcha halok qiladi. Agar sen bunga ko'nmasang, massagetlar tangrisi Quyosh nomi bilan qasam ichamanki, men sen mechkayni qonga to'ydiraman.

Kir Tomirning elchi orqali bildirgan so'zlariga hech bir ahamiyat bermadi. Malikaning o'g'li Spargap esa kayfi tarqalgach, musibatli ahvolni tushundi. Kirdan kishanni yechishni so'radi. Faqat shahzodani ozod qildilar, lekin Spargap oriyati kuchlilik qilib, o'zini o'zi o'ldirdi.

Tomir Eron shohi uning maslahatini e'tiborga olmaganini eshitib, hamma qo'shinini to'pladi va Kirga qarshi hujum boshladi. Bu jang vahshiy odamlar o'rtasida bo'ladigan urushlarning ham eng dahshatlisi edi.

Dastlab ular bir-birlariga kamondan o'q uzdilar. O'qlar tugagach, xanjar va nayza bilan tashlanishdi. Jang uzoq davom etdi, muxoliflarning hech biri chekinishni xohlamas edi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozonishdi. Barcha forsiy askarlar jang maydonida jon berdi. Kir ham halok bo'ldi. Uning shohligi 29 yil davom etdi. Tomir sharob solinadigan meshni odam qoni bilan to'ldirdi va so'ngra forsiylarning uyulib yotgan jasadlari orasidan Kirning jonsiz tanasini izlab topdi. Malika uning boshini meshga soldi, so'ngra marhumning ustidan masxaromuz tarzda hukm qildi:

– Men seni jangda adolat bilan yengib, sog‘-omon qolgan bo‘lsam-da, baribir, sen meni halok qilding, g‘am-g‘ussaga botirding, chunki sen mening o‘g‘limni hiyla bilan asir olding. Shu sababli men endi seni qonga botiraman.

Kirning o‘limi to‘g‘risida ko‘plab rivoyatlar mavjud, – deb yozadi Gerodot, – lekin hammasidan ham ko‘proq ishonchlisi ushbu rivoyatdir.

Qissada ayol ideali yaratilgan. Shuning uchun uning qiyofasida onalik bilan birga vatanparvarlik va xalqparvarlik, jur‘atlilik va adolatlilik, mehribonlik va shafqatsizlik kabi xislatlar umumiyashtirilgan.

Sherak⁸ qissasi ham qahramonlik mavzusida yaratilgan. Kirdan keyin Eron taxtini qo‘lga kiritgan ahmoniy hukmdor Doro I (m.a. 521 – 485) ham O‘rta Osiyoga hujum boshladi. Urush qanday tugaganidan qat’i nazar, xalq o‘z qahramonlarini qadrladi, nomlarini abadiylashtirdi.

Sherak ona Vatan va xalq ozodligi uchun jonini tikishga tayyor jasur va irodali shaxs. Polien tomonidan uning mazmuni to‘la yoritilmagan. Chunki u Sherak qissasining adabiy manbaligini nazarda tutmagan, uning harbiy taktikadagi ahamiyatiga e’tibor qaratgan, xolos. Shuning uchun uning adabiy-badiiy xarakteri mutlaqo saqlanmagan. Shunday bo‘lsa-da, qissaning aslida yuqori pafos, murakkab bir obraz yaratilganini tasavvur qilish mumkin.

Doro qo‘shini bilan saklar o‘rtasida urush borar edi. Sak podachilaridan SHerak o‘z podsholaridan Saksfar, Omarg va Tomirlar huzuriga keladi. Ular aynipaytda dushmanga qarshi kurashish rejasini tuzayotgan edilar. SHerak Eron qo‘shinini hiyla bilan halok etajagini aytadi, ammo podshohlar SHerakning oilasiga, bolalariga, avlodiga g‘amxo‘rlik qilishlari shart edi. Ularning va’dasini olgach, SHerak o‘sha yerdayoq o‘zining quloq-burnini kesadi, boshqa a’zolariga ham jarohat yetkazadi, so‘ngra saklardan Eron qo‘shini tomon qochib o‘tgan kishi sifatida forsiylar turgan joyga keladi.

⁸ Burungi darslik va qo‘llanmalarda u Shiroq deb yuritilar edi. A.Abdurahmonov o‘z o‘quv qo‘llanmasida uni Sherak deb qo‘lladi va bu ko‘pchilik tomonidan ma’qul deb topildi.

Sherak Doroga arz qilib, o‘zini saklardan alam ko‘rgan kishi qilib ko‘rsatadi. U Eron qo‘shinini saklarning ko‘chib ketgan yeriga ko‘pi bilan yetti kunda yo‘lni kesib olib borajagini, u yerda turib, sak qo‘shiniga to‘satdan hujum qilishlari va g‘alaba qozonishlarini aytadi.

Eron qo‘shini bir haftalik oziq-ovqat olib yo‘lga tushadi. Qo‘shin uzoq yo‘l yuradi. Oziq-ovqat tamom bo‘ladi. Atrof quruq qum va sahrodan iborat edi. Eron qo‘shini aldanganini anglaydi. Eron sarkardaridan biri Ranosbat Sherakdan:

– Shunday ulug‘ podshoni aldab, katta qo‘shinni biror quduq bo‘lmagan, biror qush uchmaydigan, biror jonivor ko‘zga ko‘rinmaydigan, na olg‘a yurish, na ortga qaytish mumkin bo‘lgan sahroga boshlab kelishdan muroding nima edi? –deb so‘raydi.

Sherak:

– Men o‘z maqsadimga yetdim. O‘z qabilam va tuprog‘imni dushmanlar bosqinidan saqlab qoldim. Endi qaysi tomon ketsangiz ha yetti kunlik yo‘l. Sizni ochlik va tashnalik nobud qiladi. Bir o‘zim Eron qo‘shinini halok etaman, deb javob beradi.

Botir cho‘pon qatl etiladi. Doro Appolon ma‘budigi iltijo qilib yomg‘ir yog‘dirishni so‘raydi. Yomg‘ir yog‘adi va askarlar undan meshlariga suv oladilar. Forsiylar ko‘p talofat berib, arang Amudaryo sohiliga yetib oladilar. Fors shohi SHerakning o‘chini uning qavmidan oldi.

Olimlarning fikricha, jahon adabiyotida Vatani va xalqi ozodligi yo‘lida o‘zini qurbon qilgan qahramonlar obrazi ma‘lum ma’noda yaratilgan. Rus adabiyotida M.Gorkiy tomonidan folklor materiallari asosida yaratilgan “Izergil kampir” asaridagi Danko hamda xalq qahramoni Susanin xuddi shunday obrazlar sarasiga kiradi. Beruniyning “Hindiston” asaridagi «Shoh Kanik va Roja Kanjaning vaziri afsonasi»da harbiy hiylaning yana bir shakli o‘z ifodasini topgan. Bunday obrazning turkiy adabiyot ilk namunalarida uchrashi bu adabiyotning o‘ziga xos yutuqlaridan edi.

Zariadr va Odatida qissasi insonlararo muhabbat tuyg‘usi haqidadir. Qissada muhabbat tuyg‘usining qavmlar va xalqlar o‘rtasini yaqinlashtirishga xizmat qilishi g‘oyasi ilgari suriladi. Bu g‘oya keyinchalik bir necha klassik asarlarda tarannum etildi. “Layli va Majnun”, “Romeo va Juletta” shular jumlasidan. “Zariadr va Odatida” bu g‘oyani jahon adabiyotida birinchilardan bo‘lib ko‘tarib chiqqani bilan ahamiyatlidir.

Midiya shohi Gishtaspning kichik ukasi Zariadr Kaspiy dengizidan Tana (Don)gacha bo‘lgan o‘lkada hukmronlik qilardi. Tananing narigi qirg‘og‘ida esa Omarg podshohlik qilar edi. Bu shohning Odatida ismli go‘zal bir qizi bor edi.

Odatida bir kun tushida Zariadrni ko‘rib, sevib qoladi va doim shu sevgi iztirobida qiynaladi. Zariadr Omargga qizini so‘ratib, sovchilar yuboradi. Lekin Omarg boshqa farzandi bo‘lmagani tufayli qizi Odatidani begona yurtga uzatishni xohlamaydi va uni o‘z yaqinlaridan biriga bermoqchi bo‘ladi. Bir kuni Omarg qizini kimga berishini sir tutgan holda, o‘z saroyida to‘y bazmi uyushtiradi. Odatida bundan Zariadrni ogoh qilib, to‘yga kelishini so‘raydi.

Bazm avjiga chiqqanida shoh qizini chaqirib, unga: «Qizim, biz sening to‘yingni qilayapmiz. Shu yerda o‘tirganlardan qaysi birini yoqtirsang, o‘shanga oltin qadahda may tutgin. Seni o‘shanga beramiz», deydi. Odatida atrofiga qarab, yig‘ilganlar orasidan sevgani Zariadrni axtaradi, uni ko‘rmagach, yig‘laydi. Zariadr bu vaqt bir kemachi yollab, uning yordamida daryodan o‘tadi va skif kiyimida bazm bo‘layotgan yerga boradi. U ko‘zlari yoshga to‘la, qo‘lida qadah tutib turgan Odatidani ko‘radi-da, unga yaqinlashib:

– Odatida, men Zariadrman, mana, men yoningdaman, – deydi. Qiz qo‘lidagi qadahini yigitga tutadi. Zariadr Odatidani yetaklab, yashirincha kemachi turgan yerga olib keladi va ular birgalashib, Zariadr yurtiga ketadilar. Omarg qizining g‘oyib bo‘lganidan ogoh bo‘lgach, xizmatkorlarini bir-bir so‘roq qiladi. Qiz sevgisidan xabardor xizmatchilar: «Biz hech narsa bilmaymiz» deb javob qiladilar.

Shuningdek, muhabbat mavzusiga bag‘ishlangan boshqa qissalar ham bor. Ulardan biri **“Zarina va Striangey”** afsonasidir. Uning mazmunini Kteziyning

ma'lumotiga tayanib sotsiologik tarixchi Diodor bayon qilgan. Lekin asar mazmuni to'liq emas. Shunga qaramay, unda ikki masalaning yoritilgani ko'zga yaqqol tashlanadi. Biri, aql-idrokli, jasur va shijoatli ayol fazilati, ikkinchisi, er ikshidagi mardlik muhabbatdan ko'ra muhimroq ekani masalasi. Aks holda inson xudbinlashishi va o'z kelajagini fojeaga olib borishi uqtiriladi unda. Striangey jang maydonida mardona kurashadi, kerak paytda muruvvat qilishni ham biladi. Bu xislatlari bois uni Zarinaga yoqtirib qoladi. Lekin Striangeyning go'zallikda tanho Reta ismli xotini borligini bilgan Zarina o'zini qo'lga oladi. Striangey esa aksincha o'zini Zarinaga bo'lgan tuyg'ularidan to'xtata olmaydi va o'z joniga qasd qiladi.

Umuman, turkiy xalqlar adabiyotida barkamol ayol timsoli yetakchi mavzulardan sanaladi. **“Amorg va Sparetra”** qissasida ham sak podshohlaridan biri Amorgning Kir qo'lida asir bo'lib qolishi va uni xotini Sparetra katta qo'shin to'plab borib, Kirni mag'lub qilgan xotini qutqarib olishi hikoya qilinadi. Shunisi ham e'tiborliki, uning besh yuz ming kishilik lashkarida xotin-qizlar ikki yuz ming kishini tashkil qiladi, ya'ni lashkarning qirq foizi ayollardan tarkib topgan. Mana, ayollarning ijtimoiy faollik darajasi to'g'risidagi qadimiy qarash, nuqtai nazar.

Iskandar qissasi. Iskandar ismli qahramon musulmon turkiylar orasida ikki xil qarash mavjud. Biri, payg'ambar Iskandar; ikkinchisi, yevropacha Aleksandr ismining arabiy talaffuzdagi shakli, ya'ni fotih Aleksandr Makedonskiy. Payg'ambar Iskandar haqidagi qarashlarni mustahkamlashga qanchalik urinmasinlar, ixtiloflar hamon bor.

Aleksandr Makedonskiyning Osiyoga harbiy yurishlari va uni zabt etishi bu yerda yashayotgan xalqlar xotirasiga uning nomini ham mangu muhrladi. Bu esa badiiy ijodda ham o'zining chuqur izini qoldirdi. Dastlab Iskandarning minglab kishidan iborat targ'ibot guruhi o'z imperatorlari shuhratini yoyish uchun turli joylarda so'zlab yurgan hikoyalari bora-bora rivoyatlarga, katta-katta afsonalarga aylanib ketdi. Iskandar haqidagi afsonalardan xalq ijodi vakillari unumli foydalandilar. Turli mavzulardagi qarashlarni ifodalash uchun Iskandar tayyor

obraz bo‘lib shakllandi. O‘rta Osiyo xalqlarining Iskandar obrazi asosida yaratilgan yuzdan ziyod afsona va rivoyatlari vujudga keldi.

Iskandar to‘g‘risidagi xalq qissalarining qisqacha bayon ko‘hna Sharq tarixi bilan shug‘ullangan bir necha olimlar, ijodkorlarning asarlariga kiritilgan. Jumladan, XIII asr olimlaridan Abu Ja‘far Muhammad bin Jarir Tabariyning “Tarixi Tabariy”, Banokotiyning “Tarixi Banokotiy”, Ibn al-Asirning “Tarixi Komil”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarlarida Iskandar Zulqarnayn haqida hikoya qilinadi. Bulardan tashqari, Mahmud Koshg‘ariy va Umar Nizomiylar ham bu tarixiy qissalarga murojaat qilishgan. Qolaversa, muallifi noma‘lum bo‘lgan bir necha tarixiy qo‘lyozmalarda ham u bilan bog‘liq voqealar qalamga olingan.

Ularda Iskandar nomi bilan birga qo‘llanuvchi “Zulqarnayn”ning ma‘nosi, asosan, ikki xilda izohlanadi. Birinchisiga ko‘ra, “qarn” so‘zi “shox” (a‘zo) ma‘nosini bildiradi. Bu so‘z oxiridan qo‘shiluvchi -ayn qo‘shimchasi arab tilida ikkilik qo‘shimchasining kelishikda turlangan shakli hisoblanadi. Chunki “zu” so‘zi ega ma‘nosini, shuningdek -li qo‘shimchasi mazmunini bildiradi. Binobarin, “Iskandar Zulqarnayn” “Ikki shoxli Iskandar” deganidir. Manbalarda shoxlar ulug‘lik belgisi bo‘lgani aytiladi. Ikkinchisiga ko‘ra, “qarn” so‘zi *tomon, taraf* ma‘nosini anglatadi. U ikkilik qo‘shimchasi bilan Quyoshning chiqish va botish tomonlarini ifodalaydi. “Zu” bilan birga Iskandar dunyoning ikki tomoni, ya‘ni butun yer yuzi egasi ekaniga ishora qilinadi. Arab tilida “qarn” so‘zining *asr, yuzyillik* ma‘nosi ham bor. Lekin mualliflar bunga e‘tibor qaratishmaydi. Chunki uning podsholik davrini 36 yil deb belgilaydilar.

Ba‘zi Islom ulamolari fikriga ko‘ra, Iskandar Zulqarnaynning nomi “Qur’oni Karim”da payg‘ambarlar qatorida keladi. Islom olimlari orasida uning Aleksandr Makedonskiyga aloqasi yo‘qligi, u boshqa zamon va makonda yashagani haqida fikr bildiruvchilari ham bor. O‘rta Osiyoda Islomgacha ham Iskandar haqida qissalar bo‘lgani, uning Eron hukmdori Doro bilan kurashi, ayniqsa, asosiy faoliyati jahongirlik bo‘lgani bu qarashlar haqiqatiga to‘g‘ri kelmaydi.

Iskandar haqidagi qissa va rivoyatlar mazmun ko‘lamiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. Bir guruh qissa va rivoyatlarda Iskandar haqida so‘z borsa-da, uning qiyofasi panada qolib ketadi (Masalan, “Xoqon Shu va Iskandar” qissasi). Yoki biror falsafiy-axloqiy mavzuni yoritishda Iskandar obrazidan foydalanilgan nisbatan qisqa rivoyatlarni ham bu guruhga kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga Iskandarning tug‘ilishidan o‘limigacha olib borgan faoliyatini, shuningdek o‘limidan keyingi voqealarni yorituvchi qissalar kiradi.

Mualliflar Iskandar qissasini hikoya qilishda salaflariga ergashishlarini ta’kidlasalar-da, “boshqa qavllarga ko‘ra” (boshqa manbalarda aytilishicha) iborasi bilan yangi variantlarni ham bayon qiladilar. Birgina “Tarixi Tabariy”da Iskandar haqidagi bir necha rivoyat keltiriladi. Boshqa mualliflarda ham shunday.

Qissalarda Iskandarning tug‘ilishi yoki uning ota-onasi yoki uylanishi va Doro bilan munosabatlari haqida ham turlichalik ko‘zga tashlanadi. Birida u yunon hukmdori Faylaqusning haqiqiy o‘g‘li bo‘lsa, boshqa birida uni rumlik eri o‘lgan biri zohida ayol tug‘adi va shu zahoti o‘ladi. Ovdan qaytib kelayotgan Faylaqus uni bir xaroba ichidan topib oladi va unga Iskandar nomini qo‘yib tarbiyalay boshlaydi. Lekin bunday farqlardan qat’i nazar, bolaning porloq kelajak yo‘li, yunon donishmandlari tarbiyasida kamol topishi, buyuk fothlik yurishlari bayonida umumiylik saqlanadi. Misol tariqasida quyida “Tarixi Tabariy”da keltirilgan Iskandar haqidagi qissalardan birining qisqacha mazmuni bilan tanishamiz:

Iskandar Faylaqusning o‘g‘li edi. U onadan tug‘ilgan patidayoq munajjimlar Faylaqusning buyrug‘iga ko‘ra, uning toleini qaradilar va sohibqiron bo‘ladi, rub’i maskunni zabt etadi, dedilar. Bolaning nomini Iskandar deb atadilar. Besh yoshga yetganda Iskandar Artafumasdan ilmi hikmat ta’limini oldi. Artafumasning Arastu degan o‘g‘li bor edi. Bir kuni ustoz Iskandardan Arastuni o‘zingga vazir etgin, deb iltimos qildi, Iskandar bunga rozi bo‘ldi. So‘ngra u bir umr Arastuning so‘zidan chiqmadi.

Iskandar yigirma yoshga yetganda Faylaqus vafot etdi. Iskandar uning o‘rniga taxtga o‘tirdi. U dod pasha qildi. Hamisha Aflotun, Buqrot, Farmus, Tolis, Bulinos kabi hakimlar bilan suhbatda bo‘ldi. So‘ngra u Zangi sultoni bilan urush qilib uni yengdi: Misrni fath etdi. G‘alaba sharafiga dengiz bo‘yida Iskandariya shaharini bino etdi. Yana Balinosga bir minora qurib unga oyna o‘rnatishni buyurdi.

Balinos, Tolis, Xurmus ishtirokida oynani yasashga kirishdilar. Ko‘p tajribalar qilib, oxiri uni po‘latdan yasashga qaror qildilar. Oyna doira shaklida yasalgan bo‘lib bir oylik yo‘lda kim paydo bo‘lsa, uni ko‘rsatar edi.

Iskandar Misr sultoni vafot etgach, odamlaridan birini hokim tayinlab o‘z eliga qaytdi. Atrofdagi beklarga sovg‘alar yubordi. Eron shohi Doroga ham uch ming qul, uch ming cho‘ri, o‘n ming fil, har fil ustida bir murrasa taxt va uch yuz pora toj jo‘natdi. Doro bir vazirini yuz yigit bilan Iskandar huzuriga yubordi. U noma yozib, sen kimsanu Misr va Zangibarni fath etasan. Hamma qo‘lga kiritgan o‘ljangni menga yubor, yana xiroj to‘lagin, deb buyurdi.

Iskandar Doroning talabini rad etdi. U hakimlar va beklar bilan maslahatlashib, Doroga qarshi urush boshlashga qaror qildi. Bu xabardan Doro g‘azablendi va Iskandar oldiga elchi yubordi. Elchi orqali to‘p va chavgon yubordiki, sen bolasan, to‘p va chavgon o‘yna, Doro bilan urushmoqqa yoshsan, demoqchi bo‘ldi. Yana bir xalta guruch yubordiki, u Doroning askari shuncha ko‘pligini bildirar edi. Iskandar ularni olib Doroning elchisiga dedi: “To‘p yer yuzidir, men uni chavgon bilan olaman”. So‘ng bir xo‘rozni keltirishni buyurdi, Arastu xo‘roz keltirdi. U xo‘roz barcha guruchni yeb bitirdi.

Doro to‘qqiz yuz ming askar bilan Iskandarga qarshi urushga otlandi. Iskandar olti yuz ming askar bilan unga qarshi chiqdi. Doro qo‘shinining ko‘pligini eshitgan Iskandar: “SHer ovi ko‘p bo‘lsa sevinar, yuz ming ho‘kizga bir pichoq kifoya”, – dedi. Iskandar qo‘shini ichida yetmish olim va hukamo bor edi. Ular orasida Xizr va Suqrot ham bo‘lgan emish. Iskandarning Doro bilan urushajagini eshitib, Erondan ham ikki yuz ming kishi kelib uning qo‘shiniga qo‘shiladi. Chunki Eron xalqi Doroning zolimligidan bezgan edi. Doroning huzurida bo‘lmish

Fubarz degan kishi (u zangilardan edi) Doroga: “Kayxusravning aytganiga ko‘ra, Rumdan bir yigit chiqib dunyoni egallaydi, Iskandar o‘sha yigit bo‘lsa kerak”,– dedi. U Doroga urush qilmaslikni maslahat berdi. Doro bu maslahatdan achchiqlandi. U Iskanar va uning qo‘shinini yerga uruvchi so‘zlar aytdi. Fubarz uzur so‘radi, u Doroga Iskandarni kamsituvchi so‘zlar aytdi, tulki arslonga bas kelolmaydi, men qarib qolibman, o‘zim aytgan so‘zimni o‘zim bilmayman, sen shohsen, davlatga nima loyiq bo‘lsa shuni qilaver, dedi. Doro Iskandarga noma yubordi va shunday dedi: “Men Doro Isfandiyor va Gushtasp jinsiman, sen kimning jinsisan. Bu saltanatni bizga Kayxusrov bergan, saltanat da’vosini qilmoq sening haqqing emas, Zangilardan olgan molni yetti yillik xiroj bilan birga menga yubor”.

Iskandar Doroga bunday javob yozdi: “Ey Doro, bu davlatni Tangri Taolo bergan. Kayxusrav kimdirki, u odamga saltanat bersa. Bu tojni onang qornidan keltirganing yo‘q. Tangri nusrat bersa, sendan tojni qilichim bilan olaman”.

Iskanar o‘zi o‘n yigiti bilan elchi libosida Doro huzuriga keldi. Doro xatni o‘qitib ko‘rdi, qayg‘ulandi. U Iskandardan oting nima, qaysi jinsdansen, deb so‘radi. Iskanar, otim Melush, Kirilyon o‘g‘li, otam Bursada qaysar edi, deb javob berdi. Doro katta hurmat ko‘rsatib, uning sharafiga ziyofat berdi. So‘ng Iskandarning huzuriga borgan elchi uni tanib qoldi va bu haqda Doroga xabar berdi. U qo‘shin bilan tanishish uchun o‘zi kelgan, dedi. Doro Iskandarni mast holatda qo‘lga olishni buyurdi. Iskandar tashqariga chiqib yigitlari bilan birga qochdi. Ortidan yuborilgan Doro askari Iskandarga qo‘shildi.

Ertasi kuni qattiq urush boshlandi. Besh kecha-kunduz bo‘lgan jangdan so‘ng Doro qochdi. Uning lashkari Iskandarga taslim bo‘ldi. Doro Istaxrga borib to‘rt yuz ming qo‘shin to‘plab Iroqqa keldi. Katta urush bo‘ldi. Doro Kirmanga qochdi. Iskandar uni ta‘qib etib Istaxrga bordi. Xalq Dorodan bezor edi. Ular Iskandarni quvvatladilar. Doro Kirmanda edi, uning oilasi Iskanarga asir tushdi. Doro Iskandarga ularni qaytarishni so‘rab maktub yozdi. Iskandar rozi bo‘ldi. Ammo Doro so‘ng pushaymon bo‘lib, yan urushga otlandi. Iskandar Kirmonga qo‘shin

tortdi. Doroning eng yaqinlaridan bo'lmish ikki bek til biriktirib unga qarshi qasd qildilar. Bu haqda ular Iskandarga xabar berdilar. Iskandar rozilik berib xat yo'lladi. Ertasi kuni hamma urushda edi. Doro yolg'iz jangga otlangan paytda o'sha ikki bek unga xanjar urib otdan yiqitdilar va buni Iskandarga xabar qildilar.

Iskandar o'layotgan Doro bilan uchrashdi. Doro unga uch iltimos qildi: qotillarni jazolash, qiziga uylanish va qavmini qirmaslik. Shundan so'ng Iskandarning qo'lida jon berdi. Iskandar Doroni shohona marosim bilan dafn etdi. Ikkala qotilga va'da qilgan molni berdi va so'ng ular qatl etdi. Doro o'lgach, qo'shini taslim bo'ldi. Iskandar Istaxrga keldi. Besh yillik xirojdan voz kechi. U yerda Fubarz bilan uchrashadi.

Doroning oilasi Isfaxonda edi. Doroning vasiyatiga ko'ra, Iskandar Doroning rafiqasi Guloroga maktub yo'llab, uning qizi Ravshanakni so'ratdi. Roziligini olgach, Ravshanakka uylandi.

Iskandar Istaxrdan Bobilga, Mo'sulga, Ozarbayjonga boradi. Zardushtiylar dinini ta'qib etdi, ibodatxonalarini buzirdi.

Doro zamonida Ozarbayjon va Armaniyaning xirojini Axvoz Duvoli nomli bek olar edi. Xalq undan dod tilab Iskandarga murojaat qildi. Iskandar u sari yo'l oldi. U Tiflis nomli bekka buyurib shahar bino qildiki, uning nomi Tiflis bo'ldi. Duvol ham Axvozga ikki o'g'il – Kudi va Bo'rini qoldirib, o'zi Iskandarga bo'yin egdi.

Iskandar bu yerdan Bardaga keldi. U yerda No'shoba ismli hukmron ayol bor edi. No'shoba ham Iskandarga sovg'alar yubordi. Iskandar uning huzuriga elchi libosida bordi. Ammo No'shoba Iskandarning suratiga ega edi, shuning uchun darhol tanidi. Uni taxtga o'tqizdi. Elchi: "Iskandar seni o'z huzuriga chaqirdi, dunyoda undan zo'r podshoh yo'q, nega bormading?"– dedi. No'shoba: "Sen o'zing Iskandarsan-ku, chunki elchining bunday so'zlarni aytishga haddi sig'maydi. Ahmoq ekansan, shunday katta podshoh bo'la turib o'zing elchi bo'lib yuribsan",– dedi va Iskandarning suratini keltirib o'ziga ko'rsatdi. Iskandar qo'rqdi, chunki u yolg'iz kelgan edi. No'shoba buni payqab, dedi: "Suratingni

ko'rsatishdan maqsad, dunyo ishlaridan g'ofil emasligimni bildirish edi. Sen erkak arslon bo'lsang, men ham ayol arslonman. Dorodek podshoh men bilan kelishib ish tutar edi. Sen g'alaba qilsang, bir ayol ortadi, agar men g'alaba qilsam, holing ne bo'ladi?". So'ng taxtdan tushib kursiga o'tirdi: "Bir taxtda ikki podshoh o'tirishi mumkin emas",– dedi. Iskanar ko'p tahsin o'qidi, o'ziga ta'na qilib taslim bo'ldi. Elga osh tortdilar. No'shoba bir cho'risiga to'rt kosada oltin, yoqut, la'l va inju keltirishini buyurdi. Ularni Iskandarning oldiga qo'yib, yegin, dedi. Shunda Iskandar, inson toshni ham yeydimi, bir taom keltirginki, uni yeyin. No'shoba kulib dedi: "Ey shahriyor, sen shuning-chun kezib yurmaganmiding, yo'qsa Rumda ul qadar et va yemak yo'qmidiki, zahmat chekib bu yerlarda yuribsan. Sening zahmating shuning uchun-ku". Iskandar No'shobaning ta'nasidan xijolat chekdi va insofga keldi. So'ng No'shoba rasm-rusumlarni joyiga qo'yib, Iskandarga ziyofat berdi. Iskandar: "Bundan keyin sening mulkingga hech daxl etmayman",– deb va'da berdi. No'shoba vazirini chaqirib, Iskandarning aytganlarini yozdirib oldi. Eson-omon qutilgan Iskandar shukur qilib, o'z qo'shiniga qaytdi. Ertasi kuni No'shoba Iskandar huzuriga keldi, shohona suhbat va ziyofatlar ko'rdi, Iskandar unga katta in'omlar hadya qilib kuzatib qo'ydi.

Iskandar Bolqonga borib bir shahar bino qildirdi. Uni Bolqon deb atadi. Shundan keyin ko'klamda dunyo kezajagini – Elburs tog'iga, Shirmon, Xuroson tomonlarga borajagini beklarga e'lon qildi. Keyingi yurishlarda Iskandar SHemaxa, Darband, Ko'ron, Qizil og'och, Xolxil, Ray, Hind ellarini tobe qildi.

Hind rayi Iskandarga bo'yin egib, uning xizmatiga o'z olim va hakimlarini yo'lladi. Ular orasida Bahrom va Mankih ko'p bilimdon kishilar edi. Ular o'z bilimlarini namoyish etib, Iskandarni qoyil qoldirishdi. Hindistondan sovg'a qilib yuborilgan jomdan o'n ming kishi suv ichdi, uning suvi hech tugamas edi. Bu jom shunday xususiyatga ega ediki, u o'zida havodan suv paydo qilar edi.

So'ng Iskandar Kunujga bordi. Ikki o'rtada urush boshlandi. Urush qirq kun davom etdi. Kunuj shohi Furning o'n ikki ming fili bor edi. Yeti bor urushda Fur g'olib keldi. Nihoyat, Iskandar Bahromning maslahatiga ko'ra fillarni neft

yoqilgan arobalar bilan hurkitib qochirdi. Yakkama-yakka kurashda esa Iskandar Furni o'ldirdi. Shundan so'ng hindlar taslim bo'ldilar.

Iskandar Hindistonni egallagach, u yerdan Tibetga bordi. Tibet orqali Chin mamlakatiga yo'l oldi. Bundan xabar topgan Chin xoqoni qo'rqib, boshqa mamlakat hukmdorlariga askar yuborishlarini so'rab noma yozdi. Oltmish karra yuz ming askar jam bo'ldi. Xoqon Mehron otlig' hakimni savdogar qiyofasida Iskandar tomonga jo'natadi. U qaytib kelib Xoqonga Iskandar bilan urushmaslikni maslahat berdi.

Shundan so'ng xoqon Iskandar huzuriga o'zi elchi libosida bordi. U bilan yolg'iz qolib o'zini tanitdi, Iskandarga bo'yin egdi. Keyin uni katta sovg'alar bilan o'z huzurida qabul qildi.

Iskandar Chinni bo'ysundirgach, qaytib Darbandga keldi. Undan Shirvon orqli Burdaga va Armaniyaga keldi. So'ng Iskandar Ko'niyaga ketdi. U yerda o'g'illari Iskandarus va Aristotilus kutib oldilar. Onasi, qizi – butun oilasi bilan uchrashdi.

Aytishlaricha, Iskandarning huzurida doim hakimlar, josuslar, zohidlar, faylasuflar va afsungarlar bo'lar edi. Hakimlardan ko'p nasihatlar tinglar edi va der edi: Agar shularga o'xshaganimda dunyoni kezmagan bo'lardim.

Iskandar u yerdan chiqib Sindga, Qandahor va Siistonga bordi. Tezroq yunonga yet, degan nido eshitdi. U yerdan Hamadonga yetdi va shu yerda dardga yo'liqdi. Zo'r shahrida vafot etdi, Iskandariyada dafn etdilar.

Turkiy xalqlar ma'naviy hayotida, badiiy tafakkuri takomilida O'rta Osiyodagi eroniy tillar guruhi vakillari va Eron xalqlari tomonidan yaratilgan miflar ham katta rol o'ynagan. Ular ma'lum talqinlarda «Avesto»ga ham kiritilgan. Ulardan eng mashhurlari Kayumars, Jamshid, Rustam hamda Siyovush haqidagi afsonalardir.

Turkiy xalqlar ma'naviy hayotida, badiiy tafakkuri takomilida O'rta Osiyodagi eroniy tillar guruhi vakillari va Eron xalqlari tomonidan yaratilgan miflar ham katta rol o'ynagan. Ular ma'lum talqinlarda «Avesto»ga ham kiritilgan.

Ulardan eng mashhurlari Kayumars, Jamshid, Rustam hamda Siyovush haqidagi afsonalardir.

Kayumars afsonasi. Hikoya qilinishicha, Kayumars adolatli, ko'p joylarni obod etgan podshohdir. Kayumarsning Pushang otli o'g'li bo'lgan. U Damovand tog'larida yurgan. Pushangning dushmanlari dev va jinlar edi. Bir kuni Pushang sajdaga bosh ekkan vaqtida ustiga tog'ni qulatib o'ldiradilar. Bu fojidadan hech kimning xabari bo'lmaydi. Lekin Kayumarsning ko'ngliga qattiq g'ashlik va g'amginlik tushadi. U o'g'lidan xavotirlanib tog' sari yo'l oladi. O'g'li uning istiqboliga chiqmaganidan ko'ngli battar qorong'ulashadi. Shu payt bir qushning qattiq nolasini eshitadi. Qush tomon yaqinlashsa, qush undan yana uzoqlashib nolishida davom etar edi. Qush Kayumarsni shu yo'sinda Damovand tog'i tepasigacha olib boradi va u yerda o'g'lining jasadiga duch keladi. Qushning nolasini shum xabar ekanini angladi. Kayumars Damovand tog'i ustida anchagacha yig'lab o'tiradi. U o'g'lining jasadini nima qilishini bilmas edi. Shunda bir chuqur bino bo'ldi. Kayumars o'g'lining jonsiz tanasini yuvib o'sha chohga ko'mdi. Chuqurning yoniga esa dev va jinlarni yo'latmaslik uchun olov yoqdi. Olovning dudi hamon o'sha tog' ustida ko'rinib turar emish.

Bir kecha tushida bir chol Kayumarsga o'g'lini qaysidir joydagi devlar o'ldirganidan xabardor qiladi. Kayumars uyg'onib shukur qildi, o'g'liga tortiq qilib olib kelgan narsalarini unga hamisha hamroh bo'lgan qushlarga sochdi va u yerdan ketdi.

Keyinchalik Kayumarsning yana boshqa g'oyat quvvatli va dilbar farzandlari bo'ldi. Ularning ichidan birini boshliq qilib tayinladi. So'ng ularga: "Birodaringizni devlar o'lqirishgan, men o'shalar oldiga boraman, toki ular boshqa farzandlarimga ziyon yetkaza olishmasin", – dedi. Unga o'g'illari hamrohlik qilishmoqchi bo'ladi, lekin Kayumars rozi bo'lmaydi. U yo'lda ketayotib bir oq xo'rozni ko'radi. Xo'roz yo'l boshida turib chaqirar edi. Sal nariroqda esa bir makiyonni ilon o'rab olgan. Xo'roz qichqirib ilonga tashlanar, uni o'ldirishga urinar edi. Bu holatdan Kayumars hayratlandi. "Agar o'z juftini qutqarishga

harakat qilar ekan, demak, bu jonivorning ta'bi ham inson farzandining ta'biga o'xshash ekan", dedi. Kayumars bir tosh olib ilonni urib o'ldirdi va xo'roz bilan makiyonni olib o'g'illariga keltirib berdi. Bularni asrang, deb topshirdi. Shundan buyon Ajam elida tovuqlar har bir xonadonda bor. Ular bor uyda devlar yaqinlashmas emish. Xo'rozning qichqirishi yaxshilik foli hisoblanadi. Ammo xo'rozning kechki vaqtda qichqirishi yaxshilik alomati emas. Chunki o'sha oq xo'roz bir kun kechqurun qichqirganida odamlar hayron bo'lib qarshsa, Kayumars o'lgan ekan. O'shandan buyon bevaqt chaqirgan xo'rozni so'yishadi. Aytishlaricha, Kayumars vafot etgan joy Balx shahridir. Balx shahrini Kayumars o'zi bino qilgan edi. Kayumars atrof yerlardagi dev va parilarni yengib qaytgan va ko'p joylarni obod etgan edi. Vaqtlar o'tib bu yerlarga ancha odam yig'ilib o'rnamshgach, Kayumars ularni o'z tasarrufiga uyushtirib, o'zi podshoh bo'lgan edi.

Kayumars odillik bila hukmronlik qilgan. Kamtarona hayot kechirgan. Odamlarga matodan kiyim tikib kiyishni ham u o'rgatgan edi. Kayumars yetti yuz yil yashagandan so'ng vafot etgan. Shundan so'ng hokimiyat tepasiga Shuhang chiqqan.

Yima – Jamshid afsonasi. “Avesto”da yer yuzi sathini uch barobar kengaytirib dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirgan, kishilar uchun ko'p foydali mo'jizalar yaratgan adolatli Yima haqidagi afsona mavjud. Bu obraz keyinchalik Jamshid nomi bilan yuritila boshlagan qahramondir. Bu qahramonning “Avesto”ga kirib kelishi afsonaning ancha qadimiy ekanini tasdiqlaydi. Uni Firdavsiydan boshlab ko'pgina fors ijodkor va tarixchilari tarixiy shaxs sifatida talqin qilib keladilar. Navoiy ham “Tarixi muluki Ajam” asarida unga alohida sahifalar ajratadi va tarixiy shaxs sifatida qayd etadi.

Jamshid haqidagi bizgacha yetib kelgan afsonalarda aytilishicha, u saltanatni egallashi bilan jahon mulkini adl va dod bilan tuzadi. Uning husnu jamoli ham, fazlu kamoli ham hayratlanarli, benazir edi. Jamshid ko'plab ajoyibu g'aroyib ixtirolar qiladi. Jumladan, sipohiylik aslahalarini u joriy qilgan. Burungi qurollar

tosh va yog‘ochdan bo‘lgan ekan. Nayza, qilich, pichoq, sovut, qalqon kabilarni metaldan yasagan u edi.

Hammom bino qilish, g‘avvoslar tayyorlash ham uning davrida vujudga keldi. Ipak, jun kabilar tolalaridan matolar to‘qish, shaharlar orasida qishloq, qo‘nalg‘alar bino qilish, ularni idora qilish qonun-qoidalarini ishlab chiqish, shaharlarni yiriklashtirish va baland-baland bino hamda minoralar qurish – bularning hammasi Jamshid davrining ixtiolaridan.

Jamshid o‘z poytaxtida juda katta me‘moriy ansambl quradi. Unda qirqta baland-baland minoralar bor edi. Obida qurib bitkazilgach, barcha hukmdor va akobirni chorlab bazm quradi. O‘sha kun kecha va kunduzning teng kelgan davri, shuningdek, tabiatda uyg‘onish faslining boshlanishi bo‘lgani uchun Navro‘z deb ataldi va yilboshiga asos solindi.

Jamshid saltanati yetti yuz yil davom etdi. Islom davri mumtoz tarixchilari Jamshid asta-sekin kibrlanib, zolimlashib ketgani, hammani o‘z suratida yasalgan butlarga ibodat qilishga majburlangani va unga nisbatan nafrat paydo bo‘lib, oxir oqibat Zaxxok tomonidan jismi arralanib pora-pora qilingani haqida yozadilar.

Rustam eposi. Rustam obrazi dastlab so‘g‘dlar tomonidan taxminan VI – VII asrlarda yaratilgan. So‘g‘dlarcha uning ismi Rotastaxm. Mazkur asrlarda yaratilgan epos parchalari saqlanib qolgan. Ularda Rustamning, asosan, devlarga qarshi olib borgan kurashi tasvirlanadi. Professor N.Mallayev “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobiga undan quyidagi parchani o‘zbekchalashtirib kiritgan edi:

...Rustam devlarni ularning shaharlari darvozalariga qadar quvib boradi. Ko‘p devlar halok bo‘ladi, qolganlari shahar darvozasini bekitib oladi. Rustam g‘alaba bilan qaytadi. Rustamdan mag‘lub bo‘lgan devlar g‘azablanib, unga qarshi jangni davom ettirishga, qo‘qqisdan hujum uyushtirishga qaror qilishadi. Son-sanoqsiz devlar ot aravalarga, fil, cho‘chqa, tulki, it va ilonlarga minib yo‘lga tushadilar. Ularning bir qanchasi piyoda borar, bir qanchasi kalxatday parvoz qilar edi... Rustamning Raxsh nomli oti yaylovda o‘tlamoqda, uning o‘zi esa katta g‘alabadan keyin shirin uyquda edi. Uzoqda devlarning paydo bo‘lganini ko‘rgan Raxsh

Rustamni uygʻotadi. Rustam sarosimaga tushmaydi. U devlarni yaqin keltirish va qoʻqqisdan hujum qilish uchun qasddan orqasiga qarab ot surib ketadi. Uni quvib borayotgan devlar endi gʻalaba qozonishlariga ishonadi, har qanday qilib boʻlsa ham, Rustamni tiriklayin ushlab, qattiq jabrlashga ahd qilishadi. Lekin birdan Rustam otini dushman tomoniga burib, devlarga hamla qiladi, ularga burgutday chang soladi. Devlar tumtaraqay qocha boshlaydi, ularning koʻplari oʻladi, koʻplari yaralanadi...

Qadimgi xalq ogʻzaki ijodida, keyinchalik yozma adabiyotda ham, dev obraziga murojaat qilishning oʻz falsafasi bor. YAʼni gʻayritabiiy maxluq boʻlgan dev obrazining paydo boʻlishining oʻzi ijodiy tafakkur ojizligidan emas, balki yuksakligidan dalolat beradi. Jamiyatda shunday kuchlar boʻladiki, ularni tobe qilganning har qanday koriga yaraydi, ularga tobe boʻlib qolganni birin-birin “yeb qoʻyadi”. Ular har xil koʻrinishda hayot sahnasiga kirib keladi. Baʼzan ularni nomi bilan atash ham xavfli boʻlib qoladi. Devlar ana shunday kuchlar timsoli edi. Bunday timsolni topish uchun esa katta tafakkur kerak edi.

Bundan tashqari, parchaga eʼtibor qaratilsa, devlar turli xil maxluqni minib olganlari kuzatiladi. Ular ot, fil, choʻchqa, tulki, it va ilonlar. Nega juda koʻp maxluqlar orasidan aynan shu oltitasi tanlanganida ham oʻziga xos mazmun boʻlishi tabiiy. Ehtimol, epos ijod qilinayotgan davrda soʻgʻdlarga shu hayvonlarni muqaddaslashtirgan qavmlar hujum qilib turgandir. Yoki soʻgʻdlar adabiy tafakkurida bu hayvonlar alohida tushunchalarni ifodalagan va ular zararli ekani bois devlar tomoniga qoʻyilgandir. Devlarning odamlarday fikrlashi, shahar qurib, unda yashashi ular aslida gʻayritabiiy maxluq emasligini koʻrsatadi. Lekin ularning piyoda va “kalxatday parvoz qilishi”da majoziy maʼno bor.

Rustamga oʻxshash kuchli, jasur, shijoatli, pahlavon qahramonlarning yaratilishi oʻtmishda dushmanni faqat jismoniy kuch bilan yengish tafakkuri ustun boʻlganidan dalolatdir. Afsona va rivoyatlar ustida uzoq davrlar ijodiy ishlanadi. Bu jarayonda xalq tafakkuri oʻzgarib, oʻzgarishlar afsona gʻoyasiga singib boradi.

Rustam obrazi ustida ham jiddiy ishlangani seziladi. U asta-sekin ishlarida aqlni ustun qo'yuvchi, hatto shaharlar bunyod etuvchi monumental qahramonga aylandi.

Firdavsiy uni o'z "Shohnoma"siga bosh qahramon qilib oldi. Bunda u katta arbob, ustoz sifatida ham talqin qilindi. Mashhur "Siyovush" afsonasi bosh qahramoni ustози ham Rustamdir. U chinakam pahlavonlik timsoliga aylangan. Adabiyotlarda u "Rustami doston" deb ham yuritiladi.

Siyovush afsonasi. Siyovush afsonasi ham Sharqda keng tarqalgan va shuhrat tutgan asarlardan. Uning nisbatan mukammal varianti "Tarixi Tabariy"da keltirilgan. Ibn al-Asirning "Tarixi komil" asarida uning qisqacha mazmuni berilgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida afsonaning Buxoroga taalluqli jihatlari, Siyovush zamonidan qolgan yodgorliklar haqida so'z boradi.

Akademik S.P.Tolstov Beruniy ma'lumotlariga tayanib, Siyovush miloddan avvalgi XIII asrda Xorazm davlatiga asos solganini aytadi va miloddan oldingi I asrdan milodning VIII asrigacha Xorazmda ishlangan tangalarda Siyovush tasviri tushilganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, olim Siyovush haqidagi kichik afsonani ham keltiradi. Olimning ma'lumotlari Siyovushning tarixiy shaxs bo'lganiga guvohlik beradi. Lekin bundan afsonani tarixiy ma'lumot sifatida qabul qilish kerak degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. U chin ma'noda badiiy ijod namunasi sifatida maydonga kelgan. Bu haqda YE.E.Bertels, A.Qayumov, N.Mallayev kabi olimlar yakdildirlar.

Ko'hna Sharqda nasriy asarlarning saqlanib qolishi, ko'pincha, ularning tarixiy ahamiyati bilan sodir bo'lgan. Tarixiy ahamiyat deganda, bu yerda, biror mashhur tarixiy shaxs yoki tarixiy voqea bilan aloqadorlikni tushunish kerak. Binobarin, shunday xususiyatga ega bo'lmagan nasr namunalari aksar vaqt unutilishga mahkum edi. Shuning uchun mualliflar o'z nasriy asarlariga tarixiy shaxslarni bosh qahramon qilib olishlari yoki majoziy asarlarda didaktikaga yoxud aysh-ishrat motivlariga ko'proq o'rin berishlari kuzatiladi. Ba'zan adib va uning muxlislari tomonidan asar qahramoni tarixiy shaxs sifatida talqin qilingan bo'lishi ham mumkin. Biz uchun, bulardan tashqari, asarning badiiy unsurlarga egalik,

adabiylik mezonlarigi moslik darajasi muhimroq. Berilgan matn asl bo'lsa uni, asar mazmuni bo'lsa, u orqali aslni tasavvur qilib, uning g'oyaviy va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Shu maqsadda **Siyovush afsonasi** qisqacha mazmuni bilan tanishamiz:

Ajamning sharqidagi Turkiston yeri Afrosiyob ixtiyorida edi. Ajam, uning g'arbidagi Xijoz, Yaman Kaykovusga qarashli bo'lgan. Eron va Turon o'rtasidagi chegara Amudaryo (Jayhun) orqali o'tar edi.

Kaykovus bir o'g'il ko'rdi. Uning ismini Siyovush qo'ydilar. Siyovush shu qadar chiroyli ediki, butun dunyonda undanda chiroyliroq o'g'il yo'q edi. Bola mashhur sarkarda Rustam qo'lida tarbiya ko'rdi. 20 yoshga yetgach, Siyovushni otasi qoshiga olib keldilar. Otasi o'g'lining yaxshi tarbiyalanganini ko'rib quvondi. Kaykovusning bir xotini bor edi. U Mozandaron shohining qizi edi. Bu xotinning ko'zi juda sho'x, chiroyli bo'lgan. U Siyovushni ko'rib, unga oshiq bo'lib qoladi. Siyovush o'gay onasining so'zlariga quloq solmadi: "Men otamga xiyonat qilolmayman", – deb javob berdi. Bu gapdan g'azblangan ayol ko'p hiylanayranglar ishlatadi, yolg'on gapirib, Siyovushga tuhmat qiladi. Natijada, ota o'g'ilni o'limga hukm qilmoqchi bo'ldi. Ammo Siyovushning iltimosi va Rustamning maslahati bilan otasi Siyovushni Afrosiyobga qarshi urushga otlangan qo'shinga boshliq qilib yuboradi. Siyovush Turonga kelib urush qildi, yovning ko'p askarlarini o'ldirdi. Shundan so'ng Afrosiyob ikki kishini yuborib, sulx taklif qildi. Siyovush sulx tuzdi va bu haqda otasiga xabar yubordi. Otasi: men sulxni istamayman, deb javob berdi. Siyovush esa: Men ham bevafoqlik qilmayman, ahdimdan qaytmayman, dedi. Siyovush endi otasining oldiga borolmas, yo u tarfga, yo bu tarfaga o'tishi kerak edi. U Afrosiyob oldiga bordi, Afrosiyob uni yaxshi qarshi oldi va Siyovushga o'z qizini berdi. Qo'shin esa Eronga qaytdi. Afrosiyob Siyovushning aqli, mardligi va suvoriyligidan xavotirlana boshladi va bu haqda o'z odamlari bilan maslahatlashdi. Nihoyat, Siyovushni o'ldirish fikriga kelishdi. Tasht (tog'ora) keltirib, uning ustida Siyovushni o'ldirdilar. Siyovushning xotini (Afrosiyobning qizi) xomilador edi. Unga dori berib, bolasini

tushirishmoqchi bo'ldilar. Afrosiyobning Piyron degan vaziri bor edi, Siyovush bilan Afrosiyob o'rtasida tuzilgan sulxning tashabbuskori o'sha bo'lgan edi. Piyron Afrosiyob huzuriga kelib, qilgan ishini qoraladi. U: "Malikzoda sening yoningga keldi, xizmatingga kirdi, nima gunoh qilgan ediki, qatl ettirding. Endi Kaykovus bilan Rustam uning xunini talab qiladilar, sen ulardan salomat qutulib ketolmaysan, ular Turonni vayron qiladilar. Modomiki, sen Siyovushni o'ldirding, endi qizingni menga topshir, agar u o'g'il tug'sa, Kaykovus va Rustamning oldiga yuboraman. Shu bilan ularning g'azabini so'ndiraman", – dedi. Afrosiyob qizini Piyronga topshirdi, ammo o'g'il tug'adigan bo'lsa, uni o'ldirishni buyurdi. Piyron shoh qizini uyiga olib borib saqladi. Oradan bir oy o'tib malika o'g'il ko'rdi. U xuddi otasiga o'xshardi. Piyronning bolani o'ldirishga ko'ngli bo'lmadi. Bolaga Kayxusrav deb nom berdi va yashirinchalik tarbiyaladi. Afrosiyobga, qizing farzand ko'rdi, deb xabar qildi, ammo o'g'il ekanini bildirmadi. Bir qancha vaqt o'tgach, Afrosiyob qizi nima bola tug'di, deb so'radi. O'g'il, lekin uni o'ldirishga ko'nglim bo'lmadi, deb javob qildi Piyron. Unda qoshimga keltir, bir ko'rayin, dedi Afrosiyob. Piyron Kayxusravga chiroyli kiyimlar kiydirib, Afrosiyob huzuriga keltirdi. Shoh uni ko'rgan zahoti yig'lab yubordi, Siyovushni o'ldirganiga qattiq pushaymon bo'ldi. Piyronga bu bolani cho'ponlar orasiga eltishini buyurdi, ulg'ayganda kimning zotidan ekanini bilmasin, deb tayinladi. Bolani cho'ponlar qo'liga topshirdilar. Oradan yeti yil o'tgach, Afrosiyob Piyronni huzuriga chaqirdi va unga dedi: bugun hech uyqum kelmayapti, hamon o'sha go'dakning andishasini nqilmoqdaman. Qanday qilib podshohzoda cho'ponlar orasida bo'lishi mumkin, nima ravo bo'lsa, o'sha bo'lsin, borgin, uni keltir. Piyron cho'ponlar yoniga keldi. Bola chavgon o'ynar edi. Piyron otdan tushib, uning yoniga piyoda bordi, quchoqlab bag'riga bosdi, qattiq o'pa boshladi va yig'lab yubordi. Kayxusrav o'zini olib qochib: "Ey otliq, senda uyat bormi, nega cho'pon bolasini o'pib yig'laysan", – dedi. Piyron aytdi: "Sen cho'pon bolasi emassan, podshohzodasan". U bolani otga o'tirg'izib, Afrosiyob oldiga keltirdi. Yo'lda Afrosiyob huzuriga borayotganlarini aytgan edi. Unga bobong nimani so'rasa shunday javob berki,

sendan qo‘raqadigan bo‘lmasin, deb tushuntirdi. Afrosiyob qoshiga kelishgach, u bolaning komilligidan hayratda qoldi. Afrosiyob Piyronga bolani onasiga topshirishini va undan hech ayrilmasligini buyurdi.

Oradan vaqtlar o‘tib, Kaykovusga Siyovushning o‘ldirilganligi xabari borib yetdi. U nihoyatda g‘azablendi, yig‘lab nola qildi. Barcha qora kiydi. Yana bir necha yil o‘tdi. Lashkarboshilar ichida Gudarz degan odam bor edi. Bir kun u tush ko‘rdi, tushida unga bir odam: “O‘gling Gevni Turonga yubor, u borib Kayxusravni olib kelsin”, – dedi. Gudarz bu tushidan Kaykovusni xabardor qildi. Kaykovus Gevga Turonga borishini buyurdi. Gev yeti yil Turonda bo‘ldi va Kayxusravni izlab topdi. U Kayxusravni va uning onasini qo‘lga kiritib, Eron sari yo‘l oldi.

Afrosiyob bo‘lgan ishlardan xabar topib, uch yuz mard, jasur yigitlarni Piyronga berdi va qochoqlar ortidan borishlarini buyurdi. Gev ular bilan jang qilib, ba‘zilarini o‘ldirdi, ba‘zilarini esa qochishga majbur qildi. U Piyronni tutib olib o‘ldirishga qasd qildi. Shunda Kayxusrav Piyronidan ko‘p yaxshiliklar ko‘rganini aytib, o‘ldirmasligini so‘radi. Gev: “Men uning qonini to‘kaman deb qasam ichganman, o‘lirmasam bo‘lmaydi”, – dedi. Kayxusrav: “unday bo‘lsa qulog‘idan sal kesgin, shunda qasaming ham buzilmaydi”, – dedi. Gev Piyronning qulog‘idan ozgina kesdi va uni otiga bog‘lab qo‘ydi. Gev va Kayxusrav Eronga qaytishlari bilanoq Kaykovus Turonga yurish qildi. Rustam boshliq qo‘shin Afrosiyobni yengib, ko‘p o‘ljalar bilan qaytdi. Kaykovus bir yuz ellik yil yashab, so‘ng vafot etdi.

Kayxusrav vafotidan so‘ng taxtga Kayxusrav o‘tirdi. U tojni kiygan zahoti odamlarini yig‘ib, otasining qasдини olish uchun Afrosiyob ustiga yurish qildi. Afrosiyob bu ishlardan xabar topgach, u ham lashkar tortdi. Piyron qo‘shinga bosh bo‘ldi. Qattiq jang bo‘lib o‘tdi. Urushda Turon askarlari ustun keldilar. Firibarz boshchiligiagi Eron qo‘shini bayroqni orqaga o‘girib qochishdi.

Keyinroq Kayxusrav yana qo‘shin yig‘ib, Afrosiyobdan o‘ch olish maqsadida jangga otlandi. Afrosiyob ham barcha turk qo‘shinlarini jam qilib qarshi oldi.

Kaxusrav Eron va Turon chegarasiga keldi. Qo'shinni to'rt qismga bo'lib, Turon lashkarini o'rab olish rejasini tuzdi. To'rt tomondan hujum boshlandi. Afrosiyobning Garshiyuz nomli bir birodari bor edi. Siyovushni o'ldirgan shu edi. Kayxusrav shu odamni talab qilar edi. Afrosiyob Garshiyuzga son-sanoqsiz qo'shin berib janga jo'natdi. U Gudarz boshchilik qilayotgan qo'shin sari ketdi.

Kayxusrav Turon qo'shini yaqinlashayotganini, unga Piyron boshchilik qilayotganini bilar edi, lekin uni o'ldirishni istamas edi. Kayxusrav Piyronga vakillar yuborib shunday dedi: "sening menda haqqing bor, sen meni otam va onam o'rnida tarbiya qilding, ko'p yaxshiliklar qilding. Ortingga qayt, mening qo'shim bilan urush qilmagin, tokim g'alaba qozonsam, sening haqqingni oqlayin". Afrosiyob Piyranni o'z birodarlari va farzandlaridan ham ortiq ko'rar edi. Uni o'zidan keyin boshliq qilishga mo'ljal qilgan edi.

Piyron o'z lashkari bilan olg'a yurdi va Gudarz qo'shini bilan jang boshladi. Piyron shu urushda mag'lubiyatga uchrab o'ldirildi. Uning hamma birodarlari, Afrosiyobning yaqinlari, shular qatori Siyovushning qotili Garshiyuz ham asirga olindi.

Garshiyuzning qulog'ini kesib, ko'zini o'yib oldilar. Siyovushga nima qilgan bo'lsa, unga ham shuni qildilar va qatl etdilar. Kelgusi kuni Kayxusrav taxtga o'tirdi. Amakisi Navfirani o'ng qo'l vaziri etib tayinladi, Gudarzga ham minnaddorchilik izhor etib, ko'p sovg'alar in'om etdi. Isfahon va Gurgon hokimligiga tayin qildi.

Afrosiyob lashkari mag'lub bo'lgani, Garshiyuzning a'zoyi badani pora qilingani, Piyrinning o'ldirilganini eshitib, butun dunyo ko'ziga qorong'u bo'ldi. Endi u jodu hunariga usta o'g'li Shaydaga qo'shin berib, Kayxusravga qarshi jangga jo'natdi. Kayxusrav Quruq ibna Harhon nomli kar lashkarboshi qo'l ostidagi askarlarini qoldirib, o'zi ortga chekindi. Bir kunlik jangdan so'ng Turk qo'shini chekinadi. Kayxusrav lashkarlari Shaydani mag'lub etib o'ldiradilar.

Nihoyat, Afrosiyob katta qo'shin yig'ib, unga o'zi bosh bo'lgan holda jangga otlandi. Kayxusrav ham qo'shin yig'di. Urush boshlandi. Bunay urushni hali

jahonda hech kim ko'rgan emas. Afrosiyob mag'lub bo'lib chekindi. Kayxusrav uni Turondan chiqib Rumga yetguncha ta'qib qilib bordi. Afrosiyobning yonida hech kim qolmadi. U bir marg'zorga kelib qoldi. U yerda ko'l bor edi, Afrosiyob shu ko'l ichiga bekindi. Askarlari uni izlab topdilar va Kayxusravga eltdilar. Kayxusrav uni bandi qilishni, qaytarib olib ketishni va uch kun tinchlikda saqlashni buyurdi. To'rtinchi kuni Afrosiyobni huzuriga chaqirib dedi: "Siyovushni nega o'ldirding, sababini menga ayt". Afrosiyobning hech hujjati yo'q edi. Kayxusrav uni o'linga buyurdi. Gudarzga bir tasht olib kelishni buyurdi. Afrosiyobni yotqizdilar, qo'l va oyog'ini kesdilar, bo'g'zini qo'yga o'xshatib tasht ustida uzdilar.

Kayxusrav o'z yurtiga qaytdi. U butun xalqni yig'ib shunday dedi: "men jahonda nimaiki lozim bo'lsa, barchasini topdim. Endi jahon ishini tark qilaman, mamlakatdan chiqib kaetaman. Mamlakat va hukumat boshqaruvini kimga ishonsangiz o'shanga bering". Hamma g'amgin bo'ldi, qancha yolbordilar, u qaytmadi. Yana dedi: "Menga o'lim kelmoqda, o'lganimdan so'ng nima qilmoqchi bo'lsalaringiz, hozir qiling". Xaloyiq endi foyda yo'qligini syezdi. Ular, bizga nomzodingni ayt, tokim hokimiyatni o'shanga topshiraylik, dedilar. U yerda podshohzodalardan bo'lgan Luhrasp o'tirgan edi. Kayxusrav qo'lini o'sha tomonga uzatdi va jim bo'ldi. Shu kechadayoq Kayxusrav g'oyib bo'ldi. Keyin uni hech kim ko'rmadi. Deydilarki, Kayxusrav to'g'larga chiqib ketgan va o'sha yerda vafot etgan.

"Siyovush" uzoq vaqt ishlangan. Buning dalili shuki, unda aytilmoqchi bo'lgan g'oya aniq: hukmdorlar adolatli tuzim o'rnatishlari shart. Adolat ota va o'g'il, qaynota va kuyov, bobo va nabira, o'gay ona va o'g'il kabi qarindoshlik tuyg'ularidan ham muhimroq. Bu birinchi jihati.

Ikkinchi jihat Afsona tayyor ishlangan obrazlarga egaligidir. Ulardan shunday obrazlar kerak bo'lgan san'at asarlarida bimalol foydalanish mumkin. Dastlab undan "Avesto"da foydalanilgan. YE.E.Bertelsning ko'rsatishicha, "Avesto"dagi

Syavershan – Siyovush, Kava Xaosrav – Kayxusrav, Franasvyan – Afrosiyob timsollaridir⁹.

Uchinchidan, agar asarning asli tasavvur qilinadigan bo'lsa, unda hozirgi davr adabiyotshunosligida ham muhim bo'lgan chuqur psixologizm bo'lganini his qilish mumkin. Ayniqsa, o'gay ona va Siyovush, Kaykovus va Siyovush yoki Siyovush bilan Afrosiyob orasidagi vaziyatlarni keltirib chiqarishda psixologizmga ehtiyoj yaqqol seziladi. Psixologik muhit yaratilmasdan bunday epizodlar yaratilmas edi. Bundan tashqari, afsonada mifik romantizmdan ko'ra ibtidoiy realizm ustunlik qiladi. Bu ham psixologizmning mavjud bo'lishini taqozo etgan bo'lur edi.

«AVESTO»

«Avesto» O'rta Osiyo va Eron xalqlari hamkorligida vujudga kelgan diniy ta'limotlarning eng yuqori darajasi bo'lgan zardushtiylik ta'limotining asosiy, muqaddas kitobidir. Zardushtiylik ta'limotining kurtaklari miloddan avvalgi ikki minginchi yillarga to'g'ri kelsa-da, uning to'la shakllanishi va o'z nomiga ega bo'lishi fanda ko'proq m.a. VI – V asrlar deb belgilab kelinadi. «Avesto»ning yozilishi ham m.a. VI asr degan qarash ustuvor. Uning muallifi zoroastrizm (zardushtiylik) ta'limotini mukammallashtiruvchisi Zardusht (Zaratushtra, Zardo'st) ekani e'tirof qilingan. **«Avesto» so'zining lug'aviy ma'nosi “ilm va ogohlik”dir.** Uning yaratilgan joyi «Avesto»da zikr etilgan Tangri yaratgan birinchi kishvar Eron Vij – Xorazm hududidagi qadimgi davlat. Qadimiy O'rta Osiyoda bunday olamshumul diniy ta'limotning vujudga kelgani bu yerda yashayotgan xalqlarning azaldan ne chog'li katta ilmiy va ijodiy salohiyatga ega bo'lganini ko'rsatuvchi dalildir.

Manbalarda qayd etilishicha, «Avesto»ning to'liq matni 21 nask (kitob)dan iborat bo'lib, 12000 mol terisiga oltin harflar bilan yozib chiqilgan. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni zabt etganda uning ichidan astronomiya va tibbiyotga doir joylarini ko'chirtirib va tarjima qildirgan, qolgan qismini yoqtirib yuborgan

□ Бертелс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960. – С. 61.

ekan. Lekin «Avesto» uch nusxada bo‘lib, uning bir nusxasi yoqilgan, bir nusxasi yunonistonga olib ketilgan bo‘lsa-da, yana bir nusxasi sodiq zardushtiylar tomonidan yashirilib asrab qolingan. Beruniyning bu xususdagi fikrida bir oz farq bor. U o‘zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday yozadi: «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida «Avesto»ning o‘n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni yondirib yubordi. Shuning uchun o‘sha vaqtdan beri «Avesto»ning beshdan uch qismi yo‘qolib ketdi. «Avesto» *o‘ttiz nask edi* (ta’kid bizniki). Ma’jusiylar qo‘lida o‘n ikki nask chamasi qolgan».

Milodning III asrida sosoniylar hukmronligi zardushtiylikni rasmiy e’tiqod sifatida qabul qildi. Buning natijasida «Avesto»ni tiklashga kirishildi. Uning mazmuni to‘ldirilib tiklandi va pahlaviy tilida qayta yozib chiqildi. Hozirgi ilmiy tadqiqotlarda asarning ana shu matnga asosan 1324 yilda ko‘chirilgan nusxasidan foydalaniladi. Lekin u «Avesto»ning to‘liq matni emas, tiklangan ma’lum qismi, xolos.

«Avesto» tiklangandan so‘ng unga juda ko‘p sharhlar yozildi va ular “zand” (“zend”) deb yuritila boshlandi. Ilmiy adabiyotlarda uchraydigan “Zand Avesto” yoki “Avesto-Zand” atamaları ana shu sharhlarni anglatadi.

«Avesto»ning mundarijasini N.Mallayev uning pahlaviy tilidagi sharhli tarjiması qo‘shilgan varianti asosida belgilashni ma’qul topadi. Unga ko‘ra, «Avesto» quyidagi qismlardan iborat:

1. Vendidad. U 22 bobdan iborat bo‘lib, Axura Mazda bilan Zardushtning savol-javobi shaklida yozilgan. Boblarda yomon ruhlar, devlarni haydash, gunohlardan poklanish haqida. Boblarga afsona va rivoyat elementlari kiritilgan.

2. Visparad. U 24 bobdan iborat bo‘lib, ibodat qo‘shiqlarini o‘z ichiga oladi.

3. Yasna. U 72 bobdan iborat bo‘lib, qurbonlik marosimi qo‘shiqlarini, xudolar madhiyasi va diniy marosimlarga xos boshqa rasm-rusmlarni o‘z ichiga oladi. Uning 17 bobi got – gimnlardan iborat.

4. Yasht. Zardushtiylik ma'budlari madhida aytilgan 22 qo'shiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, Yashtda mifologik elementlar boshqa qismlarga qaraganda ancha ko'p.

5. "Kichik Avesto" (Xurda Avesto). «Avesto» mundarijasining qisqartirilgan bayoni.

Zardushtiylik ta'limoti ko'pchilik olimlar tomonidan ta'kidlanishicha, yakkaxudolikni targ'ib qilgan. Lekin bu ta'limot va «Avesto» haqidagi ilmiy yoki ommabop ishlarda, shuningdek uning tarjimasida xudolar va ma'budlar haqida gapiriladi. Bu unchalik to'g'ri emas. Axura Mazda haqiqatan yakka xudo. Yer, Oy, Quyosh, Ardivisura, Varxran va boshqalar xudo, ma'bud emas, Axura Mazdaning biror ishda mas'ul yordamchilari. Ularga o'zbekchada to'g'ri nom berish kerak. Masalan, yakkaxudolikning mukammal namunasi Islom dinida Olloh yonida Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroil kabi turli vazifalarga mas'ul qilingan farishtalar bor. Olloh bilan bahsga kirishuvchi Azozil (Iblis) ham aslida farishta. Ularning hammasi malaklar deb yuritiladi. Bulardan tashqari yumushlarning ham mas'ul farishtalari bor. Masalan, Quyoshni boshqarib turish bilan shug'ullanadigan alohida farishta bor, u – malakush-shams. Yakkaxudolikni targ'ib qiluvchi zardushtiylik dinida, jumladan «Avesto»da boshqa muqaddas zotlarni xudo yoki ma'bud deyish ham nojoizdir. Ularni ham Islomdagi malakut sifatida tushunish va qo'llash lozim.

Zardushtiylik izchil dualizm prinsipiga asoslanadi. Bunda ikki kuchning ikki rahnamosi – Axura Mazda va Ahraman (Angra Manyu) o'rtasidagi kurash ham o'ziga xos rol o'ynaydi. Ularning har biri o'z tarafdorlariga ega. Axura Mazdaning "Amesha Siensha" deb ataluvchi eng yaqin oltita yordamchisi bor, ular quyidagilar:

Vohu-Manah (Bahman) – ezgu fikr,

Asha Vahishta (Ardibihisht) – yuksak haqiqat,

Xshatra Varya (Shahrivor) – munosib qudrat, hokimiyat,

Sienta Armati (Isfandarmad) – muqaddas itoat,

Xarvatat (Xurdod) – salomatlik,

Ameretat (Murdod) – manguilik.

Ular olov, suv, o'simliklar va boshqa mulkni tasarruf qilishda mas'uldirlar. Axura Mazdaning bu kuchlardan keyin turadigan yordamchilari yazatlar deb ataladi. Ular ilohiy va dunyoviy guruhchalarga bo'linadi. Ilohiy yazatlardan biri, eng muhimi Axura Mazdaning o'g'li Atar – olovdir. Undan so'ng yorug'lik, haqiqat va sharaf yazati Mitra, chaqmoq, yashin yazati Vrtragna; dunyoviy yazatlar: Ap – suv, Xvar shatta (Xurshid) – Quyosh, Tshtiraya – Sirius yulduzi va h. Bulardan keyingi yordamchilar frevashlar.

Xuddi shunday yordamchilar Ahramanda ham bor. Uning yaqin yordamchilar devlar deb yuritiladi. Devlarning to'qqiztasi alohida xususiyatga ega:

Aka mana – yovuz fikr, Taurva – so'lish, Zarik – o'lim, Ayshma – g'azab, qahr, urush, Araska – hasad, Uda – ezmalik, shallaqilik, Akatasha – nojo'ya qiziqishlar qo'zg'atuvchi, Bo'shyasta – yalqovlik, Kush – xasislik devlari. Devlarning yordamchilari g'azabnok, badjahl ayollar toifasiga mansub drujlar. Ahramanning devlardan keyingi devsimon yordamchilari parig (pari)lar, ular go'zal qiyofasi bilan kishilarni avrab Axura Mazdadan qaytaradi, ulardan keyingisi yovuz kuchlarga xizmat qiluvchi sehrgarlar – yatular.

Ko'rinib turganidek, «Avesto»dagi to'qnashuvchi kuchlarning ajoyib tizimi yaratilgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, dunyoda hayot o'n ikki ming yil davom etdi. Birinchi uch ming yil davomida ruhlar yaratiladi. So'ngra Ahraman yaratiladi. U ruhlar ichida tinch-totuv yashashni istamaydi. Axura Mazda bilan Ahraman o'rtasida to'qqiz yuz yil davom etgan kurash boshlanadi. Oxir Axura Mazda g'olib chiqib, Ahraman qorong'ulikka haydaladi.

Ikkinchi uch ming yilda Axura Mazda moddiy borliqni barpo etadi, odam yaratiladi. Ahraman ularga qarshi yovuz devlarni – o'z yordamchilarini tayyorlaydi.

Uchinchi uch ming yillikda Ahraman o'z devlari bilan Axura Mazda yaratgan dunyoga kirib keladi. Aji (Ilon) birinchi inson – Gayumartni va uning doimiy hamrohi buqani o'ldiradi. Ammo ularning urug'lari yerga to'kilgan edi. O'sha urug'lardan odamlar va ezguliklar, hayvonot unib chiqadi. Kurash davom etib, ezgulik kuchlari g'olib chiqadilar va yovuz kuchlarni yer ostiga haydaydilar.

To'rtinchi uch ming yillik Zardushtning tug'ilishidan boshlanadi. U yer yuzida o'z e'tiqodini targ'ib etadi. Zardushtning uch o'g'lidan ruhoniylar, harbiylar, dehqonlar tashkil topadilar.

O'n ming yildan so'ng ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasida oxirgi kurash boshlanadi. Qattiq yong'in boshlanib, tog'lar, yer, yer osti yonib ketadi. Zardushtning avlodidan bo'lgan Saotsyant halok bo'lgan dunyoni qaytadan tiklaydi, o'liklar tiriladilar, yerda abadiy hayot boshlanadi.

Zardushtiylik ta'limotiga, ya'ni «Avesto»ga ko'ra, inson yovuz kuchlarga qarshi kurashda Axura Mazdaning yordamchisi bo'lishi kerak.

Ko'rib o'tilgan jihatlar «Avesto»ning g'oyaviy xususiyatlaridir. Zikr etilgan mazmunlardan uning badiiy voqealar tizimi ekani ham oydinlashadi. Zotan, har bir muqaddas kitob ilohiy bashorat, da'vatu hukmlar qomusi bo'lish bilan birga qo'shiqlar, qissalar, afsona va rivoyatlar orqali u mansub bo'lgan xalq badiiy tafakkurining namoyishi ham hisoblanadi. «Avesto»ning deyarli barcha qismida afsonalarning loaqal mazmuni beriladi. Ularda eng ko'p eslangani Mitra, Ardvissura, Anaxita, Varaxrana, Osha, Kayumars (Gava Marta), Jamshid (Yima) haqidagi afsonalardir (Ularning mazmuni bilan avvalgi faslda tanishtirdik). «Avesto»da Kayumars va Jamshid afsonalari nisbatan to'liq, boshqa afsonalarning ma'lum voqealari u yoki bu masalaga munosabatni bildirish uchun keltiriladi. Yasht va Gotlar bevosita Zardushtning ijodi sifatida qaraladi.

Ayrim sharqshunoslar, jumladan Rizoiiy, Baromiiy, Meri Boyslar «Avesto» tarkbidagi bir milion she'r (Pliniy)ning barchasi Zardusht qalamga mansub deyishsa, A. O. Makavelskiy ularning ma'lum bir qismi ancha qadimiy og'zaki ijod mevasi, degan fikrni boyon etgan. Ammo barcha avestoshunoslar bu she'rlar

ogʻzaki ijod sarchashmalari zaminida vujudga kelganini bir ogʻizda eʼtirof etib, ular barmoq vaznidagi poeziyaga xiyla oʻxshash ekanligini taʼkidlaydilar. Ular koʻpincha 8 yoki 9, baʼzilari 11,12 boʻgʻinli misralardan tashkil topgan. Sheʼrlarda ham, nasr qismida ham xalq ogʻzaki ijodining uslublaridan keng foydalanilgan. Xususan, asar matni gʻulu, takror, xitob, savol-javob, tazod, anafora, oʻxshatish, tanosib, anafora va sajʼ kabi tasvir vositalariga boyligi bilan Zardushtning badiiy saviyasi ne chogʻli yuqoriligini koʻrsatib turadi. Axura Mazda 101 nomda zikr qilinishi ham asar yaratilishidan ancha keyin Islom asoslarida Ollohning 99 ismiga mosligi bilan ijodkorning tafakkurda ancha ilgari lab ketganidan dalolatdir.

Professor Hamidjon Homidiy «Avesto»ning badiiy xususiyatlari haqida gapira turib: «Avesto» boshqa sohalar bilan birga ijod, adabiyotning ham qomusiga oʻxshaydi”, deganida haqlidir. Yodgorlik keyingi davrlar adabiyotiga eng koʻp materiallar va timsollar berdi. Abulqosim Firdavsiyning jahon adabiyotida mustahkam oʻrin tutgan “Shohnoma”si bu yodgorlik materiallaridan eng koʻp foydalanilgan dostonidir. Shuning oʻziyoq «Avesto»ning badiiy qimmatini baholashga yetarlidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi diniy tasavvurlarning paydo boʻlishi va ularning adabiyotning shakllanishiga taʼsirini izohlang.
2. Qadimgi miflarning manbalarini sanab bering.
3. Mifologiyaning ayrim janrlar bilan oʻzaro munosabati haqida referat tayyorlang.
4. Miflarning mavzu mundarijasi, gʻoyaviy yoʻnalishi nimalardan iborat?
5. “Avesto”ning adabiy-badiiy tafakkur rivojiga qoʻshgan hissasi haqida soʻzlab bering.

O'RXUN-ENASOY BITIKLARI

Reja

1. O'rxun-Enasoy bitiklarining topilishi va o'rganilishi.
2. Turkiy xalqlar adabiyotida O'rxun-Enasoy bitiklarining tutgan o'rni.
3. O'rxun-Enasoy bitiklarining mavzu mundariyasi va janriy xususiyatlari.
4. Bitiklarning adabiy-badiiy xususiyatlari.
5. Xulosa.

ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов А. Туркий халқлар оғзаки ижоди (Энг қадимдан исломгача бўлган давр). – Самарқанд, СамДУ, 2004.
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: «Фан», 1974.
4. Воҳидов Р., Эшонкулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.
5. Гумилов Л.Н. Древние тюрки. – Москва: Народы Азии и Африки, 1968, 2-сон.
6. Жирмунский В.М. Орхонские надписи стихи: или проза? – Москва: Наука, 1967.-
7. Кляшторный С. Г. Древнетюркский рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – Москва: «Наука», 1964.
8. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
9. Малов. С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.: - Л.: АН, 1951.

10. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I – III ж. Тошкент: 1960-63.

11. Раҳмонов Н. Кўҳна битиктошлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.

12. Рустамов А. Ибн Арабшоҳ туркий ёзувлар ҳақида. – Адабий мерос, Тошкент, 1976, 5-сон.

13. Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и её трансформация в ранне-классический период. – Москва: «Наука», 1976.

14. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.

15. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. I том. – Тошкент: «Фан», 1978.

16. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-2-жилд. – Тошкент: «Фан», 2003.

17. Қаямов А. Қадимият обидалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.

Tayanch tushunchalar: *bitik, bitigtosh, yozuv, run, dulbarjin, yodnoma, bayon, usul, marsiya, madhiya, doston, memuar, tasviriy vosita, obraz, o'xshatish, sifatlash.*

Ma'ruzada qo'yiladigan muammolar: adabiyot tarixida O'rxun-Enasoy tosh bitiklari, qabr toshlarining tutgan o'rnini aniqlash; yodnomalarni adabiy-badiiy tavsiflash.

Osiyodagi yirik daryolardan bo'lgan O'rxun va Enasoy (Yenisey) qirg'oqlariga tutash vodiylardan topilgan toshlarga o'yib bitilgan yozuvlarning kashf etilishi jahon olimlarining turkiy xalqlar madaniy va adabiy tarixi to'g'risidagi tasavvurlarini nihoyat darajada boyitdi. Bu yodgorliklar fanga XVIII asrning boshlarida rus xizmatchisi Remezov, shved ofitser Iogan Stralinberg va

olim Missershimedt tomonidan Enasoy havzalaridagi toshlardagi yozuvlar haqida tarqatilgan xabarlarga ko'ra ma'lum bo'lgan edi. XIX asr boshlarida Grigoriy Spasskiyning "Sibirskiy vestnik" jurnalida toshlardagi bitiklar haqida bosilgan maqolasi juda ko'p mamlakatlardagi olimlarning diqqatini tortdi. Lekin bitiklarni o'qishga hech bir olim tezda muyassar bo'lmadi.

1889 yilda rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrinsev Mo'g'ilistonning Kosho-Saydam vodiysidan o'tuvchi O'rxun daryosi qirg'oqlarida xuddi Enasoy bo'ylaridagiga o'xshash juda ko'p toshbitiklarni uchratdi. 1890 – 1891 yillarda avval Fin-ugor jamiyati, so'ng Rossiya fanlar akademiyasi O'rxunga ilmiy ekspeditsiya uyushtirdi. Bitiklarni birinchi bo'lib daniyalik olim Vilgelm Tomsen o'qishga erishdi. Olim bitiklardagi belgilarni boshqa alifbolar bilan qiyoslamasdan uning o'ziga xos tartibi bo'yicha tekshiruv olib bordi va bu prinsip o'zining natijasini berdi: alifbo harflari aniqlandi, "Tangri", "turk" so'zlari o'qildi. Bitiklar turkiylarga tegishli ekani tasdiqlandi.

Bu orada rus ekspeditsiyasi rahbari akademik V.V.Radlov bitiklardagi 15 harfni aniqladi. U V.Tomsen kashfiyotiga tayanib O'rxun bitiklarini tarjima qildi. N.M.Yadrinsev ma'lumot bergan qabr toshlari turk xoqoni Bilka Qoon (734 yil vafot etgan) va uning ukasi Kul Tagin (732 y.v.e.)ga tegishli ekani ma'lum bo'ldi.

Olimlar bu yozuvni german, fin, got yozuvlariga nisbatan qo'llanib kelgan "run yozuvi" (sirli yozuv) istilohi oldidan "turk" so'zini qo'shib atay boshladilar. Lekin olimlarning keyinroq aniqlashlariga ko'ra, bu yozuvning "dulbarjin yozuvi" deb yuritilgani ayta boshlandi.

Ko'p o'tmay N.M.Yadrinsev Ongin daryosi bo'ylarida yana bir necha bunday yodgorliklar topganini ma'lum qildi. Klemenslar oilasi Selenga bo'ylaridan turk xoqonlarining maslahatchisi To'nyuquq qabriga o'rnatilgan toshni topdilar. Toshlardagi bitiklarning o'qilishi keyinchalik Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida ham bu yozuvdan foydalanilganini ko'rsatdi. Avliyo ota (Jambul) shahri yaqinidan, Talas daryosi bo'ylaridan ham turli ashyolarga yozilgan shunday yodgorliklar topildi. Run yozuvlari qog'ozga, shuningdek, boshqa buyumlarga

(oyna, qayish to‘qasi, idish-tavoq, yog‘ochga) ham bitilgan. «Irq bitigi» («Ta’birnoma») qog‘ozda yozilgandir.

A.Abdurahmonovning ko‘rsatishicha, 1970 yilda Olmaotadan 50 kilometr uzoqlikdagi Esik shaharchasidan topilgan qabrdan O‘rxun alifbosida bitilgan tosh bitig qo‘lga kiritilgan edi. Yozuv qadimgi turk tamg‘alarida uchraydigan shakllarga asoslangan bo‘lib, unda «*Xonning o‘g‘li 23 yoshida o‘ldi. Issiq elining boshi omon bo‘lsin!*» degan so‘zlar bitilgan. Qabr qaysi xonga tegishli ekanligi aniqlanmagan bo‘lsa-da, yozuv bundan 2500 yil muqaddam yaratilgani isbotlangan. Demak, runiy yozuvlarning tarixi uzoq, bu yozuvda yaratilgan yozma adabiyot ham shunday qadimiylikka egadir. Lekin mukammal darajadagi tosh bitiglar qo‘lga kiritilmaganligi sababli yozma davrni miloddan oldingi davrlardan boshlashga hali vaqt erta.

Binobarin, bu yozuvda bitilgan adabiy tarixiy bitiklar Sibir, Mo‘g‘ulistonning turli joylaridan, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Volga bo‘yi, shuningdek, Yevropadan topilsa-da, u tarixda O‘rxun-Enasoy yodgorligi nomi bilan yuritiladi.

O‘rxun va Enasoy bitiglari jahon turkiyshunoslari e’tibori qaratilgan nodir yodgorliklardandir. V.Tomson, R.Radlov, S.Y.Malov, S.G.Klyashtorniy, I.V.Stebleva, H.O‘rxun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov, o‘zbek olimlaridan A.P.Qayumov, A.Rustamov, G‘.Abdurahmonov, N.Rahmonov, A.Abdurahmonovlar o‘rganishgan. A.P.Qayumov, G‘.Abdurahmonovlar bitiglar qadimgi turkiy tildan hozirgi o‘zbek tiliga o‘g‘irgan bo‘lsalar, N.Rahmonov va A.Abdurahmonovlar ularning vujudga kelish omillari, matniy va adabiy-badiiy xususiyatlarini tekshirganlar. Bitigtoshlar juda ko‘p bo‘lishiga qaramay hozirgacha ulardan 250 ga yaqin o‘rganilgan.

Tosh bitiklar turkiy xalqlar tarixida favqulodda sodir bo‘lgan emas. Ular o‘zidan avvalgi adabiyotning mazmuni, ruhi, g‘oyasini rivojlantirgan yangi shaklidir. Yodnomalarda bayon qilish usuli va bu usulning uch qat’iy unsurlari – asarda boshlanma, voqea rivoji, tugallanmaning mavjudligi turkiy, umuman,

barcha xalqlar og‘zaki ijodiga xos arxaik xususiyatlardir. Bu xususiyatlar ularga yirik janrlar yo‘lidagi bosqich sifatida qarash farazini keltirib chiqaradi.

Masalan, Ungin yodnomasi shunday boshlanadi:

Achumiz, apamiz Yami qag‘an

Tort bulungug‘ qismish, yig‘mish, yamish, basmish,

Ol qan yoq boltuqta kasra

Al yitmish, ichxinmish

Mazmuni: *Achamiz, otamiz Bumin qog‘an,*

To‘rt bo‘lakni qismish, yig‘mish, yoymish, bosmish.

Ul xon yo‘q bo‘lgandan so‘ngra

El yo‘q bo‘lmish, qochishmish.

Bo‘min dastlabki turk xoqonlaridan hisoblanadi. Uning hayoti to‘g‘risida rivoyat yoki afsonalar yaratilgan bo‘lishi kerak, chunki Kul tegin va Bilga xoqon yodnomalarida ham Bo‘min haqida eslatilishi shundan dalolat beradi.

Tosh bitiklarning har biri ularda arxetiplar qanchalik ishtirok etmasin, mustaqil asardir. U she‘riy yo‘lda bitilgan. O‘z davrining ruhi singdirilgan. Shu sababli ham I.V. Stebleva ularni «tarixiy qahramonlik poemalari» deb ataydi. Urxun va Enasoy tosh bitiklari barcha turkiy xalqlarning adabiy yodgorligidir. Qadimgi turkiy adabiyotning vorisi hisoblangan bugungi ko‘plab milliy adabiyotlar unda o‘z tarixini, shakllanish jarayonini, katta hajmli nodir asarlarning tug‘ilish ildizlarini ko‘radi.

To‘nyuquq bitigi. Bitik ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi To‘nyuquqqa bag‘ishlangan. To‘nyuquq Qapog‘on va Bilga xoqonlarning ham maslahatchisi bo‘lgan. Tosh bitik 712-716 yillarda To‘nyuquq tirikligi paytida yozilgan. Yodgorlikni 1897 yilda Yelizaveta Klemens eri Dmitriy Klemens bilan birgalikda Shimoliy Mo‘g‘ulistonning Bain-Sokto manzilidan topishgan. Yodgorlik hozirda o‘sha joyda saqlanadi. To‘nyuquq bitigi – qahramonlik ruhidagi asardir. To‘nyuquq turkiylarning dushman qabilalariga qarshi kurashgan, donoligi, tadbirkorligi, jasurligi bilan ko‘p

g'alabalarni qo'lga kiritgan sarkadadir. Bitikda uning xizmatlari ulug'lanadi, turk xalqiga sodiqligi madh etiladi. Asardagi voqealar To'nyuquq tilidan hikoya qilinadi. Turk xalqi boshboshdoqlik, o'zibo'larchilik, beparvolikka berilib, o'z hukmdori atrofida birlashmasdan erkini qo'ldan bergani qahramonning ruhiy kechinmalari orqali beriladi.

Bitigda ifodalangan tasvirlar xotira-memuar xarakterida bo'lib, ular asarda epik bayonni, syujetni hosil qiladi. To'nyuquq bitigining boshqa bitiglardan farqli tomoni shundaki, unda yig'i-yo'qlov ruhi sezilmydi, aksincha, asarning butun mazmuni qahramonlik tasviri asosida qurilgan. To'nyuquq – jasoratli, o'z xoqoni va mamlakti sharafi uchun kurashgan dono sarkadadir.

Bitigda real hayotiy voqealar bilan mifologik tasavvurlar uyg'un holatda tasvirlanadi. Mifologik tasavvur hayotiy voqealarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tangri xoqonlikka xon berishi, lekin xalq unga itoat etmay, bosh-boshdoq bo'lishi, shu sababli tangri ularni qarg'ashi, nihoyat To'nyuquq tangrining g'azabini anglashi, tangri bilim va madad bergani uchun xalqni birlashtirib, ulkan davlatni qayta tiklashi mifologik tasavvur natijasi hisoblanadi.

To'nyuquq bitigini turkiy yozma adabiyotdagi dastlabki qahramonlik dostonlari namunasi deb hisoblashga asoslar bor. Unda mavzu, syujet, obrazlar tizimi, tasviriy vositalar mahorat bilan yaratilgan. Shuningdek, asar o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega.

Kul tegin bitigi. Bitik turk xoqoni Eltarish xoqonning kichik o'g'li Kul tegin qabriga qo'yilgan. Kul tegin 731 yilda vafot etgan bo'lib, tosh 732 yilda o'rnatilgan. Bitiktoshdagi voqealar Kul teginning akasi Bilga xoqon (asli ismi Mo'g'iliyon) tilidan hikoya qilingan. Asar Kul teginning jiyan Yo'llug' tegin qalamiga mansub. Asar ikki qismdan iborat, birinchi kichik yozuv – 110, ikkinchi katta yozuv 428 misradan iborat. Kichik yozuvning dastlabki qismida Kul teginning o'z avlodlariga, beklar va xalqqa murojaati beriladi. Turk davlatining chegaralari ko'rsatilgan. Kul tegin qo'shini «Shantung tekisligigacha» (shimoliy-sharqiy Xitoy), «To'quz arslon» - Tibetgacha yetganligi aytiladi. Kul tegin

qo'shinlari Inju (Sirdaryo)ni kechib, Temir Qopug'gacha (Bo'zg'ala o'tami), so'lda esa Bayirqu (Sharqiy Zabaykal)gacha borgan madh etiladi. Kul tegin turkiy xalqlarni O'teken yerida muqim qolsa, mung bo'lmasligini uqtiradi. Asarning ikkinchi qismida esa Bilga xoqon ajdodlarining tarixi bitiladi. Kul teginning harbiy yurishlari, shaxsiy bahodirligi, vafoti, matom marosimi va marsiyalar keltiriladi. Asarning har ikki qismi ham Ko'k tangriga e'tiqod ruhi bilan boshlanadi. Turkiylar bilan yonma-yon yashagan tabg'achlarning bosqinchiligi, hiylakorligi keskin qoralanadi.

Turk Kul tegin yodgorligida kichik yozuv:

*Tangri toq. Tangridan bo'lgan
Turk bilka qog'on bu yerga o'lturdim.
So'zimni tugal eshitgil.*

*Og'ayu inimlar, o'g'lonim.
Birlashgan ulusim, budunim
O'ndagi shad apa beglar,
So'ldagi tarqat buyruq beglar,
O'tuz to'quz o'g'uz beklari, buduni
Bu so'zimni yaxshilab eshit,
Qattiq la tingla.*

*Ilgari to kun chiqishgacha,
O'ngda to kun o'rtasigacha,
Orqada kun botishgacha,
So'ldan tun o'rtasigacha.
Uning ichidagi budun manga bo'ysunur
Ancha budun ko'p ettim,
Ul buzug'i yo'q turk qog'on
O'tukan cho'lida bo'lursa elga bung yo'q*

*Ilgari Shantung tekisligiga askar torttim,
Dengizga kichik tegmadim.*

*O'ngda «To'quz arslan»ga askar torttim,
Tuputga kichik tegmadim.*

*Orqaga Inju daryosin kecha,
Temur qopug'qa askar tortdim
So'lda Yer Biyirqu yerina askar torttim.
Buncha yerga askar yurittim.
O'tukan yerida yaxshi boshliq yo'q ermish.
El tutsak O'tukan yeri soz ermish.
Bu yerda o'lturub,
Tabg'ach buddi birla tuz tottim.
Oltin, kumush, g'alla, ipak
Qayg'ulanmay ancha berur.
Tabg'ach budun so'zi chuchuk,
Og'izi yumshoq ermish.*

*Suchuk so'zi, yumshoq qiliq(-la) avrab,
Yiroq budunni ancha yaqinlatar ermish.
Yaqinida qo'ngandan so'ng, ular
Yomon bilik unda o'rganar ermish*

*Ezgu, bilka kishini,
Ezgu, alp kishini yurutmas ermish.
Bir kishi yanglishsa, barcha budunni
Eng yaqinlarigacha quvmas ermish.*

*Suchuk so 'ziga, yumshoq qilig'iga aldanib
Ko 'p, turk buduni, o'lding.
Turk buduni bir bo'laging
O'ngdagi Chig'ay yushi emas.
Tyun tekisligiga qo'nayin, dedi,
Turk, budun, bir bo'laging.
Unda yomon kishi boshqaruv ermish, (u)
Yiroq esang yomonroq sovg'a berur,
Yaqin esang yaxshi sovg'a berur, deb,
Ancha boshqarur ermish.*

*Bilik bilmas kishi u sabaqni olib,
Yaqin borib, ko 'p kishi, o'lding
U yerga borsang,
Turk budun, o'lajaksan!*

*O'tukan yering bo'lsa,
Karvon jo'natib tursang
Qayg'u, munging bo'lmas,
O'tukan yushin bo'lsa,*

*Mangu yo'l tuta yashajaksan!
Turk budun, to'qmi, ochmisan,
Ochlikda, to'qlikda emassan
Bir to'ysang och bo'laysan.*

*Shundayliging uchun eshitmading,
Qog'oningning so'zin olmading.*

*Yer sari bording
Unda ko‘p urunding, ariqlading,
Unda qolg‘anlar yer sari
Ko‘p turub, o‘lib yururlar
Tangri yarlaqadigi uchun,
O‘zim (ning) qutim bor uchun,
Qog‘on bo‘ldim.*

*Qog‘on bo‘lib yo‘q, jig‘ay budunni
Ko‘p, ko‘paytdim.
Jig‘ay budunni boy qildim,
Oz budunni to‘kis qildim.*

*Bu so‘zimda yolg‘on bormu?
Turk beklari, buduni buni eshiting*

*Turk budunini biriktirib,
El tutushmoqingizni bunda urdim.
Yanglishib, parchalanishingizni,
Yana bunda urdim.*

*Ne-ne so‘zim esa
Mangu toshga urdim.
Uni ko‘ra biling
Endigi Turk buduni, beklar.*

*Butka ishongan beklar,
Yanglishar sizlar.
Men mangu tosh tikladim.*

*Tabg'ach qog'onidan toshg'a yozuvchi keltirib yozdirdim.
Maning so'zimni buzmadim.
Tabg'ach qog'oni ichra o'tkan yozuvchi.*

*Unga atab barq (qasr yarattirdim).
Ichin tashin
Atab yozuv urdurdim
Tosh o'rnattim.
Ko'nguldagi so'zimni...
(O'n o'q) va tot o'g'illariga (ayttim).
Buni ko'ra biling,
Mangu tosh o'rnattim.*

*Agar yo'llar o'tadigan yerda bo'lsa,
Ancha o'tish yerda
Mangu tosh o'rnatib bittim.*

*Uni ko'rib ancha biling
Ul toshni... man
Bu bitiki bitkan
Oti Ulug' Tegin.*

Kul tegin yodgorligidagi kichik va katta bitig janr xususiyatiga ko'ra memuar-xotirani eslatadi. Lekin bu asarlarning To'nyuquq bitigidan farqli tomonlari mavjud. Kichik va katta bitig tangrining olamni yaratish haqidagi tasavvurlar tasviri bilan boshlangan. Albatta, bunday tasvirlar epik yo'nalishli katta syujetli asarlarning janr xususiyati talabi natijasidir. Dostonlar avvalida tangri va olamning yaratilishi haqidagi tasvirni berish, so'ngra asosiy voqeaga o'tish qadimiy adabiy an'ana hisoblanadi.

Kichik bitig ma'lum ma'noda katta bitig uchun muqaddima hisoblanadi. Katta bitigda voqealar hikoyachisi – Bilga xoqon, avvalo, o'zining kimligini tanishtiradi, hayotiy tajribalari, saboqlarini bayon etadi, Kul tegin sharafiga o'rnatilgan yodgorlikning sababi va tafsilotini keltiradi.

«So'zimni tugal eshit!» Bilga xoqonning og'a-inilariga, farzandlariga, xalqiga, beklariga murojaati ana shunday. «So'z» - epik voqea uch qismdan tashkil topgan: 1. Bilga xoqon qayerda va kimlar bilan jang qilgani tasviri. 2. Turli qavmlar bilan urushish, muloqotda bo'lish, yarashish jarayonida to'plagan hayotiy tajribalar va ularni «so'z»ni eshituvchilarga bayon etish. Bu qismdagi g'oyaviy xulosani xalqni birlashishga, o'z xoqoni atrofida jipslashishga da'vat tashkil etadi. Bilga xoqon xalq ana shu maqsadga erishishsa, u och bo'lmaydi, farovon yashaydi, deb uqtiradi. 3. Tabg'ach xoqonidan tosh yo'nuvchi va toshga yozuvchi usta keltirib, mangu yodgorlik tiklagani tasvirlangan.

Bilga xoqon butparastlar bu yodgorlikni sig'inish belgisi deb tushunishsa, yanglishadilar, deb ta'kidlaydi. U budda sanami emas, balki turkiylar tarixi bitilgan boqiy yodgorlik ekanligini uqtiradi. Kichik va katta bitikdagi epik voqelik bir-biri bilan mantiqan bog'lanadi. Kichik yozuvdagi «ne-ne so'zim esa mangu toshga urdim» kabi satrlardagi «so'z»ning javobi katta yozuvda o'z ifodasini topadi.

Kul tegin katta bitigida ifodalangan mazmun yirik eposlar darajasidadir. Kul tegin obrazi qahramonlik ruhiyati bilan Alpomish va Manas kabi obrazlarni esga soladi. Asar muallifi Yo'llug' Tegin Kul teginiga xos bahodirlik xususiyatlarini ko'rsatish uchun uning tarixiy ildizlarini ochadi, ota-bobolari jasoratlarini ko'rsatib o'tadi.

Katta yozuv m'lum ma'noda turkiy alp xoqonlar shajarasi, jasorati madh etilgan qo'shiqdir. Asarda dastlabki turk xoqonlari Bumun xoqon, Istami xoqonlar ta'riflanadi. Ular shu qadar shuhrat topishgan ediki, ular vafot etganlaridan so'ng yig'isiga tabg'ach, tunut, avar, rum, qirg'iz, o'g'uz, tatar, xitoy va boshqa mamlakatlardan odamlar kelib yig'lashgan. Shundan so'ng bitikda Eltarish xoqon madhiyasi keltiriladi. Uning vafotidan so'ng xoqonlikni o'g'li-asardagi voqealar

hikoyatchisi egallaydi. Alp xoqonlarga xos jasorat, turkiy qavmlarni birlashtirish va ularning turmushini yaxshilash uchun kurash Bilga xoqon tomonidan davom ettiriladi.

Katta bitikda ko'plab tarixiy shaxslar obrazi yaratilgan. Asarning bosh qahramoni Kul tegindir. U Bilga xoqonning ukasi, otasi vafot etganida yetti yoshda edi. Qirq yetti yoshida o'zi ham olamdan o'tadi. Asarning kichik bitigi hamda ikkinchi bitikning dastlabki qismlari xotira-memuar usulida bitilgan bo'lsa-da, Kul tegin qahramonligiga oid tasvirlar uning tarixiy qahramonik dostoni janri namunasi ekanligini oydinlashtiradi. Bitikda Kul teginning bo'z, to'ruq, oq qora otlarni minib, yovga tashlanishi tasvirlari bu asar bilan turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi qahramonlik eposlari o'rtasida g'oyaviy yaqinlik borligini ko'rsatadi. Alpomish, Manas, Maaday qora kabi obrazlar yuzaga kelishiga Kul tegin kabi tarixiy shaxslar qahramonligi asos bo'lgan deb hisoblash mumkin.

Bilga xoqon bitigi. Bilga xoqon turkiy xoqonlardan biridir. U yigirma yillik xukmronlik davrida turk elini bosqinchilar xurujidan ozod qildi. Bilga xoqon Eltarish xoqonning katta o'g'li – Qul teginning og'asidir. U 734 yilda, ellik yoshida o'z yaqinlaridan biri tomonidan zaharlab o'ldirilgan. Bitig Yo'llug' tegin tomonidan yozilgan. Vaqt o'tishi bilan bitig tosh ag'darilib, yozuvlarning ma'lum bir qismi o'chib kelgan.

Bilga xoqon haqidagi ta'riflar Qul tegin yozuvlarida ham berilgan. Bilga xoqon yozuvida esa uning xalqlarni birlashtirish, mamlakatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash uchun qilgan ishlari bayon etiladi. Bilga xoqon o'n yetti yoshida Tibet (Tuput), so'ngra Tangutga, o'n sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha so'g'd, tabg'ach, o'ng tutuq, basmil, idiqut yurtlariga yigirma ikki yoshida yana Tabg'achga, yigirma olti, yigirma yetti yoshida qirg'iz, turgash yurtlariga yurish qilganligi ifodalanadi. Bitigda ko'ziga faqat mol-mulk ko'ringan davlat boshliqlari qoralanadi, ular gumrohlar deb aytiladi.

Ungin bitigi. Bitig Mo'g'ulistondagi Ungin daryosi bo'yidan topilgan. Eltarish xoqonning yaqinlaridan biri Eletmish yabg'u va uning o'g'li Cho'ryo'g'a

sharafiga qo'yilgan deb taxmin qilinadi. Bitigda Eltarish xoqonning turk xalqini oyoqqa turg'izib, mamlakatni qayta tiklashi hikoya qilinadi. Bitig so'ngida xoqonning tarixiy xizmati haqida ham fikr yuritiladi.

Moyun Chur bitigi. Bitigni 1909 yilda fin olimi G.I.Ramstedt Shimoliy Mo'g'ulistonning Selenga daryosi bo'yidan topgan. Moyun Chur – uyg'ur xoqoni bo'lib, bitig tosh 759 yilda o'rnatilgan. Yozuvda turkiy qavmlar o'rtasidagi jangavor yurishlarning tafsilotlari Moyun Chur tilidan htkoya qilinadi. Voqealar Selenga daryosi atrofida bo'lib o'tadi. Uyg'urlar davlati obod edi. Unga avval Bilga xoqon, keyin Bo'yla Bag'an Tarxan (hukmdor, qo'mondon) xoqonlik qilishgan. Bo'yla Bag'an Tarxan shad (turkiy xoqonlar sazovor bo'lgan eng oliy harbiy unvon)ga ega edi. Bu paytda Moyun Chur 26 yoshda edi, otasining qo'shinida mingboshi vazifasini bajarardi. Qarluqlarga qarshi jangda ishtirok etardi. Bitikda Bo'yla Bag'a Tarxan vafot etishi, xoqonlik Moyin Chur qo'lga o'tishi, lekin xalqning bir qismi Tay Bilga Tutuqni xoqon deb e'lon qilishi, Moyun Chur esa hokimiyatni qo'lga kiritish uchun unga qarshi kurashishi voqealari aks etgan. Moyun Chur bitigi ko'proq tarixiy qimmatga ega.

D.G.Messershmidt 1720-1727 yillarda Sibirga kelib, bir necha bitiklarni topgan edi. Shundan beri turli yillarda 250 ga yaqin bitigtoshlar qo'lga kiritildi. Bu bitiglar ham Urxun bitiglari singari hukmdor tabaqaga mansub kishilarning qabrtoshlariga o'rnatilgan. Bitigtoshda dafn etilgan shaxsning hayotiga oid ma'lumotlar berilgan. Yozuvlardagi kechinmalar olamdan o'tgan kishining tilidan ifodalanib, u yaqin qarindosh va urug'lariga murojaatnoma tarzida bitilgan. Vatanni sevish va dushmanlardan himoya qilish Enasoy bitiglariga xos muhim xususiyatdir.

Eletmish Bilga xoqon bitigi. Yozuv qahramonlik jangnomasi ruhidagi yodnomadir. Unda o'z xalqidan kuch olib, dushmanni egallagan joyidan quvgan Bilga xoqonning kechinmasi berilgan. U o'z eli va davlatini mustahkamlashning sababini yuqorida Ko'k osmon – Ko'k tangri, pastda qo'ng'ir yer tarbiyalagani va madad bergani, deb tushunadi.

Uyuq Tarlaq bitigi. Bitig Olti bog' xalqiga beg bo'lgan El Tug'an Tutuq tilidan hikoya qilinadi. U oltmish yoshida olamdan o'tadi.

Uyuq Turan bitigi. Uchun Qulug Tirig nomli hukmdorning o'z qarindosh urug'lari va xalqidan ajralganligining marsiyasi. U 63 yoshida olamdan o'tgan. Vatandan ajralganligini judolik deb biladi. Oltin kamarini belga bog'lab, bahodirlik namunasini ko'rsatganini eslaydi. Yodnoma toshida ko'rsatilishicha, u hukmdorlik qilgan hudud Agun Qatun deb atalgan.

Elegeshdan topilgan bitig (*Bitigtosh kimning kechinmasi ekanligi noma'lum*). U xalqi, qarindosh o'rug'lari, davlati va xoqonidan ayrilgan. Yodnomada o'z marsiyasini aytayotgan qahramon Tuk Bug'u mamlakatining jangchisi bo'lgan. Unda yuzta dushmanga teng keladigan kuch va iroda bor edi. Ular janubga qo'shin tortadi, sakkiz kishi qahramonlik ko'rsatadi va yo'lbars yilida qahramonlarcha haloq bo'ladi.

Begra bitigi. Tur ismli saroy xizmatchisining yig'isi. U o'n besh yoshida xitoylar tarbiyasida bo'ladi. O'n besh yoshida Tabg'ach xoqoni xizmatiga kiradi. Hayotida ko'p azoblarni ko'radi. Uch o'g'lidan ajraladi. O'z elidan Xitoyga qimmatbaho buyumlarni olib boradi. Yetti bo'ri, bir necha yo'lbars va kiyiklarni o'ldiradi. 67 yoshida vafot etadi. U o'z xalqini bardoshli bo'lishga chaqiradi.

Chako'l bitigi. Xoqon Bilga Chikshan xizmatida bo'lgan Chiksin yig'isi. U o'z eli, xoqoni, mamlakati uchun fidoyi inson. Lekin hayotdan faqat g'am-alam ko'radi. Tirikligida sakkiz o'g'lidan ajraladi. Shu sababli o'z nomini «alamli Chiksin» deb ataydi. Lekin xalqi, xoqoni, do'stlariga qilgan xizmatini sharaf deb tushunadi.

Oznachennaya qishlog'idan topilgan bitig. Hukmdor Al Inanchuga xizmat qilgan bahodir yig'isi. U dushman bilan xalqi va do'stlari uchun jang qiladi. Shahzoda Kuch Kul tutuq jangda haloq bo'lganidan aziyat chekadi. O'ttiz besh yoshida qahramon nomini oladi.

Achur qishlog'idagi bitig. Uri bek xoqonga el marsiyasi. Uri o'z elining hukmdori. U el og'asi Inanchu bilganing o'g'lidir. Uning haqiqiy ismi Kuch,

qahramonlik laqabi Uridir. Uning mamlakati boy bo'lib, «puli ko'p edi, qora sochidek». Yetti ming sonli qo'shini bor edi.

Oltinko'ldagi birinchi bitig. Vatani va eli ozodligi uchun jangda halok bo'lgan Umay bek yig'isi. U o'z elining o'kinchi uchun tug'ilganidan g'ururlanadi. Ular to'rt aka-uka edilar. Ularni jangdagi o'lim ajratadi.

Oltinko'ldagi ikkinchi bitig. Jasoratli qahramon Eran Ulug' yig'isi. U o'ttiz sakkiz yoshida vafot etadi. Inanchu alplari orasida kurashadi. Tibet xoqoniga elchi jo'natib, undan sovg'a oladi.

Ubayt bitigi. Qahramon jangchi Tarxon Sangun yig'isi. U olti yoshida otasidan ajralgan. U El Chur elida bahodirligi bilan shuhrat qozonadi. O'ttiz jangchi bilan dushman pistirmasiga duch keladi va halok bo'ladi.

O'rxun va Enasoy tosh bitiklari adabiy janrlar talablariga ko'ra marsiya va madhiyadir. Shaxsning vafot etganligiga achinish hissi bilan bitilgan satrlar marsiya janrining xususiyatini belgilasa, uning tiriklik paytidagi qahramonlik, bahodirlik, vatanparvarlik fazilatlarini ulug'langan satrlar madhiya janri talabi asosida yuzaga kelgan. Enasoy bitiglarida bu ruh yanada kuchli.

*Uydagi xotinlarim, malikalarim,
Sizlarni yo'qotib,
O'zimning o'g'illarim,
Sizlardan judo bo'ldim.
Men yuzta qahramon jangchini
kuchiga ega bo'lganim uchun,
Dushmanning yuzta jangchisi
bilan daryo bo'yida urushganim uchun,
Sizlardan ayrildim.
Ko'k osmondagi quyosh va oyni yorita olmadim,
Vatanimni yo'qotib, sizlardan ayrildim.
Xoqonimni, davlatimni, sizlarni yo'qotib,
Sizlarga egalik qila olmadim...*

Tosh bitiklar asosan erkak kishilar vafotiga bag'ishlangan. Marsiya ham asosan vafot etgan kishining tilidan berilgan. Marsiya turkiy yozma va og'zaki adabiyotda alohida janrdir. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobida saqlangan Alp Er To'nga marsiyasi ham shunday janr namunasidir. U xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblanadi. Lekin marsiyaning O'rxun–Enasoy bitiglaridagi marsiyalardan farqi shundaki, u vafot etgan shaxs tilidan bayon etilmaydi, balki xalq yig'isi hisoblanadi.

Urxun-Enasoy tosh bitiglari tarixiylik xususiyatiga ega. Ular hayotdagi aniq shaxslarga bag'ishlangan. Shu bilan birga mifologik tasavvurlar ham ifodalangan. Qadimgi turkiylar mifologiyasiga ko'ra tangri yer va osmonni yaratuvchi, u yagonadir. Tangri turkiylar uchun – ota, yer esa onadir. Kul tegin kichik yozuvi shunday boshlanadi:

Tengri teg. Tengride bolmish

Turk Bilga qag'an bu

O'tga o'lurtum.

Sabinin tukati esidgil.

Mazmuni:

Tangri toq. Tangridan bo'lgan

Turk Bilga qog'on bu yerga o'lturdim.

So'zimni tugal eshitgil.

Kul tegin yodgorligining katta yozuvi esa quyidagicha boshlanadi:

Uza Ko'k tengri

Asra yag'iz yer qilintuqda,

Ikin ara kisi og'li qilinmis.

Mazmuni:

Yuzada Ko'k tengri.

Ostda qora yer qilindi

Ikkisi aro kishi o'g'li yaratildi.

Urxun bitiglari Enasoy bitiglaridan epik tasvirning kengligi bilan ajralib turadi. Bu yodgorliklarda ham marsiya va madhiya ruhi yetakchilik qiladi. Lekin voqelikning ifodalanish xususiyatiga ko'ra boshqa janrlarning ham belgisi mavjud. Kul tegin va Bilga xoqon yodgorligi badiiy tasvirning yetakchiligi hamda epiklik xususiyati bilan qahramonlik dostonlarini eslatadi. Tunyuquq yodgorligida esa voqealarning badiiy tasviri yetarli darajada emas.

Demak, tosh bitiglarda adabiy janr talablariga ko'ra marsiya, madhiya, doston va memuar shakllari mavjud. Tosh bitiklarda badiiy tasvir vositalari, xalq tili boyligidan unumli foydalanilgan. Kul tegin asarida turk xalqining tabg'achlar tomonidan ezilishi, zulm o'tkazilishi shunday tasvirlanadi:

*Turk budun illaduk ilin ichqinu idmis,
Qag'anladuk qag'anin jituru idmis.
Tabg'ach budunka barilik o'ri og'lin kul bolti,
Silik qiz og'lin ko'ng bolti.*

Mazmuni:

*Turk budun ellashgan elni buzg'un etmish,
Qog'onlangan qog'onni tuban etmish.
Tabg'ach budung'a qattiq o'g'illari qul bo'ldi,
Suluv qizlari cho'ri bo'ldi.*

Parchadagi «Ellashgan el buzg'un», «Qog'onlangan qog'on tuban», «Qattiq o'g'ullar qul», «Suluv qizlar cho'ri» kabi tasviriy ifodalar ziddiyatni yanada ta'sirchan ko'rsatadi. Quyidagi parchada esa o'xshatish orqali turkiy bobolarimizning kuch-qudrati, dushmanlarining ular oldida ojizligi tasvirlanadi:

*Tengri kuch birtuk uchun
Kangim qag'an so'si bo'ri tag ermis.
Yag'isi koy teg ermis.*

Mazmuni:

*Tangri kuch bergani uchun
Otam qog'on kuchli bo'ridek bo'lmish.*

Yog'isi qo'ydek bo'lmish.

Sifatlashlar ham tabg'ach xalqining o'ziga xos xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi:

*Tabg'ach budun sabi suchuk,
Ag'isi yim shak ermis.
So'chik sabin yim shak ag'in arin,
Irak bo'dunig' ancha yag'u tir ermis.*

Mazmuni:

*Tabg'ach budun so'zi chuchuk,
Og'izi yumshoq ermish.
Suchuk so'zi, yumshoq qiliq (la) avrab,
Yiroq budunni ancha yaqinlatar ermish.*

Tunyuquq bitig toshidan olingan misralarda obrazli tasvir yanada hayotiy chiqqan:

*Yag'umuz tegra ichuq teg erti,
Biz shad ertimiz.*

Mazmuni:

*Yog'imiz tegrada qushlardek (ko'p) erdi,
Biz yemdek edimiz.*

Qush va yem kurashadigan ikki qavmning imkoniyat darajasini obrazli tarzda ifodalay olgan o'xshatishdir. Yoki shu bitig toshda turkiy xalqlarning maqol va matallaridan o'rinli foydalanilgan.

*Yupqa ariklid toplag'alu uchuz ermis,
Yinqa eriklid izdali uchuz,
Yipqa qalin bolsar, toplag'aluq alp ermis,
Yinchga yog'on bolsach, izduluk alp ermis.*

Mazmuni:

Yupqa arriqlik to'plagali oson ermish,

Ingichka orriqlik uzgali oson.

Yupqa qalin bo'lsa to'plagali alp (kerak) er mish,

Ingichka yo'g'on bo'lsa uzgali alp (kerak) er mish.

Demak, tosh bitiklar o'zining ta'sirchan badiiy qimmatiga ega. Qadimgi turkiylar tilining jozibasi tosh bitiklarda aniq ifodasini topgan. Bundan tashqari, tosh bitiklar bir necha fanlarning ham qimmatli manbai hisoblanadi. Avvalo, ular adabiy yodgorlikdir. Ifoda usuli va janr (doston, qasida, marsiya va boshqalar) xususiyati bilan badiiy adabiyotning namunasidir. Tosh bitiklar qadimgi turkiy tilni o'rganishda cheksiz ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularda turkiy qavmlarning tarixiga oid voqea-hodisalar, jug'rofiy nomlar, qavmlarning nomi va urf-odatiga doir etnografik ma'lumotlar, totemizm, ko'k tangri, moniylik kabi diniy e'tiqodlar ham o'z ifodasini topgan. Xullas, tosh yodnomalar turkiy xalqlarning adabiyoti, tili, tarixi, dini, jo'g'rofiyasi, urf-odatlarini o'rganishda g'oyat qimmatli yodgorlikdir. Bu masalaning birlamchi tomonidir. Ikkinchidan, yodnomalar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining izchil davomi, janr va g'oyaviy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan adabiy merosdir.

Badiiy asarlarni o'tda yonmas, tuproqda chirib, yo'qolmas jismlarga bitib yaratish dunyo xalqlari madaniyati tarixida sinalgan an'anadir. Jahon adabiyotining durdonasi sanalgan «Bilgamish» dostoni ham sopol lavhalarda bitilgan edi. Turkiy tosh bitiklar ham ana shunday an'analar natijasi bo'lib, ularda rang-barang janrlardagi asarlar yaratilgan. Tosh bitiklardagi dostonlarning g'oyasi, qahramonlik ruhi turkiy xalqlar og'zaki adabiyotdagi eposlar bilan mantiqan bog'lanadi. Bunday bog'lanish qabr toshlari dostonlarini yaratgan ijodkorlar xalq dostonlari bilan juda yaqin tanish bo'lganligi, undagi g'oyaviy mazmun hamda qahramonlik ruhini chuqur anglaganligida ko'rinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'rxun-Enasoy bitiklarining o'rganilishi yuzasidan O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida so'zlab bering.
2. Bitiktoshlar matni asosida qadimgi turkiy she'riyat haqida ma'lumot bering.
3. Bitiklarda obraz yaratish namunalari mavjudligini tushuntirib bering.
4. Bitiklar badiiyati xususida maqola tayyorlang.
5. Bitiklardagi kishi va joy nomlari ko'rsatkichi va ularning izohini tuzing.

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARIDA QADIMIY ADABIY MANBALAR

Reja

1. Mahmud Koshg‘ariy va “Devonu lug‘oti-t-turk” asarining yaratilishi.
2. Turkiy xalqlar adabiyotida “Devonu lug‘oti-t-turk” asarining tutgan o‘rni va undagi adabiy materiallarning o‘rganilishi.
3. “Devonu lug‘oti-t-turk” asari adabiy materiallarining mavzu mundarijasi.
4. Asardagi materiallarning adabiy-badiiy xususiyatlari.
5. Xulosa.

ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов А. Туркий халқлар оғзаки ижоди (Энг қадимдан исломгача бўлган давр). – Самарқанд, СамДУ, 2004.
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: «Фан», 1974.
4. Воҳидов Р., Эшонкулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.
5. Кляшторный С.Г. Эпохи Махмуда Кошгарского. – СТ, Баку, 1972, 1-сон.
6. Кононов В.Н. Махмуд Кошғарий ва унинг “Девону луғотит турк” асари. – Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, 1 – 2-сонлар.
7. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

8. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I – III ж. Тошкент: 1960-63.
9. Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – Москва: «Наука», 1971.
10. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.
11. Фозилов Э. Маҳмуд Кошғарий ва унинг “Девони”. – Ўзбек тили ва адабиёти, 1971, 5-сон.
12. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. I том. – Тошкент: «Фан», 1978.
13. Ҳасанов М. Маҳмуд Кошғарий. – Тошкент: Фан, 1965.

Tayanch tushunchalar: *devon, lug‘at, qo‘shiq, she‘r, marsiya, madhiya, doston, qissa, rivoyat, masal, sav, isnod, matn, tasnif, maqola.*

Ma‘ruzada qo‘yiladigan muammo: “Devonu lug‘oti-t-turk” asarining adabiy-badiiy materiallarini aniqlash va ularni tavsiflash.

“Devonu lug‘ati-t-turk” XI asrning buyuk tilshunos olimi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yozilgan bo‘lib, unda turkiy so‘zlarning ma‘nolarini izohlash uchun badiiy matnlar parchalaridan keng ko‘lamda foydalanilgan. Bu badiiy asarlar qismlari turli ko‘rinishlarda keltiriladi. Nasr ko‘rinishidagi parchalar tarixiy doston, qissa va rivoyatlardan olingan. Shuni ta’kidlash lozimki, ularning ayrimlari Koshg‘ariydek yirik olim tomonidan qayta ishlangan bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, ularning ba’zilar o‘z isnodi, ya’ni hikoya qiluvchisi nomi bilan birga qayd etilsa, ba’zilar xalq og‘zida hikoya qilib yurilgani aytiladi.

Bir o‘rinda u o‘ziga Muhammad Jaqir To‘nqaxonning o‘g‘li Isrofil To‘g‘antegin otasidan eshitgan turk xoqoni Shu haqidagi bir rivoyatni aytib berganini esga oladi va rivoyatning bir qismini keltiradi. Boshqa bir o‘rinlardada xuddi shu rivoyatni isnodsiz davom ettiradi. Parchalarni birlashtirib rivoyatning to‘liq mazmuniga ega bo‘lish mumkin. Rivoyatda turk xoqonlaridan bo‘lgan Shu

makedoniyalik Iskandarning turkiylar ustiga bostirib kelishi, Shuning hech kimga bildirmay Iskandar qo'shini tomonga xufiya yuborishi va kerakli ma'lumotlarni olib turishi, shahardan chetga – Chinga borib u bilan kurash olib borishi qiziqarli lavhalarda hikoya qilinadi. Shaharda 22 oila qolib ketadi. Ular o'g'uzlar edi. Ularga yana ikki oila kelib qo'shiladi. O'g'uzlarning 24 qabilasi ana shulardan tarqagan emish. 22 qabila o'sha urush davrida chetda qolib ketgan oilalarning boshliqlari ismi bilan, ularga qo'shilgan ikki oila “qol och” – “och qol” degan amrga ko'ra “xalach” degan nom bilan yuritilar ekan.

Rivoyatda ba'zi joy nomlari ham xalqona etimologiga ko'ra, voqealar jarayonida aytilgan forcha va turkiy so'zlar bilan atalishi qayd etiladi. Masalan, Iskandarning turkiy kamonbozlarning mahoratiga qoyil qolib, “inan xud xo'rand” (bular o'zlari topib yeyuvchilar) degan so'ziga binoan Xudxo'r degan viloyat nomi kelib chiqqan emish. Xuddi shunday jangda turk askari tomonidan Iskandar askarlaridan biri beligacha chopib tashlanganda uning oltin to'la hamyoni ham kesilib ketadi. Qonga bo'yalib qolgan oltinlar to'kilib qoladi. “Altun qan” degan bir askarning so'zi Oltin tog' nomiga asos bo'lgan ekan va hokazo.

Rivoyatda etnik nomlar kelib chiqishida ham shunday voqealar sabab bo'lgani aytiladi. Iskandar loyga botib, qutula olmay qroganda “In chi gil ast? Degan va undan chigil nomi kelib chiqqan. Ba'zi ovqatlar nomi ham xuddi shunday talqin qilinadi. Masalan, Iskandarning askarlari toliqib, “Bizni och tutma” degan so'zlaridan tutmach ovqati nomi kelib chiqqan.

Shoh g'olib bo'lib, yirik davlat barpo qilibdi va Shu deb nomlangan tilsimli shaharni qurdiribdi. Tilsim bu yerga kelayotgan har qanday dushman qo'shinini ushlab qolar emish. Hatto, laylaklar ham bu shahar ustidan uchib o'ta olmas emish.

“Devon”da keltirilgan Alp Er To'nga – Afrosiyob hamda uning o'g'li Borman haqidagi parchalar ham badiiy qimmatiga katta rivoyatlar mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Mahmud Koshg'ariy ba'zan juda kichik masallar (sav) ham keltiradiki, ular kichikligidan qat'i nazar o'z qimmatiga ega. Masalan,

Ashich ayur: tubum altun,

Qamich ayur: men qaydaman?

Mazmuni: Qozon aytar: tubim oltin, Cho'mich aytar: men qaydaman?

O'rta Osiyoning qadimgi aholisi qo'shiqlaridan namunalar ham «Devonu lug'oti-t-turk»da kattagina qismni egallaydi. Unda so'zlarni izohlash uchun, tabiiy ravishda, XI asrgacha avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga ko'chib yurgan qo'shiq matnlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Ularda o'ta arxaik elementlarning ko'pligi va musulmon e'tiqodiga doir arabiy jumlalarning deyarli uchramasligi qo'shiqlarning asosi juda qadim davrlarga mansubligini ko'rsatadi.

Masalan, yaboqu va basmil qabilalari urushi haqidagi parchalar Urxun-Enasoy yodgorliklarida ham uchraydi. Shuningdek, Alp Ertunga marsiyasi ham juda qadimiyligi ma'lum. Lekin «Devonu lug'oti-t-turk» bilan bir davrda yoki undan oldin yaratilgan, qiyoslashga arzirli manbalarning yo'qligi bois undagi adabiy parchalar xronologiyasini – qaysi matn qaysi davrda yaratilganini aniqlash juda qiyin ishdir. Ular aniqlanganda ham, mukammal holda bo'lmagani uchun, qadimiy adabiy parchalar sifatidagina qimmatga egaligicha qolaveradi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobidan «Yoz o'yinlari» (6 ta to'rtlik), «Ovdan urushqa» (12 ta to'rtlik)ni ko'rsatadi.

N.Mallayev "Devon"dagi parchalarni quyidagicha tasnif qilgan:

Mehnat qo'shiqlari. Mehnat qo'shiqlarida xalqning chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik va ovchilik kabilar bilan bog'liq turmush tarzi aks etadi. Shuningdek, bolalarni mehnatni sevish va uning mashaqqatlariga ko'niktirish asosiy masala hisoblanadi.

Chag'ri berib qushlatu,

Tayg'an izib tishlatu,

Tilki, to'ng'iz tashlatu

Ardam bila uklalim.

Mazmuni; (Yigitlarga) chag'ri (ov qushi) berib qush ovlaylik, Ov itini (qushlarning) izidan solib tishlataylik. Tulki, to'ng'iz(lar)ni tosh bilan uraylik, Yutuqlarimiz bilan maqtanaylik.

*Kecha turub yurir erdim,
Qara-qizil bo'ri ko'rdum,
Qatig' yoni qura ko'rdum,
Qaya ko'rub baqu ag'di.*

*Uzu borib o'kush evdim,
Talim yurub kuchi gavdim,
Atim birla tagu avdim,
Mani ko'rib esi ag'di.*

*Itim tutib quzi chaldi,
Aning tusin qira yuldi,
Bashin alib quzi saldi,
Bug'az olib tugal bug'di.*

Mazmuni: Kechasi turib (kezib) yurardim, Qora-qizil bo'ri kurdim, Baquvvat yoyni (otishga) hozirladim, (U) qo'qib qoyaning orqasiga yashirindi.

Shoshilinch (bo'rining) ketidan tushdim, Ko'p quvlab borib, kuchidan toliqtirdim, Otim bilan tevaragida aylanib turdim, Meni ko'rib esi og'di.

Itim tutib olib, yotqizdi, Uning junini yuldi (terisini shilib oldi), Boshidan tishlab, quyiga sudradi, Bo'g'zidan tishlab butunlay bug'di (o'ldirdi).

*Yigitlarig ishlatu,
Yig'ach yamish irg'atu,
Qulan, kayik avlatu,
Baeram qilib avnalim.*

Mazmuni: Yigitlarni ishlataylik, Daraxt(lar)dan meva(lar)ni qoqtiraylik, Qulon, kiyik ovlataylik, (So‘ng) bayram qilib ovunaylik,

Qahramonlik qo‘shiqlari. «Devon»dagi ayrim adabiy parchalar qabilalar o‘rtasidagi jang epizodlari va qabila baqodirlarining mardona kurashini tasvirlaydi. Bunday qushiqlar, Mahmud Koshg‘ariyning ko‘rsatishicha, rajaz deb atalgan.

*Tunla bila kuchalim,
Yamar suvin kachalim,
Tarnchuk suvin ichalim,
Yuqg‘a yari ukulsun.*

*Takra olib akuralim,
Attin tushib yukaralim,
Arslanlayu kykaralim,
Kuchi anin kavilsun.*

Mazmuni: Tuni bilan ko‘chaylik, Yamar suvidan o‘taylik, Tarnchuk (chashma) suvidan ichaylnk, Qochayotgan dushman tor-mor bo‘lsin.

(Dushmanning) atrofini o‘rab, qamal qilamiz, Otdan tushib yuguramiz, Arslondek na‘ra tortamiz, Uning kuchini quritamiz.

*Alp aranni uzurdim,
Bo‘ynin aning qayirdim,
Altun-kumush yuzurdim,
Susi qalin kim tutar.*

Mazmuni: (Dushmanning) bahodir askarlarini to‘zitib yubordim. Bo‘yinlarini egdirdim, (O‘lja) oltin-kumushni orqalatib (keltirdim), Odam o‘tolmas darajada askari qalin edi.

Marosim qo‘shiqlari. Bu turkum qo‘shiqlarga asosan marsiya janridagi qo‘shiqlardan parchalar keltirilishi kuzatiladi. Ular jang maydonida bahodirlarcha kurashib halok bo‘lgan qahramonlarga bag‘ishlanadi, ularning mardligi, jasorati,

fidokorligi kabi fazilatlari maqtaladi, judolik hasratlari, motam qayg‘usi ifodalanadi. Alp Ertungaga bag‘ishlangan marsiya shular jumlasidandir. “Yunon va ossuriy tarixchilari skiflarning ulkan sarkardasi sifatida tan olingan Madini Prototeyning o‘g‘li deb hisoblashadi. Madi esa uzoq asrlar davomida turkiy adabiyotda Alp Er To‘nga, forsiy adabiyotda Afrosiyob nomi bilan tasvirlangan qahramonning tarixdagi prototipidir”¹⁰.

Ulishib eran bo‘rlayu,

Yirtin yaqa urlayu,

Siqrib uni yurlayu,

Sig‘tab ko‘zi o‘rtilur.

Mazmuni: Mardlar yig‘lab, bo‘ridek uvlashdilar, Yoqalarini yirtib baqirishdilar, Faryod chekdilar, Qattiq yig‘idan ko‘zlari xiralashib, (go‘yo) parda bosdi.

Mavsum qo‘shiqlari va peyzaj lirikasi. “Devon”dagi she‘rlar orasida eng ko‘pini mavsum qo‘shiqlari va peyzaj lirikasi tashkil etadi. Ularda qadimgi xalqlarning tabiat go‘zalliklariga shaydolik, ularga muhabbatlari kuylanadi, tabiiy hodisalar o‘z aqida va tushunchalariga mos jihatlari badiiy obraz, majoz sifatida foydalaniladi. Masalan, “Qish va Yoz” munozarasida Qish ustidan Yozning g‘alaba qilishi bunga misoldir.

Umuman, yoz va bahor qadimgi she‘riyatda imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, hayot zavqini tuyish mavsumi sifatida talqin qilinadi:

Turli chachak yarildi,

Barchin azim qarildi,

Uchmaq yari ko‘ruldi,

Tumlug‘ yana kalgusuz.

Qush, qurt qamug‘ tirildi...

Yinqa yana kirgusuz.

¹⁰ Абдурахмонов А. Туркий халқлар оғзаки ижоди (Энг қадимдан исломгача бўлган давр). Самарқанд давлат университети, 2004. – 10-б.

Mazmuni: Turli chechaklar ochildi, (Yerga xuddi) chiroyli gilamlar to'shalganday. Jannat yeri ko'rindi, Sovuq qaytmas bo'lib ketdi. Hamma qush va qurtlar tirildi... Endi ular qorong'i inlariga qaytib kirmaydi.

Mavsum qo'shiqlari ko'pincha o'yinga tushib ijro etilgan. Shuning uchun qo'shiq matnlarining ba'zilarida musiqiy sozlar nomi ham uchraydi:

*Ko'klar qamug' tuzuldi,
Ivriq idish tizildi,
Sansiz o'zum uzaldi,
Kalgil amul o'ynalim.*

Mazmuni: Hamma sozlar sozlandi, May kosalar tizildi, Sensiz ko'nglim buzildi, Kel, yayrab-yashnab o'ynaylik.

Ishqiy intim qo'shiqlar. "Devon"dagi ba'zi she'rlar ishqiy intim mazmunga ega. Kitobda ularning mualliflari haqida so'zlanmasa-da, ular Mahmud Koshg'ariy va uning zamondoshlariga yaxshi ma'lum bo'lgan shoirlar tomonidan yozilganini taxmin qilish mumkin:

*Bulnar meni ulas ko'z,
Qara mengiz, qizil yuz,
Andin tamar tukal tuz,
Bulnap yana ul qachar,*

Mazmuni: Bu mast ko'zli (seviklim), Qora xoli va qizil yuzi bilan (meni asir qildi). Yonoqlaridan shirinlik tomib, meni asir qiladi-yu, Lekin keyin (tutqich bermay), mendan qochib ketadi.

Qo'shiq va lirik she'rlarda turli xil voqea va kayfiyatlar ifodalanda. Ular turli badiiy vositalar asosida shakllanadi. Eng ko'p qo'llangan badiiy vositalarga mubolag'a, o'xshatish, sifatlash va tazod kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, ravonlik, ohangdorlik va jo'qinlik kabi xususiyatlar ularning muhim poetik xususiyatlari sifatida e'tirofga loyiq:

*Язмур яғиб сачилди,
Турлук чачак сучулди,*

Инжу қоби ачилди,

Чиндан йипор югрушур.

Mazmuni: Yomg'ir tomchilari to'kila boshladi, Turli chechaklar undi, Inju qutichalari (g'unchalar) ochildi, Har tomonda shifobaxsh atir hidlar gurkiradi.

Avlab mani qo'ymangiz,

Ayiq ayib qaymangiz,

Aqar ko'zum ush tangiz,

Tagra yura qush uchar.

Mazmuni: Ko'nglimni ovlagach, tashlab ketmangiz, Aytilgan so'zdan qaytmangiz. Ko'z yoshim oqib dengiz bo'ldi, Uning atrofida qushlar uchayotir.

“Devon”da she'r keltirilmasa-da, boshqa turli irim-sirimlarga doir xalq qo'shiqlari, she'rlari ham borligi ta'kidlanadi. Bir o'rinda turkiylardan bo'lgan Qomlar qor va yomg'ir yog'dirish sehrini egallashgani va u qo'shiq bilan ado etilishi haqida gap boradi. Mahmud Koshg'ariy bu voqeaga o'zi guvoh bo'lganini eslaydi: «Bir tosh (yat-yada) bilan koinlik qilinadi, shamol va yomg'ir chaqiriladi. Bu hol turklarda juda keng tarqalgan bo'lib, men ham uning shohidi bo'ldim. Yozda katta bir yong'in chiqqan edi. Uni o'chirish maqsadida Ollohning izni bilan qor chaqirildi va u yog'ib, yong'in so'ndi».

“Devon”dagi she'rlarni o'rgangan olimlar ularning, asosan, 2 yoki 4 misrali bandlardan iboratligini, misralar 7 va 8 bo'g'inli bo'lib, a-a-a-b, v-v-v-b, g-g-g-b tarzida qofiyalanganini ta'kidlaydilar. Ularning barmoq yoki aruzda yozilgani borasida bir-biriga zid fikrlar uchraydi. Bir guruh olimlar (K.Brokkelman, F.Kuprulizoda, A.Fitrat, T.Jalolov, S.Mutallibov, A.Qayumov, Q.Karimov va boshqalar) bu she'rlarni qadimiy turk she'riyati uchun xos barmoq vaznida yozilganini ta'kidlaydilar. Ba'zi olimlar, jumladan tadqiqotchi I.V.Stebleva ularning hammasini ham yozma adabiyot bisotiga kiritib, aruz vazniga mansub ekanini aytadi. T.Ganjiy ularning ko'pchiligi barmoq vaznida va ba'zilar aruzda yozilganini ko'rsatadi. Mana shu fikr to'g'ridir. Mahmud Koshg'ariy yashagan davrda yaratilgan yok uning o'zi tahrir qilgan she'rlar aruz vaznida bo'lishi

ehtimolga yaqin. Chunki xuddi shu davrda aruz turkiy adabiyotga ham kirib kelayotgan edi.

«Devonu lug‘oti-t-turk»da **qadimiy xalq maqollaridan** ham keng foydalanilgan:

Bilik ari yog‘isin nolik savar?! (Bilimli er dushmanini qanday (nega) sevsin?!)

Kichikda qotig‘lansa, ulg‘ozu savinur (Kichiklikda qiyinchilik ko‘rgan ulg‘ayganda sevinar).

«Devonu lugotit turk»da keltirilgan ayrim maqollar ba’zi o‘zgarishlar bilan yoki aynan holida hozirgi kunda ham qo‘llanadi. Asar yaratilganiga to‘qqiz asr bo‘ldi. Shunday ekan, Mahmud Koshg‘ariy davrida ham undan bir necha asrlar muqaddam yaratilgan she‘r va maqollar qo‘llanib yurganini tasavvur qilish mumkin:

Qut bilgusi bilik (Bilim – baxt belgisidir).

Emgak ekinda qolmas (Meqnat yerda qolmas).

Osh totig‘i tuz (Oshning tami tuz bilan).

Qurqmush kishiga qo‘y boshi qo‘sh ko‘runur (Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar).

It isirmas, ot tepmas dema (It qopmas, ot tepmas dema.)

Toma-toma ko‘l bo‘lur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Devonu lug‘oti-t-turk» adabiy manba sifatida o‘ranilish tarixi xususida so‘zlab bering.
2. «Devonu lug‘oti-t-turk»dagi adabiy matnlarning janriy va mavzu xususiyatiga ko‘ra tasniflang.
3. «Devonu lug‘oti-t-turk»dagi she‘rlarning vazni masalasiga o‘z munosabatingizni bildiring.

4. «Devonu lug‘oti-t-turk»da adabiy janrlar haqida berilgan ma’lumotlarni to‘plang va izohlang.
5. «Devonu lug‘oti-t-turk»da keltirilgan afsonalar matnlarini alohida to‘plam ko‘rinishida tayyorlang.
6. «Devonu lug‘oti-t-turk»ning adabiy manba sifatidagi ahamiyatini izohlang.

ARAB VA FORS TILIDAGI ADABIYOT

Reja

1. O'rta Osiyo arab xalifaligi tasarrufiga olinganidan keyingi madaniy shart-sharoit va adabiy hayot.
2. Turkiy xalqlarning arab va fors tilida ijod qilishiga doir ba'zi mulohazalar.
3. Arab tilida ijod qilgan O'rta Osiyo adiblari.
4. Forsiy adabiyotning shakllanishi va yangi turkiy adabiyot shakllanishiga ta'siri.
5. Xulosa.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев И. Берунийга замондош шоирлар. – Тошкент: Фан, 1974.
2. Абдуллаев И., Ҳикматуллаев Ҳ. Самарқандлик олимлар. – Тошкент. Фан. 1969.
3. Ас-Саолибий, Абу Мансур. Ятимат ад-дахр фи маҳосини аҳли ал-аср. – Т., 1976.
4. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – Москва: Наука, 1965.
5. Беруний, Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968
6. Брагинский И. С. Из истории персидской и таджикской литератур. Избр. работы. – Москва: «Наука», 1972.
7. Буюк сиймолар, алломалар. 1-китоб. – Т., 1995.
8. Крачковский И. Ю. Арабская географическая литература. Избранные сочинения, IV. М. , - Л. , 1957.
9. Маллаев Н.М.. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
10. Мец, Адам. Мусулманский ренессанс. – Москва. 1966.

11. Рудакий и поэты его времени. – Л.: СП, 1985.
12. Фирдавсий А. Шоҳнома. Форсийдан Назармат, Ҳамид Ғулом, Жуманиёз Жабборов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976, - 616 б.
13. Хайём, Умар.
14. Элмуродов И.К. IX – X асрлар Хоразм маданияти Ёқут ал-Ҳамавий талқинида. – Урганч: Урганч ДУ ноширлик бўлими, 2006.
15. Ҳикматуллаев Ҳ., Шоисломов Ш. Ёқут Ҳамавий. – Тошкент. Фан. 1965.
16. Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999.

Tayanch tushunchalar: *Madaniy hayot, arab istilos, islom mafkurasi, majusiylilik, zardushtiylik, xurofotchilik, badiiy tafakkur tadriji, fundamental tadqiq, madrasa ta'limi, ilm-fan, olim, arab tili, dariy tili, fors tili, arab adabiyoti, arabnavis, forsiy zabon, yozma adabiyot, yozma manba, ma'rifiy she'rlar, tasavvufiy she'rlar, hajv, maddohlik, osonu nomumkin.*

Ma'ruzada qo'yiladigan muammolar: turkiy xalqlar adabiyoti shakllanishida arab va fors adabiyotidan o'zlashtirishning o'ziga xos yo'li; arab va fors tillarida ijod qilgan O'rta Osiyo turkiy adiblari ijodining qisqacha tahlili.

VIII asr boshlarida O'rta Osiyo arab xalifaligi tasarrufiga olinib, bu yerda istiqomat qiluvchi xalqlar arab hukmronligiga to'la bo'ysundirildi. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda arab tiliga asoslangan islom mafkurasi joriy qilindi va unda o'zga tillarning ishtiroki mutlaqo rad etildi. Ko'hna asrlardan qolgan osori atiqalar, yodgorliklar, madaniy meros va ijtimoiy munosabatlar inkor qilinib, ularga barham berildi. O'z ona tillarida she'rlar yozgan shoirlar majusiylilik, zardushtiylik, xurofotchilikda ayblanib qatl etilishi ham bu jarayonni qat'iylashtirdi. Xususan, samarqandlik al-Xuramiy va to'xaristonlik Bashshor ibn Burdiy kabi shoirlarning taqdiri xuddi shunday kechgan edi. Mahalliy xalqlar bu

jarayonlarga noroziliklarini muttasil ravishda olib borilgan qo'zg'olonlar bilan bildirib turishlaridan qat'i nazar, katta harbiy kuch va joriy qilingan mafkuraviy intizom ularni bostirishga qodir edi. Shahar va qishloqlarda masjidlar, madrasalar, dorilqazo (qozixonalar) va boshqa muassasalar tashkil qilinib, xalqni idora qilish yo'lga qo'yildi. Bunday tadbirlar va O'rta Osiyo xalqlari ozodlik uchun olib borayotgan kurashi ularni birlashtirdi. Natijada xalifalik ichida boshlangan parokandalikdan ular ham samarali foydalandilar. Asta-sekin ularning manfaatlarini himoya qiluvchi tohiriylar va safforiylar kabi sulolalari maydonga chiqqa boshladi, keyinroq somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar va xorazmshohiylar kabi markazlashgan yirik davlatlari vujudga keldi.

Arab istilosi va islom zuhuridan keyin turkiy adabiyot qayta shakllanish jarayonini boshdan kechirdi. Afsuski, ko'rib o'tilgan badiiy adabiyot namunalardan boshqa turkiy xalqlarning qadimgi yozma manbalari bu jarayonda deyarli yo'qotildi. Qolganlari ham islom mafkurasiga, arab va fors adabiyoti ta'sirida shakllangan yangi adabiyot mezonlariga hamda madrasa ta'limini olib boshlagan o'quvchilar auditoriyasi qarashlariga mos bo'lmagani bois asta-sekin unutilib, yo'qolib bordi. Nisbatan keyinroq musulmonlashgan turkiy xalqlar o'z tillarida ijod qilish uchun yangi adabiy-nazariy tamoyil va tasavvurlarga ega emas edi. Bundan tashqari, qoraxoniylar saroyidagi ba'zi ijobiy o'zgarishlarni hisobga olmaganida, davlat idoralarida turkiy tilda rasmiy hujjatlar yuritilmasligi, bu tilning adabiy meyorlarini belgilab olishni ham kechiktirib yubordi. Adabiy tilning shakllanmagani unda yozma ijod qilishga ham imkon bermas edi. Shuning uchun adabiy-badiiy asarlar asosan arab va endigina adabiyot shakllanib kelayotgan fors tilida edi. Shuning uchun turkiy xalqlar yozma adabiyotining muayyan davri (ko'proq IX – XII asrlar) arab yoki fors tilida yaratilgan asarlardan iboratligi bilan xarakterlanadi.

Binobarin, turkiy xalqlar adabiy harakatdan to'xtamadilar. Bu xalq, sharoit taqozosiga ko'ra, arab va fors tillarini o'z ona tili darajasida egallab oldi. Turkiy ziyolilar bu tillarda o'sha tillar namoyandalaridan ortda qolmay, goho ulardan

o‘zib ijod qildilar. Turkiy xalqlar adabiyotidagi bunday holatni, ya’ni o‘zga tillarda ijod qilib, o‘sha tillardagi adabiyotda erishilgan yutuqlarni chuqur o‘zlashtirish va o‘z adabiy-badiiy tafakkuri tadrijini bu qadar yuksaltirish jarayonini jahon adabiyoti tarixida boshqa xalqlar misolida kuzatish mushkul.

Bu davrda arab va fors tillarida turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan tarixiy, ilmiy, adabiy va diniy asarlarning mundarijasi nihoyatda katta salmoqqa ega. Birgina Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimatu-d-dahr fi mahosini-l-asr” (Asr fozillari haqida zamona durdonasi) asarida X asrda Buxoroda yashagan 47 ijodkorning tarjimai holi va ularning arab, ba’zilarining fors tilidagi ijodidan namunalar berilgan. Markaziy Osiyoda turkiylarning tarqalish geografiyasi inobatga olinsa, mazkur davrdagi adabiy jarayonni tasavvur etish qiyin emas. Qolaversa, bu davrning eng yirik allomalari turli yurtlardan o‘z ilmiy salohiyatlarini oshirish uchun Buxoroga kelgani to‘g‘risida ham talaygina ma’lumotlar bor. I.Abdullayev, H.Hikmatullayev, A.Irisov, I.S.Braginskiy, I.Y.Krachkovskiy, Adam Mets, Sh.Shoislomov, I.Elmurodov kabi bir necha olimlarimiz bu jarayonning ayrim jihatlarini o‘rgangan bo‘lsalar-da, afsuski, hozircha adabiyotshunosligimizda u umumiy ko‘lami bilan fundamental tadqiq qilinmagan.

Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Muslim ibn Hajjoj kabi ulug‘ muhaddislar, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Farg‘oniy, al-Xorazmiy, az-Zamahshariy kabi bir necha o‘nlab alomalar o‘z asarlarini arab tilida yaratdilar. O‘rta Osiyo madaniy hayoti bilan shug‘ullangan arab olimlaridan Abu Ruj’a ibn Sa’id, Muhammad ibn Is’hoq, Islomiy, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Sa’d as-Sam’oniy, Al-Hakim ibn al-Bayya’, Yoqut al-Hamaviy kabilar o‘z asarlarida mahalliy xalq vakillaridan bir necha olim va ijodkorlarining adabiy asarlar, xususan, she’rlar yozib katta shuhrat topganlari haqida zikr etadilar.

IX – XIII asrlarda Buxoroda Abu Tayyib at-Tohiriy, Abu Bakr al-Kotib, Iskofiy, al-Xuzaymiy, Abu Abdulloh ibn al-Amid, Lohhom, Abul Husayin Ubaydulloh ibn al-Utbiy, Abu Tolib Abdussalom ibn al-Husayin al-Ma’muniy,

Muhammad ibn Ahmad Al-Muzaniy, Abul Hasan, Ibrohim Abu Is'hoq al-Forisiy; Samarqandda Muhammad ibn Ahmad al- Xayyot, Muhammad ibn Sulaymon al-Bog'dodiy, Nosir ibn Ahmad ibn Ismoil Al-Kinoiy, Abu Sa'id Abdurahmon ibn Muhammad Idrisiy As-Samarqandiy Hofiz. Abul Qosim Ismoil ibn Ahmad ibn Umar As-Samarqandiy, Abu Muhammad Hasan ibn Ahmad As-Samarqandiy, Al-Muborak ibn Ali As-Samarqandiy Abul Makorim, Muhammad ibn Ahmad ibn Mansur Abu Bakr Al-Xayyot, Al-Xalil ibn Ahmad ibn Muhammad Sijziy; Forobda Abu Nasr Muhammad ibn Uslug' Tarxon al-Forobiy, Is'hoq ibn Ibrohim al-Forobiy, Ismoil ibn Hammad al-Javhariy al-Forobiy, A'madiddin Abul Hasan Mahmud ibn Ahmad al-Forobiy, Abu Zakariyo Yahyo ibn Ahmad Al-Forobiy kabi juda ko'plab o'z davrining taniqli adiblari yashagan. To'g'ri, bu arabnavis ijodkorlarning hammasini ham turkiy xalqlarning vakillari deb bo'lmaydi, lekin ular orasida ma'lum qismi turkiy bo'lganiga shubha qilmasa bo'ladi. Chunki bu katta jarayondan ularning chetda qolishi mumkin emas edi.

Bu fikrning tasdig'ini As-Saolibiyning Abu Muhammad al-Hasan ibn Ali ibn Matron al-Matroniy haqida gapirib, uning toshkentlik ekani to'g'rsida zikr etganida ham ko'rish mumkin. Bu ma'lumot uning turkiylardan bo'lganini anglatadi. Yoki buni Yoqut Hamaviyning quyidagi so'zlari bilan ham isbotlash mumkin: "U (Ismoil ibn Hammad al-Javhariy) "Devonu-l-adab" asari muallifi Abu Is'hoq al-Forobiy hamshirasining o'g'li. Adabiyotda devon tuzib, Al-Javhariy nomi bilan tanildi. U zamonasining ulug'i, zukko, o'tkir zehnli va bilimdoni edi. Naslu nasabi turk mamlakatining Forob degan joyidan". Ko'rinib turganidek, so'nggi jumlada al-Javhariy, undan oldingi jumlada Abu Is'hoqning turkiy qavmlardan ekaniga ochiq-oydin ishora bor. Lekin bunday ishoralar, afsuski, hamma joyda ham zikr etilavermaydi.

Ismoil al-Javhariyning shoir bo'lish bilan birga tilshunos bo'lgani ham ma'lum. Uning tilshunoslik fanidagi shon-shuhrati yuzlab yillar davomida Sharqning bir qancha mamlakatlarida tarqalib keldi. Hatto, hozir ham uning

“Kitobu-s-sihah fi-l-lug‘a” – “As-sihoh” (Tilning to‘g‘riligi kitobi) asaridan arab tilini o‘rganish bo‘yicha darslik sifatida istifoda etib kelinadi.

Uning bir she‘ri mazmuni shunday:

*Naysabur bulutlari soyasida,
Yunusdurman go‘yo men hut (baliq) qornida,
Kulbam ham, ko‘nglim ham yorishmas hargiz,
Kunlarim qorong‘u zulmatdir tubsiz.*

She‘riy parchadan muallifning yangi davr she‘riyati tasvir usullari, obraz va timsollaridan foydalangani ko‘rinadi.

Umuman, bu davr arab tilidagi shariyat kuzatiladigan bo‘lsa, ular asosan quyidagi mavzularda yozilgan:

1. Ma‘rifiy she‘rlar.
2. Dunyodan shikoyat mavzuidagi she‘rlar.
3. Tasavvufiy she‘rlar.
4. Hajviy she‘rlar.
5. Maddohlik ruhida she‘rlar.

Ma‘rifiy she‘rlar asosini diniy nasihatlar tashkil qiladi. Ularda oyat va hadislardagi g‘oyalar bilan birga turli majoz hamda obrazli iboralarga ham murojaatlar qilinadi. Masalan, Abul Fazl as-Sukkariy al-Marvaziy she‘rlari orasida shunday mazmundagi misralar bor:

*Kimki jahl bilan quyoshni bekitmoqchi bo‘lsa,
Xato qiladi.*

“Quyoshni choyshab bilan yopib bo‘lmaydi”.

Kechaning eng yaxshi sifati shuki,

“Kecha homilador, ammo nima tug‘ishini bilmaydi”.

Al-Marvaziy asli marvlik bo‘lib, Buxoroga kelib qolgan. U forsiyzabon shoir sifatida ham e‘tirof qilingan. U o‘z she‘rlarida forsiy maqollardan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan keng ko‘lamda foydalangan. Lekin bunday go‘zal misralar

asta-sekin turkiy she'riyatning ham ana shunday qiyofa kashf etishiga zamin yaratgani bilan ahamiyatga ega.

Dunyodan shikoyat mavzusi arabiy she'riyatda katta miqdorni tashkil qiladi. Ma'lumki, dunyo moddiy va ruhoniy olam tasavvurlari hamda ijtimoiy tuzim kabilarning umumiy ramzi, timsoli. Shuning uchun ham shoirlarning dunyodan shikoyatini mavjud shart-sharoitlardan qoniqmaslik natijasi sifatida tushunish mumkin. Buxoroda shuhratli shoirlardan bo'lgan Abu Tayyib al-Mus'abiy bir she'rini:

Dunyo, sen fisqu fasod, qalloblik do'konisan,

Adolatsiz, vafosizsan, beomonlik makonisan,

degan mazmundagi misralar bilan boshlaydi. Keyinchalik bunday tasavvurlar bilan ijod qilish turkiy adabiyotda ham keng tarqaldi.

Bu davrning muhim belgilaridan yana biri tasavvuf falsafasining badiiy ijodda o'z ifodasini topa borishi bilan ham belgilanadi. Bunda ko'proq Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino kabi ham ilm, ham ijod bilan shug'ullangan yurtdoshlarimizning ta'siri katta edi. Forobiy tomonidan Platon, Aristotel, Ptolomey, Galen, Porferiy va Afrozinskiy kabi bir qator faylasuflar asarlarining tarjima qilinishi yoki sharhlanishi tasavvuf falsafasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uni "Arastui Sharq" – "Sharq Arastusi", "Muallimussoniy" – Aristoteldan keyingi "Ikkinchi muallim", deya e'tirof etadilar. U o'z davrida falsafa, fizika, metafizika, meteorologiya kabi fanlar qatori musiqa ilmi va adabiyot taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shdi. Uning arab tilida yaratilgan "Falsafa manbalari", "Aql haqida risola", "Substansiya", "Davlat haqida risola", "Fozil odamlar shahri" (yoki "Fazilatli shahar aholisining fikr-qarashlari ibtidosi haqida kitob"), "Musiqa haqida katta kitob" kabi asarlaridagi axloqiy tendensiyalar ular yaratilganidan ko'p o'tmay mutasavviflarning asarlarida ochiq tasavvufiy talqinda aks eta boshladi.

Abu Ali ibn Sinoning ilmiy faoliyati falsafa, tibbiyot, fizika, kimyo, matematika, mantiq, tilshunoslik va musiqashunoslik kabi sohalarni qamrab oladi.

U Forobiydan badiiy ijodga ko‘proq e‘tibor qaratgani, faqat arab tilida emas, movarounnahrliklarga ko‘proq yaqin dariy (forsiy) tilida yozgani (“Donishnoma”, “Forsiy mantiq”, “Yurak urishi haqida risola”, urjuza, qit‘a va ruboiylar”) bilan farqlandi va oddiy xalq orasida ko‘proq shuhrat tutdi. Shuningdek, u “Hay bin Yaqzon”, “Salomon va Absol”, “Risolatu-t-tayr” kabi nasriy majoziy asarlar ham yaratdi. Ulardan “Risolatu-t-tayr” tasavvufiy ruhda yozilgani ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ta’kidlangan.

Bu ruh mahalliy shoirlarning she’rlarida ham o‘z ifodasini topa bordi.

Ma’lumki, arab she’riyatida islomga qadar ham hajviyaning o‘rni ancha yuqori edi. Islomiyat davrida musulmonlashgan o‘lkalarda ham bu usul keng tarqaldi. Xususan, Movarounnahr shoirlari ijodida hajviyaning turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Ularning ba’zilarida ma’lum shaxslar ochiq-oydin hajv qilinsa, ba’zilarida boshqalarning nuqsonlari ularning o‘z tillaridan fosh etiladi. Masalan, Abul Hasan al-Ifriqiy al-Mutayyim o‘sha davrda musulmonlik belgisi hisoblangan namoz o‘qishni odamlar o‘zaro nazorat qilib turishiga bo‘yinso‘nishni xohlamagan dangasa tilidan shunday hajviya yozgan:

*Zavjam meni koyirdi, namoz tark etgonimga,
“Nozir kerakmas menga, taloq!” dedim xonimga.
Ollohnin nomi bilan qasam ichgumki, mundoq
Faqir bo‘lib ibodat qilmasman Rahmonimga.
Shayx al-Jalilu Foyiq, Tosh, Bektoshu ham Kunbosh,
Nasr ibn Molik etsin ibodat rabbonimga.
Mol-davlatga ko‘milgan, oltinlarga cho‘milgan,
Sohibi iqlim bo‘lgan sig‘insin aytgonimga.
Mashriq itoat etgan Nuh o‘ltirib qasrida –
Hayron qolma, tilovat etsa gar Yazdonimga...*

Muallif hajviya davomida mazkur Samoniylardan bo‘lgan Nuh ibn Mansur (hukmronligi 976 – 997 yy.), uning vaziri, yirik feodallari va lashkarboshilarining to‘kin hayoti bilan o‘z ahvolini qiyoslab, nochor turmushidan ham shikoyat

qilishga imkon topadi, albatta. Lekin bu she'rni sho'ro davrida olimlarimiz ta'kidlaganlaridek "ateistik she'r" deya baholash unchalik to'g'ri emas.

Arabnavis shoirlarning ko'pchiligi madh yozishga zo'r berganlar. Lekin madhlarning hammasini ham munosib shaxslarga bag'ishlangan deb bo'lmaydi. Shoirlar o'z dunyoqarashlariga mos tushgan va shaxsiy turmush sharoitlariga ko'maklashishi mumkin kishilarga ham madh yozavergan ko'rinadi.

Mahalliy xalqlarning ozodlik harakatlari siyosiy qarashlarini arab tiliga qarshi istilodan bir oz oldin shakllana boshlagan dariy tilida olib borilar edi. («Dariy» so'zining etimologiyasi qat'iy aniqlangan emas. Ko'p olimlar u «dara» (tog' oralig'i) so'zidan kelib chiqqan bo'lsa kerak, deb faraz qiladilar. R.Hodizoda arab tilini tashqi til deb bilgan forslar uni "dar" – ichki, degan so'zdan yasagan bo'lishi mumkinligi to'g'risida fikr bildiradi. «Forsiy» so'zi esa manbalarda qadimgi Eronning Fors viloyati nomidan olingani ta'kidlanadi). VIII – IX asrlarda Abul Hafs Sug'diy, Abul Abbos Marvaziy, Muhammad Vasif, Feruz Mashriqiy kabi shoirlar bu tilning takomil topishida xizmat qildilar. Lekin X asrda u "Odamushshuaro" laqabi bilan shuhrat topgan Rudakiyning yuksak iste'dodi va izchil harakatlari bilan mukammal holga keldi. Somoniylar davlati dariy tilini davlat tili sifatida rasmiylashtirdi. G'aznaviylar va saljuqiylar sulolalari turkiylar bo'lsa-da, bu tayyor adabiy tildan foydalanishni ma'qul ko'rdilar. Hatto, ular o'zlariga tobe qilgan Kavkaz hamda shimoliy Hindistonda ham dariy tilining ommalashuviga zo'r berdilar. Bunday e'tibor ijodkorlarning ham bu tilda asarlar yaratishiga rag'bat uyg'otdi va adabiyot o'z taraqqiyotini aynan shu tilda davom ettirdi.

X-XIII asrlarda dariy tilida 30 tomlik kitob yozgan Abulfazl Bayhaqiy, «Buxoro tarixi» kitobining muallifi Narshaxiy, tarixchi Majididdin Muhammad ibn Adnon («Tarixi mulki Turkiston»), tabiblardan Ibn Xammor, Najibiddin Samarqandiy, matematik va astronom Abulmajid Xo'jandiy, astronom Muhammad Balxiy, huquqshunos Burhoniddin Ali Marg'iloniy, tilshunoslardan Abulqosim Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariy va boshqalar ilm-fanning turli sohalari

taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib, ajoyib asarlar yaratdilar. Adabiy asarlar Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Robia, Mahastixonim, Asad Tusiy, Faxriddin Gurgoniy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Am‘aq Buxoriy, Rashiddin Vatvot, Xoqoniy Shirvoniy, Nizomiy Ganjaviy kabi ulkan san‘atkorlar tomonidan yaratildi.

Abu Abdulloh Ja‘far ibn Muhammad Rudakiy Samarqand yaqinidagi Panjrudak qishlog‘ida tavallud topgan. Dastlabki tahsilni Samarqandda oldi. Uni Buxoro amiri Nasr binni Ahmad Somoniy o‘z saroyiga taklif qildi va bu yerda shoir 40 yildan ortiq shoirlarga rahnamolik qildi. Ba‘zi manbalarda uning ko‘zi tug‘ma ojiz bo‘lgani zikr etilsa, boshqalarida shoir nohaq jazolanib, ko‘ziga mil tortilgani aytiladi. Uning ulkan adabiy merosidan ming bayt atrofida saqlanib qolgan. Ular shoirning qasida, g‘azal, ruboiy, qit‘a, masnaviylar yaratganidan dalolat beradi. Shuningdek, uning axloqiy mavzularda yozilgan yetti dostonidan parchalar ham mavjud. O‘z ijodida Rudakiy didaktik va falsafiy mazmunni betakror san‘atkorlik mahorati bilan ifoda eta oldi. Bu fazilati bilan o‘zidan keyin yashagan barcha shoirlarga badiiy mahorat namunasi bo‘lib qoldi. Ro‘dakiyning uslubini o‘rta asr adabiyotshunoslari “sahli mumtaneh”, ya‘ni «oson nomumkin» deb ataganlar. Chunki, o‘qishda ravon va oson ko‘ringan bu uslub, o‘zida nihoyatda mukammal mazmun va san‘atni jamlaydi.

Dariy tilida ijod qilgan ikkinchi buyuk siymo Abulqosim Firdavsiydir. Shoirga uning «Shohnoma» dostoni shuhrat keltirdi.

Firdavsiy 940-941 yillar atrofida Xurosonning Tus shahri yaqinidagi Taboron qishlog‘ida dunyoga keldi. Bu davr somoniylar saltanati inqirozga yuz tutgan, uning og‘ir kunlari boshlangan, oxir-oqibat qoraxoniylar va g‘aznaviylar hujumiga bardosh berolmay yemirilgan edi.

«Shohnoma» qadimiy tarix kitoblarida va og‘zaki ijodda saqlanib qolgan qariyb to‘rt ming yillik tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Unda afsonaviy qahramonlar qalamga olinadi.

Firdavsiy o'zining bu ajoyib asarini yozib tamomlagach, Sulton Mahmud G'aznaviyga tortiq qiladi. Rivoyatlarda aytilishicha, ulug' shoir butun umrini sarflab yozgan shoh asar o'z qadrini topmaydi.

Shoirning 80 yoshdan oshib qolganda «Yusuf va Zulayho» dostonini yozgani to'g'risida ham ma'lumotlar bor.

«Shohnoma»da ellik podsholik tasvir etiladi va dostonning kompozitsion qurilishi shu bilan belgilanadi. Bunda ba'zi shohliklar bir necha yil davom etgan bo'lsa, boshqalari necha yuz yillab davom etadi. Ba'zilariga shoir 10-20 bayt bag'ishlasa, ayrimlariga minglab baytlardan iborat dostonlar bag'ishlaydi. Masalan, Suhrob haqidagi ming baytdan ortiq doston, Siyovush haqidagi uch ming baytdan ortiq doston, Kaykovus shohligi davridagi voqealarni o'z ichiga olsa, bir necha ming baytdan iborat bo'lgan Isfandiyor haqidagi doston Gushtasp shohligi davrining bir qisminigina tasvirlaydi. Har bir shohlik davrining tavsifi ham, har bir doston ham «Shohnoma» uchun qonunlashtirilgan uslubda yozilgan bo'lib, ularning har biri debocha, asosiy qism va xotimadan iborat.

«Shohnoma»ning bosh qahramonlari – Rustam, Suhrob, Kova, Isfandiyor, Iskandar, Bahrom, Giv, Siyovush, Bejan, Mazdak, Lumbak kabilardir.

«Shohnoma»ning bosh g'oyasi – vatanni ulug'lash, xalq qudratini ko'z-ko'z qilishdir, xalq bahodirlarini vasf etishdir.

Umar Xayyom o'rta asrning buyuk riyoziyotchi, faylasuf va astronom olimi bo'lishi bilan birga jahon she'riyati klassiklari qatoridan sharaflı o'rin egallagan zabardast shoirdan biri sifatida e'tirof etiladi. U 1048 yilda tug'ilib, Nishopurda, Balx, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda o'qib ulg'ayadi va o'z zamonasining barkamol olimlaridan bo'lib yetishadi. Rivoyatlarga qaraganda, saljuqiylarning ulug' vaziri Nizomulmulk unga Nishopur hokimligini taklif etadi. Ammo Xayyom bunga rozi bo'lmaydi. Nihoyat Xayyom Isfaxon rasadxonasiga boshchilik qilishga rozi bo'ladi. Uning matematika, astronomiya va falsafaga oid bir qator kitoblari bizgacha yetib kelgan.

Umar Xayyom ruboiylarida ham ilmiy-falsafiy kitoblarida bo'lganidek olam sirlari, hayot haqiqatini izlaydi, bu boradagi fikru o'ylarini she'riy obrazlar talqinida ifoda etadi.

Xayyom she'rlarida tez-tez tilga olinadigan may, sharob badiiy obraz bo'lib, uni aynan tushunish to'g'ri emas.

Masalan, Xayyom may obrazi orqali goho kishilar portretini chizib:

*Ichkilik kekkaygan boshni qilur ham,
Maydan echilmagan biror tugun kam.
Bir qultum may ichgan bo'lsaydi shayton,
Ming sajda qilardi odamga ul ham,*

desa, goho xudbinlikni fosh qiladi:

*May ichamen, mastlik qilmaymen aslo,
Qadahdan o'zgaga bo'lmaymen balo.
Boda ichishlikdan mening g'arazim,
O'zimga sen kabi qo'ymaslik bino.*

May, sharob obrazi sharq mumtoz adabiyotida ishq, muhabbat ramzi sifatida ifodalanadi. Tasavvufiy shoirlar Haqning jamoliga yetishni ham may obrazi orqali ifoda etadilar.

Umar Xayyom ijodi turkiy adabiyotda ruboiy janrining shakllanishi va taraqqiyoti uchun xizmat qilgani bilan qadrlidir.

X-XIII asrlar arab va fors tillaridagi adabiyot lirikada qasida, g'azal, ruboiy, qit'a, marsiya, munozara va boshqa janrlar, turli mavzudagi dostonlar vujudga kelishiga zamin tayyorladi. Nasrda Abulmuayyad Balxiy («Shohnoma», «Gershaspnoma»), Homididdin Balxiy («Maqomoti Homidiy») kabilarning asarlari turkiy nasriy asarlar, jumladan «Qisasi Rabg'uziy»ning yaratilishiga ta'sir ko'rsatdi. Adabiyoshunoslik sohasida Ar-Roduyoniy («Tarjimon-ul-balog'a»), Rashidduddin Vatvot («Hadoyiq-us-sehr»-«Sehrlar bog'i»), Nizomiy Aruziy Samarqandiy («Chohor maqola»), Muhammad Avfiy («Lubob-ul-albob»

– «Negizlar negizi») asarlari yuzaga kelishi turkiy adabiy tamoyillar yuzaga kelishini ta'minladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. VIII-X asrlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyat, yangi ijtimoiy-axloqiy tafakkurning vujudga kelishi, adabiy qarashlarning islom falsafasi asosida qayta shakllanishi haqida referat tayyorlang.
2. Arab ilm-fani va adabiyotining O'rta Osiyo xalqlari tafakkuriga singdirilishini misollar orqali tushuntirib bering.
3. O'rta osiyolik olim va adiblarning arab tilida ijod qilishlarining sabablarini izohlang.
4. Fors adabiyotining shakllanishi va uning turkiy adabiyotga ta'siri qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ldi?
5. Arab tilida ijod qilgan turkiy xalqlar vakillari haqida ma'lumot bering.
6. Fors tilida ijod qilgan turkiy xalqlar vakillari haqida ma'lumot bering.

MUMTOZ DIDAKTIK BADIYIJ IJOD, DOSTONCHILIK VA QISSACHILIKNING VUJUDGA KELISHI DAVRI –

XI asrdan XIV asr boshigacha

YUSUF ULUG‘ XOS HOJIB VA UNING “QUTADG‘U BILIG” DOSTONI

Reja

1. Turkiy xalqlar ilk dostonining vujudga kelishi omillari.
2. Yusuf Ulug‘ Xos Hojibning hayoti va faoliyati.
3. “Qutadg‘u bilig” dostonining manbalari va uning o‘rganilishi.
4. “Qutadg‘u bilig”ning tarkibiy tuzilishi va mavzu doirasi.
5. “Qutadg‘u bilig” – turkiy tilida yaratilgan ilk mumtoz doston.
6. Dostonning vazni va badiiy xususiyatlari.
7. Dostonning ahamiyati.
8. Xulosa.

ADABIYOTLAR

1. Бартольд В.В. Богда-хан, упомянутый в «Кутадгу билиг». - Соч., т.V. - М.: Наука, 1968.
2. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья. - Соч - т. II, ч. I - М.: Наука, 1963.
3. Бертельс Е.Э. “Кутадгу билиг” ва унинг аҳамияти. – “Шарқ ҳақиқати” журнали, февраль – март, 1944.
4. Валитова А.А. К вопросу о классовой природе Караханидского государства. – Труды Киргизского филиала АН, т. 1, вып.1, 1943. – с. 127 – 136.
5. Валитова А.А. Юсуф Баласагунский и его «Кутадгу билиг». -// КСИБ, М.: 1952.

6. Зайончковский А.К. К изучению средневековых памятников тюркской письменности (XI- XVI вв.). - Вопросы языкознания, 1967, №6, с. 80-89.
7. Каримов Қ. “Қутадғу билиг” асари ҳақида // Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 7 – 43.
8. Каримов Қ. Илк бадий дoston. - Тошкент: Фан, 1976;
9. Каримов К. Некоторые вопросы композиции, метра и жанра «Қутадғу билиг» - // Советская тюркология. 1973. № 2.
10. Кононов А.Н. Слово о Юсуфе из Баласагуна и его поэме «Қутадғу билиг» // Советская тюркология. 1970. № 4. С. 11-12.
11. Малов С.Е. Из третьей рукописи “Қутадғу билиг”. – Изв. АН, отд. Гум. наук, 1929. – с. 9, 734 – 754.
12. Маллаев Н.М.. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
13. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М. – Л. 1951.
14. Насилов Д.М. В.В.Радлов и изучение древнеуйгурских памятников // Тюркологический сборник. 1971.
15. Памяти академика В. Радлова. – М.: Наука, 1972. С. 67-68.
16. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг бадий маҳорати. – Тошкент: 2005.
17. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971.
18. «Қутадғу билиг»нинг топилиши ва ўрганилиши тарихидан. – Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 1961.
19. «Қутадғу билиг»нинг тузилиши ва вазни //Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари, 2-китоб. – Тошкент: Фан, 1961.

Tayanch tushunchalar: *Qoraxoniylar davlati, doston, Bug‘raxon tili, adabiy manba, yozma yodgorlik, matnshunoslik tadqiqotlari, nusxa, tanqidiy matn, tavsif,*

xos hojiblik, ideal timsollar, alifbe, muammo janri, muqaddima, fehris, mundarija, chig'atoy tili, uyg'ur musulmon yodgorligi.

Ma'ruzada qo'yiladigan muammolar: turkiy xalqlar ilk dostonining vujudga kelishi omillarini tavsiflash; "Qutadg'u bilig"ning tili va yozuvi haqidagi bahslarga munosabat bildirish; doston g'oyaviy mazmuni, kompozitsiyasi va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda baholash.

Turkiy xalqlar ilk dostonining vujudga kelishi omillari. Turkiy xalqlar tarixida Qoraxoniylar davri milliy o'zlikni anglashni, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jihatdan yuksalishni, uyg'onishni boshlab bergani bilan alohida o'rin tutadi. Islom dini qabul qilinganidan keyin Qoraxoniylar davrigacha milliy qadriyatlarga, xususan, ona tiliga e'tibor bu qadar kuchaymagan edi. Manbalardagi ma'lumotlarda bu davrda turk manfaati siyosiy tus olgani seziladi. Qoraxoniylar davri o'rganilgan ilmiy adabiyotlarda Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan sodir bo'lgan etnik jarayonlar o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqichga yetkazgani ta'kidlanadi. Aynan shu davrda o'zbek xalqiga xos elatni belgilovchi hududiy, madaniy-ma'naviy umumiylik, etnik o'zlikni anglash ma'lum bir davlat doirasidagi etnik uyushqoqlik, din umumiyligi kabi omillar shakllandi. Bu davrda turkiylarning yangidan umumiy adabiy tili qaror topdi.

Ma'lumki, X asr o'rtalarida Yettisuv viloyatida Qoraxoniylar davlatiga asos solindi. Davlat asoschisi Abdulkarim Sotuq edi. Arslonxon, Bug'roxon, Qoraxon uning unvonlari bo'lib, "ulug' xon" ma'nosini anglatgan. Bunga asos chigil hamda yag'mo elatlarining arslon, bug'ro (kuchli tuya) totemlari va "ulug'" ma'nosini anglatgan "Qora" so'zi edi. Saltanatda qarluq, chigil va yag'mo qabilalari alohida e'tiborga sazovor bo'lgan. Chunki Qoraxoniylar davlati ularning sobiq davlatlari asosida tashkil topgan edi.

Hozirgacha yaratilgan Yusuf Xos Hojib va uning asari haqidagi ilmiy adabiyotlarda ko‘proq shoirning feodal mulk egalari orasidagi to‘qnashuvlar, qonli janglar va boshboshdoqliklar davrida yashagani, bunday ahvolga barham berish uchun “Qutadg‘u bilig”dek asarga ehtiyoj bo‘lgani, asar xuddi shu muammolar yechimiga bag‘ishlangani haqida gapiriladi. Buni mutlaqo rad etib bo‘lmaydi. Lekin Qoraxoniylar davlatining ma’rifat asosida qurilganini ham e’tirof qilmaslik mumkin emas.

Bir tomondan yemirilib borayotgan Somoniylar davlati, ikkinchi tomondan XI-asr boshida tashkil topgan G‘aznaviylar, undan bir oz keyin vujudga kelgan Saljuqiylar, qolaversa, mamlakatni yiriklashtirilishiga jon-jahdi bilan qarshi turgan boshqa qo‘shni davlatlar bilan muttasil davom etgan urushlarga qaramay, Qoraxoniylar o‘z davlatining shuhratini XII-asrning o‘rtalarigacha saqlab qolishga erisha oldilar. Ular uzoq davom etgan erksizlikdan ezilgan xalq ishonchini qozongan ko‘rinadilar. Bunga davlatning o‘z davrida nisbatan ilg‘or harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy sohalarga aniq yo‘naltirilgan ilg‘or idora nizom va dasturlariga ega bo‘lgani sabab sifatida ko‘rsatilishi mumkin. Bu dastur davlat hokimiyatini mustahkamlashdan tashqari, xalqning moddiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilish, tarqoq turkiy qavmlarni birlashtirish, ularning qadriyatlarini umumturk qadriyatlari sifatida tiklash, rivojlantirish va tarannum qilishni nazarda tutgani shubhasiz. 999 yilda Qoraxoniylar idorasiga o‘tgan O‘rta Osiyoga ko‘plab turkiy qabilalarning ko‘chib kelishi kuchaygan. Bu ularning manfaati O‘rta Osiyoda yaxshi himoya qilingani va nufuzi ortganini tasdiqlaydi. Professor N.Mallayevning ta’kidlashicha, eron tillari guruhidagi tillarda so‘zlovchi ayrim xalqlar, jumladan, sug‘dlarning bir qismi turkiy tillarni ona tili sifatida qabul qildi. Yettisuv, Farg‘ona, Toshkent, O‘zgand, Koshg‘ar, Balasog‘un, Sayram va Xorazm kabi shahar va o‘lkalar xalqlari to‘la turkiy tilda so‘zlashar edi. Samarqand va Buxoro shaharlarida ham turkiy tilda so‘zlashuvchilar nufuzi orttirildi. Buning natijasida turkiylar soni ko‘payib bordi. Bu jarayonlar turkiy tildagi adabiyotning rivojlanishini tezlashtirib yubordi.

Ijtimoiy hayotda tasavvufning keng tarqala borishi falsafa va boshqa fanlarning rivojlanishini boshlab berdi. Garchi bu davrda ilm-fan asoslari arab va fors tillarida yozilayotgan bo'lsa-da, turkiy xalqlar vakillari ham bu jarayonlarga faol qatnasha boshladilar. Bir necha mutasavviflarning yoki boshqa sohalar olimlarining turkiy xalqlardan yetishib chiqqani buning dalilidir.

“Qutadg‘u bilig”ning yaratilishi va qadr topishi Qoraxoniylar davlatining tili, madaniyati, ma’naviyati va adabiyotining shuhrat tutishiga xizmat qildi. Har bir elig podshoh saroyida va markaziy shaharlarda o‘nlab yirik ijodkorlar badiiy ijod bilan shug‘ullanar edi. Mashhur “Chahor maqola” asari muallifi Nizomiy Aruziyning qoldirgan ma’lumotlariga ko‘ra, qoraxoniylar hukmdorlar orasida Xizrxon ibn Ibrohim favqulodda katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib, sulola shuhratini oshirgan. Uning chegaralarda o‘rnatgan tinchlik va mamlakat ichida joriy qilgan intizomi tillarda doston bo‘ldi. U bunga munosib edi. Agar Xizrxon ot minib biror yo‘lga chiqsa, oldida mustahkam qurollangan kishilardan tashqari yetti yuz oltin va kumush cho‘qmor, gurzilar olib borilar edi. U adabiyotni sevar edi. Uning saroyida shoirlar amiri Am‘aq, ustod Rashidiy, Najjor Sag‘arjiy, Ali Banidiy, Pisari Dargush, Pisari Isfaroiniy, Ali Sipehriy kabi ijodkorlar faoliyat olib borardilar. Ular xoqon tomonidan juda katta in‘omlar va yuksak martabalarga sazovor bo‘ldilar.

Nizomiy Aruziy va boshqa tazkiranavislar, afsuski, bunday shoirlarning faqat fors tilidagi she‘rlarini zikr qiladilar. Butun mamlakatdagi barcha mansablarda turkiylar turgan, harbiy aristokratlar turkiylardan iborat, davlat ishlari turkiy tilda olib boriladigan davlatda turkiy adabiyot “Qutadg‘u bilig” bilan cheklanishi mumkin emas edi.

Shuni ta’kidlash lozimki, davlatning adabiyotga e’tibori umuman ma’naviyat, madaniyat va san’atga bo‘lgan e’tiborning bir qismi edi. Chunki bu davrda faqat adabiyot emas, san’atning boshqa sohaları ham tez rivojlangani kuzatiladi. Qoraxoniylar davridan yodgorlik sifatida saqlanib kelayotgan bir qator me’moriy obidalar borki, ularning o‘ziyoq bu sohaning nechog‘li rivojlanganini ko‘rsatib

turibdi. Jumladan, Buxoro viloyatining Hazora qishlog'idagi Dehgaron masjidi 9 ta gumbazli noyob arxitektura yodgorligidir. Yoki Buxoro shahridagi Minorai kalon nomi bilan mashhur Katta minorani ham me'moriy yuksak san'at namunasi sifatida ko'rish mumkin. U Arslonxon minorasi ham deyiladi. Yodgorlik muhandis va me'mor Baqo loyihasi asosida qurilgan (1127). Yer sathidan 9 m chuqur, balandligi 50 metr. Kursisi qirrador, tepasi gumbazli davra qafasa-ko'shk bilan bog'langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 aylanma zina orqali chiqiladi. Sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasaviy shakldagi bejirim bezakli halqalari g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Katta minora shu turdagi qadimiy inshootlar orasida alohida o'rin tutadi. Shakllarning o'zaro monandligi va mutanosibligi, handasaviy uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Katta minoraga chinakam go'zallik bag'ishlaydi.

Qoraxoniylar tomonidan bunyod etilgan Jarqo'rg'on tumanidagi minora, Urganchdagi Faxriddin Roziy maqbarasi, Amudaryo yoqasidagi Doyaxotin raboti, Buxorodagi Namozgoh, Raboti Malik, Mag'oki Attoriy kabi obidalar ham bu san'atning o'ziga xos nodir namunalari.

Xuddi shunday, Qoraxoniylar davrida naqqoshlik va tasviriy san'at ham rivojlandi. Bu davrning eng muhim jihatlaridan biri, avval dindorlar tomonidan taqiqlab kelinganiga qarshi o'laroq, turli xil yog'och va ganchlardan o'yib yoki yo'nib odam, ot, buqa, tuya, yovvoyi echki kabi jonivorlarning tasvirlari yaratilganidir. Bunday ma'lumotlar O'rta Osiyoga kelgan sayyohlar tomonidan yozib qoldirilgan. Yana bir muhim jihat, bu davrda xattotlikning san'at darajasiga chiqqanidir. Qoraxoniylarga yozilgan madhlarning ortib borishi uni tarqatishni talab qilishidan tashqari, olim va ijodkorlarning ko'payishi, ular yaratgan asarlarni madrasa toliblariga va o'quvchilar ommasiga yetkazish kitobat va xattotlikni rivojlantirishni taqozo qilar edi. Me'moriy obidalarining peshtoqlari, devor va eshiklarini bezashda ham xattotlar xizmatiga ehtiyoj tug'ildi. Xatni naqshsimon

qilib yozish ham o'ziga xos o'lchov va handasaviy shakllarga asoslanishi kerak edi. Qolaversa, kosib va hunarmandlar ham o'zlari yasagan idish hamda jihozlarni, zeb-ziynatlarni yozuvli naqshlar bilan bezash orqali qimmatini oshirar edilar. Shunday qilib, behisob ehtiyojlar xizmatni naqsh darajasiga olib chiqdi.

Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Zarafshon vodiysida hunarmandlikning san'at darajasiga chiqqani, ular yasagan har bir jihoz yoki buyum ham nihoyatda go'zal ekani manbalarda ta'kidlangan, ulardan namunalar qadimshunoslarimiz tomonidan topilgan. Sopolga sir berib ziynatlash, harbiy qurollarni mustahkam va qulay shakllarga keltirish ham shu yerlarda rivojlangan.

Musiqqa san'ati ham bu davrda o'ziga xos yutuqlarni qo'lga kiritish boshladi. Arab va fors tillarida yaratilgan musiqiy risolalar chuqur o'rganilib, mahalliy xalqlarga targ'ib qilindi. Buni asli turkiy xalqlardan bo'lgan Abu Nasr Forobiy misolida ko'rish mumkin. U o'zining musiqashunoslikka doir bir nechta asarini arab tilida yozdi, bir necha musiqiy asbobga isloh kiritdi. Ular bu fan bilan shug'ullanuvchilar orasida keng shuhrat topdi. Bunday muvaffaqiyatlar, albatta, bolalikda, yoshlikda, o'z ona yurtida uyg'ongan havasning natijasi edi.

Manbalarda Bo'zar Keshiy ismli shahrisabzlik turkiyligi ta'kidlab ko'rsatilgan bir musiqashunos haqida ma'lumotlar bor. Ularning safi keng bo'lganiga shubha yo'q.

Albatta, san'at uzviylikda rivojlanadi. Adabiyot ham so'z san'ati sifatida boshqa san'atlar qatorida rivojlandi. Afsuski, birinchidan, mo'g'ul istilosi tufayli turkiy xalqlar yaratgan adabiy manbalarining aksariyati zavol topdi. Ikkinchidan, kitoblarning barchasi qo'lda ko'chirilishi, bu jarayonda xattotlar harakatlantiruvchi kuch ekani va ilm-fan tili arab va fors tillari bo'lgani uchun ular diqqatini ko'proq arab va fors tilidagi asarlarga qaratgani, buning natijasida turkiy adabiy manbalar eskirib, yo'qolib borgani bor haqiqatdir. Lekin shunga qaramay, turkiy adabiy manbalardan namunalar saqlanib qolishi ularning nihoyatda ko'p bo'lganini tasdiqlaydi. "Devonu lug'ot-t-turk"da ko'p shoirlar ijodidan namunalar keltirilishi, "Qutadg'u bilig"da jamiyatda ma'lum bir toifaga aylanib ulgurgan shoirlarga

munosabat haqida maxsus fasl yozilishi, haqiqatan, ular ko'pchilikni tashkil qilishidan dalolat.

Xullas, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va ilmiy shart-sharoitlar hamda asoslar mavjudligi, shuningdek, badiiy-ijodiy tafakkur darajasining yetilgani "Qutadg'u bilig"dek dostonlarning yaratilishiga omil bo'lib xizmat qildi.

Yusuf Ulug' Xos Hojibning hayoti va adabiy faoliyati. Yusuf Ulug' Xos Hojib bizga "Qutadg'u bilig" dostonining muallifi sifatidagina ma'lum.¹¹ Uning hayoti va faoliyatiga doir boshqa manbalar saqlanib qolmagan. Dostonda shoir o'zi haqida qisqacha ma'lumotlar bergan. Lekin bu uning tarjimai holini to'la tasavvur qilishga kamlik qiladi. Shunday bo'lsa-da, asarda muallifning bilimi, dunyoqarashi, e'tiqodi va g'oyalarining aks etishiga qarab, shoir biografiyasini nisbatan to'ldirish mumkin.

Buning uchun dastlab asarda keltirilgan aniq ma'lumotlarni inobatga olish va ularni tarixiy faktlar bilan solishtirish kerak. Dostonda tarjimai holga doir quyidagi ma'lumotlarga mavjud: u hijriy 462 (m.1069-1070) yili yozilgan, bu vaqtda shoir 50 yoshlardan o'tgan (taxminan 1019-1020 yillarda tug'ilgan), muallifning ismi Yusuf, u Balasog'un (Dostonda uning nomi Balosog'un, Quzo'rdu (Hirotnusxasi), Qut urdi (Qohira nusxasi) shakllarida beriladi) shahrida tug'ilgan, "parhez sohibi" (taqvodor) bo'lgan, doston "Qutadg'u bilig" deb ataladi, u Qoraxoniylar davlatining hukmdori Tavg'ochxon¹² ulug' Bug'ro Qoraxon abo Ali Hasan binni Arslonxonga bag'ishlangan va uning iltifotiga sazovor bo'lib, muallifga Ulug' Xos Hojiblik martabasini keltirgan.

Doston bilan to'la tanishib chiqish uning Qoraxoniylar davlati zodagonlaridan, ehtimol, dindor ruhoniylar xonadonidan birida tug'ilgan, degan xulosani keltirib chiqaradi. Asarda O'gdulmish tilidan O'zg'urmishga beglarga

¹¹ Hozirgacha yaratilgan ilmiy adabiyotlarda u Yusuf Xos Hojib nomi bilan mashhur. Dostonda shoir bu nom orasiga Ulug' so'zini ham qo'shib qo'llaydi. Bu xos hojiblarning ko'p bo'lgani va ular orasida ulug'i birgina bo'lganini ta'kidlash uchundir. Ba'zan "xos" so'zi tushirib qoldiriladi. Shuning uchun bu unvonni muallifning taqdimiga mos qo'llash tarafdorimiz.

¹² Arab yozuvidagi matnlarga ko'ra bu ism "Tavg'ochxon" shaklida o'qiladi.

(hukmdorlarga) xizmat qilish qoidalari va avom (ilmsiz omma) bilan munosabatda bo'lish qoidalari haqidagi fasllarda aytilgan so'zlardan buni anglab olish mumkin. Muallif beglar saroyida xizmat qiluvchilar ikki toifa bo'lishini ta'kidlaydi: biri – kichikligidan (bolaligidan) xizmat qiluvchilar; ikkinchisi – katta yoshli bo'lganda xizmatga kiruvchilar. Kichikligidan xizmat qiluvchilarga saroy qoidalarini o'rgatib o'tirish shart emas. Chunki ular bu qoidalarni ko'ra-ko'ra o'zlashtirib oladilar. Katta yoshda xizmatga kiruvchilar uchun esa bu qoidalarni tezda o'zlashtirish bir oz qiyin kechadi. Buning uchun ular ma'lum tayyorgarlikdan o'tishi kerak, deydi shoir. Bu so'zlar Oyto'ldi tilidan emas, balki O'gdulmish, ya'ni saroy xizmatchisining farzandi tilidan aytiladi. Uni aytishda muallifning yoshlikdan xizmatda bo'lganini anglatuvchi botiniy iftixor, ko'tarinki kayfiyati sezilib turadi. Avom bilan munosabat bobida esa O'gdulmish o'zini ularga mutlaqo aloqasiz tutadi. Avomning biror fazilati tilga olinmaydi. Asarning mavzusi jamiyatning axloqiy tamoyillari asoslari, mezonlarini muvofiqlashtirish, ijtimoiy-ma'naviy tushunchalarni takomillashtirishdan iborat bo'lib, ular ko'proq diniy vositalar, pand-nasihatlar orqali talqin qilinishi shoirning ruhoniy qiyofasini yorqin namoyon qilib turadi. To'g'ri, asarda tarix, astronomiya, tibbiyot, tabiatshunoslik kabi fanlarga doir materiallardan ham ko'p va o'rinli foydalanilgan. Bu uning mukammal ta'lim olganini ko'rsatadi.

Yusuf Ulug' Xos Hojib yoshlikdan turkiy, arab va fors tillarini hamda badiiy adabiyot, xalq ijodiga jiddiy qiziqib o'rgangani shubha uyg'otmaydi. Uning turkiy dostonini yaratishdan avval arab va fors tillarida, ayniqsa, ona tilida badiiy ijod bilan ancha-muncha shug'ullanganini taxmin qilish mumkin. Asarning deyarli har bir faslida iqtibos usulida yozilgan satrlar borki, ular shoirning katta tajribasidan nishonalardir. Shoir bir o'rinda shunday deydi:

*Ilig sundum o'sh men biligni tilab,
So'zuk so'zga tizdim shoshurdim ura.
Kiyik tog'i ko'rdum bu turkcha so'zug,
Ani aqru tuttim yoqurdim ora.*

*Siqodim, savittim, ko'ngul berdi terk,
Taqi ma beringlar berarda yer-a.
Sunub tutmishimcha ezardim so'zug,
Kelu berdi o'tru yipori bura.
Ko'ni so'zladim so'z irig ham achig',
Ko'ni so'zni yuzgan uqushlug' er-a.
O'qug'liqqa artuq og'ir kelmasu,
O'zum uzra quldum ocha ham yo'ra.*

Mazmuni: Mana, men bilimni istab qo'l cho'zdim,

So'zni so'zga uladim, yig'ib-terib ajratdim.
Bu turkcha so'zni tog' (yovvoyi) kiyigi kabi bildim,
Uni ohista ushlab, aldab yaqinlashtirdim.
Siladim, erkaladim, tez ko'ngil berdi,
Shunday bo'lsa ham, yemish berar paytimda hurkadi.
(Qo'l) sunub tutgunimcha so'zga ergashdim,
Ipor (xushbo'yi) anqib kela berdi.
To'g'ri so'zladim so'z, dag'al va achchiq,
To'g'ri so'zni ko'tarolgan zakovatli kishi (bo'ladi).
O'quvchiga ortiq og'ir tushmasin,
(Ulardan) aniq va ravshan qilib uzr so'radim.

Ko'rinib turganidek, shoir turkiy tilda ko'p ijod qilganini yovvoyi kiyikni o'ziga o'rgatishdek mashg'ulotga aylantirganini ta'kidlaydi. Qolaversa, adabiyotimiz tarixida 50 yoshga borgan kishining ijodini boshlaboq "Qutadg'u bilig"dek dostonni yaratishi kuzatilmagan holdir. Shuning uchun Yusuf Ulug' Xos Hojibning ijodi faqat shu doston bilan chegaralanmagan, deyish mumkin.

Shoir ulug' xos hojiblik mansabiga chiqqunicha ham saroyda turli lavozim va mansablarda xizmat qilgan. Qoraxoniylar davlatining barcha kuchli va zaif tomonlari unga yaxshi ma'lum bo'lgan. Jumladan, jamiyat, ko'proq hukmron tabaqalar qabul qilgan axloq meyorlari yaxshi o'rganilgan. Buning uchun albatta

saroy muhitida yashash va ishlash talab etilishi ma'lum. Lekin u kim bo'lib ishlagani adabiyotlarimizda yetarli darajada ochib berilmagan. Bizningcha, Yusuf saroyda hojiblik vazifasida ishlagan. Bunday fikrning dalili shuki, hojiblik alohida xususiyatga ega vazifa bo'lib, o'zining xos hojiblik va ulug' xos hojiblik kabi boshqaruv ma'muriy tizimiga ega bo'lgan.

“Hojib” so'zi lug'atlarda “qosh”; “chodir”, “to'siq”, “parda”; “hijobli”; “darvozabon”, “eshik og'asi”; “qoravul” kabi ma'nolari bilan izohlansa-da, arab tilida uning o'zagi (*hajaba*) “yopmoq”, “yashirmoq”, “berkitmoq”, “to'smoq”, “man' qilmoq” kabi ma'nolarda qo'llanadi. Shundan kelib chiqib, bu nom bilan yuritiluvchi lavozimdagi xodimning vazifalariga aniqlik kiritish mumkin. Binobarin, hojiblik davlatning barcha moddiy va intellektual mulkini, jumladan, qonunlarini ham himoya qilish bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham dostonida “Ulug' hojib-ul begka ko'rgu ko'zi” (Ulug' hojib begning ko'rar ko'zidir) deyilgan. Pora haqida “Qutadg'u bilig”ning faqat hojiblik haqida so'zlangan ikki o'rinda gap boradi. Birinchisi O'gdulmish tomonidan eligga aytiladi:

*Ko'zi to'q kishi ishta olmas urunch,
Urunch olsa hojib, bo'lur beg kulunch.*

Mazmuni: Ko'zi to'q kishi ishda pora olmaydi,

Hojib pora olsa, beg kulguga qoladi.

Ikkinchisi O'gdulmishning O'zg'urmishga aytilgan so'zlarida ta'kidlanadi:

*O'zung bo'lsa hojib, urunch olmagu,
Chig'ay, tul, yetimlar so'zin tinglagu.*

Mazmuni: O'zing hojib bo'lsang, pora olmaslik lozim,

Kambag'al, tul va yetimlar so'zini (dodini) tinglash kerak.

Agar hojibni eshik og'asi, posbon yoki qoravul deb tushunsak, bunday vazifadagi kishilarga qo'yiladigan talablar boshqacha bo'lishi kerak edi. Keltirilgan baytda hojiblar davlat idora ishlarini nazorat qilishi, bunda kamchiliklarni pora olish natijasida berkitilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi, fuqaro, yetim-yesirlar ahvolini o'rganib ish tutish lozimligi ta'kidlanadi. Qisqa satrlarda

juda katta vazifalar mohiyati ochib berilgan. Shu o‘rinda dostonda shoirga nisbatan “parhez sohibi” iborasining qo‘llanishi ham bejiz emasligi ko‘rinadi.

Hojibning oddiy eshik posboni, darvozabon emasligiga dostonda O‘g‘durmishning eligga darvozabonlar boshi (boshlig‘i) qanday kishi bo‘lishi kerakligi haqidagi bobda aytgan so‘zlari ham dalil bo‘ladi.

Xos hojiblik mazmuniga ko‘ra, xon va uning yaqinlarini himoya qilgan. Yana “hojib” so‘zining ma’nosiga qaytib, ular o‘z vazifalarini yashirin tarzda olib borganlarini ham taxmin qilsa bo‘ladi. Har holda, hukmdorning davlat va xalq munosabatlarini yuritishi hojiblar orqali amalga oshirilgan, deyishga asoslar yetarli. Ulug‘ Xos Hojib hojiblik xizmatini boshqaruvchi bosh rahbar. Bu vazifaga aynan shu xizmat bilan shug‘ullanib kelgan kishi tayinlanishi tabiiy edi.

Hojibning maqomi to‘g‘risida Mahmud G‘aznaviy davridan ikki misolni keltirish mumkin. Birinchisi, sulton Mahmud Xorazmshohni mag‘lub qilgach, uning o‘rniga o‘z Ulug‘ Xos Hojibi Oltuntoshni taxtga o‘tirg‘izib qaytadi. Ikkinchisi, Sulton Mahmud o‘z o‘g‘li Mas‘udning Hirotda yashagan davrida qilgan nojo‘ya maishiy ishlarini nazorat qilib kelish uchun chopar yuborar ekan, uning qo‘liga berilgan farmonda holatning nazoratini o‘tkazishda u yerdagi hojibning yordam berishi vazifasi buyuriladi va, jumladan, shunday mazmundagi so‘zlar yoziladi: “... Agar hojib Qutlug‘tagin Bihishtiya jon aziz bo‘lsa, ushbu amru farmonga bo‘ysunib, choparga barcha zururiy yordamlarni ko‘rsatsin...” Bu misollardan ham hojibning o‘rni va mas‘uliyati nechog‘li katta bo‘lganini anglash mumkin.

“Qutadg‘u bilig” dostonining manbalari va ularning o‘rganilishi. Qadimiy tarixga ega bo‘lgan turkiy xalqlar poeziyasi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida turkiy poeziyaning o‘zigacha bo‘lgan barcha muvaffaqiyatlarini aks ettirgan “Qutadg‘u bilig” dostonining fanda uchta nusxasi ma’lum. U haqidagi dastlabki ilmiy maqola XIX asrning birinchi yarmida, 1823 yilda farang sharqshunosi Jaubert Amades tomonidan e’lon qilingan edi. Maqola «Uyg‘ur yozuvidagi turkiy qo‘lyozma haqida qaydlar» deb nomlangan. Unda dostonning

h.843 (m.1439) yilda Hirotida uygʻur yozuvi bilan Hasan Qara Sayil Shams tomonidan koʻchirilib, 879 (1474) yilda Turkiyaga keltirilgan va Istambulda boʻlgan mashhur sharqshunos Xammer Purgstall Vena Saroy kutubxonasiga keltirgan nusxasi haqida maʼlumot berilgan. Bu “Qutadgʻu bilig” qoʻlyozmasining Vena nusxasi deb yuritiladi.

XIX asrning 60-yillaridan boshlab «Qutadgʻu bilig»ni oʻrganish bilan rus turkologlari shugʻullana boshlashdi. 1861 yili N.I.Ilminskiy doston muqaddimasidan parcha va uning tarjimasini berdi.

1870 yilda uning muhim qismlarini mashhur venger olimi Vamberi nemis tiliga tarjima qilib “Uygʻur tili obidalari va “Qutadgʻu bilig” nomi bilan nashr qildirdi. Uning eʼlon qilgan asari «Qutadgʻu bilig»ni butun Yevropaga tanitdi va u yerda bu asarning jiddiy oʻrganilishi uchun keng yoʻl ochib berdi. 1890 yildan boshlab uni rus sharqshunosi V.Radlov tekshira boshlagan.

1896 yilda Qohirada “Qutadgʻu bilig”ning arab yozuvida koʻchirilgan ikkinchi nusxasi topildi. V.Radlov misrlik bir xattotga uni koʻchirtirib oldi¹³ va uni birinchi nusxa bilan qiyoslab oʻrganishga kirishdi. Olim asar ustida 20 yil (1890 – 1910) ishladi.

1914 yili Qozon universiteti sharqshunos olimi A.Z.Valizoda Fargʻona safari davomida namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolaresh qoʻlida “Qutadgʻu bilig”ning arab yozuvida koʻchirilgan uchinchi nusxasini koʻrgani, u bilan tanishib chiqqanini maʼruza qildi. Bu xabardan keyin 1924 yilda Fitrat mazkur eshon huzuriga borib, uning qoʻlidan qoʻlyozmani olishga muvaffaq boʻladi. Oʻsha yili kitob Oʻzbekiston asosiy kutubxonasiga topshiriladi. 1925 yildi Fitrat “Qutadgʻu bilig”ning Namangan nusxasini tavsiflab maqola yozadi, 1928 yilda undan parchalarni eʼlon qiladi.

1929 yildan boshlab rus sharqshunosi S.YE.Malov dostonning maʼlum uch nusxasini chogʻishtirib oʻrganishga kirishadi. Olim tomonidan asarning ayrim parchalari, ularning tarjimalari va izohlari chop ettirildi.

¹³ Bu koʻchirmaning toʻrt jilddan iborat fotonusxasi OʻzRFA Sharqshunoslik institutiga keltirilib saqlanmoqda, №6090, 6091, 6092, 6093.

Shuningdek, «Qutadg‘u bilig»ni o‘rganishda V.Tomsen, V.V.Bartold, P.M.Melioranskiy, A.Samoylovich, K.K.Yudaxin, N.A.Baskakov, YE.E.Bertels, A.A.Valitovalarning ham xizmati katta. Ular qoraxoniylar davri, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini chuqur o‘rganib, bunda dostonning o‘rni va ahamiyatini ma’lum ma’noda oydinlashtirish, asar matnini to‘g‘ri o‘qish, transkripsiya va tavsif qilish borasida qimmatli fikrlar bildirishgan.

«Qutadg‘u bilig»ning poetik xususiyatlarini o‘rganishni I.V.Stebleva boshlab berdi. Uning asar vazni va qofiyasiga doir kuzatishlari, ayniqsa, diqqatga sazovor.

Asarni atroflicha o‘rganishda turkiyalik olimlarning ham hissalari katta. Muhammad Kuprilazoda, Rizo Nur, Faxri Funduko‘g‘li, Notiq Orkin, Sodiq Oran, R.R.Arat, A.Dilachar va boshqalarning ishlarida «Qutadg‘u bilig» bilan bog‘liq ko‘pgina masalalar haqida fikr yuritilgan. Xususan, R.R.Arat «Qutadg‘u bilig» ning Hirot (Vena), Kohira va Namangan nusxalarining faksimilesi, tanqidiy matni va lug‘atini e’lon qildi.

O‘zbekistonda bu asarni o‘rganish «Qutadg‘u bilig»ning uchinchi – Namangan (Toshkent nusxasi deb ham yuritiladi) nusxasining topilishi bilan boshlangan. Dastlab Fitrat va A.Sa’diyning maqolalari bosildi. Fitrat tartib bergan «O‘zbek adabiyoti namunalari»da asarning shu nusxasidan parchalar tegishli izohlar bilan beriladi. Asarni o‘rganish va uni targ‘ib qilishda A.P.Qayumov, G‘.A.Abdurahmonov, N.M.Mallayev, Q.Karimov, Q.Sodiqov va B.To‘xliyev kabi olimlarning ham katta hissalari bor.

«Qutadg‘u bilig»ni o‘rganishda Q.Karimovning xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak. Olim ko‘p yillar davomida asar ustida ilmiy tadqiqotlar olib bordi. U ko‘plab maqolalar e’lon qildi, «Qutadg‘u bilig»da kelishik kategoriyasi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yozdi. Birinchi marta asarning transkripsiya va hozirgi zamon o‘zbek adabiy tiliga tavsifini e’lon qildi, «Qutadg‘u bilig»ning sharhli nashrini amalga oshirdi.

Professor B.To‘xliyev Yusuf Xos Hojibning badiiy mahorati xususidagi tadqiqotini amalga oshirdi. Unda «Qutadg‘u bilig»ning janr xususiyatlari, asar

tarkibidagi ayrim janrlarning paydo bo‘lish va rivojlanish tarixi, ularning poetikasiga xos xususiyatlar ko‘rsatib berilgan. Olimning doston vazni, qofiya xususiyatlari va badiiy tasvir tamoyillari borasidagi kuzatishlari e’tiborga loyiq.

“Qutadg‘u bilig”ning turkiyshunoslikda hozirgacha amalga oshirilgan ilmiy nashrlari quyidagilar¹⁴:

1. Vambery A. Uiguriische Sprachmonumente und das Kudatku Bilik. Innsbruk, 1870.

2. Кудатку-Билик. Факсимиле уйгурской рукописи... изд. В.В.Радловым. СПб., 1890.

3. Radloff W. Das Kudatku-Bilik des Jusuf Chass-Hadschib aus Balasagun. Theill I-II. St. Petersburg, 1900, 1910.

4. Малов С.Е. Из третьей рукописи «Кутадгу билиг». //Известия АН. VII серия. Отделение гуманитарных наук. Л., 1929. №9. С. 737 – 754.

5. Kutadgu Bilig. Tipkibasim. I. Viyena nushasi. Istanbul, 1942.

6. Kutadgu Bilig. Tipkibasim. II. Fergana nushasi. Istanbul, 1943.

7. Kutadgu Bilig. Tipkibasim. III. Misir nushasi. Istanbul, 1943.

8. Arat R.R. Kutadgu Bilig. I. Metin. Istanbul, 1947 (асарнинг ҳар уч нусхаси асосида тайёрланган қиёсий матн).

9. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М. – Л., 1951. С. 224 – 298 (ҳар уч нусхадан узиндилар).

10. Jusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. II Tercume. R.R.Arat. Ankara. 1959 (асар йиғма матнининг туркча ўғирмаси).

11. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Транскрипция ва насрий баён. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. Тошкент, 1971.

12. Jusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. 1984 (Transkripsiya va uyg‘urcha she’riy o‘girmasi).

¹⁴ Keltirilayotgan ro‘uxat A.Қаюмов, М.Исҳоқов, Ф.Отахўжаев ва Қ.Содиқовларнинг “Қадимги ёзма ёдгорликлар” китобидан олинди. – Б. 160 – 161.

Lekin bular «Qutadg‘u bilig»ning o‘rganilishi nihoyasiga yetdi, degan xulosani keltirib chiqarmasligi lozim. Asar talqinlarini yaratishda hali juda ko‘p ishlarni amalga oshirish mumkin.

“Qutadg‘u bilig”ning tarkibiy tuzilishi va mavzu doirasi. “Qutadg‘u bilig” hajman katta asardir. U qariyb 6500 bayt yoki 13 ming misraga yaqin bo‘lib she‘riy yo‘lda yozilgan. Muallifning ta’kidlashicha, asar 18 oyda yozib tugatilgan. «Qutadg‘u bilig» asariga muallif tomonidan qo‘yilgan nom. Bu qutga – baxt, saodat va davlatga eltuvchi bilim demakdir. Shoir shunday yozadi:

Kitab ati urdum «Qutadg‘u bilig»,

Qutadsu o‘qug‘lika tutsu elig

Mazmuni: Kitob otini «Qutadg‘u bilig» qo‘ydim,

O‘quvchiga baxt keltirsin, qo‘lidan tutsin.

«Qutadg‘u bilig» tarkibi uch bosqichdagi muqaddima bilan boshlanadi:

Nasriy muqaddima (38 satr), undan so‘ng 73 fasl nomining mundarijasi keladi.

She‘riy muqaddima (77 bayt).

Muqaddimaviy boblar (11 bob, 390 bayt).

Lekin bu muqaddimalarning dastlabki ikkitasining muallifga nisbatida fanda ixtilofli fikrlar bor. YA’ni ularning muallif tomonidan yozilganiga olimlar tomonidan shubhalar bildirilgan. Garchi ko‘pchilik ular Ulug‘ Xos Hojib tomonidan yozilganini e’tirof qilsalar-da, bizningcha, bu shubhalar haqiqatga juda yaqin. Doston tadqiqotchilaridan biri Q.Karimov o‘z shubhalarini shunday asoslaydi: “Biz o‘z navbatida muqaddima va mundarija o‘zganing ishi, degan fikrni quvvatlaymiz. Chunki, birinchidan, kitob tuzish an’anasiga ko‘ra basmala (unvon) bir marta keladi. «Qutadg‘u bilig»da esa muqaddimadan avval va fihrastdan so‘ng, nazm qismining boshlanishida keladi.

Ikkinchidan, muqaddimada bayotga (xudoga) hamd, yalovochga (payg‘ambarga) va sahobalarga sano va madh (na’t deyilmoqchi – N.SH.) aytilib, so‘ng kitob haqida gapiriladi. Nazm qismining boshlang‘ich bir necha sahifalarida

ham xuddi shu narsalar alohida lavhalar bilan takrorlanib keladi, qisqasi, muqaddima nasr va nazmdan iborat bir narsaning ikki xil takrori bo'lib qoladi. Bu, albatta, muallifning ishi emas...

Uchinchidan, mundarijada keltirilgan sarlavhalar bilan tekstdagi sarlavhalar tarkibidagi so'zlarga ko'ra farq qiladi, tekstdagi ayrim bob nomlari mundarijada va mundarijadagi bob nomlari tekstda uchramaydi. Demak, tekstdagi boblar nomining umumiy mazmunini saqlab, o'zga shaxs mundarijani o'z so'zlarini aralashtirib yoza bergan.

To'rtinchidan, nasriy muqaddimada muqaddima avtori kitob muallifi haqidagi bahsda uchinchi shaxsni nazarda tutib gapiradi..."¹⁵

Muqaddima asar yozilib atrof yurtlarga tarqalgani va o'z e'tirofini topgandan keyin qo'shib qo'yilganini undagi: "Bu kitob qayu podshohqa yo qayu iqlimqa tegdi ersa g'oyat uzluqindin, nihoyatidin kecha ko'rkluglukindin ul ellarning hukamolari, olimlari qabul qilib, tekma biri bio turlug ot laqab berdilar: chinlig'lar «Adabu-l-muluk» («Hukmdorlar odobi») ot berdilar. Mochin malikining nodimlari «Oyin-ul-mamlakat» («Mamlakat tartibi») atadilar, Mashriqlig'lar «Ziynatu-l-umaro» («Amirlar ziynati») teb atadilar. Eronlig'lar «Shohnomai turkiy» (Turkiy shohnoma) tedilar, ba'zilar mo «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar pandnomasi») temishlar. Turonlig'lar «Qutadg'u bilig» teb aymishlar. Bu kitobni tasnif qilg'ili Balasog'un mavludlig' parhez ezisi er turur. ammo bu kitobni Koshg'arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg'achxon uskinga kekurmish, malik ani og'irlab, ulug'lab o'z Xos Hojibliqi anga bermish turur..." degan so'zlar buni tasdiqlaydi.

Muqaddimaning uslubi va ruhida ham farqlarni sezish mumkin.

Asosiy qism – doston mazmuni 68 bob, umuman, 174 sarlavha ostida berilgan matnda rivojlantiriladi. Umumiy hajmi taxminan 5896 bayt. Xotima qismi ikki qismda va masnaviy bobdan iborat bo'lib, masnaviy bob mazmunigina dostonga aloqador.

¹⁵ Каримов Қ. Сўз боши // Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – 14-бет.

«Qutadg‘u bilig»da 180 ga yaqin to‘rtlik, masnaviy va uch qasida ham keltirilgan. Bulardan tashqari, bir necha o‘rinda “shoir nima deydi eshit”, “dono so‘zin tingla” kabi bir necha toifaning tilidan aytilgan bayt yoki misralar bor. Muqaddima muallifi asarda keltirilgan bunday iqtibos uslubidagi she‘rlarni “Chin hakimlarining amsollari” va “Mochin hakimlarining ash‘orlari” deb ataydi. Aslida ularning ba‘zilari qofiyalanishidagi farqlar hisobga olinmasa, shoirning o‘zi ijod qilgani sezilib turadi.

Dostonning mavzusiga kelganda, u, eng avvalo, inson qadr-qimmatini yuksak fazilatlarga egaligi bilangina baholanishini tarannum etishdan iborat. Bunday fazilatlarga ega insonlar xalq orasida aziz va mukarramdir. Inson fazilati qancha ortsa, uning martabasi, qadri shu qadar ortib boradi. Lekin yuksak fazilatlar nimalardan iborat? Dostonda ular quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchisi, Yaratganga, olamga, o‘zi yashab turgan mamlakat va uning hukmdoriga sodiqlik, xayrixohlik.

Ikkinchisi, axloqiy komillik, diniy e‘tiqodda sobit bo‘lish.

Uchinchisi, aql-zakovat, chuqur bilim (ilm) va hunar (san‘at) egasi bo‘lish.

To‘rtinchisi, ehtiyojlarini qondirishga yetarli mol-mulk yig‘a olish.

Beshinchisi, qanoatli bo‘lish, o‘zida nafsni sindirish, dunyo moliga hirsni yo‘qotish.

Oltinchisi, mard va jasur bo‘lish.

Muallif barcha ijtimoiy tabaqa, toifa a‘zolarining jamiyatda qabul qilingan va e‘tirof etilgan mavqelari, o‘rni borligini zikr etadi va ularga munosabatning shu taxlitda olib borilishini ma‘qullaydi. Lekin bunda davlat manfaatlari, shaxsning sha‘ni, obro‘-e‘tibori hisobga olinishi zarurligiga diqqat qaratiladi.

Ulug‘ Xos Hojib odamlarni ikki jihatiga ko‘ra toifalarga ajratadi: birinchisi, kishilarning moddiy boylikka egaligi jihatidan tutgan o‘rinlariga ko‘ra tasniflash. Bu tabiiy ravishda uchga ajraladi: boylar, o‘rta hollar va chig‘aylar (kambag‘allar). Ikkinchisi, nasab, mansab-martabaga ko‘ra tasnif. Bunda jamiyat a‘zolarining ijtimoiy kelib chiqishlari, asosiy mashg‘ulotlari, kasblari, hunarlari, xizmatlari

kabilar hisobga olinadi. Aslida, shoir jamiyatda mavjud bu toifalarni o'z nuqtai nazaridan tavsiflaydi va ularning burch hamda vazifalari nimalardan iboratligini uqtiradi.

“Qutadg‘u bilig” – turkiy tilida yaratilgan ilk mumtoz doston. O‘zbek mumtoz adabiyotida doston atamasi o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. «Qutadg‘u bilig» yaratilgan davrda bu atama hali iste’molga kirmagan edi. Shuning uchun ham u doston deb emas, “kitob” deb atalgan. Lekin “kitob” tushunchasi mumtoz adabiyotda hozirgidan farq qiladi, undan bilim, ilmiy ko‘rsatma va xulosalar, hikmat, “yung‘i uqush” (yig‘ma bilim) ma’nosi anglashilgan. Lekin bu ma’nolardan qat’i nazar, uning janriy belgilari dostonga xosdir. “Doston” so‘zi fors tilida ertak, tarix, hikoya, qissa, roman ma’nolarida, shuningdek, musiqiy istiloh sifatida ham ishlatiladi. Uning etimologiyasi haqida qat’iy fikrga kelinmagan. Bizningcha, u ikki holatdan biri bilan izohlanishi mumkin. Birinchisi, dariy tilidagi makr, hiyla ma’nosini anglatuvchi *doston* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Firdavsiyning “Shohnoma”sida Rustamga Semurg‘ tomonidan otasining ayyorligini eslatib turish uchun shunday ism qo‘yiladi. “Rustami Doston” nomi shunday yaralgan. Bu so‘zning janr nomiga aylanishi haqiqatni adabiy-badiiy yolg‘on orqali ifodalash mohiyatini ifodalashiga ko‘ra sodir bo‘lgan deb faraz qilish mumkin. Ikkinchisi, forscha “*dov*” (o‘yinda yurish qilish; ko‘tarilish) va “*sito*” (madh qilish, olqishlash, maqtash, ulug‘lash, mashhur qilish, kuylash) so‘zlari hamda ularga *-on* qo‘shimchasining qo‘shilishi orqali yasalgan, degan fikr. “Xalq orasida doston bo‘lmoq” iborasi bunga juda mos keladi.

Doston istilohi forsiy adabiyotda X asrdan janr nomi sifatida qo‘llana boshlagan. Turkiy adabiyotda esa u XIII – XIV asrlardan boshlab keng tarqaladi. Lekin adabiyotshunoslikda “Tunyuquq bitigi”, “Dada Qo‘rqut kitobi”, “O‘g‘uznoma” kabi manbalarni ham shartli ravishda doston deb yuritish holati mavjud. Chunki ularga nisbatan hozirda mavjud boshqa janrni ishlatib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, doston tuzilish jihatidan nisbatan erkin janr. Shuning uchun ham

uning turlari nihoyatda ko'p. Lirik she'rlarga qaraganda mavzu, g'oya va hajm jihatidan katta, badiiy voqealar tasviriga ega nisbatan murakkab tizimli asarlar doston deb ataladi. Shu nuqtai nazardan, «Qutadg'u bilig» ilk mumtoz doston sifatida maydonga keldi.

Doston ma'lum g'oyalarning badiiy talqinini yaratish maqsadida oddiy, lekin mantiqli to'qimaga asoslanadi. Bu muallifning badiiy adabiyot asosiy tamoyillarini puxta o'zlashtirganidan dalolat beradi. Asar syujeti to'rt asosiy qahramon atrofidagi munozaralar, hayotiy turli masalalarga doir savol-javoblar majmuidangina tuzilganga o'xshasa-da, unda muallif yashab turgan tuzum, jamiyat va uning ijtimoiy tarkibi, siyosiy va axloqiy meyorlar, hayotga munosabatdagi xilma-xilliklar, hatto tabiat manzaralari keng ko'lamda tasvirlanadi. To'qima fonida haqiqiy hayot manzarasi baland-pasti bilan o'z badiiy ifodasini topadi.

Doston syujetining qisqacha mazmuni quyidagicha:

Jahonga Kuntug'di ismli bir dono, odil podshoh keldi va olam yosharib ketdi. Uning dovrug'i olamga tarqaldi. U o'z atrofiga zakovatli kishilarni yig'ib, bilim sohiblarini yuksaltirdi. Katta ishlarni amalga oshirish uchun bunday kishilar ko'p kerak. Ayniqsa, ularni katta ishlarga uyushtirish uchun munosib aql-idrokda komil, shijoatli bir kishi lozim edi. Elig shunday kishi topilsa, o'z yoniga olishini e'lon qiladi. Bu xabar mamlakatning chekka qishloqlarigacha borib yetadi.

Shahar chekkasida Oyto'ldi ismli bir xushsurat, xushtakallum, bilim va hunarni puxta egallagan, tadbirkorlikda misli yo'q kishi yashar edi. U ezgu ishlar qilish orzusi ro'yobga chiqishi uchun sharoit yetilgani, ezgulikning qadriga yetuvchi beg o'z qadriga yetishganidan xursand bo'lib, o'zining iqbol darvozasi ochilganini his qilib, poytaxtga, podshoh saroyiga borishga ahd qiladi. Lekin bu ish oson emas edi. Eng avvalo, poytaxtga yolg'iz borgan odamning o'z o'rnini topishi qiyin edi. Shuning uchun Oyto'ldi poytaxtdan o'ziga do'stlar va tarafdorlar topish yo'llarini axtaradi. Moliyaviy-iqtisodiy kuch bunda muhim deb hisoblaydi u. Pul, oltin-kumush yig'ib bo'lgach, Oyto'ldi poytaxt tomon yo'l oladi. U poytaxtda o'z hunar va san'atini ishga solib atrofiga ulfatlar, do'stlar yig'adi. Bu yerda

yashashga moslashgach, u ishonchli do'sti Ko'samish (Istlingan)ga asl maqsadini aytadi. Ko'samish uni Kuntug'di eligning Ersig ismli Xos Hojibi bilan uchrashtiradi. Xos Hojib Oyto'ldini ko'rib uni sevib qoladi. Xos Hojib Oyto'ldining saroyga munosib kishi ekaniga amin bo'ladi va eligga bu haqda aytib, unga yordam berishga so'z beradi. U va'dasida turib eligga Oyto'ldini ta'rif va tavsif qiladi. Kuntug'di ham uni ko'rishga oshiqadi. Xos Hojib Oyto'ldini elig huzuriga olib kiradi. Oyto'ldi bu yerda o'zining aql-hushi, bilimi va sadoqatini namoyish qiladi va saroyga qabul qilinadi. U saroyda buyurilgan xizmatlarni bajo keltirib yurdi.

Bir kuni elig yolg'iz o'tirganida yoniga Oyto'ldi kirib, qarshisida tik turadi. Kuntug'di uni o'tirishga buyuradi, u yonidan to'p chiqarib, uning ustiga o'tiradi. Kuntug'di ko'p savollar beradi, Oyto'ldi ularga ko'ngilni ravshan qiladigan javoblar qaytaradi. Kuntug'di mamnun bo'lib uning yuziga qarasa, u boshqa tomonga buriladi. Elig qahrlanadi, Oyto'ldi unga o'zini anglatadi: "Mening hozirgacha senga ko'rsatgan amallarim, oddiy odatlarim edi. Huzuringda o'tirmaganim, dunyoda menga muqim turishga joy yo'q, deganimdir. Yerga to'p qo'yganim o'z holimdan ishoradir, men to'p kabi beqarorman. Oqar suv, ravon til va qut tinim bilmay harakatda bo'ladi. Qut-davlat ishonchsiz, bevafo va beqaror. Mening beqarorligim nuqsonim emas, borlig'imdir. Eskirmasligimning boisi ham shu. Men eskirsam, boshqa eskirgan narsalar kabi yoqimsiz bo'lib qolar edim. Lekin ba'zi zarif, ogoh, meyorini biluvchi, kamtarin, parhezkor kishilar meni uzoq vaqt o'zlari bilan tutib qoladilar". Elig uning nega Oyto'ldi deb atalishi ma'nosini so'radi. U javob berib, oyning tug'ilganda zaif bo'lishi, bora-bora to'lishib, ko'tarilib borishi, to'lib bo'lgach, yana zaiflashishi, yo'qolishi, boshqa burjda qayta paydo bo'lishi davlatga o'xshashini aytadi.

Bir kuni yana elig Oyto'ldini huzuriga chaqiradi. O'zi qo'lida katta bir pichoq, o'ng yonida shakar, so'l tomonida urog'un (bir xil dori) uch oyoqli kumush kursida qovog'ini solib o'tiradi. Oyto'ldi buning sababini so'raganda, Kuntug'di o'zining adolat timsoli ekanini, uch oyoqli kursi uning hamisha

to'g'rilik bilan poydor turishini, shakar mazlumlarga, urog'un zolimlarga atalganini, yuzining vajohati yuz-xotiri yo'qligini anglatishini aytadi. Oyto'ldi undan ismining ma'nosini so'raydi. Kuntug'di javob berib, Quyosh to'g'rilik bilan yetilib to'lgani, faqat to'lin turishi, barcha xalqga birdek yorug'lik ulashishi, hammani teng ko'rishi, olamga issiqlik ulashib, yerni qizitishi va hayot barqaror davom etishiga xizmat qilishi, barchaga barobar bahra yetkazib, o'zi sobit turishi va yorug'likdan boshqa jihati yo'qligi donolar tomonidan shunday atalishiga sabab bo'lganini ta'kidlaydi.

Oyto'ldi eligga yoqishi va nimalar qilsa obro'-e'tibori oshishi, xalqga ko'proq naf yetkazish hamda til (so'z, nutq) borasida Kuntug'di bilan uzoq savol-javoblar qiladi. Saroyda katta nufuz topadi.

Vaqlar o'tib Oyto'ldining ahvoli og'irlashadi. Uni davolashga har qancha urinmasinlar, umri tugab boradi. U Kuntug'diga dardi hol qiladi, Kuntug'di unga tasalli beradi. Lekin ahvol yaxshilanmaydi. Oyto'ldi o'limi oldidan haqiqat yo'lini yo'qotganidan pushaymon bo'ladi va o'g'liga nasihat vasiyatlar qiladi. Oxir Kuntug'mishga vasiyat yozib, unga ham nasihatlar qiladi va o'g'li O'gdulmish (Aqlga to'lgan)ga rahnamolik qilishini so'raydi.

Elig xoqon Oyto'ldining motamini o'tkazib, uning o'g'li O'gdulmishni yoniga chaqiradi, unga yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, xizmatiga oladi. Elig o'zi bilganlarini O'gdulmishga aytar, savollar berib uni sinar edi. O'gdulmish jamiyatda insonning o'rni, uning komil bo'lishi uchun zarur omillar, mansab va martabadagi odamlarning axloqiy burchlari haqida mukammal bilimga ega bo'ladi va ular haqida so'zlab turadi. O'gdulmishning bu fazilati eligni maftun qilib, u bilan uzoq munozaralar qilishni yaxshi ko'radi.

Kunlardan birida Kuntug'di O'gdulmish bilan suhbatlasha turib, "Beglar sadoqatli xizmatkorni topsa, boshidan oltin-kumush sochib bo'lsa-da, uni asrab yurishi kerak, chunki sadoqatli xizmatchini topish mushkul. Lekin, afsuslanamanki, mening qoshimda bir sengina shunday xizmatchisan. Senga o'xshash yana bir kishi bo'lsa, mening ko'nglim to'lar, sening mehnating yengillashar edi.

Qarindoshlarning orasida sendek yana biror kishi bormi, surishtirib ko'rgin", deb qoladi. O'gdulmish o'z dono qarindoshi O'zg'urmish (Uyg'ongan) haqida aytadi. Elig uni chaqirishni buyuradi. O'gdulmish o'z so'zining dalili bo'lishi uchun eligdan xat yozib berishini so'raydi. Elig xat yozib beradi. O'gdulmish xat bilan tog'dagi bir g'orni makon tutgan taqvodor, zohid qarindoshi O'zg'urmish huzuriga boradi. O'zg'urmish taklifni qabul qilmaydi. Qarindoshlar orasida qattiq munozara kechadi. Oxir O'zg'urmish eligga to'rtta shart qo'yadi va shularni bajara olsa, uning huzuriga borib xizmat qilishini aytadi: biri, nuqsonsiz tiriklik; ikkinchisi, qariliksiz yigitlik; uchinchi, kasalliksiz sog'lik; to'rtinchisi, kambag'alliksiz boylik.

O'gdulmish O'zg'urmish huzuridan uning javobini olib qaytishga majbur bo'ladi. U kelib Kuntug'diga O'zg'urmishning javobini yetkazadi. Kuntug'di bu javobdan qanoatlanmaydi, Ugdulmishga O'zg'urmish yoniga yana borishni buyuradi. "Erkli eligning hamma yorlig'i yuritilishi kerak", deydi u va yana maktub yozib beradi. Xatda musulmon kishidan boshqa musulmonlarga ko'proq nafyetishi, kishi bundan o'zini olib qochmasligi kerakligi ta'kidlanadi.

O'zg'urmish huzuriga qaytib kelgan O'gdulmish bilan yana munozara qiladi. O'zg'urmishning avvalgi uzri uning saroy rasm-qoidalarini bilmasligi edi. Bunga O'gdulmish batafsil javob va tushuntirish beradi. U javob va tushuntirishlarida jamiyatning barcha tabaqa vakillari bilan bo'ladigan muloqotlar madaniyati, hatto ular orasidagi ziyofat va ovqatlanish tartiblari to'g'risida ham so'zlaydi. Lekin O'zg'urmish O'gdulmishga bu dunyodan yuz o'girib oxiratga moyil bo'lmoq afzalligini, o'zining o'limi yaqinligidan xavotirda ekanini va bu qayg'uda qanday qilib o'zini elig xizmatiga bag'ishlashini aytadi. O'gdulmish bu so'zlarni haqiqat deb uyiga qaytadi va borib Kuntug'diga voqeani bayon qiladi.

Kuntug'di voqeaning mohiyatini tushunadi va O'zg'urmishning aqliy qobiliyati hamda bilimidan bahramand bo'lish uchun uni xizmatga emas, suhbatga chaqiradi. Bunday taklifni O'zg'urmish qabul qiladi. O'zg'urmish Kuntug'di bilan pinhona uchrashishga rozi bo'ladi. O'zg'urmish bir kun tunda O'gdulmishning

uyiga borib turadi. Ular Kuntug'di bilan tunda uzoq suhbat qiladilar va birbirlaridan xursand bo'ladilar. O'zg'urmish nasihatlar va Kuntug'dining savollariga javoblar beradi. Tongda O'gdulmish O'zg'urmishni uyiga qo'yib qaytadi va Kuntug'dining huzuriga kelib, mamlakatning taraqqiyoti, elning farovonligi, adolatli siyosat yuritish borasida suhbatlashadi.

Kunlar o'tadi. Elig O'gdulmishni qadrlaydi, unga ishonadi va barcha muhim ishlarni unga topshiradi. O'gdulmish qariy boshlaydi. Bir kun eligning huzuriga borib, qarindoshi O'zg'urmishni sog'inganini, uning oldiga bormoqchi ekanini aytadi. Elig rozi bo'ladi.

O'gdulmish O'zg'urmishning oldiga borib umrning o'tkinchiligi, tavbaning lozimligi haqida so'zlashadilar. O'gdulmish ham tarki dunyo qilmoqchiligini aytadi. O'zg'urmish to'g'rilikka – to'g'rilik, odamgarchilikka – odamgarchilik lozimligi, Kuntug'dining yaxshiliklariga yaxshilik bilan javob berish joizligini aytib, O'gdulmishni fikridan qaytaradi. O'gdulmish Kuntug'di qoshiga qaytib yana o'z xizmatiga kirishadi. Ular beg uchun lozim kishilar, uning huzurida yaqin bo'lishning qiyinligi kabi masalalarda suhbat qiladilar.

Bir kun O'zg'urmish xasta bo'lib qoladi va O'gdulmishni chaqirtiradi. O'gdulmish borganda uning ahvoli yomon edi. Hol-ahvol so'rashgandan so'ng O'zg'urmish o'zi ko'rgan tushni aytib beradi. Tushida tik qo'yilgan ellik pog'onali narvon bo'lib, O'zg'urmish unga chiqayotgan ekan. Bir necha pog'ona qolganda tepada bir otliq paydo bo'lib suv beribdi. O'zg'urmish suvni ichib, ko'kka havolab uchibdi, yuqorilab, ko'kka singib, ko'rinmay ketibdi. O'gdulmish uni qadr, hurmat e'tiborning ortishi, suv – hayot bo'lgani uchun uni ichgani umr ildizining uzun bo'lishi va istagan narsaga erishish bashorati sifatida ta'bir qiladi. O'zg'urmish uni o'zicha ta'bir qilib, narvon – hayot yo'li, otliq – jon oluvchi, suvni to'la ichish – hayotning tugashi, osmonga ko'tarilib ketish – jonning uchib ketishi ekanini aytadi. O'gdulmishga vasiyat va nasihatlar qiladi. O'gdulmish xayrlashib uyiga qaytadi. Undan Kuntug'di ahvol so'raydi. U Kuntug'diga bo'lgan hamma voqeani

aytib beradi. Kuntug'di qattiq qayg'urib, O'gdulmish unga oxirigacha qarab turmagani uchun bir oz koyiydi.

O'gdulmish Kuntug'didan ruxsat so'rab yana O'zg'urmishnikiga boradi. O'gdulmish O'zg'urmish eshigiga borganda undan murid Qumaru chiqib, O'zg'urmishning vafot etganini aytadi va rakva (suv uchun ishlatiladigan idish) va hassasini olib chiqib, esdalik uchun unga berib ketganini, ulardan birini eligga berishini vasiyat qilganini aytadi. O'gdulmish qattiq xafa bo'lib, yig'laydi. Qumaru unga ta'ziya bildirib, nasihatlar qiladi va uning qabrini ziyorat qilishi lozimligini aytadi. O'gdulmish qarindoshi qabriga borib ziyorat qiladi, yig'lab yo'qlaydi.

Elig bu xabarni eshitgach, O'gdulmishnikiga borib, astoydil ta'ziya bildiradi, nasihatlar qiladi. O'gdulmish unga vasiyat qilingan narsalarni ko'rsatadi. Kuntug'di hassani o'ziga olib, rakvani O'gdulmishga qoldiradi.

O'gdulmish bir necha kun azador yurib, keyin alamlarini o'tkazib yubordi. Erta tongdan kech tungacha ishlar edi. Kuntug'di bir kun uni chaqirib, el ahvoli, davron qanday kechayotgani haqida so'raydi. O'gdulmish ahvol juda yaxshiligini aytib, eligni nasihatlariga yo'g'rilgan duolar qiladi.

Doston nihoyasida muallif o'zining zamona buzilishlari, asarning yozilgan yili kabilar haqidagi satrlarini yozadi. Yigitlikka achinish va qarilik, zamona nobopligi, do'stlar jafosi, muallifning o'ziga pand berishi haqidagi boblar ham kitobga ilova qilingan.

Ko'rinib turganidek, «Qutadg'u bilig»-adabiy asar, badiiy adabiyot namunasi. Asar voqealari mazkur 4 qahramon timsoli orqali tashkil etilgan:

Kuntug'di elig – chin adolat timsoli. Dostonda uning ismi shunday izohlanadi:

*Kunug ko'r erilmas, to'lu-o'q turur,
Yoruqluqi birteg tolu-o'q turur,
Mening mo qilinchim angar o'xshadi,
Ko'nilik bila to'ldi, eksumadi.*

*Ikkinchi, tug‘ar kun yarur bu ajun,
Tuzu xalqqa tegrur, yo‘qalmas o‘zun.
Mening mo to‘rum bu, yo‘qalmas o‘zum,
Qamug‘ xalqqa birteg ne qilqim, so‘zum.
Uchinchi, bu kun tug‘sa yerga isig,
Chechak yazlur anda tuman ming tusig.
Qayu elka tegsa mening bu to‘rum,
Ul el barcha etlur, tosh ersa qurum...*

(Kunga boq, u hech kamaymaydi, hamisha to‘lin turadi, yorug‘ligi birdek yetukdir. Mening qiliqlarim ham unga o‘xshaydi: to‘g‘rilik bilan yetilgan, hech kamaymaydi.

Ikkinchidan, kun tug‘sa, barcha mavjudotga – olamga birdek nur sochadi, o‘zi bilan cheklanib yo‘qolmaydi. Mening odatim va so‘zim ham faqat o‘zimga tegishli emas, barchaga barobardir.

Uchinchidan, kun tug‘sa, yerga issiqlik beradi, unda tuman ming turli gullar ochiladi. Mening tartibim (adolatim) ham qaysi elga (joyga) yetsa, toshmi, qurummi – o‘sha yerda gullash yuz beradi...)

Bir o‘rinda u shunday deydi:

*Kerak o‘g‘lum ersa, yiraq yo yag‘uq,
Kerak barqin ersa kechigli qo‘nuq –
To‘ruda ekigu menga bir sani,
Kesarda azin bo‘lmag‘ay ul meni.*

(Xoh o‘g‘lim, yo yaqin yoki uzoq kishim bo‘lsin, xoh chaqmoq kabi o‘tkinchi mehmon bo‘lsin – adolat qilishda ularning ikkalasi (hammasi) ham menga birdek, hech biriga chora ko‘rishda menda kamlik bo‘lmaydi.)

Shoir Kuntug‘di timsolida adolatni davlat poydorligining asosiy omili sifatida ta’kidlaydi. Adolat tabiat hodisalarining eng mukammali hisoblangan Quyoshga mengzaladi. Shuningdek, jamiyatda uning maqomi shohga tengligi qayd etiladi. Shoir nazdida shoh davlatning ham, xalqning ham ishonchi va asosiy tayanchidir.

Adolatga amal qilish uchun zarur shart, mezonlarni hisobga olish lozim. Asarda ular alohida to'plab tasnif qilinmasa-da, yoyiq tarzda bayon etiladi. Ularni quyidagicha tasnifga keltirish mumkin:

Birinchidan, hukmdorning haqiqiy yetakchi sifatida shakllangani, uning boshqalardan ustun va kuchli g'oya hamda mafkuraga ega bo'lishi.

Ikkinchidan, ajrim qiluvchining oliy fazilatlarini to'la egallagan, tugal ilimli bo'lishi.

Uchinchidan, barchaga birdek to'g'ri va xolis munosabatning ta'minlanishi. Ortiqcha mehr-muruvvat yoki g'araz va adovat adolatli munosabat ko'rsatishga monelik qiladi.

To'rtinchidan, maqom va darajaning ijtimoiy faoliyatda ko'rsatgan xizmatlarga ko'ra taqsimlanishi.

Beshinchidan, umume'tirof etilgan ijtimoiy qoidalarga qat'iy rioya qilish.

Muallif bu xususiyatlarning hammasini elig-shoh Kuntug'di obrazida mujassamlashtirgan.

Oyto'ldi – qut, baxt va davlat timsoli. Uning saroydagi vazifasi aniq ko'rsatilmaydi. Bu uning ramziy ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Eligning davlati bu obrazda har taraflama tavsiflanadi. Elig hukmdor bo'lib maydonga chiqqach, uning davlatga ega bo'lishi Oyto'ldining saroyga kelishi bilan izohlanishi mumkin. Oyto'ldi elig huzurida turli xizmatlar qiladi. Elig va Oyto'ldi orasidagi savol-javoblar, suhbatlar muallifning hukmdor va davlat munosabatlari to'g'risidagi qarashlarini aks ettiradi. Bu munosabatlar asosan moddiylikka asoslanadi.

Oyto'ldining o'limi va o'rniga uning o'g'li tayinlanishi davlatning barqaror rivojida islohotlarga zarurat doimo mavjudligining ifodasidir.

O'gdulmish aql-zakovat timsoli sifatida talqin qilinadi. U inson va uning qadr-qimmati, davlat, jamiyat va uning boshqaruvi, fuqaroning huquq va burchlari, shaxs kamoloti va mamlakat taraqqiyoti, ijtimoiy birlik va himoya, shaxsga taalluqli va ijtimoiy illatlarga barham berish to'g'risidagi fikrlari juda katta ahamiyatga ega. Lekin u Oyto'ldining o'g'li, ya'ni qut-davlat mevasi ekani aql-

zakovat timsoli sifatini kengaytirishni taqozo qiladi. Shuning uchun uni, hozirgi davr tushunchalaridan kelib chiqib, ma'naviyat ramzi sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Elig va O'gdulmish orasidagi munozaralarda faqat moddiy masalalari bilan cheklanilmaydi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy masalalarning hammasi borasida fikr yuritiladi. Asarda O'gdulmish Oyto'ldining ancha yuksalgan ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. U eligning xohishi bilan jamiyatning barcha sinf, tabaqa, toifa va guruhlariga xos xususiyatlarni baholaydi hamda ularning o'zaro munosabatlari tartibini belgilaydi. Shuningdek, hukumat xizmatlari taqsimi, ularga munosib xodimlar tanlanishi va ularning faoliyati kabilarni yo'lga qo'yishda ishtirok etadi:

*Qali tegsa ish bo'l senga belgulg,
Bilig birla ishlat ishig, ey kulug.
Apang tegsa oshbu so'z erki senga,
Aqi bo'l, uzug' tur, ey ersig to'nga.
Tegir ersa xayl yo sengar o'z o'tog',
Ilik yozg'u molin qilinch tutg'u og'.
Vazirliq tegar bo'lsa ilgin uzun,
To'ru urma esiz silig bo'l tuzun...*

(Agar senga ish ixtiyori tegsa, rejali bo'l, ishni bilim bilan bajar, ey shtjoatli.

Agar senga so'z (buyruq) ixtiyori berilsa, saxovatli bo'l, hushyor tur, ey mard bahodir.

Agar senga xayl (el) yo turar joylar tegsa, qo'ling ochiq, badxulq kishanli bo'lsin.

Qo'lni uzun qiluvchi vazirlik tegsa, tuban ish qilma, tuzuk bo'l.)

Dostonda O'gdulmish yashab qoladi. Bu aql-zakovat, ma'naviyat zavol topmasligini ham anglatadi.

O'zg'urmish muallif tomonidan ofiyat deb talqin qilinadi.

*Aning-da basasi bu O'zg'urmish-ul,
Muni ofiyat teb o'zum yo 'rmish-ul.*

(Undan keyingisi – O‘zg‘urmishdir. Buni men ofiyatga yo‘rdim – yo‘ydim.)

Uning nasriy muqaddimada qanoat deb atalishi, garchi mohiyatdan uzoq bo‘lmasa-da, muqaddima muallifining nuqtai nazari. Qanoat kishining nafs tajovuzidan o‘zini o‘zi himoya qila olish quvvatini anglatadi. “Ofiyat” esa lug‘atlarda “salomatlik, komil sihatlik; ozod, xalos, tinch-omon bo‘lish” tarzida izohlanadi. Shoir O‘zg‘urmish obrazi orqali inson va mamlakatning tinch-omonligini ta‘minlovchi omillar haqida fikr bildirishni maqsad qilgan. Bunda endigina shakllanib, mamlakatga kirib kelgan tasavvuf ta‘limotidan foydalanishni ma‘qul topadi. Chunki o‘z davridagi bu yangi ta‘limotni ko‘pchilik ziyolilar mamnuniyat bilan qabul qilmoqda edi. Shunga ko‘ra, Ulug‘ Xos Hojib ham o‘z g‘oyasini ilgari suradi, ham tasavvufga o‘z qarashlari mosligini ko‘rsatishga harakat qiladi.

Binobarin, shoirning fikriga ko‘ra, inson va mamlakatning tinch-omonligi ta‘ma va g‘arazdan xoli munosabatlar bilangina ta‘minlanadi. Lekin qanoatmi, salomatlik yoki tinchlik-omonlikmi, xalqdan, mamlakatdan tashqarida bo‘lar ekan, uning borligidan foyda yo‘q. Shuning uchun ham shoir O‘zg‘urmishning vafot etishini muqarrar qilib qo‘yadi.

Dostonning vazni va badiiy xususiyatlari. Arab poeziyasida aruzning paydo bo‘lishi keyinchalik, ma‘lum tarixiy sabablarga ko‘ra, uning fors va turkiy xalqlar she‘riyatiga ham keng va chuqur kirib kelgani ko‘p bor ta‘kidlansa ham, masalaga bunday yondashish o‘zini to‘la oqlamaydi. Chunki, professor B.To‘xliyev ta‘kidlaganidek, qadimgi O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini (V-VIII asrlar), Maxmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asarida (XI asr) mavjud bo‘lgan maqol va qo‘shiqlarning olimlarimiz tomonidan ko‘rib chiqilishida aruz va barmoqning barcha eng muhim xususiyatlarini birlashtiradigan matnlar mavjudligi aniqlandi. Bu aruzdagi eng muhim xususiyatlar turkiy til zaminida qadimdan ichki imkoniyat sifatida mavjudligini ko‘rsatadi. Turkiy she‘riyat taraqqiyotining dastlabki bosqichida bu ichki imkoniyat reallikka aylana olmay kelgan, ular bir-biridan ajratilmagan, asrlar davomida esa ikki she‘riy tizim yuzaga kelgan. Xuddi shu

o'rinda arab va fors adabiyoti, ularning poeziyasi, bu jarayonga katalizatorlik rolini o'ynagan, ya'ni ikki she'riy tizimning ajralib chiqish jarayonini tezlashtirgan. Bu holni arab va fors she'riyatining turkiy she'riyat shakliga o'tkazgan ta'siri sifatida baholanishiga e'tiroz qilib bo'lmaydi.

Lekin ta'kidlash lozimki, har qanday adabiy ta'sir, u shaklda yoki mazmunda bo'lishidan qat'i nazar, qabul qiluvchi adabiyotda ichki imkoniyat mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Ichki imkoniyat deyilganda moddiy va ma'naviy asoslar tushuniladi. Adabiy tajriba va badiiy tafakkurning aloqa qiluvchilardagi mutanosibligi ana shunday asoslar bo'lib xizmat qiladi.

«Qutadg'u bilig»dek g'oyaviy-badiiy jihatdan buyuk dostonning yaratilishi mazkur asoslarning yetarli ekanini ko'rsatadi. Uni o'rganish asnosida ko'pgina olimlar asar vazni masalasida turlicha fikrlar bildirishgan. Ularning ba'zilari doston barmoq vaznida, ayrimlari aruzda yozilgan deyishadi. boshqalari esa uning aruz vaznida yozilganini e'tirof etsalar ham, muallif «vaznda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgan» deb hisoblaydilar.

Qayum Karimov juda to'g'ri ko'rsatganiday, «Qutadg'u bilig»ning «Devonu lug'ati-t-turk» bilan bir davrda yaratilgani va undagi misralarning «Devonu lug'ati-t-turk»da keltirilgan she'rlarga o'xshash 11 bo'g'inli bo'lishi ayrim tadqiqotchilarning ana shunday yanglish fikrlarga kelishiga sabab bo'lgan. Dostonda shunday parchalar uchraydiki, ular aruzning ham, barmoqning ham talablariga bab-baravar javob bera oladi. Shunday parchalardan ayrimlarini keltiramiz:

Qurimish yig'achlar tunandi yashil,

Bezandi yapun al, sariq, ko'k, qizil...

(Yaprog'ini to'kkan daraxtlar (yana) yashil kiyindi,

Ol, sariq, ko'k, qizil rang bilan bezandi.)

Qayusi Tug'ardin tutar ming tanuq,

Qayusi Batardin tapug'chi anuq.

(Ba'zilar Sharqdan ming-ming hadyalar tutmoqda,
Ba'zilar G'arbdan (kelib) xolis xizmatda turmoqda.)

Isinur et, er tark bag'irsaq, bo'lur,

Bag'irsaq kishilar tapug'saq, bo'lur.

(Unga badanning (ya'ni kishilarning) muhabbati ortadi, so'ng esa kishilar unga sadoqatli bo'ladi. Sadoqatli kishilar esa xizmatga shay bo'ladi.

Keltirilgan misollarning barchasi ham aruz, ham barmoq vazniga hech qiyinchiliksiz tatbiq etilishi mumkin. Ular aruzning fauvlun, fauvlun, fauvlun, fauvl (mutaqorib), barmoqning esa $6+5=11$ vazniga mos kelaveradi.

«Qutadg'u bilig»dan bunday namunalarni ko'plab keltirish mumkin, tatar olimi Xatib Usmonov shunday holatlarning ko'pligiga tayanib «Qutadg'u bilig» ko'p o'lchamli asar degan xulosaga kelgan edi. Asarni o'rgangan ko'pchilik yetakchi olimlar u aruzning mutaqorib bahrida yozilganini ilmiy isbotlab berganlar.

Mutaqorib aruzning keng iste'mol qilinadigan bahrlaridan biridir. An'anaga ko'ra, bu bahrda qahramonlik va jangnoma asarlari bitilgan. Sharqning jahonga mashhur bo'lgan asarlari «Shohnoma» (Firdavsiy), «Iskandarnoma» (Nizomiy), «Oynai Iskandariy» (Dehlaviy), «Xiradnomai Iskandariy» (Jomiy), «Saddi Iskandariy» (Navoiy) ham shu vaznda yozilgan. Bu yerda Nizomiydan Navoiygacha bo'lgan shoirlarning Iskandarga bag'ishlangan dostonlari o'zaro an'anaviylikka asoslangani e'tirof qilgan holda «Qutadg'u bilig»ning Firdavsiy «Shohnoma»siga ergashib yoki uning ta'sirida yozilgani haqidagi ba'zi mulohazalarga mutlaqo qo'shib bo'lmasligini ta'kidlash lozim. Chunki bu ikki asar mavzu, g'oya, maqsad va uslub jihatidan bir-biriga mutlaqo yaqin emas. Vazndagi o'xshashlikning o'zi hech qachon izdoshlikka sabab bo'la olmaydi.

Mutaqorib bahrining solim rukni bir qisqa va undan so'ng kelgan ikki cho'ziq (v – –) hijoning takroridan hosil bo'ladi. Rukndagi ba'zi hijolarning tushib qolishi yoki ruknning takrorlanish miqdoriga ko'ra mutaqoribning bir necha shakli

yuzaga kela oladi. A.Rustamov uning 12 turini ko'rsatgan, Boburda esa uning 39 xiliga misollar keltirilgan.

Asarda mutaqoribning uch ko'rinishidan: solim, mahfuz, maqsur turlaridan foydalanilgan. Lekin ba'zi o'rinlarda musabbag' zihofidan ham foydalanilgani ko'rinadi.

«Qutadg'u bilig» turkiy tildagi poetik janrlarning shakllanishi va evolyutsiyasini kuzatish uchun ham imkon yaratadi. Turkiy tildagi she'riy shakllar, ularning o'zaro munosabati, umuman, turkiy tildagi adabiyotning XI asrdagi holati va uning oldingi davrlar, shuningdek, qo'shni xalqlar adabiyoti bilan aloqasi XI asr adabiy etiketiga munosabati kabi masalalarni «Qutadg'u bilig»da kuzatish mumkin.

«Qutadg'u bilig»ning o'ziga xos murakkabliklaridan biri uning janrini belgilashdagi bahsli fikrlarga ham sabab bo'lgan. Nasriy muqaddimada «Adlqa Kuntug'di elig at berib padshah o'rniga tutmish, davlatqa Aytuldi at berib, vazir o'rniga tutmish, aqlqa O'gdulmish at berib, vazirning o'g'li yerinda tutmish turur, qanaatqa O'zg'urmish at berib qarindashi teb aymish turur. Taqi anlar ara munazara savali-javabi kecharteg so'zlamish turur»,¹⁶ deydi. Bu yerda arab va fors adabiyotida endigina amalga kirgan munozara, savol-javob kabi mustaqil janrlar tilga olingan bo'lsa, she'riy muqaddimada asarning «turkcha qo'shiqlar»dan iborat ekanligiga ishora bor:

Bu turkcha qo'shuqlar tuzattim senga

O'qurda unutm, dua qil menga.

Shuningdek, asar matni orasida bir necha marta «she'r» atamasi qo'llanganini ko'rish mumkin.

Rus sharqshunosi I.V.Stebleva «doston turkiy tildagi klassik adabiyot tarixida birinchi marta turkiy tilli poeziyaning keyingi taraqqiyotida mustaqillik kasb etgan bir qator arab va fors poeziyasi janrlarini mujassamlantirgan»,¹⁷ deydi. Asar janri

¹⁶ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – 48-49-б.

¹⁷ Стеблева И.В. Поэтика «Қутадғу билиг» // СТ. 1970 № 4. – С. 100

haqida «Qutadgʻu bilig»ning yetuk tadqiqotchilaridan biri Q.Karimov «Qutadgʻu bilig» dostoni Sharq adabiyotidagi epik asarlar uchun qabul qilingan masnaviy (qofiyalangan baytlar) shaklida yozilganini taʼkidlaydi.

Asarda masnaviy bilan bir qatorda qasida janrida yozilgan boblar ham mavjud. Dostonning 71, 72 va 78 boblari (ular 44, 40, 37 baytdan iborat) gʻazal shaklida yozilgan. Ularda dastlabki bayt bilan keyingi barcha baytlarning juft misralari gʻazaldagi kabi qofiyalanib keladi.

Dostonning har bir bobi nihoyasida toʻrtliklar keltiriladi. Ularning soni ikki yuz atrofida. Ularni hazaj bahrida yozilmagani uchun tadqiqotchilar ruboiy janrida emas, deb hisoblaydilar. Lekin ularda ruboiyona falsafiy ruh mavjud.

Xullas, asarning janr jihatdan murakkabligi deyarli barcha tadqiqotlarda eʼtirof etilgan. Professor B.Toʻxliyev «Qutadgʻu bilig» tarkibidagi ayrim oʻrinlar uni boshqa janrlarga ham yaqinlashtirishini, unda ishtirok etgan janrlar tizimi sinkretik xarakterda ekanligini qayd etadi.

Olim oʻz kuzatishlarini davom ettirib bu xususda quyidagilarni taʼkidlaydi: XI asr turkiy tilli adabiyotda janrlar differensiatsiyasi endigina boshlanayotgan edi. Bu jarayonning butun koʻlami «Qutadgʻu bilig»da oʻz ifodasini topgan. Bu yerda turkiy tilli xalqlar yozma adabiyotining anʼanalari bilan folklor anʼalarining, bu yoʻnalishdagi adabiyotlarda mavjud janrlarning oʻzaro bir-birlariga taʼsirini ham nazarda tutish kerak. Buning ustiga fors-tojik va arab adabiyotining taʼsiri ham nazarda tutiladigan boʻlsa, turkiy tildagi adabiyotning shu davrdagi janrlari, xususan, «Qutadgʻu bilig»da mavjud janrlarning sinkretik holatini tasavvur etish, bizningcha, bir muncha yengillashadi. Asardagi bu holatni S.G.Klyashtorniy juda toʻgʻri xarakterlab bergan:

«Qutadgʻu bilig»da bir qancha adabiy anʼalar chatishib ketgan. Doston bandlarida goh qadimgi turkiy marsiyalarning hayajonli sadolari yangraydi, goh

forsiy «pandnoma»larga xos didaktika eshitiladi, goh sahro qo‘shiqklarining askadosi quloqqa chalinadi, goh sufiylarning mistik simbolikasi seziladi»¹⁸.

Professor N.Mallayev dostonning badiiy xususiyatlari haqida to‘xtalib, uning xalq og‘zaki ijodi, folklorning ta’sirida yaratilganiga urg‘u beradi: “Doston qahramonlarining nomi ham xalq ijodi an‘analari bilan bog‘langan. O‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiy xalqlarda “kun” va “oy” so‘zlari bilan birga ishlatiladigan nomlar keng tarqalgan va xalq eposidan o‘rin olgan. Bunga, jumladan, o‘zbek xalq dostonlaridan “Oysuluv”dagi Oysuluv va uning o‘g‘li Kunbotir, “Kuntug‘mish” dostonining bosh qahramoni Kuntug‘mish, “Yusuf va Ahmad” dostonidagi Kunxon va Oyxon, “Oygul” ertagidagi Oygul, qahramonlarning nomiga qo‘shib aytiladigan “oy” qo‘shimchasi ("Alpomish" dostonidagi Barchinoy kabi) "oy desang oy, kun desang kun" kabi obrazli iboralar, “Oy bastina Oybarcha qiz, kun ostida Kunakay qiz” kabi misralarni yaratgan qozoq xalq og‘zaki ijodidagi “Oymon-Sho‘lpon” dostoni, “Kunekey qiz” ertagi va boshqa asarlarning “Oy” va “Kun” nomlari bilan atalishi; qirg‘iz xalq qahramoni Manasning “Kundan va Oydan paydo bo‘lishi”, “Manas”dagi Oychurek, Oykanish, To‘lg‘onoy obrazlari, qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodidagi Oysanam (“G‘arib Oshiq”), Oysuluv (“Qirq qiz”) va boshqalar yaqqol misol bo‘la oladi. O‘zbeklarda xotin-qizlarning nomiga "oy" so‘zini qo‘shib aytish hozir ham keng qo‘llaniladi”. S.P.Tolstovning fikriga ko‘ra, “Kun” va “Oy” bilan bog‘liq nomlarning tarixiy ildizi totemlarga borib taqaladi.

Shu bilan birga, Yusuf Xos Hojib xalq ijodida vujudga kelib, keyinchalik “Shohnoma” kabi asarlardan o‘rin olgan Afrosiyob, Faridun va No‘shiravon kabi qahramonlarning nomini ham tilga olib, ularning sifatlarini ta’rif qiladi va o‘z qahramonlarini ulardan o‘rnak olishga undaydi.

¹⁸ Кляшторный С.Г. Эпоха «Кутадгу билиг» // СТ. 1970. № 4. – С. 82.

Yusuf Xos Hojib «Qutadgʻu bilig»da juda koʻp xalq maqollari va hikmatli soʻzlarini ishlatadi va “turkcha masal”, “turklar soʻzi” deb ularning xalq ogʻzaki ijodidan olinganini ochiq-oydin taʼkidlaydi”.

Tadqiqotchilar koʻpincha dostonda mubolagʻa va kinoyaga oʻxshash tasvir vositalarining kamligi, qahramonlarning kurashlari, ichki kechinmalarining jonli manzaralari yoritilmagani haqidagi eʼtirozli fikrlarini bildiradilar. Bunday fikrlar qisman asosli boʻlsa ham, didaktik ruh asarda mubolagʻalar va kinoyalarga keng oʻrin berishdan cheklaydi. Shunga qaramay, dostonning tasviriyl vositalarga ancha boyligini eʼtirof etmaslik ham mumkin emas. Shoir xalq tomonidan yaratilgan yoki arab va fors adabiyotlarida qoʻllangan oʻxshatish va ramzlarni mahorat bilan qoʻllashdan tashqari oʻzi ham ibratli tashbehlar yaratadi. Ulardan birida nodon kishining aqli qumga oʻxshatiladi:

*Biligsiz kishi koʻngli qumtek turur,
Oʻkuz kirsa toʻlmaz ob oʻtim unur.*

(Bilimsiz kishining aqli qumga oʻxshaydi, unga daryo oqib kirsa ham toʻlmaydi.)

Yoki:

*Erinchik qishigʻ surdi yazqi esin,
Yaruq yaz yana qurdi davlat yasin.*

(Bahor shamollari erinchoq qishni haydadi, bahor yana davlat yoyini qurdi.)

Bu baytda sifatlash (erinchik qish, yaruq yaz), jonlantirish va istioralardan (davlat yasi – yoyi) unumli foydalanishdan tashqari, “e” va “y” tovushi bilan boshlanuvchi soʻzlarni koʻproq kiritish orqali alliteratsiya usulini ham muvaffaqiyatli qoʻllaydi.

“Qara bash yagʻisi qizil til boʻlur” (Qora boshning dushmani qizil til boʻladi) misrasida “qora” va “qizil” soʻzlaridan tazod hosil qiladi. Bunda qora soʻzi boshning asl rangini ifodalash bilan uning tinch-omonligini ham anglatadi. Qizil rang esa notinchlik, buzgʻunchilik ifodasi ham boʻlib kelgan.

Dostondan bunday misollarni juda ko‘p keltirish mumkin. Umuman, asar poetik xususiyatlari uning mavzu va janriga mosdir.

Dostonning ahamiyati. “Qutadg‘u bilig”ning adabiyotimiz tarixidagi ahamiyati benihoya kattadir. Ularni, jumladan, quyidagilar bilan izohlash o‘rinli.

Birinchidan, doston XI asrgacha bo‘lgan turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-estetik va adabiy-badiiy sohalardagi yutuqlarini mujassamlashtirgan asar sifatida maydonga keldi.

Ikkinchidan, asar turkiy badiiy tafakkurni o‘z davri jahon badiiy tafakkurining ilg‘or darajasiga olib chiqdi.

Uchinchidan, asar turkiy adabiyotning taraqqiyot yo‘lini belgilab olishga xizmat qildi. Uning bu xususiyati turkiy tilda katta epik asarlar, shuningdek, qasida, g‘azal, masnaviy, munozara, noma, to‘rtlik – ruboiy kabi bir necha janrlarda keng ijod imkoniyati borligini amaliy ko‘rsatib berishida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, doston badiiy didaktik uslubning yuksak namunasi sifatida axloqiy pandlarni obrazli talqin qilish maktabini shakllantirdi. Asar ustida tekshirishlar olib borgan tadqiqotchilarning deyarli barchasi uning didaktik xarakterda ekanini ta’kidlaydilar. «Qutadg‘u bilig», deb yozadi A.A.Valitova, haqiqatda ham yorqin ifodalangan axloqiy asar bo‘lib, hukmdor bo‘lishga tayyorlanayotgan yosh vorisga pand-o‘gitlar tariqasida yozilgan»¹⁹. I.Barolina esa bu asar o‘zida axloqiy o‘gitlar zanjirini mujassamlashtirib, falsafiy, ijtimoiy hamda axloqiy muammolarning katta doirasini qamrab olganini qayd etadi.²⁰ Akademik A.N. Kononov: «Qutadg‘u bilig» didaktik asardir. Bu janrning ildizlari uzoq o‘tmish davrlarga borib taqaladi. Bu janr qadimgi misrliklar va hindlarga ma’lum edi. So‘ngroq esa Uyg‘onish davrida, ya’ni, «Qutadg‘u bilig» yaratilganidan qariyb

¹⁹ Валитова А.А. К вопросу о классовой природе Караханидского государства... С. 129.

²⁰ Баролина И. Поэма «Кутадгу билиг» // Юсуф Хас Хаджиб. Наука бит счастливым. Пер. Н. Гребнева. Ташкент. 1963. С. 102.

besh asr keyin, bu janr yevropaliklarga ham ma'lum bo'ldi va ular xuddi o'sha «Qutadg'u bilig»dagidek didaktik g'oyalarni ifodalashda o'z hayotlarini aks ettiruvchi «ko'zgular» shaklidan foydalanadilar»,²¹ deb ko'rsatadi.

Beshinchidan, asar orqali turkiy adabiy va badiiy til imkoniyatlari ochib berildi.

Oltinchidan, asar jahon turkologiya ilm-fani diqqatini jalb qilish orqali turkiylar umumiy tarixining oydin sahifalarga boyligini namoyon qilishga xizmat qildi.

Yettinchidan, dostonda keltirilgan nomlar va ularga taalluqli ma'lumotlar filologiya, tarix va etnologiya kabi fanlar uchun o'ziga xos ilmiy qimmat kasb etadi. Masalan,

Ko'ru bersa emdi bu turk beglari, *(bu turk beklariga qaralsa,)*

Bu turk beglarinda taqi yeglari, *(ularning yanada yaxshilariga,)*

Bu turk beglarinda oti belgulug, *(ular orasida mashhuri)*

Tug'a Alp Er erdi quti belgulug. *(quti ma'lum Tug'a Alp Er edi)*

Bezug bilgi birla o'kush erdami, *(uning bilimi buyuk, hunari ko'p,)*

Biliglik, uqushlug', buzun ko'zrumi. *(bilimli, zakiy, elda sara edi)*

Tajiklar ayur oni Afrosiyob, *(tojiklar uni Afrosiyob deb ataydilar)*

Bu Afrosiyob tutti ellar talab. *(u ellarni o'z tasarrufida tutdi)*

Ezi ortuq erdam kerak-ul bilig, *(buning uchun ko'p hunar va bilim kerak)*

O'run tutg'uqa o'tru sunsa alig. *(so'ng o'rin tutmoqqa qo'l cho'zsa bo'ladi)*

Tajiklar bitigda bitimish muni, *(tojiklar buni kitobda bitganlar)*

Bitigda yo'q ersa, kim uqg'ay oni. *(kitobda bo'lmasa, uni kim bilar edi)*

Kabi satrlarda keltirilgan Tug'a Alp Er (Alp Er To'nga) nomi tojik xalq kitoblarida bitilgan Afrosiyobning aynan o'zi ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, Tug'ar (Sharq), Bitar (G'arb), O'ng (Sharq) kabi qutbga xos, Oy // Yolchiq,

²¹ Кононов А.Н. Слово о Юсуфе из Баласагуна и его поэме «Кутадгу билиг» - // СТ. 1790. № 4. С. 11-12. Стеблева И. В. Поэтика "Кутадгу билиг" //СТ, 1970, № 4. с. 94-100.

Yoshiq (Quyosh), Azg'ir (Ayg'ir – Sirius), Yildiriq (Sirius), Arslon, Orzu (Utorid), Erandiz // Erantiz (Javzo), Baqir so'quna (Mirrix – Mars), Ko'rud (Mars), Bug'doyboshi (Sunbula), Chazon (Aqrab), Yoy // Yo (Qavs), Ko'nak (Dalv), O'g'laq (Jadiy), O'ngay (Mushtariy – Yupiter), Qaraqush (Mushtariy), Qo'zi (Hamal), Quchiq (Saraton), Sekantir (Zuhal - Saturn), Sevit (Zuhra - Venera) Uz (Savr), Ulgu (Mezon), Urkar (Hulkar) kabi astronomik va boshqa nomlar ijodkorning keng bilim doirasini anglatishdan tashqari milliy o'ziga xoslik, tafakkur tarzini ham namoyon qiladi.

O'n asrdan buyon o'qilib, saqlanib kelinayotgan bu noyob adabiy obidaning o'rganilishi davom etmoqda. Uning yuqorida ta'kidlangan ahamiyati va unda inson ma'naviyati, jamiyatning illatlardan xoli bo'lishi masalalari badiiy, obrazli talqin qilingani asar abadiyatini ta'minlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Qutadg'u bilig»ning yaratilish omillari haqida so'zlab bering.
2. Didaktik adabiyotning o'ziga xosligi va uning «Qutadg'u bilig»da aks etishini misollar bilan izohlang.
3. «Qutadg'u bilig» obrazlarining ramziy-majoziyligi nimalarda ko'rinadi?
4. Oyto'ldining o'limi sabablarini tushuntiring?
5. O'zg'urmish obrazining majoziy xarakterini yoritib bering.
6. Doston vaznining o'rganilishini izohlang.
7. Hojib mansabining izohini maqola shaklida tayyorlang.
8. Dostonda xalq og'zaki ijodi namunalari o'rni xususida ma'ruza matni tayyorlang.
9. Dostonda iqtibos sifatida keltirilgan matnlarni tahlil qiling.

AHMAD YUGNAKIY

Reja

1. Shoir tarjimai holiga doir ma'lumotlar tavsifi.
2. "Hibatu-l-haqoyiq" dostonining manbalari va uning o'rganilishi.
3. Dostonning tarkibiy tuzilishi va mavzu doirasi.
4. Dostonning vazni va badiiy xususiyatlari.
5. Xulosa.

ADABIYOTLAR

1. Бертельс Е.Э. "Хибатул-хакойик" Ахмада Югнаки. Опыт главы для учебника истории узбекской литературы для вузов. Труды САГУ, новая серия, вып. 3. Гуманитарные науки, кн. 1. – Т., 1945.
2. Зайончковский А.К. К изучению средневековых памятников тюркской письменности (XI- XVI вв.). - Вопросы языкознания, 1967, №6.
3. Маллаев Н.М.. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
4. Малов С.Е. Из третьей рукописи "Кутадгу билиг". – М. – Л.: Изд. АН, 1951.
5. Махмудов Қ. "Хибатул-хақойиқ" асари ҳақида. – Т.: Фан, 1972.
6. Югнакий, А. "Хибатул-хақойиқ". – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.

Tayanch tushunchalar: *matnshunoslik tadqiqotlari, adabiy manba, qo'lyozma, yozma yodgorlik, nusxa, arab yozuvi, uyg'ur yozuvi, tavsif, xrestomatiya, antologiya, asarning til xususiyatlari, muqaddima, mundarija, bob, musulmon yodgorligi, metsenat, ilm-ma'rifat, talqin, tashbeh, metafora, badiiy vosita, tazod usuli, so'z o'yini, bo'g'in.*

Shoir tarjimai holiga doir ma'lumotlar tavsifi. Adib Ahmad binni Mahmud Yugnakiy, shoir, mutafakkir, yirik adib, hadisshunos va ta'limiy didaktik adabiyotning namoyandalaridandir.

Adib Ahmad Yugnakiyning shaxsiy hayoti va tug'ilib o'sgan yeri haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Yugnakiy haqidagi ma'lumotlarni XV-asrga oid Alisher Navoiy, Arslon hoja Tarxon va boshqa ba'zi shaxslar qaydlaridan bilamiz. Manbalarda ko'rsatilishicha, shoirning tug'ilgan joyi Yugnak bo'lib, bu nomdagi qishloqlar, Samarqand, Turkiston atrofida, Farg'ona vodiysi va Sirdaryo bo'ylarida ham mavjud bo'lgan. XII-asrda yashagan mashhur muarrix Abulkarim as-Sam'oni "Al-Ansob" ("Nasabnoma") kitobida shunday yozadi: "Bu nisba (taxallus) "Yugnak"dan va bu (joy) Samarqand qishloqlaridan. Bu nisba bilan Abuhomid Ahmad ibn Abu Ahmad al-Yugnakiy mashhurdirlar". Tarixiy manbalardan Ibn Xavqal asarida Yugnak shahrining Samarqand atrofida joylashganligi ta'kidlanadi. Arat Rahmatiy Ibnul YA'qubning "Yugnak" nomi "Ag'naq" shaklida yozilishi haqidagi fikriga tayanib, uning Samarqand atrofida joylashganini ta'kidlaydi.

«Hibatul-haqoyiq»da muallifning ismi, otasining ismi, uning qayerda yashagani, boshqa adiblarga nisbatan tutgan mavqei, jismoniy zaifligi haqidagi ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Lekin bu ma'lumotlar adibning o'zi tomonidan emas, uni ko'chiruvchilar tomonidan doston vazniga moslab qo'shib qo'yilgan.

Dostonning nusxalaridan birida XV asr temuriy hukmdorlardan Arslonxo'ja Tarxon adib haqida uning yeri Yugnak ekanligi, otasining oti Mahmud, o'zi Adib Ahmad, kitobining oti «Hibatul haqoyiq», asarni Koshg'ariy tili bilan yozgani, kim bu tilni bilsa asarni tushunishi va hokazolarni yozadi. Yana bir noma'lum shaxs tomonidan yozilgan qaydda esa, shoirning ko'zi ojiz bo'lgani, kitob 14 bobdan iborat ekanligi qayd etiladi:

Tug'a ko'rmas erdi adibning ko'zi,

Tuzatti bu o'n to'rt bob ichra so'zi.

Alisher Navoiy «Nasoyimul-muhabbat» asarida adib Ahmad haqida shunday yozadi: *“Adib Ahmad ham turk elidan ermish. Aning ishida g‘arib (ajoyib), nimalar manquldur (naql qilingan). Derlarki, ko‘zlari butov (bitgan, yopiq) ermishki, aslo zohir ermas emish. Basir (ko‘rmaydigan) bo‘lib, o‘zga basirlardek andoq emas ermishki, ko‘z bo‘lg‘ay. Ammo bag‘oyat ziyrak va zakiiy va zohid va muttaqiy (taqvodor, parhezgar) kishi ermish. ...Haq subhonahu taolo agarchi zohir ko‘zin yopuq yaratqondur, ammo ko‘ngli ko‘zin bag‘oyat yoruq qilg‘ondur”*.

Shuningdek, Navoiy uning o‘smirlik chog‘larida hanafiya mazhabining asoschisi Imom A‘zam abu Hanifa an-No‘mon ibn Sobitdan (699-767) saboq olganini va bu vaqtda Ansoriy va Muhammad ash Shaybonlar bilan hamsaboq bo‘lganini zikr etadi. Zikr oxirida Yugnakiyning turkiygo‘yiligini ta’kidlab baytlaridan namunalar keltiradi: *“Va aning tili turk alfozi bila mavoizu nasoyihqa go‘yo ermish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmatu nuktalari shoye’dur. Nazm tariqi bila aytur ermish, aning favoydidindur.*

Ulug‘lar ne bersa yemasman dema,

Ilik so‘n, og‘iz ur, yemasang yema!

Va ham aningdurkim:

So‘ngakka ilikdur, eranga bilik,

Biliksiz eran-ul so‘ngaksiz ilik.

“Munshaot” asarida ham Navoiy o‘z fikrlarini Bade‘uzzamon Mirzoga uqtirish uchun Yugnakiy baytlaridan foydalanib yozadi: *“Adib Ahmad rahmatulloh debdurkim, ruboiya:*

Atodin xato kelsa ko‘rma xato,

Savob bil xato toki qilsa xato.

Atoning xatosini bilgil savob,

Seni yuz balodin qutqarg‘ay xudo”.

Navoiy keltirayotgan baytlar “Hibatul-haqoyiq”ning bizgacha yetib kelgan nusxalarida aynan mavjud emas, ularga o‘xshash baytlar bor, xolos.

Ilmiy xulosalarga ko'ra, Yugnakiyning yashagan davri XII asr deb kelinadi. YE.E.Bertels, Fitrat, N.Mallayev, Q.Mahmudov, I.Haqqulov, B.To'xliyev, H.Boltaboyev kabi qator olimlar ana shu fikrni qo'llab-quvvatlaganlar. Prof. M.Imomnazarov Navoiy ma'lumotlariga tayanib, bunday fikrlar bilan bahsga kirishadi va Yugnakiy VIII asrga mansub shoir degan fikrni ilgari suradi. Lekin M.Imomnazarovning tezis ko'rinishidagi bu fikrlari ilmiy jamoatchilik fikrini o'zgartira olmadi. Chunki Navoiy bergan ma'lumotlar boshqa manbalarda ham mavjudligi, asar tilida mazkur asr tili unsurlarining namoyon bo'lishi kabi hodisalar chuqur tadqiq qilinmasdan ilmiy haqiqatni yuzaga chiqarish mumkin emas.

Hibatu-l-haqoyiq” dostonining manbalari va o'rganilishi. Asar ustida olib borilgan tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, "Hibatu-l-haqoyiq"ning bugungacha uchta to'liq qo'lyozmasi va ikkita ayrim parchalari saqlanib qolgan. Ularning eng qadimgisi 1444 yilda Samarqandda Ulug'bekning nufuzli beklaridan bo'lgan Arslonxo'ja Tarxon topshirig'iga ko'ra, kotib Zaynulobidin ibn Sultonbaxt al-Jurjoniy al-Husayniy tomonidan uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Keyingi nusxa uyg'ur va arab yozuvlarida bo'lib, 1480 yilda Turkistonda Istambulga borib qolgan kotib Shayxzoda Abdurrazoq baxshi tomonidan ko'chirilgan. Uchinchi qo'lyozma arab xatida bo'lib, unga turkiya sultoni Boyazid II muhri bosilgan. Bu nusxa ham XV asr oxiri XVI asr boshlarida ko'chirilgan. Umuman, asarning barcha qo'lyozmalari Berlin va Istanbulda saqlanadi.

XV – XVI asrlardan so'ng «Hibatul-haqoyiq»ning mavjudligi haqida ma'lumot uchramaydi. XX asr boshlarida Najib Osim asarning bir qismini e'lon qilib, «Hibatul-haqoyiq»ning mavjudligini jamoatchilikka bildiradi. Najib Osimning bu ishi haqida V. V. Radlovning taqrizi e'lon qilinadi. 1915 – 1916 yillari «Hibatul-haqoyiq» Istanbulda Najib Osim tomonidan ikki marta e'lon qilinib, bulardan bir tekst, tarjima, ayrim izohlar bilan bosilgan bo'lsa, ikkinchisida asarni to'latish maqsadida uning faksimilesi ham e'lon qilinadi.

Shuningdek, T.Kavalskiy va J.Deni Najib Osimning «Hibatu-l-haqoyiq» asari yuzasidan qilgan ishlariga taqrizlar yozganlar.

Dostonning til xususiyati biroz murakkab bo'lganligi sababli ko'plab hattotlar tomonidan soddalashtirilgan holda ko'chirish hollari uchraydi. Shu sababdan asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishga ehtiyoj tug'iladi va asarning qo'lyozma manbalarini jiddiy o'rganish boshlanadi. Asarni birinchi marta turk olimi Najib Osimbek topib (inv. №4757), nashr ettirgan (qisqartirilgan nashri — 1906, to'liq nashrlari 1916, 1925). Keyin 1951 va 1992 yillarda uni R.R.Arat so'zboshi, izohlar va oltita nusxasining faksimilesi va Turkiyada XVI-asrda ko'chirilgan arab yozuvidagi nusxasining tarjimasini bilan nashr ettirgan. U Pekinda 1980 yilda, Olmaotada 1984 yilda nashr etilgan.

Rus olimlaridan S.Malov, E.Bertels, N.Baskakov, I.Steblevalar ham asar ustida tadqiqot ishlarini olib borganlar. O'zbekistonda asardan parchalar Fitrat, Oybek, P.Shamsiyev, S.Mutallibovlar tomonidan o'zbek adabiyoti namunalaridan tuzilgan majmualarda e'lon qilingan. So'ng u Q.Mahmudov tomonidan alohida kitob holida e'lon qilindi (1968; 1971). O'tgan asr oxirlarida uyg'ur olimlari H.Temur va T.Ayyub, qozoq olimlari E.Qurishjonov va B.Sog'indiqovlar uni asl matni, tarjima va fotonusxalari bilan nashr ettirganlar. Shuningdek, Fitrat, Fuod Ko'prulu, T.Takin, E.Rustamov, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Rustamov, M.Imomnazarov, B.To'xliyev, N.Rahmonov, I.Haqqulov, G.Xo'janova va boshqalar ham Yugnakiy va "Hibat ul-haqoyiq" haqida u yoki bu darajada tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Shoir "Hibatu-l-haqoyiq"ni tugatib, uni hukmdor Dodsipohsolorbekka taqdim etadi. Mashhur sharqshunos olim YE.E.Bertels bu asar qadimiy turkiy adabiy tilidan mumtoz o'zbek adabiy tiliga o'tishda bir "ko'prik" bo'lganini aytadi. Asar tilida qadimiy turkiy so'zlardan ko'ra, arab va fors so'zlarining ko'p qo'llangani shundan dalolat beradi. Yugnakiy bu asari bilan o'zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan.

Asar tili ravon, sodda, ifodalar ta'sirchan. Unda turkiy tilning o'ziga xos so'zlari katta o'rin egallaydi. Unda takrorlanishlarni hisobga olmaganda mingga yaqin so'z qo'llanilgan, ularning uchdan bir qismini sof turkiy so'zlar tashkil qiladi. Uchdan bir qism so'zlar esa arab va fors tilidan o'zlashgan. Bu "Qudatg'u bilig" tili bilan qiyoslansa, adabiy tilda arabcha va forscha so'zlar salmog'i ortib borayotganini ko'rish mumkin. Chunki "Qudatg'u bilig"da arabcha va forscha so'zlar salmog'i 4-5 foizdan oshmaydi.

Uning til xususiyatlari bir qadar mukammal bo'lib, bir tomondan XI asrda yaratilgan "Qudatg'u bilig"ka, ikkinchi tomondan XIV asr boshida yozilgan "Qisasi Rabg'uziy"ga o'xshab ketadi. Shunga ko'ra, asarni XII asr oxiri XIII asr boshlarida yaratilgani to'g'risidagi xulosaga kelingan.

Dostonning tarkibiy tuzilishi va mavzu doirasi. Asar ba'zi manbalarda 235 bayt, 254 bayt yoki 484 misra, 512 misra deb ko'rsatiladi. Umuman, dostonning umumiy hajmi 500 misradan ortiq. "Hibatu-l-haqoyiq" ichidagi ilovada uning 14 bobdan iboratligi aytilsa-da, 1480-yil Istanbulda Abdurazzoq Baxshi tomonidan ko'chirilgan nusxasida ko'chirish jarayonida u 3 bobi ixchamlanib, 11 bobga tushirilgan. Dostonning 1-bobi Allohga hamd, 2-bobi Muhammad (sav) na'ti va choryorlar ta'rifiga, 3-bobi Dodsipohsolorbek madhiga bag'ishlangan. 4-bobda kitobning yozilish sabablari bayon qilingan. Dastlabki 4 muqaddima bobdan so'ng asosiy qismga o'tiladi. 5-bob – ma'rifatning foydasi-yu jaholatning zarari, 6-bob – til odobi, 7-bob – dunyoning o'tkinchiligi, 8-bob – saxiylik va baxillik, 9- va 14-boblar turli masalalarga bag'ishlangan bo'lib, 11-bob – kitobning xotimasidir.

Ta'limiy doston hisoblanuvchi bu asarda ijtimoiy, siyosiy masalalar bayon qilingan, bilim foydasi va til odobi kabi axloqiy muammolar talqin etiladi.

Yugnakiy o'zini shoir emas, balki adab muallimi, deb hisoblagan. O'ziga xos axloq kitobi bo'lgan bu asarga Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilgan. Ushbu asarning bosh g'oyaviy maqsadi islom dini g'oyalari asosida inson axloqini takomillashtirish, komil insonni tarbiyalashdir.

Asarda biror aniq voqea, hodisa yoki sarguzasht hikoya qilinmaydi. Unda ma'naviyat, ma'rifat va odob-axloq tushuncha va masalalari qahramon va personajlar ishtirokisiz an'anaviy ma'lum tizim asosida izchillik bilan izohlab, bayon qilib boriladi. Umuman, didaktik xususiyatga ega bo'lgani sababli unda pand-nasihatlar asosiy o'rin egallaydi. Asarning bu xususiyatiga ko'ra uning badiiyyati mezonlarini belgilab olinadi. Ma'rifat va jaholat, saxovat va baxillik, kamtarlik va kibr, halol va harom, to'g'rilik va egrilik kabi tushunchalar o'rtasidagi ziddiyatlar va ularning badiiy yechimi asarning umumiy g'oyasini tashkil etadi.

Baholiq dinor ul biliklik kishi,

Bu johil biliksiz bahosiz bishi.

Mazmuni: Bilimli kishi bahosi baland dinor (boylik)dir, bilimsiz johil esa bahosiz (qiymatga ega bo'lmagan) mevadir.

Ahmad Yugnakiy inson hayotida ilmning ahamiyati yuksakligini qayd etadi. Turli o'xshatishlar orqali ilm va ilimli kishilarni ulug'laydi. Bilimli xotin – er o'rnida, ilmning oti abadiy, u o'lsa ham nomi o'chmaydi, bilimning biri bilimsizning mingiga teng, bilimsiz erkak – xotindekdir, ilmsiz – iliksiz suyak, ilmsiz kishi tirik bo'lsa ham o'lik o'rnida va hokazo:

Biliklik biringa, biliksiz mingin,

Tengakli tengadi bilikning tengin...

So'ngakka yiliktak eranga bilik,

Eran ko'rki-aql, so'ngakning yilik...

Mazmuni: Bilimli bir kishi bilimsiz ming kishiga teng, bilimli kishi bilim qadrini biladi. Kishiga bilim suyakka ilikdekdir, kishiga ko'rk – aql, suyakka ilik...

Adib ta'kidicha, bilimli kerakli so'zni biladi, keraksiz so'zni aytmaydi. Bilimsiz esa nima deganini bilmaydi. Tili boshini yeydi:

Biliklik keraklik so'zin so'zlayur,

Keraksiz so'zini ko'mib kizlayur.

Biliksiz na aysa ayur uqmayin,

Aning o'z tili o'z boshini yeyur...

Adib fikricha, kishi soʻz magʻzini chaqib, oʻqib, uqib soʻzlashi, gapirganda, boshqalar bilan soʻzlashayotganda mutlaqo shoshilmasligi kerak. Agar oʻzini aksincha tutadigan boʻlsa, soʻzdan tiyilgani maʼqul. Chunki pinhon tutilishi kerak boʻlgan soʻz tilidan chiqib ketsa, boshni yashirib yurishiga majbur qiladi:

*Oʻqub soʻzla soʻzni, eva soʻzlama,
Soʻzung kizla, kezin bashing kizlama.*

Mazmuni:

Soʻzni uqub soʻzla, shoshib (behuda) gapirma,
Soʻzingni yashir, keyin boshingni yashirib yurma.

Ahmad Yugnakiy saxovatni ulugʻlaydi, baxillikni qoralaydi. Saxovat-karamsiz kishi mevasiz daraxt kabidir, mevasiz daraxt kesib yoqilishga mahku:

*Yimishsiz yigʻochtak karamsiz kishi,
Yimishsiz yigʻochni kesib oʻrtatil.*

Kamtarlik, sabr-qanoat inson bezagi. Ulugʻlikka yetishgan yanglishmasligi, agar atlas kiysa, boʻz kiyganingni unutmasligi lozim:

*Ulugʻlikka tegsang, yangilma oʻzung,
Qali kiysang atlas, unutm boʻzung.*

Toʻgʻrilik, adolat egrilikka qarshi qoʻyiladi. Toʻgʻrilik va adolat ijtimoiy vaziyatning oʻnglanishiga xizmat qilishi quyidagi misralarda ifodalanadi:

*Koʻni boʻl, koʻnilik qil, otin koʻni,
Koʻni teyu bilsun xaloyiq seni.
Koʻnilik toʻnin kiy, qoʻyub egrilik,
Ketim toʻn toʻlusi koʻnilik toʻni...*

Mazmuni: Adolatli boʻl, toʻgʻrilik qil, toʻgʻri nomini ol, xaloyiq seni toʻgʻri deb bilsin. Egrilik toʻnini tashlab toʻgʻrilik toʻnini kiy, chunki toʻnlarning afzali haqiqat toʻnidir.

Kamtarlik va kibrning jamiyatdagi oʻrni quyidagi misralarda zikr qilingan:

*Takabbur qamugʻ tilda yirlur qiligʻ,
Qiliqlarda edgu qiliq qoʻy qiliq.*

Takabburlik barchada nafrat qo‘zg‘ab, badnom qiladi, kamtarlik, muloyimlik ezgu amaldir.

*Ul erkim ulug‘sindi men-men dedi,
Ani ne xaloyiq sevar, ne xoliq.*

Kimda-kim manman deb, o‘zini baland tutsa, uni na xalq, na xoliq (tangri) sevadi.

Shoir ezgu amallarga chaqiruvchi so‘zlarining ta’sirini yanada oshirish uchun diniy tushunchalar kuchidan foydalanadi:

*Tavozu’ qiliqni ko‘torur Izi,
Takabbur tutar erni kemshur quzi.*

Mazmuni: Tavozeli kishini Izi (xudo) yuqori ko‘taradi, kibrli kishini quyi tashlaydi.

Dostonning vazni va badiiy xususiyatlari. Ahmad Yugnakiy “Hibatul-haqoyiq”ni yozishda xalq qo‘shiqlaridagi yutuqlardan foydalangan. Shuningdek, asar qadim xalq qo‘shiqlarida qo‘llangan vazn shakllari bilan birlashib ketgan turkiy aruzning mutoqorib bahrida yozilgan. Dostondagi hamma she’rlar mutoqoribi musammani maqsur (*fauvlun, fauvlun, fauvlun, faul*) yoki mutaforibi musammani mahzuf (*fauvlun, fauvlun, fauvlun, fauwl*) formasiga mos keladi. Ahmad Yugnakiy, asosan, bu bahrning hijo tuzilishi qoidasiga rioya qilsa ham, biroq vaznning ravonligini ta’minlash maqsadida ba’zan hijolarning cho‘ziqligi va qisqaligi qoidasi doirasidan chetga chiqib, hijoning grafik jihatdan tarkibiy tuzilishiga emas, balki o‘qilishi va talaffuziga ko‘proq e’tibor beradi. Shunga ko‘ra, u unli tovush bilan tugallangan hijolarni ba’zan aruz qoidasiga zid ravishda cho‘ziq hijolar o‘rnida qo‘llaydi va bu bilan “imola” usulini qo‘llaydi.

“Hibatul-haqoyiq”ning muqaddima boblari g‘azal yo‘lida qofiyalangan bo‘lib, boblar xalq qo‘shiqlariga xos “a-a-b-a” to‘rtlik tarzida qofiyalangan. Biroq ayrim o‘rinlarda to‘rtlik qofiyasi buziladi. Lekin bunday holatlarni asar yozilgan davrdagi adabiy talablar va o‘tgan uzoq davr mobaynida asar matnini ko‘chirishlar jarayonlar bilan bog‘lab izohlash mumkin.

“Hibatu-l-haqoyiq” ilm-ma’rifat, axloq-odob va boshqa masalalar yuzasidan mulohaza yuritib, kishilarga o’git berish maqsadi bilan yaratilgan ekan, bunday maqsad turli obyekt, xislat va tushunchalarni ma’lum konflikt fonida yoritish va yakunlash, mulohazalardan kelib chiqadigan fikrning ta’sirini kuchaytirish va asarning badiiy qimmatini oshirishni ham taqozo qiladi. Lekin didaktik doston janriga xos bo’lgan xususiyatlar asarning badiiy xususiyatlari doirasini birmuncha cheklaydi. Shunga qaramay, shoir o’z asarida g’oyaviy niyatning ravshanligi, ta’sirchanligiga erishish uchun xalq maqol va iboralari, shuningdek, tasvir vositalaridan ijodiy, unumli foydalangan.

Asarda insonlarga xos xislatlarni tabiat hodisalariga nisbatan qo’llash bilan metafora vujudga keltirishdan ko’lamli suratda foydalanilgan. “Bulut o’ptanur”, “ochun gul cherar”, “niqob ko’turur ochun” kabi misralarni uchratish mumkin:

*Aning baxshishindin bulut o’ptanur,
Bu so’zni butun chin tutur tushmani.
Ochun gul cherar, yo’z alin qosh chetar,
Bir elkin tutub shahd, biri zahr qatar.
Niqob ko’turur ochun biror yuz ochar,
Yozar qo’l quchartek yana tark qochar,*

Mazmuni:

Uning marhamatidan bulut uyaladi,
Dushmani bu so’zga chindan ishonadi.
Olam kulib boqdi, yana qovog’ini soladi,
Bir qo’li bilan asal bersa,
Ikkinchi qo’li zahar qo’shib beradi.
Dunyo niqobini ko’taradi, ba’zan yuzini ochadi;
Quchmoqchi bo’lgandek qo’l ochadi, yana yo’q bo’ladi.

Professor N.Mallayev asarda badiiy vosita sifatida qo’llangan tazod usulini ta’kidlab, asarda shu siraga kiruvchi so’zlar qatorini keltiradi: yolg’on – ko’ni; yig – shifo; ko’nilik – egrilik; boylik – chig’oylik; obodlik – xaroblik; suchik –

achchiq; rohat – ranj; baxillik – ahillik; tavoze – kibrlik; esiz – adgu; balo – farah;
atlas – bo‘z; ming – bir; o‘ng – so‘ng; xayr – kuzof; halol – harom; maza – aza;
asal – ari; ranj – ganj kabi so‘zlar mavjud.

YE, yolg‘on so‘z yigtek, ko‘ni so‘z shifo.

Ko‘nilik to‘nin kiy qo‘yib egrilik.

Qamug‘ obodonning xarob ul so‘ngi.

Suchuk tatting ersa achchiqqa anun,

Birin kelsa rohat kelur ranj o‘nun.

Kutub tur farahqa balo-ranj yutup.

Qali keysang atlas unutma bo‘zung

Ming er do‘stda biri bulunmas ko‘ni.

Asal qayda bo‘lsa bila arisi.

Mazmuni:

Ey, yolg‘on so‘z kasallik kabi, haq so‘z shifodir.

Egrilik libosini tashlab, haqiqat to‘nini kiy.

Barcha obodonning so‘ngi xarobalikdir.

Agar shirinlik yegan bo‘lsang achchiqqa hozir tur,

Bir marta rohat kelsa, o‘n qayta ranj keladi.

Balo-ranjni yutib xursandchilik keladi deb kutib tur.

Agar atlas kiysang, bo‘z kiyganingni unutma.

Mingta do‘stingdan biri chin emas.

Asal qayerda bo‘lmasin arisi birgadir.

Asarning badiiy xususiyatini oshirish uchun ayrim o‘rinlarda ula (quloq sol) –
ula (bog‘lan), ertagil (izlagin) – er tegil (er degin) kabi so‘z o‘yinlari qo‘llangan.

Biliktin ayurmen, so‘zumga ula,

Biliklikka, yo do‘st, o‘zungni ula.

Butun qilg‘i fe‘lin o‘ta ertagil,

Karam kimda bo‘lsa, ani er tegil.

Mazmuni:

Ilm to‘g‘risida so‘zlayman, so‘zimga quloq sol,
Ey do‘st, ilimli kishiga o‘zingni bog‘la.
Fe‘li-qilig‘i yaxshi (kishini) izlagin,
Kimda karam-shafqat bo‘lsa uni er kishi degin.

Bu badiiy til vositalaridan tashqari asarda takrir yoki alliteratsiya usulini ham uchratish mumkin. Asarda uchraydigan til vositalari dostonning badiiy xususiyatlarini boyitishga xizmat qilgan.

“Hibatul-haqoyiq”da ko‘proq uchraydigan badiiy til vositalaridan biri o‘xshatishdir. Ahmad Yugnakiy ba‘zan traditsion o‘xshatishlarni takror-takror ishlatga ham, ba‘zan yangi va original o‘xshatishlarni topadi. Dostonning muqaddimasida avtor Dod-sipahsolorni dengizga va o‘zini yomg‘ir tomchisiga o‘xshatadi. Biroq bu tomchi shunday tomchiki, u dengizga tushib, sadafdan qimmatli dur yasaydi.

N.Mallayev “Hibatul-haqoyiq” qadimgi turkiy adabiy tilining qimmatli yodgorligi ekanini ta’kidlab: “Hibatul-haqoyiq”da “Qutadg‘u bilig”dagidek qadim (kiyim), kelinki (keyingi), adoq (oyoq), qo‘d (qo‘y-“qo‘ymoq” fe‘lidan) kabi so‘zlardagi “d” arxaik elementi, adiz (baland), ochun – ajun (dunyo), akshi (karvon), chig‘ay (qashshoq, gado) kabi arxaik so‘zlar sezilarli darajada uchrasa ham, lekin bu dostonning tili “Qutadg‘u bilig”ning tiliga nisbatan keyingi adabiy yodgorliklarning tiliga xiyla yaqinroqdir. Bu hol eski turkiy adabiy tilining turli manbalar hisobiga va ma’lum darajada fors-tojik va arabcha so‘zlarni o‘zlashtirish yo‘li bilan taraqqiy etib borganini ko‘rsatadi”, deydi.

Asarda xalq maqollariga berilgan e’tibor shunday ifodalanadi:

*Bazadim kitobi mavoiz, masal,
Boqig‘li, o‘qug‘li osig‘olsu tep.*

Mazmuni: O‘qigan va eshitganlar foydalansin deb, kitobimni nasihat va maqollar bilan bezadim.

Yugnakiy xalq maqollarini aynan yoki ularning mazmunini saqlagan holda o‘z she’riy misralariga moslab keltiradi. Masalan:

O'chukturma erni tilin, bil, bu til
Bashaq tursa butmas, butar o'q boshi.

Mazmuni: Tiling bilan o'ch hissini qo'zg'ama, bil: o'q yarasi bitib ketadi-yu, til yarasi bitmaydi.

Orimas necha yusa qon birla qon.

Mazmuni: Qonni qon bilan yuvib tozalab bo'lmaydi.

Bunday misralar xalqning "Til yarasi tuzalmas", "Qonni qon bilan yuvib bo'lmas" kabi maqollarning mazmuni asosida yaratilgandir.

Xullas, Ahmad Yugnakiy "Hibatul-haqoyiq" dostoni bilan qadim turkiy adabiy tili hamda adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Garchi "Hibatul-haqoyiq"ning nusxalari u qadar keng tarqalmagan bo'lsa ham, u Navoiy va boshqa bir necha buyuk so'z san'atkorlarining nazar-e'tiborini tortdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ahmad Yugnakiy biografiyasiga doir ma'lumotlardagi qarama-qarshiliklarni qanday izohlaysiz?
2. "Hibatul-haqoyiq"ning manbalari, ularning saqlanishi va o'rganilishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Doston kompozitsion tuzilishini izohlang.
4. "Hibatul-haqoyiq"ning til xususiyatlari haqida so'zlab bering.
5. Dostonning didaktik xarakteri va mavzu doirasi nimalardan iborat?
6. Ahmad Yugnakiyning badiiy vositalardan foydalanish mahorati darajasini belgilang.

AHMAD YASSAVIY

Reja

1. Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyatining o'rganilishi.
2. Yassaviyning tasavvufiy suluki.
3. "Devoni hikmat"ning manbalari, janriy va tarkibiy tuzilishi, g'oyaviy mavzu doirasi
4. Devonning vazni va badiiy xususiyatlari.
5. Yassaviy faoliyatining ahamiyati.

АДАБИЁТЛАР

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана// Бартольд В.В. Сочинения. М.: Изд-во восточной литературы, 1963. - Т.2. - 4.1. - С.169-433; Сочинения. М.: Наука, 1964. -Т.2. - 4.2. - С.532.
2. Бертельс Е.Э. Избранные труды: Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, 1965. - С.13-54.
3. Гордлевский В.А. Ходжа Ахмад Ясеви // Гордлевский В.А. Избранные сочинения. М.: Изд-во восточной литературы, 1962. -Т.3. - С.361-368.
4. Комилов Н. Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар. Т., 1994.
5. Köprülü, Mehmed Fuad. Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar: 7-baski. – Ankara: Diyanet içleri Başkanlığı yayınları, 1991.
6. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.
7. Навоий, Алишер.
8. Пылев, Алексей Игоревич. "Ходжа Ахмад Иасаи – первый тюркский суфийский поэт Средней Азии: Жизнь и творчество". – Дисс. на соиск... кан. филологических наук. – СПб, 2001.

9. Рустамов Э. Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века. М.: Изд-во восточной литературы, 1963.
10. Стеблева И. В. Поэтика древнетюркской литературы и её трансформация в раннеклассический период. М.: Наука, 1976.
11. Усмон, О. Аҳмад Яссавий// Буюк сиймолар, алломалар. 1-китоб. – Тошкент: 1995.
12. Фитрат, А. Яссавий ким эди? – Тошкент: “Санъат” журнали. 1991. - № 8. - Б.20-24.
13. Яссавий, А. Ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
14. Яссавий, А. Девони ҳикмат. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.
15. Яссавий, Хожа Аҳмад. Девони Ҳикмат. – Тошкент: Мовароуннахр, 2004.
16. Ҳаққул, И. Тасаввуф ва шеърят. Т.,1991.
17. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Шарқ, 2004.

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf, shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat, maqom, so’fiy, darvesh, tarki dunyo, faqr, fano, devon, hikmat, adabiy tur va janrlar, munozara, munojot, hasbi hol, adabiy manba, yozma yodgorlik, matnshunoslik tadqiqotlari, nusxa, band, bayt, misra, vazn, aruz, barmoq.*

Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyatining o‘rganilishi. Ulug‘ mutasavvuf va shoir Yassaviy haqidagi dastlabki ma’lumot va munosabatlarni o‘z davrining yetuk olimlari sanalgan So‘fiy Muhammad Donishmand (XII asr), Muhiyuddin al-Arabiy (vafoti 638/1240)lar yozib qoldirganlar. Keyinchalik Xoja Muhammad Porso, Alisher Navoiy, Faxruddin Ali Safiy, Hasan Xoja Nisoriy, Sulton Ahmad Xaziniy, Muhammad Tohir Xorazmiy, Xisomuddin Sig‘noqiylar ham shoir hayoti va faoliyati haqida o‘z qarashlarini zikr etganlar.

Bundan tashqari, “Faqrnoma”, “Javhorul abror”, “Mir’otu-l-qulub” kabi asarlar ham borki, Ahmad Yassaviy shaxsiyati va ta’limoti mohiyatini yoritishga bag’ishlab yozilgan.

O‘z hayoti va faoliyatini din va tasavvuf ishiga mutlaq bag’ishlagan Ahmad Yassaviy haqidagi zamonaviy ilmiy nuqtai nazarlar XX asrda qaror topdi. Bunda Rossiya va Turkiya olimlari orasida bir-birini mutlaqo rad etuvchi fikrlar mavjud. Turkiyalik olimlar Yassaviyni ulug‘ mutafakkir, karomatlari zohir avliyo, piri murshid, tasavvufda yangi ta’limot asoschisi, shayxulmashoyix, din va e’tiqod yo‘lida fidoyi shaxs, shuningdek o‘z davrining yetuk shoiri sifatida talqin qiladilar. Unga tegishli ilmiy va ijodiy asarlar to‘planib Turkiyaning eng nufuzli qomuslariga kiritilgan, alohida holda bir necha bor nashr qilingan. Bu ishlar boshida ko‘proq M.F.Kuprulizoda, Zakiy Valid va K.Eraslon kabi olimlar turdilar.

Chorizm va sho‘ro davri Rossiyasi hamda unga tobe mamlakatlar olimlari Ahmad Yassaviyga nisbatan tahqir nazari bilan qarab, uning shaxsini ham, tasavvufiy faoliyatini ham, ijodini ham materialistik dunyoqarash mezonida o‘rganib, shunchaki mistik faoliyat natijasi sifatida qarashni joriy qildilar. K.G.Zaleman, K.Kazanskiy, V.V.Bartold, YE.E.Bertels, A.YE.Krimskiy, N.Mallitskiy, V.A.Gordlevskiy, N.S.Likoshin, Mirzo Fatali Oxundov, A.N.Samoylovich va A.I.Pilevlarning ishlarida bir qator tarixiy taraqqiyot omillarining chuqur yoritilishi bilan birga shoir ijodini xuddi shunday talqin qilinishini ko‘rish mumkin.

O‘zbek adabiyotshunosligida bunday yondashuv A.Fitratning “Yassaviy kim edi?” nomli maqolasi bilan boshlangan edi. I.Mo‘minov, V.Zohidov, N.Mallayev, E.Rustamov, S.Erkinov kabi olimlarimiz ham davr mafkurasining ta’sirida Yassaviyga nisbatan “o‘ta reaksiyali”lik tamg‘asini tasdiqlashga majbur bo‘ldilar. Maqsud Shayxzoda dastlab Yassaviy ijodini “xavfli maydon”dan olib chiqish omillarini izlab topish va xalqqa qaytarish g‘oyasini ilgari surgan edi. Bunda u birgina vaznning tadqiqi ham muhim rol o‘ynashiga e’tiborni tortdi.

1990 yilda atoqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul tomonidan “Devoni hikmat” “Hikmatlar” nomi bilan ilk bor nashrga tayyorlanib “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” seriyasida G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida chop ettirildi. U 1983 yilda Turkiyaning Anqara shahrida bosilgan “Devoni hikmatdan sochmalar” kitobi asosida nashrga tayyorlangan edi. Kitobga olim tomonidan “Ahmad Yassaviy” sarlavhasi ostida yozilgan kattagina so‘zboshi bu merosga nisbatan ilmiy qarashlarning to‘g‘ri yo‘lga solinishida o‘ziga xos asos bo‘ldi. Tez orada, 1992 yilda “Devoni hikmatning XX asr boshida Qozonda toshbosma usulida chop etilgan nusxasi asosida tayyorlangan ikkinchi nashri paydo bo‘ldi. Unga Yassaviyga nisbat berilgan “Faqrnoma” risolasi ham kiritildi.

Shoir hayoti va ijodiy merosini o‘rganishda adabiyotshunoslar Ibrohim Haqqulning “Ahmad Yassaviy” (2001), Saparboy Qo‘chqorovning “So‘fiy she‘riyati” (2005), Hamidjon Islomiyning “Sulton ul-orifin Xoja Ahmad Yassaviy” (2005) kabi asarlari e‘tiborga molik. N.Komilov va O.Usmonov kabi olimlarning bu boradagi faoliyatlarini ham alohida e‘tirof etish lozim. Lekin, “Devoni hikmat” kitobiga uning mas‘ul muharriri Mahmud Hasaniy tomonidan yozilgan Muqaddimada ta‘kidlanganidek, shoir ijodini mazkur nashrlar hamda Toshkent va boshqa shaharlardagi qo‘lyozmalar xazinalarida saqlanayotgan o‘nlab qo‘lyozma va toshbosma nusxalari asosida mukammal nashrini tayyorlash, ular ustida tekstologik tadqiqotlar o‘tkazish vazifalari uzil-kesil hal etilmagan.

Manbalarda zikr etilishicha, Ahmad Yassaviy XII asrda yashagan. Uning hayoti haqida ma‘lumotlar juda kam. Shoirning «Hikmatlar»i va ba‘zi tarixiy-adabiy manbalardagi izoh va ma‘lumotlargina mavjud. Ularga ko‘ra, Yassaviyning tug‘ilgan yili aniqlanmagan. Lekin ba‘zi olimlar uni 1103 yilda tug‘ilib, hijriy 562 (1166/1967) yil vafot etgan, degan ma‘lumotni beradilar. Ammo ba‘zi rivoyatlarda uning 125 (goh 133) yil yashagani ta‘kidlanadi. Jumladan, Turkiyada nashr etilgan mo‘tabar «Islom qomusi»da Ahmad Yassaviy Buxorodan 1160-yili ketgani haqida fikr bildiriladi. Bunga Ali Safiyning «Rashahotu aynul hayot» kitobidagi quyidagi parcha mazmuni ham yaqin: «Bu xonadon mashoyixlari qaddasollohu

arvohahumning mutaaxxirlaridan ba'zisining risolasida mazkurdirkim, Xoja Abdulloh Baraqiy va Xoja Hasanning (bu zotlar Hamadoniyning avvalgi ikki xalifasi) vafotlaridan so'ng vaqtekim, navbati xilofat Xoja Ahmad Yassaviyga yetushdi, Buxoroda xalqni da'vat etmoqqa mashg'ul bo'ldilar. Necha vaqtlardin so'ng alarga ishorati g'aybiy bo'lib, Turkiston tarafga azimat etdilar». Agar Xoja Hasan Ondoqiyning vafotlari "ramazon oyining yigirma oltisida, sana besh yuz ellik ikkida" (milodiy taxminan 1157 – 58-yillar) ro'y berganini va Yassaviy yana bir-ikki yil Buxoroda qolganini inobatga olsak, qomusda keltirilgan sana to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz.

Adib Turkistonning Yassi shahri yaqinida, Sayram qasabasida ruhoniylar oilada tavallud topgan. Otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo'lgan. Onasi Muso Shayxning qizi Oysha xotun (Qorasoch oyim deb ham yuritiladi) nomi bilan mashhur edi. U irodali, dono va go'zal ayol edi. U Ahmad tug'ilishidan ko'p o'tmay vafot etadi. Yassaviy Otasi Ibrohim ibn Mahmud ibn Iftixor shajarasi payg'ambar Muhammad alayhissalomning qizlari Fotima avlodidan, o'n birinchi bo'g'inda avliyo shayx Is'hoq boboga tutashgandir. Shayx Ibrohim va Oysha xotunning hurmat-u nufuzi baland bo'lgan. Shunga qaramay, Ahmadning yoshligi og'ir kechadi. Otasi ham uning yetti yoshligida vafot etadi. Uning tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg'ul bo'ladi. Ahmad opasi bilan Yassiga ko'chib boradi va ilk tahsilni Yassi shahrining mashhur shayxi va mutasavviflaridan bo'lgan Arslonbobodan ola boshlaydi. Bu haqda "Hikmatlar"ning bir necha o'rnida ta'kidlanadi. Shayx vafotidan so'ng u Arslonbobning vasiyatiga ko'ra Buxoroga boradi va Movarounnahrning eng yirik shayxlaridan bo'lgan Shayx Yusuf Hamadoniylar qo'lida tarbiya topadi. Bu yerda u Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar, Abdulloh Barraqiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslak bo'lib, Yusuf Hamadoniyning sara muridlari qatorida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat»ida u shunday zikr etiladi: "Turkiston mulking shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoliy (yuksak bashoratli) va nomahsur (qusursiz) ermish. Muridu

as'hobi g'oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz erish. Imom Yusuf Hamadoni q. s.ning as'hobidindur. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni q. s. suhbat tutubdur va Xoja Abdulloh Barraqi va Xoja Hasan Andoqi q. r. bilaki, ham Imom Yusuf Hamadoni r. t. muridlaridurlar, Imom qaysi biyik marotibg'a yetibdurlar, musohib bo'lubdur va ro'zgor mashoyixidin ko'p buzurgvorlar aning tarbiyatini topibdurlar va Shayx Raziuddin Ali Lolo q. s. Shayxi buzurgvor Shayx Najmuddin Kubro r. xizmatig'a yetardin burun Xoja Ahmad Yassavi q. r. xizmatida bo'lub erdi va aning xonaqohida aning irshodi bilan suluk qilibdur va aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdagi, aning mavlid va manshaidur, voqe' bo'lubdur va Turkiston ahlining qiblai duosidur".

Navoiy ma'lumotida ko'rinib turganidek, Ahmad Yassaviy hayoti davomida juda katta e'tibor va nufuzga ega bo'lgan. Tasavvufning turkiy xalqlar orasida ham keng tarqala boshlagani, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zaro hukmronlik talashlari natijasida inqirozlarning keskin o'sib borishi bu xalq mentaliteti va ijtimoiy vaziyatiga mos mafkuraga – yangi tasavvufiy sulukka ehtiyojni keltirib chiqargani bunday shaxslar nufuzini yanada oshirar edi. Yassaviy ham bu mas'uliyatni – nochor xalq diliga taskin beruvchi g'oyalarni ishlab chiqishni o'z zimmasiga oldi. Buni muvaffaqiyat bilan amalga oshirgan mutafakkir xalq tafakkurida yuksak ehtiromga loyiq muqaddas xotira ham yarata oldi.

Uning shuhrati adib vafotidan keyin ham pasaymadi. Hatto, buyuk Sohibqiron Amir Temur ham unga alohida e'tiqod bilan qaragani ma'lum. U 1395-1397 yillarda Turkistonda Ahmad Yassaviyning eski qabri o'rnida yangidan muhtasham maqbara qurdirtdi. Bu maqbara hozir ham mavjud.

Yassaviyning tasavvufiy suluki. Ahmad Yassaviy tasavvufiy tariqatlarning malomatiyya (o'z fazilatlarini pinhon tutib, ayblarini yashirmasdan malomatda yashash) sulukiga mansubdir. Bu mazhab IX asrda Eronning Nishopur shahrida yuzaga kelgan bo'lib, tasavvufning umumiy ta'limoti negizida shakllandi. Tariqat vakillari o'z-o'zini komillashtirishning eng muhim sharti ko'ngil pokligi va nafs

tarbiyasi deb bildilar. Buning uchun o‘z-o‘ziga tahlil, tanqid va nazorat qilish lozim sanaladi. Bu bilan so‘fiy o‘z qusur va nuqsonlarini malomat tilida fosh etadi.

Oshiqlarg‘a dunyoda xorliq, zorliq, malomat,

Malomatsiz, mehnatsiz oshiqman deb aytmasun...

Shuningdek, u o‘zini o‘zgalarning riyokorligidan, hasad, fitna kabi qabihliklaridan asraydi. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul bu suluk vakillari haqida to‘xtalar ekan: “O‘zgalarning yolg‘onu riyokorliklaridan so‘z ochish oson, biroq o‘zingdagi qalloblik va riyoning pardalarini yirtish matonatli ishdir. Malomatiyyachilar mana shunday matonat uchun kurashganlar”, deydi.

Lekin Yassaviyning qarashlarida bu tariqatning boshqa vakillardan farqli jihatlar ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, u umrining ma‘lum bosqichida tarkidunyochilikni ixtiyor etgani buning yaqqol dalilidir. Bu uzlatning sababini yassaviyshunoslar quyidagicha izohlaydilar:

Birinchidan, Yassaviy jamiyatdan emas, undagi zolim, takabbur, qabih va badnafs kishilardan o‘zini chetga oldi.

Ikkinchidan, Haq yo‘liga kirgan so‘fiy o‘z nafsini tarbiyalashi uchun nafsoniy istak-xohishlarini o‘ldirishi kerak edi. Istak-xohish asli nafsoniyatga doir, uni o‘ldirish nihoyatda mushkuldir. U, albatta, badal talab qiladi. Bu badal boshqacha yashash xohishidir. Binobarin, xohish mavjud sharoitda tug‘iladi va o‘ladi. Lekin bu boshqa sharoit mavjudligini, unda hayot davom etishi mumkinligini rad qilmaydi. Yassaviy o‘zini nazariy jihatdan emas, amalda ham mavjud voqelikdan ajratadi.

Uchinchidan, Yassaviyda nafs tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Bunda so‘fiy ko‘ngil xilvatiga muhtojdir. Ko‘ngil taassurotlardan xoli bo‘lmas ekan, xilvat tuya olmaydi.

Shoir “Hikmatlar”i mohiyatini jamiyatdan uzilishni targ‘ib qilish emas, balki insoniyatning komillikka erishuvi uchun kurash tashkil etadi. Chunki tasavvufning mohiyati ham Haqqa intilish, yaqinlashish bo‘lib, buning uchun, Navoiy ta‘biri bilan aytganda, “ko‘ngilning xilvatin matlub g‘ayridin orit”moq kerak bo‘lgan.

Ta'kidlash lozimki, Yassaviy qarashlari o'z davrida eng faol, ilg'or va ommaviy ta'limot sifatida maydonga chiqdi. Yassaviyga ergashuvchilar soni unga zamondosh bo'lgan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Abdulloh Barraqi, Xoja Hasan Andoqi, Shayx Najmiddin Kubro kabi murshidlarga ergashuvchilardan ortiqroq bo'lsa bor-u, kam emas edi. «Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad» degan naqlning paydo bo'lishi ham bu ulug' avliyoga bo'lgan xalq e'tiqodining yorqin ifodasidir.

Yassaviyning suluk nizomi unga nisbat beriluvchi asar – “Faqrnoma”da ham aks etadi. quyidagi jumlar uchraydi: “Ey tolib, agar haqni talab qilib, topay desang, andoq pirga qo'l bergilkim, shariatda orifi billoh bo'lsa, tariqatda voqifi asror bo'lsa, haqiqatda komilu mukammal bo'lsa, ma'rifatda daryoyi ummon bo'lsa, andoq pirga qo'l bergilkim, saodat bo'lg'ay”. Bu qarashda maksimal talablar ifodalangan, albatta. Lekin bu talablarda Yassaviyning o'z-o'ziga talabi ham ayon bo'ladi.

Umuman, “Faqrnoma” o'z nomiga ko'ra, asosan, tariqatda faqirlikning benihoya muhim ekanini ko'rsatib berish maqsadida yaratilgandir. Unda xoh pir va shayxlik martabasi talablari bo'lsin, xoh darvesh va so'fiy talabi, faqirlikning vojibligi uqtiriladi. Muallif Hazrat Alidan iqtibos qilib darveshlikda 40 maqom borligini ta'kidlaydi va ularni shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatda 10 tadan ekanini zikr etadi.

Shuningdek, asarda faqirlik suratining ta'rifu tavsifi, faqirlik martabasining 10 maqomi, 10 nuri, 10 yo'li va 10 o'rni haqida fikr yuritiladi. Aytilgan maqom va martabalarga amal qilmaganlarning daraja topa olmaganlari ham risolada misol orqali bayon qilinadi.

Faqrning ulug' fazilat ekani din va tasavvufning har bir vakili tomonidan e'tirof qilingan. Bir jihat e'tiborliki, har bir shayx faqr maqomini o'zicha belgilaydi, ular bir-birlariga mos tushishi ham, tushmasligi ham mumkin. Asarda ulardan ham namunalar keltirilgan. Muallif ularga o'z qarashlarini ilova qiladi. Unga ko'ra, faqr 6 odob (sukut, pir oldida xomush turib, uning ijozati bilangina

gapirish, odamlar bilan xushmuomalalikda bo'lmoq, xos olimning xizmatini qilmoq, nafsni o'ldirib, havo va havasni tark qilmoq)dan; 8 maqom (tavba, ibodat, muhabbat, sabr, shukr, rizo, zuhd, oriflik)dan; 7 martaba (juvonmardlik, sipohiylik, xirqa, sabr, qanoat, shukr, tavakkul)dan iborat. Ko'rinib turganidek, risola talqiniga ko'ra shayxda ham, darveshda ham bo'lishi lozim barcha fazilatlar faqrga asoslanadi. Shuning uchun ham Yassaviy o'z ta'limotida faqrni yetakchi konsepsiyaga aylantirdi.

Shuni ham qayd qilish joizki, risola azaldan Yassaviy asari sifatida ko'rsatib kelinadi. Lekin uning boshqa kishi tomonidan yozilgani "Hazrati Sulton Xoja Ahmad Yassaviy andog' aytibdurlarkim", "Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayh aydilarkim" kabi iboralar orqali yaqqol sezilib turadi. Lekin muallif uni o'ziniki ham demaydi, balki vasiyat sifatida eslatadi. Shu eslatma uni Ahmad Yassaviyga taalluqliligini tasdiqlashi mumkin.

Yassaviy ta'limoti keyinchalik "Yassaviya tariqati" deb ham yuritilgan. Bu ta'limot uning shogirdlaridan bo'lgan Sulton Ahmad Xaziniy tomonidan "Javohir ul-abror min amvojil-bihor" asarida ham yoritib berilgan.

"Devoni hikmat"ning manbalari, janriy va tarkibiy tuzilishi, g'oyaviy mavzu doirasi. Yassaviy „Devoni hikmat“ining asl qo'lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Uning birinchi marta kim tomonidan qachon tuzilgani ham fanda ma'lum emas. Biroq keyingi asrlarda ko'chirilgan bir necha nusxalari O'zbekistonda ham, ko'pgina xorijiy mamlakatlarda ham saqlanadi. Ular orasida eng qadimgi nusxa 17-asrga taalluqlidir. Bulardan tashqari, asar 19-asr oxiri va XX asr boshlarida musulmon shaharlarida, xususan, Toshkent va Qozon shaharlarida tashkil etilgan, toshbosma usulida ish olib boruvchi bosmaxonalarda ko'p martalab chop etilgan. E'tiborli jihati shundaki, ular hech bir hukmdor yoki amaldorning buyurtmasi bilan ko'paytirilmagan, balki xalq orasida ularga bo'lgan talab Yassaviy devonining ommalashuviga sabab edi. Hozirda ham xalqimiz orasida bu devonning nusxalari ko'plab topiladi.

«Devoni hikmat» oʻzida Ahmad Yassaviy adabiy merosini jamlaydi. Hikmatlarga «Qul Xoja Ahmad», «Xoja Ahmad Yassaviy», «Ahmad ibn Ibrohim», «Sulton Xoja Ahmad Yassaviy», «Yassaviy miskin Ahmad», «Miskin Yassaviy», «Xoja Ahmad», «Ahmad», «Ahmadiy», «Qul Ahmad», «Miskin Ahmad » kabi taxalluslar qoʻyilgan.

Unda 240 ga yaqin sheʼr bor. Ayrim adabiyotlarda hikmatlar devoni avvalgi bandidagi “Men daftari soniy soʻzin ochdim mano” (Bunday misralarni “Man daftari soniy soʻzin ochdim, man-o (yoki man-a)” tarzida yozish maqsadga muvofiq!) misrasining “daftari soniy” birikmasiga diqqat qaratilib, turli xil izohlanishiga duch kelish mumkin. Masalan, 1992 yilgi nashr izohlarida: "Daftari soniy – ikkinchi daftar. I.Haqqulovning fikricha, Ahmad Yassaviy bundan avval ham hikmatlar aytgan. Mazkur hikmatlar esa ikkinchi daftardir. Rostdan ham, u 114-hikmatida: “Toʻrt ming toʻrt yuz hikmat aytdim, Haqdin farmon” deydi”, deyilgan. 1990 yilgi nashrda esa I.Haqqulov u “Ahmad Yassaviy ishq ilohiy talqinidagi asarlar majmuasini nazarda tutgan”ligi bilan izohlanadi. Bizningcha, “daftari soniy”ni bulardan tashqari ham bir necha turda talqin qilish mumkin. Masalan, daftari avval – qalb, daftari soniy – xat; daftari avval – shariat, daftari soniy – tariqat; daftari avval – zot, daftari soniy – tajalliy; daftari avval – talab, daftari soniy – ishq va h.

Yassaviyning “Devoni hikmat”dan avval ham hikmatlar yozgan-yozmagani masalasida esa qatʼiy aytish mumkinki, “daftari soniy”ning birinchi izohida aytilganidek u shoir hikmatlari yozilgan ikkinchi daftar emas. Tilimizda “daftar” soʻzi eng sodda va joʻn tushunilgandagina yozuv vositasi tushunchasini ifodalaydi. Badiiy asarda u juda koʻp maʼnolarda qoʻllanishi mumkinligi maʼlum. Shoirning bundan oldin hikmatlar daftari boʻlmaganini “daftari soniy”da keltirilgan 2-hikmatdan²²:

Bir yoshimda arvoh menga ulush berdi,

²² Hikmat tartib raqamlarini berishda 1992 yilgi nashrga asoslanmoqdamiz.

Ikki yoshda payg'ambarlar kelib so'rdi...

deya davom ettirilgan yosh bosqichlari 5-hikmatgacha (50 yoshgacha) tizimli suratda davom ettiriladi. Birinchi daftarni to'ldirib ikkinchisiga kelganda norasida bolalik taassurotlariga qaytishni juda ham mantiqli deb bo'lmaydi.

114-hikmatdagi "To'rt ming to'rt yuz hikmat aytdim, Haqdin farmon", degan misraga diqqat qaratuvchilar 122-hikmatdagi:

*Qul Xoja Ahmad gavhar yanglig' hikmat aydi,
Eranlarga xizmat qilib nazar topdi,
To'qson to'qqiz ming hikmat aytib doston qildi,
Doston qilib bo'ston ichra yurmoq uchun,*

Misralariga nazar solmaganlar. Binobarin, keltirilgan hikmatlar sonini she'r bilan o'lchash maqsadga muvofiq emas. Buni she'r ichida aytilgan fikrlar yoki majoz bilan izohlash ma'quldir. Shuningdek, Ibrohim Haqqulov turk olimi Komil Eraslon bu raqamni (4400ni) keyingi shoirlar to'qigan, degan fikrni aytganini ta'kidlaydi. Buni ham e'tibordan qoldirib bo'lmaydi.

Professor N.Mallayevning "Devoni hikmat"ni kuzatish asnosida bildirgan quyidagi fikrlari e'tiborli: "Uning qo'l yozma nusxalari ham, bosma nashrlari ham bir-biridan juda farq qiladi. Ularda she'rlar miqdori bir xil emas, birida bo'lgan ko'pgina she'rlar ikkinchi birida yo'q, borlari esa hajmi va teksti jihatidan bir-biridan katta farq qiladi. She'rlarda zikr etilgan nom (yoki taxallus) ham bir xil emas. Masalan, "Devoni hikmat"ning she'rlar miqdori jihatidan eng katta nusxasi bo'lgan beshinchi Qozon nashrini olaylik. Unda 149 hikmat berilgan bo'lib, ulardan 109 hikmat bevosita Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'liqdir. Bu hikmatlarda Ahmad Yassaviy nomi "Qul Xoja Ahmad", "Xoja Ahmad Yassaviy", "Ahmad ibn Ibrohim", "Miskin Yassaviy", va "Xoja Ahmad" tarzida berilgan, ayrim hikmatlarda esa qisqagina "Ahmad" yoki "Ahmadiy", "Qul Ahmad" yoki "Miskin Ahmad" nomlari ishlatilgan. Yuqoridagi nomlar bilan kelgan ayrim she'rlar boshqa kitoblarda, masalan, Sulaymon Boqirg'oniyning "Boqirg'on kitobi"da, Mullo Shamsiddin O'zgandiyning hikmatlarida ham uchraydi. Bundan

tashqari, “Devoni hikmat” nusxalariga Qo‘l Sharif, Miskin G‘arib, Qo‘l Asad, Xudoydod, Qul Nodiriy, Qul Sayfiddin, Bobo Mochin, Miskin Qosim, Miskin Azim va boshqa avtorlarning she‘rlari ham kiritilgan. Ayrim she‘rlarning avtori umuman ko‘rsatilmagan.

Til va uslub jihatidan ham “Devoni hikmat” nusxalari bir-biridan katta farq qiladi. “Devoni hikmat”ning birorta nusxasi ham Yassaviy tilining, XII asr o‘zbek tilining aynan asl yodgorligi bo‘la olmaydi. Chunki Yassaviy hikmatlari og‘izdan-og‘izga ko‘chib, kitobdan kitobga o‘tib, o‘z asl tilini allaqachonlar o‘zgartirib yuborgan edi, unda qadimgi tilning ayrim arxaik elementlarigina saqlanib qolgan. She‘rlar mazmun jihatidan ham farq etadi, hatto ba‘zan zid keladi. Bu esa professor A.K.Borovkov ta’kidlaganidek, “Devoni hikmat”dagi she‘rlarning qaysi biri bevosita Ahmad Yassaviyga mansub ekanini aniqlashni g‘oyatda mushkullashtiradi va ularning aslini tasavvur etishga imkon bermaydi. Lekin, shunga qaramay, “Devoni hikmat” she‘rlarining kimga mansubligi va ularning o‘zgarib borishi haqida, mulohaza tarzida bo‘lsa ham, quyidagilarni aytish mumkin:

1. “Devoni hikmat”dagi she‘rlarning xilma-xil o‘zgarishlarga uchraganiga qaramay, devonning g‘oyaviy negizini asosan Ahmad Yassaviy she‘rlari tashkil etadi. Bu fikr Ahmad Yassaviy nomi turli shaklda zikr etilgan she‘rlarga (albatta, hammasiga ham emas) taaluqlidir. Yassaviy she‘rlarining tili va uslubi o‘zgarib borgan bo‘lsa ham, lekin ularning asosiy g‘oyaviy mazmuni saqlanib qolgan.

2. “Devoni hikmat” bevosita Ahmad Yassaviyning o‘zi tomonidan emas, balki keyinroq uning muxlislari tomonidan tuzilgan bo‘lishi kerak. Agar “Devoni hikmat” ni Ahmad Yassaviyning o‘zi tuzganda edi, devon shu darajada xilma-xil o‘zgarishlarga uchramagan bo‘lur edi.

3. Uzoq zamonlar davomida “Devoni hikmat”ga turli xil o‘zgarishlar kiritilgan. Bu o‘zgarishlar she‘rlarning miqdori va hajmiga ham, ularning til va uslubiga ham taaluqlidir. Yassaviy hikmatlarining tili va uslubi o‘zgarib, keyingi davrlarning tiliga muvofiqlashib borgan, tahrir qilingan. Yassaviy hikmatlariga

o'xshatma yoki taqlid tariqasida yangi hikmatlar yaratilgan, ularning ko'pchiligi Yassaviy nomi bilan atalgan: "Devoni hikmat"dagi she'rlar alfavit sirasi bilan joylashtirilib, devonga "Debocha" ham ilova qilingan va hokazo.

Yassaviy hikmatlarining o'zgarib borganini ulardagi "Tug'qan yerim ul muborak Turkiston" kabi ko'pgina misralar ham ko'rsatadi. Chunki ilgari Yassi deb nomlangan shahar faqat XV asrning oxirlaridan boshlab Turkiston deb yuritilgan.

4. "Devoni hikmat"ga Yassaviy she'rlari yoki Yassaviyga nisbat berilgan she'rlardan tashqari, uning shogirdlari va muxlislari tomonidan yaratilgan she'rlar ham kiritib turilgan.

5. "Ahmad" yoki "Ahmadiy" nomi bilan aytilgan bir qator she'rlar, prof. A. K. Borovkov ta'kidlaganidek, Ahmad Yassaviy she'ralari bo'lmay, balki shu nomdagi boshqa shoirning she'rlari bo'lishi mumkin. "Ahmad" yoki "Ahmadiy" nomi bilan kelgan ko'pchilik she'rlarning aruz vaznida bo'lishi (Yassaviy hikmatlari asosan barmoq vaznidadir), ularning til va uslub jihatidan XV asr adabiyotiga yaqin turishi shuni ko'rsatadi. A. K. Borovkovning faraz qilishicha, "Devoni hikmat"dagi "Ahmad" yoki "Ahmadiy" Kamoliddin Iqoniyning muridi shayx Said Ahmad (XV asr) bo'lishi mumkin.

6. Modomiki, "Devoni hikmat" turli o'zgarishlarga uchrab, Ahmad Yassaviyning ko'pdan-ko'p shogirdlari, muxlislari va mutasavvif kotiblar tomonidan "tahrir" qilingan, Yassaviy hikmatlariga taqlid qilib yozilgan va mustaqil bitilgan she'rlar bilan to'lib borgan ekan, u faqat Yassaviyning badiiy yodgorligi bo'lmay, balki yassaviya-jahriya tariqatining bir necha asrlik umumiy adabiyot yodgorligidir. Til va uslubning farq- tafovutlari ham, mavzu va mazmundagi ziddiyatlar ham (garchi bunday ziddiyatlar bir shaxsning o'zida ham sodir bo'lishi mumkin bo'lsa-da) shuni ko'rsatadi"²³.

²³ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – Б. 153 – 155.

Yassaviyning o‘zi o‘z qo‘li bilan kitob tartib bermagan ekan, bu nodir meros uning murid va izdoshlari tomonidan tartiblanganini diqqat doirasida saqlash lozim. Hikmatlardagi ba‘zi so‘zlarning o‘zgarib qolgani, badiiy nuqsonlarga yo‘l qo‘yilgani va hokazolarni tartiblovchilar yoki ko‘chiruvchilar tomonidan qilingan xatoliklar sifatida baholash lozim.

Shoir nuqtai nazarida hikmat – «ilmi laduniy», ya’ni ilmi g‘aybu haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf qilish mazmunini anglatadi. U tasavvufni inson ma’naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Shuning uchun u o‘z ijodini ma’lum bir yo‘l bilan chegaraladi, diniy-tasavvufiy g‘oyalarga asoslangan didaktik she’rlar – hikmatlar aytishni odatiga aylantirdi.

Bunda u o‘z zimmasiga shoirlikning barcha mas’uliyatlarini olmaydi. Shuning uchun ham hikmatlar 12-asr she’riyatiga xos vazn va janrlar talabiga mos emas. Ko‘rib o‘tganimizdek, “Qutadg‘u bilig” va “Hibatu-l-haqoyiq” kabi asarlarda aruz vazniga to‘la amal qilingan, ba‘zi adabiy janrlar shakllanib qolgan edi. Bu davr fors adabiyotida badiiyat masalalarida ham siljishlar sodir bo‘lgan. Yassaviyning ulardan bexabar bo‘lishi mumkin emas edi. Lekin u o‘z hikmatlarida ularni inobatga olmadi. Faqat turkiy she’riyatning azaliy shakl va janrlarida zikr qo‘shiqlari yaratib, ularni “hikmat” deb nomlab qo‘ya qoldi. Ularning zikr qo‘shiqlari ekaniga juda ko‘p o‘rinlarda yuklamalardan foydalanib ritm paydo qilinishi ham dalil bo‘la oladi: *man-o, do‘stlarim-o, o‘tar-o, ketar-o, Kirdikor-o* ba h. Ular o‘z davri adiblari tomonidan tan olinib janr darajasiga chiqadi. Holbuki, ular orasida g‘azal, munozara, masnaviy, qasida, munojot va boshqa janrlarga mos keluvchi she’riy shakllarda yaratilgan. Masalan, quyidagicha boshlanuvchi mashhur hikmat g‘azal shaklida:

*Beshak biling bu dunyo barcha xalqdin o‘tar-o,
Inonmag‘il molinga, bir kun qo‘ldan ketar-o.*

*Ota-ona qarindosh qayon ketdi – fikr qil,
To‘rt oyog‘lig‘ cho‘bin ot bir kun sanga yetar-o...*

Quyidagi baytlar bilan boshlangan hikmat munozara shaklida:

*Behisht, do‘zax taloshur, talashmoqda bayon bor,
Do‘zax aytur: “Man ortuq, manda Fir‘avn, Homon bor”.*

*Behisht aytur: “Na dersen, so‘zni bilmay aytursen,
Senda Fir‘avn bo‘lsa, menda Yusuf Kan‘on bor”...*

Quyidagi baytlar bilan boshlangan hikmat masnaviy shaklida:

*Muhammadni(ng), biling, zoti arabdur,
Tariqatni(ng) yo‘li kulli adabdur.*

*Haqiqat bilmagan odam emasdur,
Bilingiz hech nimaga o‘xshamasdur...*

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Devon tuzilishiga ko‘ra, mumtoz devonlar kabi arab alifbosi tartibida tasnif qilingan. Lekin bunda ba‘zi o‘rinlarda harflar o‘rnining almashishi, masnaviy yo‘lidagi hikmatlarning faqat birinchi bayti harfi hisobga olinib joylashtirilganini ko‘rish mumkin. Unda alif, be, dol, re, sin, shin, qof, kof (gof), lom, mim, nun, u (vov), a (he), i (yo) harflari bilan tugagan hikmatlar mavjud. Lekin radif vazifasida qo‘llangan so‘zlar doirasi nihoyatda tor. 1992 yil nashrida birgina “man-o” so‘zi 13 ta, “do‘stlar” so‘zi 15 hikmatda radif vazifasini bajargan. “Kelur”, “qilur”, “bo‘lur”, “bo‘lmas”, “ermish” kabi so‘zlar ham bir necha martadan takrorlanadi. Hikmatlar uch bandlidan 27 bandligacha she‘rlardan iborat (Bundan faqat “Munojot” deb atalgan she‘r mustasno, u 68 bayt).

Ahmad Yassaviy hikmatlarining mavzu ko‘lamini ham muayyan darajada chegaralanganini ta’kidlash lozim. Ular Haqqa oshiq bo‘lishga da’vat – ishq; amalda beg‘arazlikni ta’minlash – nafs tarbiyasi; insonparvarlik; faqir, yetim, miskin va g‘ariblarga mehribonlik ko‘rsatish – muruvvat; diniy-tasavvufiy ilmlarni o‘rganish va qoidalarga qat’iy rioya qilish – diniy ma’rifat va ibodat; gunoh ishlardan pushaymonlik – tavba; tuban dunyodan voz kechish – tarkidunyochilik.

Ularni yanada ixchamlash mumkin. Inson barkamolligining tasavvufiy talqinlari hikmatlar mavzu doirasini umumlashtiradi.

Hamma hikmatlarda ham ishq tuygʻusi inkishofi, uning tugʻyon va iztiroblari, dard va mavjlari aks etmaydi. Adib koʻproq toliblarni ishqni ixtiyor etishga, oshiq boʻlishga daʼvat etish bilan chegaralanadi:

*Muhabbatsiz xaloyiqdin har kim qochsa,
Oriflarni(ng) suhbatidin javlon qilur.
Oʻrtab, kuyib ishq yoʻlida yoshin sochsa,
Subhon egam Arsh ustida mehmon qilur...*

*Ayo doʻstlar, ishq gʻavvosi boʻlmaguncha,
Vahdoniyat daryosiga kirsam boʻlmas.
Ul daryon gavharidur Haq visoli,
Jondin kechib kirmaguncha koʻrsam boʻlmas...*

Lekin ilohiy ishq ruhiy lazzatini ifoda etgan hikmatlar ham devondan oʻrin olgan:

*...Fido boʻlsin senga jonim, toʻkar boʻlsang meni(ng) qonim,
Men qulingman, sen sultonim, menga sen-oʻq keraksen...*

*Olam bari ujmoʻh boʻlsa, jumla hurlar qarshu kelsa,
Alloh menga roʻzi qilsa, menga sen-oʻq keraksen...*

Hikmatlarning katta qismi nafs tarbiyasiga qaratilgan. Shoir taʼkidicha, «nafs yabon qushdek qoʻlga qoʻnmas» bir narsa. Bu qush oʻz xohishicha parvoz etaversa, odamni kundan kunga toʻgʻrilikdan ozdiraveradi. Oqibatda esa:

*Nafs yoʻliga kirgan kishi rasvo boʻlur,
Yoʻldin ozib, toʻzib, toyib gumroh boʻlur.
Yotsa-tursa shayton bila hamroh boʻlur...*

Shoir nafs bandalariga qarata, «Nafsni tepgil, nafsni tepgil, ey badkirdor», deb murojaat etadi. Adib nafsni insondagi mukammallikni yemiruvchi juda katta

dushman sifatida baholaydi. Uning tajovuzidan ma'naviy xotirjamlikka putur yetadi. Inson hayotida o'z nafsini taslim etishdan mushkulroq ish, unga qarshi kurashdan kattaroq, muhimroq kurash yo'q.

Afsuski, nodonlar hidoyat, to'g'rilik, komillik haqidagi so'zlarni tushunmaydilar, tushunishni istmaydilar:

*Ayo do'stlar, nodon bilan ulfat bo'lib,
Bag'rim kuyub, jondin to'yub, o'ldim man-o.
To'g'ri aytsam, egri yo'lga bo'ynin tovlar,
Qonlar yutub, g'am zahriga to'ydim man-o...*

Yassaviy misolidagi tarkidunyochilik masalasiga munosabat to'g'ri shakllanishi lozim. Bu tarkidunyochilik shunchaki pessimistik dunyoqarash oqibati, hayot qadrini yerga urish emas. Bunda jamiyatda sodir bo'layotgan nafs xurujiga qarshi norozilik ifodasi mavjud. Umuman, Yassaviy falsafasi g'aflatdan qochish, ruhni hur va ogoh, vijdonni uyg'oq tutishdan iborat. Uyg'oq vijdon Haq tomon intiladi. Bu yo'lda u hur ruh bilan yashashga, to'siq bo'luvchi har qanday vositani tark etishga harakat qiladi. Buning aksi bo'lgan nodonlik esa takomilning ashaddiy dushmanlaridan. Jamiyatning inqirozi, tubanlashuvi nodonlik va johillikning avj olishi natijasida sodir bo'ladi. Adibning nodon, johil, molparast, amalparast kimsalardan qochishi to'g'risidagi baytlar inson qalbida u illatlarga qarshi g'alayon, kurash hissini tarbiyalaydi. "Harom yegan", "nohaq da'vo qilgan", "dunyo mening" deb "jahon molin yig'gan", "oqni qaro qilgan" va bu zolimlik qilmishlari bilan el boshiga chiqib olib "totlig'-totlig' yeb", "alvon-alvon kiyib" yuruvchi kimsalarga nisbatan nafrat tug'dirish hikmatlarning, undagi tarkidunyochilikning ham asl mohiyatini tashkil qiladi.

Yassaviy o'z adabiy merosining inson ma'naviy-axloqiy takomilidagi qimmatini to'g'ri anglab yetdi va bunday asarlar yaratgani bilan faxrlandi. Xususan, uning "Munojot" deb atalgan she'ri munojotdan ko'ra faxriyaga yaqindir. Mana, unda iftixor qanday ifodalanadi:

G'arib Ahmad so'zi hargiz qarimas,

*Agar yer ostiga kirsam chirimas.
Yana mansux bo'lib ul xor bo'lmas,
O'qug'an bandalar bemor bo'lmas...*

*Meni hikmatlarim olamga to'lg'on,
Eshitmay har kim o'lsa, qilg'ay armon...*

*Meni hikmatlarim olamda sulton,
Qilur bir lahzada cho'lni guliston...*

*Meni(ng) hikmatlarim qandu asaldur,
Hamma so'zlar ichinda bebadaldur...*

Devonning vazni va badiiy xususiyatlari. Yassaviy hikmatlarini vazn va poetik jihatlarini baholashda uning xalq og'zaki ijodi va mumtoz she'riyat orasidagi o'rnini inobatga olish zarur. Garchi Yassaviydan avvalroq Ulug' XosHojib va Ahmad Yugnakiy tomonidan turkiy she'riy tizim aruzga moslashtirilgani ko'rinsa-da, ularning asarlari faqat xos o'quvchilarga mo'ljallanganini unutmaslik lozim. Ahmad Yassaviy esa o'z hikmatlarini faqat xos o'quvchilar uchun yozmagan, balki turkiy xalqlar orasida endigina o'rin topayotgan tasavvufni har qanday o'quvchi tushunib olishini nazarda tutib yaratgan edi. Ehtimol, shu bois hikmatlarni yaratishda azaliy turkiy xalqlar she'riy tizimlaridan foydalanilgan. YA'ni barmoq vazni hikmatlarning asosiy vaznidir. Yuqorida ta'kidlanganidek Yassaviy arab va fors tillaridagi she'riyat bilan yaxshi tanish bo'lgan. U hatto arab tilida she'r yoza olish imkoni borligini ham ko'rsatadi:

*Qad allamno Anta fi kulli umur,
Anta kofiy, Anta ofiy, yo G'afur.
Kofi fi-l-g'aybi huva man fi-l-huzur,
Anta kofiy, Anta ofiy, yo G'afur.*

Mazmuni: Bildikki, har bir ishda Sen borsan, Sen kifoya qiluvchi, Sen afv etuvchisan, yo G'afur. Kimki hozir (Senga muntazir) bo'lsa, unga g'aybda bo'lib ham kifoya qil, (axir) Sen kifoya qiluvchi, Sen afv etuvchisan, yo G'afur.

Baytlarning birinchi misralari bir-biriga muvofiq bo'lmasa-da, ikkinchi misralar ular aruzning ramal bahrida yozilganini yaqqol ko'rsatib turibdi: *fo-i-lo-tun, fo-i-lo-tun, fo-i-lun*.

Bu hikmatning keyingi bandlarida ham shu vazn saqlab qolinishiga urinilgan:

*Mustafo dar/ holati naz'/ erdilar/,
Bir guruhni/ osiy deb qay/g'urdilar/,
Ummatim, voy/ ummatim, deb/ aydilar,
Anta kofiy,/ Anta ofiy,/ yo G'afur/.*

Lekin hikmatni mutlaqo shu vaznda deb bo'lmaydi. Uning ba'zi misralari vaznga muvofiq emas.

Boshqa hikmatlarda ham aruz vaznining ayrim bahrlariga muvofiqlikni ko'rish mumkin. Biroq ular uzluksiz davom ettirilmaydi:

*G'ariblig'da/ g'arib bo'lgan/ g'ariblar/,
G'ariblar ho/lini bilgan/ g'ariblar/,
Sabab birla/ yiroq yerga/ boribon/,
Qarindosh qad/rini bilgan/ g'ariblar/...*

Bandda nisbiy vazn, hazaj: *mafoiylun, mafoiylun, fauvlun*.

Bunday holatlardan qat'i nazar, hikmatlarning umumiy vazni barmoq vaznidir.

Hikmatlarning qofiyalanish tartibi ham an'anaviydir. Turkiy va aruziy she'riyatdagi eng ommaviy qofiyalanish tartibi hikmatlar qofiya tizimini shakllantirgan. Murabba' shaklidagi she'rlar *a a b a, v v v a, g g g a* va hokazo, yoki *a b a b, v v v b, g g g b* va hokazo, yoki *a b v b, g g g b, d d d b* va hokazo, yoki *a a a b, v v v b, g g g b* va hokazo; masnaviy yo'lidagi hikmatlar *a a, b b, v v* va hokazo; g'azal shaklidagi hikmatlar *a b, v b, g b* va hokazo shakllarda qofiyalangan.

Poetik jihatdan hikmatlar, ularning badiiy qimmatini kamsitmagan holda ta'kidlash lozimki, ba'zi cheklanishlarga ega. Buning uch sababi bor: birinchidan, Yassaviy o'zini shoir – so'z san'atkori sifatida namoyon qilmoqchi emas, shuning uchun badiiyat masalasini oldingi o'ringa olib chiqmaydi. Uning asl maqsadi o'z tariqati g'oyalarini ommaga targ'ib qilish. Ommani san'at jilosiga maftun qilish g'oyaga e'tiborini susaytirishi mumkin. YA'ni majoz va obrazli ifodalar ko'pligi g'oyani badiiyatning nafis pardasiga o'raydi. Bu hol ommaga ta'sir o'tkazishga monelik qilar edi. Ikkinchidan, Yassaviy yashagan davrda badiiy tafakkurning darajasi juda yuksalgan edi deb bo'lmaydi. Bu ham hikmatlar badiiyati saviyasini belgilovchi omillardan biridir. Uchinchidan, hikmatlar aksar vaqt zikr qo'shiqlari sifatida badiha yo'sinida aytilganini taxmin qilish mumkin. Lekin bularning hech biri Yassaviydagi tug'ma ijodkorlik iste'dodini istisno qila olmaydi. Bu iste'dod o'rni-o'rni bilan o'zini namoyon etadi.

Hikmatlar sodda bo'lishi bilan bir qatorda, badiiy jihatdan ancha mukammal qurilishga ega. Eng avvalo aytish lozimki, ularda badiiy mukammallikning asosiy shartlaridan biri bo'lgan muallif va o'quvchi ruhiyati aloqasini ta'minlay oladigan ritm tempi mavjud. Yassaviy sulukida zikrlar jahriy ko'rinishda bo'lganini hisobga olsak, hikmatlar tempining ularga muvofiqligini anglash qiyin emas:

*O'n sekiz ming olamga sarvar bo'lg'an Muhammad,
O'ttuz uch ming as'hobg'a rahbar bo'lg'an Muhammad.*

*Yolong'ochu ochlikka qanoatlig' Muhammad,
Osiy, jofiy ummatg'a shafolatlig' Muhammad.*

*Tunlar yotib uyimas, tilovatlig' Muhammad,
G'arib birla yetimga muruvvatlig' Muhammad...*

Yoki:

Dam bu damdur, o'zga damni dam dema,

Dunyodin beg'am o'tarsan, g'am dema.

Kuymasa jonu diling ham ustixon,

Ko'z yoshing oqqan bilan sen nam dema...

Juda ko'p hikmatlar voqeabandlik asosida yaratilgan. Voqealar banddan bandga kuchaytirib boriladi. Bu voqeabandlik bir necha hikmatda yoshdan yoshga o'tib borish asnosini tasvirlash orqali bo'lsa, ba'zilarida inson ruhi yaratilgan paytdagi hodisalar, so'ng tug'ilishdan vafot etishgacha va jon berishdan qabrga qo'yilguncha bo'lgan voqealarga asoslanadi. Boshqa ba'zilarida esa payg'ambar yoki avliyolardan birining hayoti bilan bog'liq hikoyaga tayaniladi. Yana boshqa birida ma'lum yo'lning (masalan, ishq, tavba; tariqat, haqiqat, ma'rifat) shart va g'aroyibotlari o'ziga xos tizimli voqebanlikda, darajama-daraja qayd etiladi:

Hojat emas ishq dardiga davo so'rmak,

Vayron etib ketgan ermish, davosi yo'q.

Joning qiynab, yoshing oqib, hushing ketib,

Ishq dardidin, do'stlar, qattig' balosi yo'q.

Har kim kuyar, jong'a olar ishqni(ng) o'tin,

Joni kuysa a'zosidin chiqar tutun,

Bag'ri ani sadporadur, yo'qtur butun,

Xalqg'a zohir ko'runub turgan yarosi yo'q.

Jondin kechmay topmas har kim jononani,

Ko'rub himmat qilmoq kerak parvonani,

Ko'rub-bilib o'tqa urdi o'z jonini,

Sudu ziyon birla hargiz parvosi yo'q.

Ancha yurdung, ancha turdung, ey bexabar,

Nafsi shayton ishlaridin qilg'il hazar,

Bizdin burun talim karvon qilg'an safar,

Aytib ketgan: “Bu dunyoning vafosi yo ‘q”...

Yassaviyning mahoratlaridan biri shuki, u o‘z davri odamlari tilidagi qochirimlarni hikmatlar g‘oyasiga mos tarzda muvaffaqiyatli qo‘llaydi:

*So ‘fi bo ‘lmay naylasun, uyda qilurg ‘a ishi yo ‘q,
So ‘filik da ‘vo qilur, xalqg ‘a berurg ‘a oshi yo ‘q,
Ohu voh derlar yana, ko ‘zida qatra yoshi yo ‘q,
So ‘finaqsh bo ‘lding vale hargiz musulmon bo ‘lmading...*

Yassaviy hikmatlarida bir qator badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Ular orasida eng ko‘p qo‘llangan she‘riy san’atlar mubolag‘a, tashbeh, talmeh, tazod, takrir, iqtibos, saj‘ va tanosib kabilardir.

Ahmad Yassaviy she‘riyatining keng tarkalishi va xalk orasida sevib o‘qilishining asosiy sabablaridan biri uning xalk og‘zaki ijodiga nixoyatda yaqinligi ekani bilan izohlanishi mumkin:

*Nafsdin kechib, qanoatni pesha kilgan,
Gar kim tepsa, rozi bo ‘lib bo ‘yunsung ‘an,
Yaxshilarga xizmat kilib, duo olgan,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo ‘q.*

Yoki:

*Rohat tashlab, jon mehnatim xushlaganlar,
Saharlarda jonin qiynab ishlaganlar,
Hoyu havas, moumonni tashlaganlar
Chin oshiqdir, hargiz oni(ng) yolg ‘oni yo ‘q.*

Ko‘rinib turganidek, bu misralarda tajnis san’atining go‘zal namunasi yaratilgan. Qofiyada mavjud bo‘lgan ohangdoshlikni she‘rning boshqa qismlarida takrorlash ham og‘zaki ijod an‘analaridandir. Ahmad Yassaviy bu an‘analardan nihoyatda unumli foydalanadi.

*Ishqqa tushding, o ‘tka tushding, kuyib o ‘lding,
Parvonadek jondin kechib axgar bo ‘ldung.
Dardga to ‘ldung, g ‘amga so ‘ldung, telba bo ‘ldung,*

Ishq dardini so‘rsang hargiz darmoni yo‘q.

So‘zlar takrori xam she‘riyatdagi oxangdoshlikni nixoyatda kuchaytirishi mumkinligini Ahmad Yassaviy ijodida ko‘plab kuzatish mumkin:

Zohid bo‘lma, obid bo‘lma, oshiq bo‘lgil,

Mehnat tortib ishk yo‘lida sodiq bo‘lgil,

Nafsni tepib, dargohiga loyiq bo‘lgil,

Ishqsizlarni iymoni yo‘q ham joni yo‘q.

Yassaviy faoliyatining ahamiyati. Ahmad Yassaviy merosi tarixan xalq tafakkurida tasavvuf falsafasi asosida ijtimoiy-axloqiy muammolarga munosabatni shakllantirgani va kuchli ta‘sir o‘tkazgani bilan ahamiyatlidir. Bu munosabat va ta‘sir o‘ziga xosdirki, unga tushkunkayfiyatchilik (pessimizm) nuqtai nazaridan baho berish mutlaqo nomunosibdir. Chunki Yassaviy tushkunlikka muhtalo qiluvchi hodisalar, illatlar haqida har qancha yozmasin, uning bunday hodisa va illatlar ustidan hukm chiqarayotganini anglab olish qiyin emas. Pessimistlik birinchi navbatda jur‘atning so‘nishi bilan namoyon bo‘ladi. Yassaviy, hatto, jamiyatning eng oliy tabaqasi vakillari bo‘lgan podshohlar, vazirlar, hokimlar, qozilar, olimlar va hokazo zolim mansab-martaba egalarining ham nopok qabihliklarini fosh etishga o‘zida jur‘at topa oladi. U o‘zining yer ostiga kirib ketishini ham so‘zda dunyoni tark etish desa-da, mavjud tuzum, johiliyat botqog‘iga botgan jamiyatni inkor etishi va unga nafratini izhor qilishi edi. Bir so‘z bilan aytganda, Yassaviy faoliyati komil inson faol shaxs bo‘lishining amaliy ko‘rinishidir.

Adabiyot tarixida “Hikmatlar” o‘git, pand-nasihat motivlarini lirik kechinmalar orqali ifodalash yo‘lini ochgani bilan ahamiyatlidir. Tasavvufda yassaviya tariqati nechog‘li rol o‘ynagan bo‘lsa, adabiyot tarixida “Hikmatlar” ham undan kam xizmat qilmagan. Yassaviy tariximizning ma‘lum bosqichlarida katta shuhrat qozongan adabiy maktab, o‘ziga xos ijodiy uslub yaratgani keyinchalik Sulaymon Boqirg‘oniy, Yusuf Bayzoviy, Maxtumquli, So‘fi Olloyor kabi qator shoirlarning ijodiy yo‘lini belgilab berganida ko‘rinadi.

Yassaviy she'riyati fidoyilik, kamtarlik, ziyolilik, mehnatsevarlik, mehr-oqibatlik, saxovatlik va ayni paytda jur'atlilik g'oyalarini targ'ib etishi bilan ma'naviy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ahmad Yassaviy biografiyasi va merosining o'rganilish tarixini yoritib bering.
2. Yassaviy sulukining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
3. "Devoni hikmat"ning manbalari va ularning tavsiflarini sharhlang.
4. Devondagi she'rlarning mualliflari haqidagi qarashlarga munosabatingizni ifodalang.
5. Yassaviy she'riyatining g'oyaviy va uslubiy xususiyatlarini aniqlang.
6. "Devoni hikmat"ning poetik xususiyatlarini izohlang.

NOSIRUDDIN BURHONUDDIN RABG‘UZIY

Reja

1. Rabg‘uziyning hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi ma’lumotlar.
2. “Qisasi Rabg‘uziy” ning manbalari va o‘rganilishi.
3. “Qisasi Rabg‘uziy” ning tarkibiy tuzilishi va mavzu ko‘lami.
4. Asarning badiiy xususiyatlari.
5. Rabg‘uziyning shoirlik mahorati.
6. “Qisasi Rabg‘uziy” ning ahamiyati.

ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. “Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир”. - Тошкент: “Ўзбекистон” 1996.
2. Каримов И.А. “Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат қилсин”. Тошкент: “Тафаккур” 1998.
3. Абдурахмонова Б., Тўхлиев Б. “Адабиёт” (Касб-ҳунар коллежи ва академик лицейлар учун дарслик). - Тошкент: “Чўлпон”, 2012.
4. Адабиёт назарияси II жилдли. I жилд.
5. Валихўжаев Б. “Ўзбек адабиётшунослиги тарихи”. - Тошкент: 1993
6. Лапасов Ж. “Мумтоз адабий асарлар ўқув луғати”. - Тошкент: “Ўқитувчи” 1994.
7. Рабғузий, Носируддин. “Қиссаси Рабғузий”. Икки жилдли. — Тошкент: “Ёзувчи”, 1990.
8. Тўхлиев Б “Адабиёт” (10-синф ўқувчилари учун дарслик). - Тошкент: Ўқитувчи, 2003.
9. Шукурова З. Рабғузий ва фольклор. - Тошкент: Тамаддун, 2015.
10. Ҳожиаҳмедов А. “Мумтоз бадиият малоҳати” - Тошкент: Шарқ 1990

Tayanch tushunchalar: *nasr, badiiy nasr, qissa, hikoya, latifa, bayt, gʻazal, janr, xalq ogʻaki ijodi, vazn, syujet, obraz, qahramon.*

Maʼruzada qoʻyiladigan muammolar: turkiy xalqlar ilk badiiy nasrining vujudga kelishi omillarini tavsiflash; “Qisasi Rabgʻuziy”ning qissalari haqidagi bahslarga munosabat bildirish; asarning gʻoyaviy mazmuni; kompozitsiyasi va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda baholash.

Rabgʻuziyning hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi maʼlumotlar. XIII-XIV asrlardagi siyosiy va madaniy hayotdagi ziddiyatlar adabiyotda ham oʻz aksini koʻrsata boshladi. Lekin moʻgʻul istibdodi davridagi gʻoyaviy-siyosiy parokandalik diniy, tasavvufiy hamda baʼzi dunyoviy gʻoyalarning kuchayishiga yoʻl ochib qoʻygan edi. Bu davrning madaniy manzarasi Fazlulloh Rashiddiddinning “Jomeʼu-t-tavorix”, Atomalik Juvaydiyning “Tarixi jahongoʻsha”, Faxriddin Banokatining “Ravzatu-l-asbob fi-ttavorixi-l-akobir va-l-ansob”, Hamdulloh Qazvinining “Nuzhatu-l-qulub” kabi asarlarida oʻz ifodasini topgan. Ular bergan maʼlumotlarga koʻra, XIV asr boshlariga kelib mamlakat hayotida maʼlum obodlik ishlari ham boshlangan. Xususan, Buxoro, Samarqand kabi shaharlar va ular atrofida hunarmandchilik ancha rivojlanadi, savdo karvoni yoʻli ustida boʻlgan Urganchda qadimgi anʼanalar tiklana boshladi.

Bu davr badiiy adabiyotida koʻproq real tarixiy hodisalarni atroflicha aks ettirishga yoʻnaltirilgani bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, Chingizxon istilosi bilan bogʻliq voqealarning xalq ogʻazaki ijodidagi ifodasi ancha ochiq koʻrinadi. “Guldursun” afsonasini bunga misol sifatida koʻrsatish mumkin.

Bu davr Rabgʻuziydan keyin Pahlavon Mahmud, Abdulmajid Pur Bahoiy, Muhammad as-Samarqandiy, Mavlono Xoja Isʼhoq, Badriddin Chochiy, Qutb, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari soʻz ustalarini adabiyot olamiga bergani bilan ham ahamiyatli. Gʻazal lirikadagi asosiy oʻrinni egalladi. Ruboiy, tuyuq kabi kichik janrlar ham katta

mavqega ega bo'ldi. O'zbek dostonchiligi yangi an'analar bilan boyidi. Qasida, masnaviy, soqiynoma kabi janrlar takomillashdi. Nasrchilikda bu davr adabiyotining eng yirik namunasi sifatida Rabg'uziyning "Qissasul anbiyoi turkiy" yoki "Qisasi Rabg'uziy" ni ko'rsatish mumkin.

Turkiy mumtoz adabiyotning ulug' namoyandalaridan bo'lgan Nosiruddin Burhonuddin o'g'li Rabg'uziyning hayoti haqida ma'lumotlar juda kam. Shuning uchun uni o'rganishda ham kamchiliklar talaygina. Adib Xorazmning Raboti o'g'uz degan joyida yashagan. Rabg'uziy taxallusi mazkur joy nomidan kelib chiqqani olimlar tomonidan ta'kidlangan. (Lekin "Qisasi Rabg'uziy"da Muhammad as.ga payg'ambarlik kelgan davri haqidagi bir hikoyatda Abdulloh ibn ar-Rabg'uziy nomi uchraydi. Bu esa Rabg'uziy taxallusi haqida yana bir tekshirish olib borishni taqozo qiladi.) «Qisasi Rabg'uziy» asari muqaddimasida Rabg'uziy o'zi va asarning yaratilishi haqida qisqagini ma'lumot bergan. Unga ko'ra, Nosiruddin Raboti o'g'uzda qozilik bilan shug'ullangan ("Bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug', ko'p yozuqlug' Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin..."). Asar mazkur yurt ("ajallu-t-toji-l-umaro va muhibbu-l-ulamo beklar urug'i, yigitlar arig'i (poki), ulug' otlig', arig' zotlig', ezgu qilig'lig', mo'g'ul sinlig' (kelbatli), musulmon dinlig', odamiylar inonchi, mo'minlar quvonchi, himmati adiz (yuksak), aqli tengiz") begi Nosiruddin To'qbug'aning topshirig'i bilan yozilgan. Nosiruddin Rabg'uziy asarni deyarli bir yillik tinimsiz mehnatdan so'ng hijriy 710 yilning Hut (milodiy 1311 yil, 21 fevral-21 mart) oyida nihoyasiga yetkazadi.

Garchi manbalar yetarli bo'lmasa-da, Rabg'uziyning asar yozilgunga qadar yetuk shoir va nosir sifatida tanilgani mazkur birgina manba orqali anglashiladi. Bek o'z adabiy xohishini qondirish uchun Nosiruddinni tanlagani va shunday yirik asarning bir yil ichida yozib tugatilgani bunga shubha qoldirmaydi. Qolaversa, "Qisasi Rabg'uziy"ning mavzu va g'oyaviy motivlaridagi polifoniya; peyzaj, obraz va xarakterlar yaratishdagi mahorat hamda poetik vositalardan samarali foydalanish muallif badiiy tafakkuri va salohiyati kamol topganidan dalolat beradi.

“Qisasi Rabg‘uziy”ning manbalari va o‘rganilishi. “Qisasi Rabg‘uziy”ning hozirda bir necha qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ular XV asrda ko‘chirilgan Londondagi Britaniya muzeyida, XVI asrda ko‘chirilgan Sankt-Peterburg davlat kutubxonasida hamda Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida (inv. № 1025, 7397, 1874, 1834, 6246, 6685, 6127) saqlanadi. Toshkentda saqlanayotgan qo‘lyozmalarning deyarli hammasida asarning oxirgi varaqlari mavjud emas. London va Sankt-Peterburg nusxalarida asar o‘rta varaqlarida nuqson bor. “Qisasi Rabg‘uziy” 1859, 1873, 1878 va 1881 yillarda Qozonda, 1900, 1903, 1905, 1910, 1911 yillarda Toshkentda toshbosma usulida chop etilgan. Bu nashrlar nusxalari ham Toshkentda saqlanadi. Istanbulda ham “Qisasi Rabg‘uziy” turk olimlari tomonidan nashr ettirilgan.

Asarning to‘la matni ilk marta rus turkiyshunos olimi N.Ilminskiy tomonidan 1859 yili Qozon shahrida e‘lon qilingan. Asar Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxa asosida Gronbek tomonidan 1948 yili Kopengagenda nashr qilingan. 1990 yilda bu nashr asosida o‘zbek olimlari E.Fozilov, A.Yunusov va H.Dadaboyevlar tomonidan So‘zboshi, izoh va lug‘at bilan ta‘minlangan kiril yozuvidagi nashrini amalga oshirdilar. Ba‘zi tadqiqotlarda bu nusxa 1340 yilda ko‘chirilgan bo‘lib, bu davrda Rabg‘uziy hayot bo‘lgani taxmin qilinadi. Lekin bu taxmin, xolos. Chunki o‘zbek tilida qilingan nashrdagi birgina misol unda ham nuqsonlar ko‘pligini ko‘rsatadi. Misol shuki, kitobning yozilgan yili *“Ta’rix yuz ellining avvali”* deb ko‘rsatiladi. Agar bu hijriy 150 yil 767 milodiy yilga to‘g‘ri keladi. Bu esa mantiqqa mutlaqo ziddir. Chunki, asar, avval ta‘kidlanganidek, To‘qbug‘abek – musulmonlikni qabul qilgan mo‘g‘ul amaldorlari vakili, VIII asrda ularning O‘rta Osiyoda hukmronlik qilishi va unga asar bag‘ishlanishi mumkin emasligi fikrimizni tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda “Qisasi Rabg‘uziy”ni o‘rganish 1929 yilda chop qilingan “O‘zbek adabiyoti namunalari”, “Tatar adabiyoti tarixi” kabi kitoblarga qisqa ma’lumotnoma va parchalar tayyorlash bilan boshlangan. U V.V.Radlov, V.Tomsen, P.M.Melioranskiy, S.YE.Malov, V.L.Kotvich, P.Sime, A.N.Kononov,

A.Fon, G.Ramstedt, Bosim Atalay E.N.Najib, Rahmat Arat kabi xorijiy turkiyshunos olimlar, Fitrat, N.Mallayev, T.G'afurjonova, I.Ostonaqulov, Z.Shukurova kabi o'zbek olimlari tomonidan ham tadqiq qilingan.

Asarni o'rganish ko'pincha g'oyaviy, til yoki tekstologik jihatdan chala yarim tadqiq qilingan. Uning barcha jihatlari kompleks o'rganilmadi va o'ziga xos janriy hamda badiiy xususiyatlari belgilanib, mutlaq adabiy hodisa sifatida qabul qilinmadi. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Ular quyidagilar bilan izohlanishi mumkin:

Birinchidan, asar materiali islom dinining muqaddas g'oyalariga asoslangan rivoyat va hikoyatlaridan iborat. Bu asar iste'molchilari jamoalarining saviya va talabidan kelib chiqib amalga oshirilganini hisobga olmagan tadqiqotchilarni chalg'itishi tabiiy edi.

Ikkinchidan, asar yaratilgandan XX asr boshigacha bo'lgan diniy mafkura ustuvor davrda u ilohiyot manbai sifatida mutlaqlashtirilib, uning majoziy va ramziy belgilari, badiiy xususiyatlari e'tibordan qoldirilgan edi. Uni badiiy asar sifatida baholash shakkoklik hisoblanar edi. SHo'rolar mafkurasi ham unga xuddi shunday baho berib, uni iste'moldan chiqarishgacha borib yetdi. Bu davrda ham uni badiiy asar sifatida baholashni tasavvur qilib bo'lmas uqubatlarga sabab bo'lishi mumkin edi. Ikki holda ham u mutlaqlashtirish, ilohiylashtirish natijasida asl bahosini olmadi.

Uchinchidan, zamonaviy fanlar shakllana boshlagach, asarning o'quvchilar orasida iste'molda bo'lmagani uni o'rganishni kechiktirib yubordi.

«Qisasi Rabg'uziy» asaridan o'rin olgan hikoyatlar, rivoyat, naqlarga Qur'on va boshqa diniy kitoblardan, tarixiy asarlar va turli xalqlardan kirib kelgan afsona va rivoyatlar ham zamin bo'lib, ular turkiy epik an'ana ta'sirida yangi mohiyat va xususiyat kasb etdi.

Mazkur davr o'zbek adabiyoti Mo'g'ul istilosining, dahshatli hukmronlikning og'ir natijalari oqibatida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy ahvolga qaramasdan, janr rang-barangligi bilan taraqqiy etib borganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, nasr

ham adabiy jarayonning boyligiga aylandi. Asar garchi anbiyolar to'g'risidagi majmua bo'lsa-da, sof diniy ruhdagi asarlardan farqli o'laroq, o'zida dunyoviy mayllarning, xalq og'zaki ijodiga xos badiiy fantaziya tasviri ko'laminin kengligi bilan ajralib turadi.

Darhaqiqat, «Qisasi Rabg'uziy»dagi hikoyatlarning manbalari yuzasidan olib boriladigan izlanishlar masala tarixini kengroq tasavvur qilishga imkon beradi.

“Qisasi Rabg'uziy”ning tarkibiy tuzilishi va mavzu ko'lami. “Qisasi Rabg'uziy”ning tarkibiy tuzilishi haqida ba'zi adabiyotlarda “inson va uning hayoti bog'liq bo'lgan mafhum va tafsilotlarni kichik-kichik hikoyalar vositasida mahorat bilan ifodalanganini ko'ramiz” qabilidagi fikrlar qayd etiladi. Lekin, umumiy fikrlarga ko'ra, Rabg'uziy Islom dini tarixi asosida yaxlit asar (qissa) yaratgan. Asar nomidagi “qissa²⁴” atamasi nisbiydir. Chunki Rabg'uziygacha bo'lgan adabiyotda nasriy asarlar birgina shu atama bilan yuritilgan. Qolaversa, Olloh taolo olam va Odamni yaratishdan maqsadi o'z xalifasi qilib belgilagan Insonning boshqa xilqatlar orasida tutgan o'zni; insoniyat hayotining murakkab ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy ziddiyatlari, muammolari va ularning adib badiiy talqinidagi yechimlari rang-barang voqealar tasviri tizimida yoritilgan.

Bu qissani birgina Muhammad as. haqidagi badiiy asar sifatida ham baholash mumkin. Zero, qaysi payg'ambar haqidagi voqealar tasvirlanmasin, uning Muhammad as.ga aloqasi borligi yaqqol ko'rinib turadi. Jumladan, Is'hoq as.ning tug'ilishi voqeasidan quyidagi epizodni keltirish mumkin:

To'quz oy o'n kundan so'ng Is'hoq as. tug'di. Ul kecha ming yulduz Ibrohim payg'ambar tegrasinda yig'ildi. Ibrohim as. munajat qildi: Ilohiy, bu ne alomat turur? Yarl原因 keldi: Ey Ibrohim bu Is'hoq otlig' o'g'lungdin ming payg'ambar bo'lg'usi turur. Ibrohim sevindi, Mavlo taolog'a shukr qildi. Aydi: Ilohiy, Is'hoqg'a (as.) muni berding, Ismoilg'a (as.) ne karomat qilursen? Yarl原因 keldi: Ey Ibrohim, Ismoilni manga topshurg'il. Ismoildin bir payg'ambar zohir

²⁴ Asar nomidagi “qisas” so'zi arabcha “qissa” so'zining ko'pligi – qissalar ma'nosini anglatadi.

*qilg‘aymen, Muhammad otlig‘. Agar ul payg‘ambar bo‘lmasa erdi, hech payg‘ambar bo‘lmag‘ay erdi, sen ham bo‘lmag‘ay erding*²⁵.

Asarning London nusxasida bu so‘zlardan keyin *Qamug‘ini aning sevukluga uchun yaratdim* degan jumla ham bor. Demak, barcha payg‘ambarlar qissasi Muhammad as.ning payg‘ambarlik mohiyatini anglatishda vosita kabi xizmat qiladi.

Deyarli barcha ilmiy va o‘quv adabiyotlarida “Qisasi Rabg‘uziy” 72 qissadan tarkib topgani ta’kidlanadi. Aslida asarda Qur’oni Karim va Hadislarda zikr qilingan 25 payg‘ambar tilga olinadi va ularning qissalari hikoya qilinadi. Bu payg‘ambarlar davrlarida sodir bo‘lgan va arab hamda yahudiy xalqlari orasida keng tarqalgan voqealar ularning qissasiga adib talqinida alohida sarlavha bilan kiritiladi. Ularning har birini alohida qissa sifatida talqin qilish unchalik to‘g‘ri emas. Masalan, Chigirtka qissasi sarlavhasi ostida berilgan matnda chigirtka obrazi yo‘q. Umumiy matn orasida chigirtkalarining yeyilgani va ularning qirilib ketishi haqidagi hadisni eslatib o‘tish bor, xolos.

Qissalar hajmi ham turlicha: masalan, Yusuf haqidagi qissa salkam 100 sahifani tashkil qilsa, Lut haqidagi qissa bir necha sahifadagina iborat.

Asarda voqealar tasviri tizimini qisqacha quyidagicha mundarija asosida aks ettirish mumkin: qisqa muqaddima, osmonlar va yer, ularning qatlamlari ularda yashagan azaliy xilqatlar sifatleri; Odam as.ning yaratilishi, uning jannatga olib borilishi, u yerda Havvo bilan kechgan hayoti, shayton hiylasi, ularning jannatdan quvilishi, yer yuzidagi hayotlari, o‘g‘illari Qobil va Hobil orasidagi janjal va ilk qotillik, Odamning vafot etishi; Shis as. qissasi, hikoyat; Idris as. qissasi; Nuh as. qissasi; Avj ibn Unuq haqidagi hikoya; Hud as. qissasi; Ibrohim as.ning podshoh Namrud bilan munosabatlari, Namrudning Ollohga isyonkorligi, Zul-Arshi-l-malik bilan muloqoti, Ibrohim as.ning o‘g‘li Ismoil as.ning tug‘ilishi, uning qurbonlikka olib borilishi, Ka’baning bino qilinishi, yana bir o‘g‘li Ishoq as.ning tug‘ilishi, Ibrohim as. qo‘lida tirilgan qushlar so‘zi, Ibrohim as.ning vafoti; Lut as. qissasi; Ya’qub as. qissasi; Yusuf as. qissasi, Nosiruddin Rabg‘uziy Bahoriyoti, latifa, bayt,

²⁵ Parchani Qozon toshbosma nusxasidan oldik.

she'r, g'azal va hikoyatlar, Yusuf as.ning Zulayxo bilan qovushishi, jodugarlar so'zlarining yolg'onligi hikoyasi, Oysa hikoyasi; Muso as.ning Shomga borgani, odiylar sifati, Tavrotning nozil bo'lishi, Musoning ozorlanishi, Olloh diydorini tilagani, tuban Qorun hikoyasi, somiriylar hikoyasi, Bani Isroil tavbasi, Sigir bo'g'izlash hikoyasi, Muso va Xizr as.ning yuksaklik darajalari hikoyasi; Dovud as. qissasi, tobutning yaratilishi, tuban Jolut hikoyasi; Sulaymon as. qissasi, uning chumoli bilan so'zlashgani, Sulaymon as. kursisi sifati, Baytulmuqaddas sifati; Yunus as. qissasi; Ilyos as. qissasi, Xizr va Ilyos as.; Jirjis as. qissasi; Luqmon as. haqidagi hikoyatlar; Uzayr as. qissasi; Zakariyo, Yahyo, Maryam va Iso as. tavsiflari, Iso as.ning tug'ilishi, hikoyatlar; Zulqarnayn qissasi; as'hobu-l-kahf (g'ordagilar) hikoyasi; fil egalari hikoyasi; Muhammad rasululloh as. qissasi va payg'ambar yaqinlari hamda xalifalari haqidagi hikoyalar.

Binobarin, asar mavzu ko'lami ana shu mundarijaga muvofiq ravishda shakllanadi. Bunda birinchi va aytish mumkinki, asosiy mavzu inson omili, inson qadr-qimmatiga e'tibordir. Asarda *"Valaqad karramno bani Adama..."* ("Biz Odam avlodini mukarram qildik") oyati bosh g'oya qilib olingan va shu g'oya asar so'ngigacha rivojlantirib boriladi. Shu bilan birga kishilar va jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy nuqsonlarni bartaraf etish, barkamol inson tarbiyasi masalasi ham diqqat markazidan qochirilmaydi. Bunda tabiiy va ijtimoiy omillarning ta'sirlariga ham munosabat shakllantirib boriladi.

Odam as. qissasida yuqoridagi bosh g'oyaga muvofiq Odamga Yaratganning muhabbati, rahmati va izzat-ikromini tasvirlash bilan birga ma'naviy yuksalishda muhim bo'lgan insoniy muhabbat tuyg'usiga boshdanoq alohida sahifalar ajratadi. Muhabbat Odamni bezovta qiladi. Lekin bu bezovtalik yorug'likka, ko'ngil munavvarligiga intilish bezovtaligi edi. Qissaga zarb qilingan Qobil va Hobil hikoyasi Odam va Havvo muhabbatiga zid o'laroq uning ezgulik yo'lidagi ma'naviy mushtaraklik ekanini tushunmaslik oqibati aks ettiriladi. Adib birodarkushlikning insoniyat tomonidan hech qachon kechirmasligi, abadiy

la'natlanishi, hatto, birodarkush avlodlarining ham badnom va baxtsizlikka muhtalo bo'lishi kichik-kichik lavhalarda qayta-qayta qalamga olinadi.

Shis as. qissasida insonning eng zarur moddiy ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi harakatlariga tahsin g'oyasi yoritiladi. Idris as. qissasida jamiyat taraqqiyotida ta'limning ahamiyati uqtiriladi. Shuningdek, bu qissada har qanday jamiyat nuqson-gunohlardan xoli bo'lmasligi, agar farishta bo'lsa ham insoniyat jamiyatiga tushsa, bilib-bilmay gunoh, qabih ishlar bilan ham shug'ullanib qolishi mumkinligi, bundan najot faqat tarbiya ekani qiziqarli hikoya qilinadi.

Nuh as. qissasining qisqacha mazmuni olamning najotkori ham, halokati ham inson, uning ezgu va qabih qilmishlari ekani bilan izohlanishidan iborat. Unga zarb qilingan Avj ibn Unuq haqidagi hikoya ba'zi kimsalarning benihoya katta savlati, bemisl kuch-quvvati ham, uzoq umr ko'rishi ham jamiyatda hech qanday ahamiyat kasb etmasligi, balki zararli bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi.

Hud as. qissasida esa bir shaxs emas, butun jamiyatning qudrati qanchalik oshib, Eram bog'larini qurib unda istirohatlar qilmasin, ma'naviyat masalasini unutishga haqqi yo'qligi ta'kidlanadi. Shuningdek unda tabiatni mutlaqo bo'ysundirib olish mumkin emasligi ham uqtiriladi.

Solih as. qissasida jamiyatda avlodlar almashinuvi hech bir yo'l bilan boshqarilmaydigan jarayon ekani, u vaqt o'tishi bilan to'g'ri yo'lga solib turilmasa, bir vaqtlar fazilat hisoblangan xususiyatlar ham bora-bora gunohga aylanishi va oxir-oqibat halokatga sabab bo'lishi haqida so'zlanadi. Yangi avlodlar tomonidan ilgari surilayotgan ezgu g'oyalarni inobatga olish, kerak bo'lsa turmushga tatbiq qilish lozimligi; ezgu g'oyalar o'lmasligi, muayyan hududda qabul qilinmasa-da, yaqin-yovuqda uning tantanasi ko'rinishi talqini o'zining go'zal ifodasini topgan.

Boshqa qissalardagi kabi unda ham e'tiqodning nozik masala ekani uqtiriladi. Bu masala quyidagi qiziqarli voqea orqali eslatiladi: Hijozda Xanda ibn Umar ismli kishi maliklikka ko'tariladi. U o'zi uchun qizil oltindan, ko'zlari yoqutdan bir but yasatadi. Bu butning to'rt tomonida to'rtta yuzi bor edi. Biri odam, biri arslon, biri qush va biri ot suratli edi. U odamlarni bu butni ko'rish va unga sig'inish

uchun yig'iradi va to'rt tomondan kiritadi. Uni ko'rib chiqqan odamlarning har biri o'zlari ko'rgan tomon haqida so'zlab bahsga kirishib ketadilar. Bahslar janjalga aylanib, ko'p kishi qirilib ketadi. Xanda' odamlarga bu ishni dushman ham qilmasligini aytganda ular odamlarning janjaliga, to'qnashuviga sabab bo'luvchi butning aslo keragi yo'qligi haqida aytadilar. Unda yagona xalq bo'lib yashashning asosiy shartlaridan biri e'tiqod birligi ekani ta'kidlanadi.

Ibrohim as. qissasi hajman yirik, tarkiban murakkab bo'lib, o'zida bir necha mavzularni jamlaydi. Jumladan, haqiqat yo'liga qancha to'siq qo'yilmasin, uni yo'qotib bo'lmasligi (Ibrohimning o'tda yonmasligi), inson eng ulug' qadriyat ekani va uni qurbonlik qilish jaholat ekani (Ismoilning qurbolikka olib borilishi), saxovat, mehr-oqibat kabi bir qator mavzular ramziy voqealar orqali yoritiladi.

Qissalarda kasb va halol nasiba alohida ta'kidlanadi. Rabg'uziy halollikning ijtimoiy ahamiyatiga diqqat qaratayotgani masalaning podshoh-payg'ambar va Olloh o'rtasida ko'rilyotganida namoyon bo'ladi. Dovud haqdagi qissada shunday ibratli lavha bor: "Dovud yalavoch tunla o'zin belgusiz qilib ra'iyatlardan so'rar erdikim, podshoh sizning birla netak muomila qilur? Aytur erdilar: Yavloq odil turur. Bir kecha andog' so'zlayurda Mavlo taolo bir farishtani izdi, bir qurtqa (kampir) surati uza. Andin so'radi: Podshohingiz netak turur? teb. Qurtqa aydi: Yavloq odil turur, onchasi bor kishilar molin yeyur. Dovud duo qildi: "Iziyo, manga bir harf (kasb) o'gratgil. Aning birla qazg'achimni yeyayin. Xalq mani so'zlamasunlar". Mavlo taolo bir taqachilik sanoatin anga o'gratu berdi. Aymishlar, temur Dovud ilkinda mumtek yumshar erdi".

Bir gunoh ikkinchi gunohni boshlab keladi. Shuning uchun ularning birinchisiniyoq yaqinlashtirmaslik lozimligi, shuningdek, baxillik, ochko'zlik va badgumonlik eng tuban qilmishlardan ekani Qorun haqidagi hikoya orqali beriladi: *"Mavlo qudrati birla Qorun yetti tun-kun oltunchiliq qildi. Ganjlardan xazinalar o'rnatti. Tekma bir ganjga bir oltun kalid qildurdi. Kalidlar ko'p bo'ldi. Ko'tarmoq og'ir bo'ldi. Qachirg'a yukladilar, qachir ko'tarmadi"*, deyiladi. Shuncha boyligi bo'lsa ham, Qorunning ko'zi och edi. U boyligidan faqir

kishilarga nafaqa berishga baxillik qilar edi. Muso payg‘ambar Qorunga molidan muhtoj kishilarga nafaqa beirishni aytganda, u ko‘nmadi. Qorun Musodan qutulishni o‘yladi, payg‘ambarga tuhmat uyushtirdi: *“Bir kun Qorun bir Shamit otlig‘ arig‘ siz urag‘utga ming oltun berdi. Taqi aydi: “Borg‘il, Muso majlis tutar yerda xalq qoshida ayg‘il: “Ey Muso, sen o‘zgalarga o‘gut berursan. O‘zing maning birla tong otquncha nelar qilding, xamir ichting. Emdi kelib xalqg‘a ne o‘gutlar berursen”. “Shamit ming oltunni oldi, Musog‘a keldi. Ul ming oltunni kelturub Muso o‘nginda qo‘ydi.. taqi aydi:” Muni manga Qorun berdi. Borg‘il, Musog‘a bani Isroil qatinda mundog‘ tegil teb. Emdi keldim, tavba qildim”.*

Umuman, “Qisasi Rabg‘uziy”dagi har bir qissa yoki hikoya ulardagi majozlar hisobga olinib tahlil qilinsa, diniy va dunyoviy g‘oyalarning ajoyib ma‘rifiy mushtarakligini ko‘rish mumkin. Asarni ana shunday talqinda o‘rganish diniy materiallarning ham majoziy xususiyatlarini to‘g‘ri tushunishga imkon beradi.

Asarning badiiy xususiyatlari. “Qisasi Rabg‘uziy” turkiy epik janrlar shakllanishi va taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Bunda Rabg‘uziy tanlagan Qur‘oniy va diniy qissa, rivoyat va hikoyatlar – materiallarga muhim emas. Ular boshqa manbalar orqali ham o‘rganilishi mumkin edi. Gap shundaki, Rabg‘uziy o‘z davrining yetuk adibi sifatida badiiy adabiyotning asosiy tamoyillariga qat‘iy rioya qilib, mavjud materialni o‘z g‘oyalariga ko‘ra qayta talqin qildi. Bunda u o‘z davridagi badiiy adabiyot tamoyillarini yaxshi o‘zlashtirgani ko‘rinadi. Bu tamoyillar Haydar Xorazmiyning bir baytida yuksak ifodalangan:

So‘zda kerak ma‘niyu ma‘nida zavq,

So‘zlaguvchida so‘z uchun dardu shavq.

Yuqorida zikr etilganidek, “Qisas” kompozitsiyasi juda murakkab tizimga keltirilgan. Har biri (garchi ularda ba‘zi nuqsonlar bo‘lsa-da) alohida asardek tuyulgan zarbulmasal qissalar mantiqiy ma‘no ipiga tizilgan. Umumiy syujet yaxlitligi ta‘minlangan; zavq, dardli shavq asar ritmik tempi ta‘sirchanligini shakllantirgan.

Qissadan qissaga personajlar xarakterlari ham takomillashib boradi. Asar boshida Hobil sustkashligi, Qobil johil va o'jarligi bilangina ko'zga tashlansa, Ismoil haqiqat va jaholat yo'llarini yaxshi farqlaydi, haqiqat, ma'rifat yo'lida, Shayton qanchalik urinib yo'l to'smasin, jonini berishga tayyor sabot va matonatli, jasur shaxs sifatida gavdalanadi. Yusuf esa tush orqali kelajakni bashorat qilishga qodir aql-zakovatidan tashqari, xalqni qurg'oqchilik va qahatchilik balosidan qutqarib qolishga qodir, insonlarga najotbaxsh, ilhombaxsh go'zallik va donishmandlik maqomiga yetadi va h.

Boshqa diniy asarlarda, payg'ambarlar tarixlarida Ibrohim payg'ambarning Sora va Hojar ismli xotinlari orasidagi munosabatlar silliq kechadi. Hatto, ular birbirlariga mehribon g'amxo'r sifatida tasvirlanadi. Rabg'uziy ularning munosabatlarini real hayotga moslashtiradi. Rashkdan tug'yonga kelgan Sora va kundoshidan qo'rqib yuradigan Hojar xarakterlari anchayin jonli ishlangan.

Asarda bir nechta hayvonlar obrazi (tuya, kaptar, qaldirg'och, it, mushuk, sichqon, ilon, chumoli va h.) mavjud. Ular odamlar kabi so'zlaydilar. Bu majoziy timsollar muhim badiiy vazifani ham bajaradilar. Masalan, yer, osmon va suvdagi barcha maxluqotlar, dev va jinlar, hatto shamol ham mulk qilib berilgan Sulaymondek hukmdor va payg'ambar chumoli savol-javobida mot bo'ladi: ... *Sulaymon aydi: Andog' cherikingni naluk qochirding? (Qarinchqa – chumoli) aydi: Sening cheriking kecharda bilmayin bosqaylar. Ular halok bo'lg'aylar deb qochurdim. Sulaymon aydi: Sen naluk qaytmading? Aydi: Men bularning ulug'iman. Ulug' (kishilar) raiyatlarg'a mushfiq (bo'lmog'i) kerak. Balo kelmishda o'zini balog'a qarshu tutg'u kerak...*

Chumoli savol berishga izn so'raydi, ruxsat olgach savol bera boshlaydi: *Qarinchqa aydi:*

– *Mavlodin ne tilading?*

Sulaymon aydi:

– *Andog' mulk tiladimki, mandin o'zga kim ersada bo'lmasun.*

– Bu so‘z din hasad isi kelur – manga bo‘lgun, o‘zgalarga bo‘lmagun. Taqi ne tilading?

Sulaymon aydi:

– Yelni tiladimkim, manga musaxxar qildi, minib yururman. Asthardin Shomg‘a, Shomdin Astharg‘a bir oylik yo‘l turur. Kunda borurman ham kelurman.

Qarinchqa aydi:

– Ma‘nisi ul bo‘lur: sening ilkingdagi mulkning qamug‘i yel turur²⁶. Ani minguncha ma‘rifat markabini (ulov, tulporini) minsang, senga yaxshiroq bo‘lur. Ko‘z yumib ochquncha bir soatda²⁷ Arshg‘a tekkay eding...

Bunday jonli dialoglarga asarning juda ko‘p o‘rnidan joy beriladi. Ba‘zan ular ertaklardagi kabi qiziqarli tus oladi:

Solih payg‘ambarning onasi Zaum (Soxur)ning qush bilan suhbat quyidagicha: Zaum aydi:

– Sen ne qush turursan?

(Qush) aydi:

– Men quzg‘unman.

So‘rdi:

– Boshing naluk oqardi?

Aydi:

– Qobil Hobil(ni) o‘lturmakinga man sabab erdim. Mavlo taolo manga ne jazo bergusi, andin qo‘rqub boshim oqardi.

Aydi:

– Tumshuqing naluk sarig‘ turur?

Aydi:

– Ujmohda za‘farondin yedim.

Yana aydi:

– Ayoqlaring naluk yashil turur?

²⁶ Jumlaning mazmuni: Bu holning ma‘nosi shuki, qo‘lingdagi hamma mulking yel – o‘tkinchi, yo‘q bo‘luvchidir

²⁷ “Soat” so‘zi Rabg‘uziy davrida “lahza” ma‘nosini anglatgan.

Aydi:

– *Ming yil Tubo yig‘ochinda qo‘ndum.*

Yana aydi:

– *Qorning naluk qora turur?*

Aydi:

– *Bir kun tamug‘ (do‘zax) uzasindin kechar (uchib o‘tar) erdim, o‘t issig‘i mundog‘ qildi...*

Avj ibn Unuq timsoli xalq dostonlaridagi mubolag‘a bilan yaratilgan bahaybat insonlar qiyofasiga monand. Uning bo‘yi shu qadar uzunki, Nuh as. davridagi to‘fon uning tizasiga ham yetmaydi. Tog‘lar ustiga o‘tirib, dengiz suviga qo‘l solib katta baliqlarni tutadi va Quyoshga yaqin tutib pishirib yeydi.

Hikoya boshdan-adoq ertaksimon tasvir usulida yozilgan. Avj bir yosh qizni xotinlikka olmoqchi bo‘ladi va uni hech kim ko‘rmas balanlikdagi tosh ustiga yashirib qo‘yadi. Qiz bo‘y yetgach, u bilan birga bo‘la olmasligini bilsa-da, uni g‘orga yashirib, o‘zi uzoqlarda aylanib yuradi.

Qiz bir kuni bir yigitni ko‘rib, uni sevib qoladi. Yigit ham uni yaxshi ko‘radi. Ular bir-birlariga yeta olmay qiynaladilar. Yigitning ohu zorini eshitib qolgan kampir unga yordam bermoqchi bo‘ladi. Buning uchun unga bir sandiq yasatishni buyuradi. Yigit sandiq yasatib kelgach, uni sandiqqa solib o‘zi Avjning yo‘li ustida faryod chekib yig‘lay boshlaydi. Avj kampirdan yig‘isi boisini so‘raydi. Kampir o‘zida bir kishining omonati borligini, uni biror joyga qo‘ysa, o‘g‘irlatib qo‘yishidan xavotirda ekanligini aytib, Avjning uni o‘z uyida saqlab turishga ko‘ndiradi. Avj sandiqni uyiga olib boradi va o‘zi yana uzoqlarga ketadi. Yigit va qiz shu yo‘l bilan topishib, uchrashib turishadi. Avj bu holni sezib qolib, hammayoqni ostin-ustun qiladi.

Asarda bunday epizodlar bir necha o‘rinda uchraydi va bu voqealarning payg‘ambarlar tarixiga hech qanday aloqasi yo‘q. Avj haqidagi hikoyada faqat Muso as. unga duch kelib, shunday bahaybat maxluqni o‘z lashkari bilan o‘ldirgani

voqealarning qissaga ulanib ketishini ta'minlaydi. Binobarin, bunga o'xshash epizodlar asarning o'qilishli chiqishiga xizmat qiladi.

Asarda bahaybat odamlar timsoli ko'p. Ular muammoli vaziyatlarning ifodasi sifatida keltirilganini tushunish qiyin emas.

“Qisasi Rabg‘uziy”ning tili ham o‘z davrida juda ta’sirli bo‘lganiga shubha yo‘q. Unda qo‘llangan saj’ va xalq maqollariga mos jumlarlar asar badiiyati mukammalligini oshirgan. *Bu kitobni tuzgan, toat yo‘linda tizgan, ma’siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug‘, ko‘p yozuqlug‘...* bu yerda saj’lanuvchi so‘zlardagi z, g, q, g‘ harflari *rabg‘uz* so‘zidagi harflar bilan tovushlar hamohangligini ta’minlash uchun xizmat qildirilgan.

Asar uslubiga ko‘ra, ilohiy iqtiboslarga boy bo‘lib, adib ularni mahorat bilan, xalq og‘zaki ijodiga xos ko‘rinishga keltirib tarjima qiladi. Masalan, arabcha “Al-valadu fid-dunya sururun va fi-l-oxirati nurun” iborasi *O‘g‘ul-qiz go‘rga nur turur, ko‘zga surur...* tarzida havola qilingan. Bunday saj’li birikmalar asarning bir necha o‘rnida qo‘llangan.

“Qisas”ning ba’zi o‘rinlari xalq dostonlaridagi tasvir usuli va ritmni esga soladi: *Yana bir rivoyatda Zulayxo amoriy (tuyaga o‘rnatilgan o‘rindi)g‘a o‘lturub tamoshadin kelurda Yusufga yo‘luqdi, ko‘ngul isiqdi. Azizi Misrg‘a aydi: “Bu o‘g‘lonni sotg‘in olg‘il”. Aziz aydi: “Bizning molimiz yo‘q, baho tegurgaymiz”. Zulayxo aydi: “Bor molimizni beraling, kizlanchilarni beraling. Yetmasa, bo‘yumdaqi, quloqimdaqilarni chiqarib berayin”. Qulluq bog‘ bog‘langan bo‘yunga bo‘g‘moq ne kerak?! Ishq oyini birla inongan quloqqa oltun isirg‘a ne yarashur. Aziz aydi: “Ey Zulayxo, man malikdin vakil bo‘lub Yusufni malik uchun sotg‘in olg‘alu keldim. Sening uchun netak so‘zlayin?” Zulayxo aydi: “Man borayin, malikni ko‘rayin, dastur bersa Yusufni sotg‘in olayin”. Yorlig‘, Zulayxo kolobokdek o‘zin o‘tg‘a otdi, qul olur bo‘lub qulluqg‘a o‘zin sotdi. Yo‘li Yusufg‘a tushdi, yuzi ko‘rkluikka tushdi. Ol qildi (ovg‘a), olg‘a ilindi. Ko‘z birla ko‘rayin tedi, ko‘ngul oldurdi. Uzoqqa yugurur bo‘lub tuzoqg‘a yo‘rkashdi, yo‘l kecharda to‘lun oy ko‘rdi, bulun bo‘ldi. O‘gsiz bo‘lub otdin tushdi, chechaktek*

mengizi so'ldi, ag'loq yerga sovuldi, qiz qirqinlari birla qarshu o'lturub, un tuzub aytu boshladi...

“Qisasi Rabg‘uziy”da metafora, istiora, o‘xshatish kabi tasvir vositalaridan ham keng foydalanilgan: bu *xatolar to‘ning* qo‘zg‘il (qo‘ygin, yechgin). *Tuzulmish munchoq yibi uzulmishtek torilg‘ay.*

Rabg‘uziyni shoirlik mahorati. Nosiruddin Rabg‘uziy mahoratli nosirgina emas, nozikta‘b shoir hamdir. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi qissa va hikoyatlar orasida o‘nlab she‘rlar ham mavjud. Bu she‘rlarning aksariyati mazmun jihatidan payg‘ambarlar, sahobalar, payg‘ambar avlodlari va To‘qbug‘abek haqida, ularning madhlari ko‘rinishida bo‘lsa-da, ular shunchaki maddohlik nishonalari emas. Balki chinakam shoirning kechinmalari ifodasi, inson tuyg‘ulari va olam, hayot go‘zalligi tasvirlari ekani bilan ham qimmatga ega. Ular turli janrlar shakllarida yozilgan bo‘lib, turkiy she‘riyatning Rabg‘uziy davridagi bosqichini ilmiy tavsiflash uchun qimmatli material bo‘la oladi.

“Qisas” muqaddimasida Nosiruddin To‘qbug‘abek madhida yozilgan she‘r musallas (uchlik) shaklida bo‘lib, shoir nazmiy salohiyatini yaqqolroq anglash imkonini beradi:

*Ilhoq umul, tuzun qiliq,
Bilig arig‘ haddin chiqo,
Ko‘kdin adizrak himmati.*

*Mavrisi beklilik dinida,
So‘rar ani yulnub yaqo,
Qizg‘anchi uqbo milkati...*

*Tasbih ayurda xushlanib,
Injulanur yoshi oqo,
Eshtilsa Qur‘on oyati.*

*Erdamlari yavloq telim,
Tuz so‘zlayur so‘zni uqo,
Ortug‘ yarog‘lig‘ siyrati.*

*Rabdin ato bo‘lub anga,
Haq bermishi qutlug‘ baqo,
Ko‘rkluk sifatlig‘ suvrati.*

*Ezgu qiliq birla yurub,
Do‘st qizg‘anur, dushman biqo,
Ortur qamug‘din hurmati...*

*Yoshi kichik yo‘ni ulug‘,
Zoti arig‘ bek To‘qbug‘o,
Ul Nosiruddin kunyati...*

She‘r aruzning rajaz bahrida yozilgan (mustaf‘ilun, mustaf‘ilun). Qofiyalanish esa a-b-v, g-b-v, d-b-v, ye-b-v va h. tartibda amalga oshirilgan. She‘r qasidaning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, sodda va ayni paytda mukammal namunasi bo‘la oladi.

Nazm, she‘r yoki bayt sarlavhasi ostida kelgan kichik she‘rlar ham adibning shoirlik iqtidorini baholashda katta rol o‘ynaydi:

*Ko‘z ko‘rgani – jamol ul,
Sevmak ani halol ul.
Andog‘ jamol ko‘rubon,
Kim sevmasa, vabol ul.*

Yoki:

*Sabo esnayurda yig‘och bong solar,
Bulut yig‘layurda chechaklar kular.
Bu mundog‘ chechaklikda ko‘nglum bu kun*

Saning birla bo'lub ovunmoq tilar.

She'rlarda aruz qonuniyatlariga qat'iy amal qilinishi barobarida badiiy san'atlardan ham unumli foydalanilgan.

Asarning "Bahoriyoti mavloni Nosiruddin Rabg'uziy" faslida keltirilgan g'azal bu janr "navro'zi" – taraqqiyot yo'li boshlanganini ko'rsatadi:

Kun hamalga kirdi ersa keldi olam navro'zi,

Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi (muzi).

Bahorga nisbatan «olam navro'zi» ifodasi qo'llansa, qishga nisbatan "bahman" (ayoz, izg'irin) «zamharir» (qirovli, qahraton) sifatlashlari tanlangan. Keyingi baytlar bahorning xususiy jihatlarini tasvirlashni ko'zda tutadi:

Kun kelu ming ko'rki ortib tirilur o'lmish jahon,

Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi.

Dastlab dunyoning yangidan chiroy ochgani ("tirilur o'lmish jahon") qalamga olinadi.

Tasvirda jonlantirish, sifatlash va o'xshatishlar g'azalda asosiy o'rin tutadi. Muhimi, ularda Rabg'uziyning tasavvur kuchi va badiiy mahorati ochiq ko'rinadi. She'r oxirigacha optimizm – baland, ko'tarinki ruhda yozilgan.

Yorlig'i yopgun – bag'irdin obug'i yoshil, qizil,

Orasi butoq, yaburg'oq, tol chechaklar tub tuzi.

O'rlasa bulutlari gulchirar bog'-u bo'ston,

Tol yig'ochlar yeng solishur o'ynayurtek boy qizi²⁸...

Lola sag'roqin icharda sayrar usrub sanduvach,

Turna un tortib o'tarda sakrashur baqlan, qo'zi.

²⁸ Yuqoridagi baytning qofiyasi bo'lib kelgan so'z (boy qizi) asarning 1990 yilgi nashrida qo'y-qo'zi shaklida keltirilgan. U Qozon toshbosma nashrida biz ko'chirib yozgandek kelgan. Bizningcha, boshqa baytda "qo'zi" so'zi qofiyada qo'llangani va "tol (balandligi nazarda tutilgan) yig'ochlar yeng solish"ini qo'y-qo'zilarga o'xshatish maqsadga muvofiq emasligi "boy qizi" variantining to'g'riligini ko'rsatadi.

*Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qug'u, g'oz, qil, qarlug'och,
Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi.*

*Tol yig'ochlar minbarinda to'ti qush majlis tutar,
Qumri, bulbul muqri bo'lub un tuzar tun-kunduzi...*

*Huri ayn ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,
Yoz uza mundog' g'azallar aydi Nosir Rabg'uziy.*

O'zbek adabiyotidagi bu ilk g'azalda Rabg'uziy janrning barcha shakliy-badiiy talablari mukammal darajada rioya etgan. She'rning matla'sidan maqta'sigacha Navro'z ta'rif-tavsifi aks ettiriladi. *Navro'zi, buzi, yuzi, yozi, tuzi, qizi, juzi, qo'zi, qunduzi, kunduzi, yulduzi, Rabg'uziy* so'zlaridan tashkil topgan qofiyalar tizimi turkiy til tarovatini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lgan. Maqta'da ilk bor taxallus ishlatilgan g'azal ham xuddi shu g'azaldir.

Vazn ham o'ynoqi. G'azal uchun turkiy adabiyotda keyinchalik eng ko'p qo'llangan vaznlardan ramal vazni tanlab olingan: *foilotun foilotun foilotun foilun*.

Rabg'uziy zullisonayn shoir edi. Uning arab tilida yozgan she'rlari ham talaygina. Adib u yoki bu tilda alohida-alohida she'rlar yozish bilan birga arab va turkiy tillarda mulamma' ham yaratdi. Bunda muallifning mahorati shundaki, arabcha bayt qofiyasida qo'llangan so'zga turkiydan eng yaqin so'z axtarib topiladi va turkiy baytni go'zal qofiyasi ta'minlanadi:

*Yo sabohal-vajhi yo zav'u-n-nahora-l-mushtahar,
Anta ruhi vajhuka-l-maymunu shamsun am-qamar.*

*Elingiz chin to'lin oytek qinayur qirg'u qaroq,
Yuzungiz kundin yoruqroq ko'rkungiz kun yo qamar.*

*Tolati-l-ahzona dahran fa-l-habibu qad jafu,
Abduhu lam ya't bil-kufran yavman bal shakar.*

*La'lin ochsa yinjulardin to'klunur turluk latif,
Ul erinning totliqig'a qayda yetsun bol shakar...*

*Kullamo tolabtun minhu bi-intiholin qublatan,
Lam yuhibbu-l-absaba zoqa qalbiy va-n-kasar.*

*Rabg'uziy Nosir qo'rursa yuz o'vurmas ishqdin,
Bek necha bushub so'karsa qul qachon ko'nglin kesar.*

“Qisas” she’rlari orasida mushoara-aytishuvlar ham bor. Zulayxo va Yusuf oralarida bo‘lib o‘tgan mojaroli voqea el orasida ko‘p gap-so‘zlarga sabab bo‘ladi. Bunda ayollar ko‘proq Zulayxoni malomatga qoldiradilar. Shunda Zulayxo bir guruh ayollarni chorlab qo‘llariga sabzi, pichoq beradi va uni to‘g‘rashni buyuradi. Ayollar sabzi to‘g‘rashga tushganlarida Zulayxo Yusufni ular oldidan aylantirib o‘tishni buyuradi. Yusufni ko‘rgan ayollar hushlarini yo‘qotadilar. Rabg‘uziy olti ayol tilidan arab tilida baytlar yozadi va ularning turkiy tarjimasini ham keltiradi.

Birinchi ayol aytgan bayt tarjimasini:

*To'lin oyni ko'rsang tug'ar qo'miyur,
Arig' hurni ko'rdi ulash o'ynayur.*

Ikkinchi ayol aytgan bayt tarjimasini:

*Hamul oyni ko'rgan yag'iz yer uza,
Ayoqin yurirda ko'ngul bo'lg'ayur.*

Uchinchi ayol aytgan bayt tarjimasini:

*Adiz ko'kda oyni yaratti izi,
Bu kun ko'rsa oyga kelib tunayur.*

To'rtinchi ayol aytgan bayt tarjimasini:

*Tishilarni ovlar Misr elinda,
Tutub qiynayurda ko'zi qiynayur.*

Beshinchi ayol aytgan bayt tarjimasi:

*Bu o'g'lonni sotmish qarindoshlari,
Bu kuchni muhosib qachon sanayur.*

Oltinchi ayol aytgan bayt tarjimasi:

*Yalavoch urug'i uchun bu arig',
Aning muncha tenglik izi sinayur.*

Asarda bir necha arabiy she'rlar tarjimasi keltirilgan. Garchi ular muallif tomonidan tarjima deb atalsa-da, asl bilan ular o'rtasida fikriy yaqinligina saqlanib qolgan. Shaklan esa ular xuddi bir-birining ta'sirida yaratilgan ikki she'rdek taassurot uyg'otadi.

Rabg'uziy she'rlarini o'z davrining eng mukammal badiiyat namunalari sifatida e'tirof etishga asoslar yetarli. Uning "Xotimatu Qissas al-Rabg'uziy" qismida yozilgan she'r bu fikrni to'la tasdiqlaydi:

*O'sh bitidim bu kitobni, ey eranlar er bo'zi,
Bir yil ichra kechti oning yoyi, qish, yozu kuzi.*

*Uyqu buzdim, o'zim uzdum, so'zni tuzdim tun-la man,
Erta qo'ptum, xoma urdum, emgandim tun-kunduzi.*

*Bog' qo'pordim tol yig'ochliq yosh yaburg'oq ol chechak,
Yemishi hikmat, fazoyil oyat axbor yulduzi.*

*Qon qurittim, jon quvortim, kon chiqardim tosh qazib,
Sof qizil oltun sochiqlab bezadim bu yer yuzi.*

*Xotirim bokrini ektim parda ichra tugmatek.
Kizladim tekmalardin tegmasun teb yot ko 'zi...*

*Mohir eran mehri tushti mehrini bergan telim,
Mehri birla qoldi solim, yo 'q enginda to 'g' to 'zi.*

*Borib iztim Nosiruddin To 'qbug 'abek tapg 'ig 'a,
Tilayurmu, tilamasmu belguluk bilsun o 'zi.*

*Oyati axbor asli aning, o 'zining oti "Qisas",
Bosh-azoqg 'a tegru boqsang, tub yalavochlar so 'zi...*

*O 'zgalar ko 'p olamunchuq tuzdilar el tizginib,
Man guhar dur yinju tuzdum kezmadim yobon yozi.*

*Yetti yuz o 'n erdi yilg 'akim bitildi bu kitob,
Tug 'mish erdi ul o 'g 'urda hut sa 'odat yulduzi.*

*Kun tug 'ardin Kun botarg 'a koshki tegsa so 'zlarim,
Eshitgandin duo qo 'ldum miskin Nosir Rabg 'uziy.*

She'rda muallifning asar yozib bo'lingandan keyingi jo'shqin kayfiyati, mamnuniyati, ko'tarinki ruhi ifodalangan. Uni muallif faxriyasi sifatida qabul qilish mumkin. Undagi "eranlar er bo'zi"ga (demak, bu kitobni o'qiganlar eranlar er bo'zi bo'ladi) murojaat, bu katta ishning (uzoq muddatda emas) bir yilda amalga oshirilgani; kecha-kunduz tinmay harakat qilib ramziy ma'nodagi baland bo'yli yosh yaproqli, ol chechakli daraxtzor bog' yaratgani; sof qizil oltin sohib yer yuzini bezagani; o'zgalar bu ishga qo'l urib, olamunchuq tizgan bo'lsalar, o'zi gavhar, dur, injular tizgani xabarlarini aytish orqali o'quvchini shodmon kayfiyati

hududiga boshlab kiradi. O'quvchiga bunday kayfiyat yuqtirish bilan asarni tugatish ham adibning katta muvaffaqiyatidir.

“Qisasi Rabg‘uziy”ning ahamiyati. Asar, avvalo, mazkur davrning madaniy-estetik va adabiy-badiiy tamoyillari haqidagi tasavvurlarni; badiiy tafakkur darajasi hamda turkiy tilning lug‘at boyligi, grammatik strukturasi va boy imkoniyatlarini aks ettirgani bilan qadrlidir.

“Qisasi Rabg‘uziy”ni diniy tasavvurlar manbai sifatidagina baholash bilan cheklanish ilmiy mantiqqa ziddir. To‘g‘ri, asarda diniy materiallardan keng ko‘lamda foydalanilgan. Adibning bu harakatini diniy tafakkurning ustuvorligi bilan belgilab bo‘lmaydi. Chunki bu materiallar san‘atning juda ko‘p turlari uchun uzoq ishlangan obrazlar taqdim eta olishi bilan katta ahamiyatga ega. Jumladan, adabiyot ham jiddiy mavzularni yoritish va o‘ziga xos xarakterdagi obrazlarni yaratishda ulardan foydalanish yaxshi samara berishi “Qisasi Rabg‘uziy”da namoyon bo‘ldi.

“Qisasi Rabg‘uziy” o‘zida bir necha mavzularni mujassamlashtirgan bo‘lib, ularda insoniyat hayoti, tarixi, taqdiri va kelajagi masalalari o‘ziga xos ramziy-badiiy talqinlarda aks ettiriladi. Barkamol insonni tarbiyalashning muhim ma’naviy-axloqiy shartlari borasida hikoyalar qilinadi.

Shuningdek, “Qisasi Rabg‘uziy” XIV asr ijodkorining imkoniyatlarini ham namoyish qiladi. Unga ko‘ra, adabiyotimizda badiiy tafakkuri to‘la shakllangan, turmush muammolarini anglash va ularning yechimlariga doir xulosalarga ega ijodkor avlodi yetishib, adabiy taraqqiyot uchun xizmat qilganlar.

Asarni yaratishda turkiy xalq og‘zaki ijodi ta’siri ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, u o‘zining nasriy va nazmiy mumtoz durdona ekani bilan adabiyot tarixi, adabiy shakl va ma’no, umuman, adabiyot nazariyasi nuqtai nazaridan olib boriladigan tadqiqotlar uchun material bo‘lishi bilan ham ahamiyatli.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Turkologiya ilmda “Qisasi Rabg‘uziy”ni o‘rganilish tarixidan nimalarni bilasiz?
2. “Qisasi Rabg‘uziy”ning kompozitsion qurilishi haqida so‘zlab bering.
3. “Qisasi Rabg‘uziy” genezisini nimalarga bog‘liq deb hisoblaysiz?
4. Qissalardagi badiiy shakllangan obrazlarni aniqlang.
5. Yordamchi qissalarning asar kompozitsiyasidagi o‘rniga aniqlik kiriting.
6. “Qisasi Rabg‘uziy” nasridagi poetik xususiyatlarni tahlil qiling.
7. “Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy – yetuk shoir” mavzusida ilmiy maqola tayyorlang.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
Kirish.....	6
Adabiy merosni milliy mafkura asosida o‘rganish.....	15

ADABIY TASAVVUR VA BADIY TAFAKKURNING SHAKLLANISHI DAVRI

Qadim zamonlardan islomga qadar yaratilgan adabiy-madaniy yodgorliklar ..	22
O‘rxun-Enasoy bitiklari.....	81
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida qadimiy adabiy manbalar.....	102
Arab va fors tilidagi adabiyot	113

MUMTOZ DIDAKTIK BADIY IJOD, DOSTONCHILIK VA QISSACHILIKNING VUJUDGA KELISHI DAVRI

Yusuf Ulug‘ Xos Hojib va uning “Qutadg‘u Bilig” dostoni.....	126
Ahmad Yugnakiy.....	164
Ahmad Yassaviy.....	177
Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy.....	201